

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

Andijon muhandislik-iqtisodiyot instituti


“Moliya” kafedrası

QOBULOV H.A.

Moliya

fanidan

MA'RUZALAR KURSI



Andijon – 2009

Ma'ruzalar kursi bakalavriatning 340000-«Biznes va boshqaruv» ta'lim sohasidagi
5341700-«G'aznachilik ishi» ta'lim yo'nalishi uchun mo'ljallangan

Ma'ruzalar kursi OO'MTV tomonidan 2008-yil 23-avgustdagi 263-sonli buyrug'i bilan
tasdiqlangan va BD-409-4.01. raqam bilan ro'yxatga olingan fanning namunaviy o'quv dasturi
asosida tayyorlangan

Taqrizchilar:

Qodirov A.Q. - i.f.n., "Moliya" kafedrasi dotsenti, AndMII

Maxmudov S.S. - i.f.n., "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasi katta o'qituvchisi, AndMII

AndMII "Moliya" kafedrasining majlisida muhokama qilingan va tavsiya etilgan
(«__»_____ 2009-yil __-son bayonnoma)

Kafedra mudiri: _____ dots. M-A.X.Eshonov

"Moliya" fakulteti Kengashi tomonidan ma'qullangan
(2009-yil «__»_____dagi __-son majlis bayoni)

Kengash raisi: _____ dots. N.To'ychiboev

Institut O'quv-uslubiy kengashi tomonidan tasdiqlangan
(2009-yil «__»_____dagi __-son majlis bayoni)

O'quv-uslubiy kengash raisi: _____ dots. Xakimov A.

So‘z boshi

Ma'lumki, O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgach, qisqa vaqt ichida davlatchiligini, mustaqil moliya, kredit, sug'urta va boshqa sohalarni shakllantirish, ular vositasida murakkab xo'jalik va ijtimoiy jarayonlarni mohirlik bilan boshqarishni ham yo'lga qo'ya oldi.

Iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida moliya tizimining ahamiyati tobora ortib borishi moliya organlarining faoliyatiga talabni kuchaytirib yubormoqda. Bu moliya tizimining o'ziga xos tomonlari shundaki, turlicha mulk subyektlarining xo'jalik yuritishdagi teng huquqli munosabatlarini o'zida ifoda etadi.

Respublikamiz moliya tizimini rivojlantirishda bevosita iqtisodchi mutaxassislarning roli kattadir. Bo'lajak iqtisodchilarni oliy ta'lim muassasalarida olayotgan bilimlari orasida «Moliya» fanining alohida o'ziga xos o'rni mavjud bo'lib, bu fanni o'rganishda mazkur ma'ruzalar kursining yordami tegadi. Chunki, ma'ruzalar yo'nalishlar bo'yicha davlat standartlari va namunaviy o'quv dasturlari asosida qator chet el, ya'ni rivojlangan moliya tizimiga ega davlatlar iqtisodchilari tomonidan yaratilgan o'quv adabiyotlari, respublikamizning moliya munosabatlariga doir qonunchiligi, amaliyotda qo'llanilayotgan me'yoriy hujjatlar asosida va ulardan foydalanilgan, milliy istiqlol g'oyasi singdirilgan, kadrlar tayyorlash Milliy dasturi talablari o'rganilgan holda yozilgan.

«Moliya» fanidan ma'ruzalar kursi moliyaning mohiyati, vazifalari, moliya munosabatlarining turkumlari va boshqa jihatlarini o'rganishni qamrab oluvchi moliya nazariyasi va amaliyotining asosiy masalalarini yoritib beradi.

1-mavzu. Moliyaning mohiyati va funksiyalari /2 soat/**Reja**

- 1. Moliyani o'rganishning zarurligi**
- 2. Fanning maqsadi va vazifalari**
- 3. Moliyaning mohiyati va zarurligi**
- 4. Moliyaning funksiyalari**

1. Moliyani o'rganishning zarurligi

O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgach, qisqa vaqt ichida davlatchiligini, mustaqil moliya, kredit, sug'urta va boshqa sohalarini shakllantirish, ular vositasida murakkab xo'jalik va ijtimoiy jarayonlarni mohirlik bilan boshqarishni ham yo'lga qo'ya oldi.

Iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida moliya tizimining ahamiyati tobora ortib borishi moliya organlarining faoliyatiga talabni kuchaytirib yubormoqda. Moliya tizimining o'ziga xos tomonlari shundaki, turlicha mulk subyektlarining xo'jalik yuritishdagi teng huquqli munosabatlarini o'zida ifoda etadi.

Respublikamiz moliya tizimini rivojlantirishda bevosita iqtisodchi mutaxassislarning roli kattadir. Bo'lajak iqtisodchilarni oliy ta'lim muassasalarida olayotgan bilimlari orasida «Moliya» fanining alohida o'ziga xos o'rnini mavjud.

Moliyani o'rganish nima uchun muhim hisoblanadi? Bunga javobni quyidagicha berish mumkin:

- mamlakat moliya siyosatiga ta'sir ko'rsatuvchi, ongli fuqarolik qarorlarini qabul qilish uchun. Shuni unutmaslik kerakki, davlat budjeti – bu “sening budjeting” hamdir: partiyalarning siyosiy dasturlarini, budjet so'rovlarini, qabul qilinayotgan qarorlarni baholash bilan birga ular davlatning farovonligiga va aholining shaxsiy daromadlariga qanday ta'sir etishi to'g'risida o'z fikrlarini shakllantirmoq uchun;

- biznes dunyosidagi va davlat boshqaruvidagi muvaffaqiyatli faoliyat uchun;
- qiziqarli va foydali martabani (karrerani) ta'minlash uchun;
- shaxsiy daromadlar va jamg'armalarni samarali boshqara olishlik uchun;
- shaxsiy dunyoqarashni kengaytirish uchun.

2. Fanning maqsadi va vazifalari

Bozor munosabatlari sharoitida pul va moliya-kredit dastaklarining roli va ahamiyati sezilarli ravishda ortib boradi. Pul va moliya-kredit tizimi bozor mexanizmi samarali ishlayotgan asosiy iqtisodiyot tarmoqlaridan hisoblanadi.

«Moliya» fanini o'qitishning maqsadi - kelgusida yuqori malakali iqtisodchi-mutaxassislar bo'lib yetishadigan talabalar uchun O'zbekiston Respublikasi moliya tizimi haqida nazariy bilimlar berish, ularda iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida davlat moliya siyosatining yo'nalishlari bo'yicha asosiy ko'nikmalar hosil qilishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib fan o'z predmetini o'rgatish uchun quyidagi vazifalarni qo'yadi:

- moliyaning mohiyati, funksiyalari, tamoyillari va rolini o'rganish;
- moliya tizimi va uning bo'g'inlarini o'rganish;
- moliyani boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini o'rganish;
- mikro va makro darajada moliyaning amal qilishi xususiyatlarini o'rganish;
- iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida moliyadan foydalanish asoslarini yoritish;
- jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida moliyaning rolini yoritish va tahlil qilish.

Fanni o'rganish predmeti bo'lib O'zbekistonda moliya tizimi va moliya munosabatlari hisoblanadi.

Fanning asosiy maqsadi moliyaning funksiyalarini, moliyani boshqarishni, davlat va korxonalar moliyasini, xalqaro moliya va uning jahon taraqqiyotidagi o'rnini ochib berish va o'rganish hisoblanadi.

Korxonalar va davlatning sanab o'tilgan moliyaviy faoliyati sohalari bo'yicha olingan bilimlar bo'lajak moliyachilarga mavjud moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish masalalarini yuqori darajada yechish imkonini beradi. Mazkur fan "Davlat budjeti", "Solliqlar va soliqqa tortish", "Qimmatli qog'ozlar bozori", "Sug'urta ishi", "Moliyaviy menejment" va sh.k. fanlarni o'rganishda tayanch hisoblanadi.

Fan "G'aznachilik ishi" yo'nalishida III semestrda o'qitiladi.

3. Moliyaning mohiyati va zarurligi

Moliya va moliyaviy munosabatlarning vujudga kelish tarixi insoniyat tarixining tarkibiy qismi bo'lib, ming-yillar avval paydo bo'lgan. Qadimgi Bobil davlatida amal qilgan Xamurabi qonunlari yoki Qadimgi Hindistonning Manu qonunlarimi, Xitoy, Yunoniston yoki Turon, Rim imperiyasi qonunlarimi, baribir ularning barchasida soliqlar to'plash, davlat xazinasini hisob-kitobi kabi masalalar o'z aksini topgan. Ularda jamiyat hayotida mustahkam o'rin tutgan pul hisob-kitobi bilan bog'liq moliyaviy munosabatlarga katta ahamiyat berilgan. Chunki moliya sohasida, soliq-boj sohasida to'g'ri siyosat yuritilishi jamiyat taraqqiyotining muhim sharti bo'lgan.

Sohibqiron Amir Temur o'z Tuzuklarida: «Amr etdimki, raiyatdan mol-xiroj yig'ishda ularni og'ir ahvolga solishdan yoki mamlakatni qashshoqlikka tushirib qo'yishdan saqlanish kerak. Negaki, raiyatni xonavayron qilish davlat xazinasining kambag'allashishiga olib keladi» deya solliqlarning, moliyaning davlat va jamiyat hayotida muhim ahamiyatga egaligini ta'kidlab o'tgan.

"Moliya" iborasi XIII - XV asrlarda Italiyaning savdo shaharlarida paydo bo'lib, avvaliga har qanday pul to'lovini bildirgan. Keyinchalik bu ibora qandaydir jarayonni, subyektlar o'rtasidagi munosabatlarni, aniqrog'i, pul munosabatlarini bildirgan va xalqaro ko'lamga yoyilgan, lekin uni ishlatish sohasi umumdavlat pul fondlariga pul to'lovlari bilangina chegaralangan.

XVII-XVIII asrlarda Yevropada sanoatning rivojlanishi, fan-texnika sohasidagi inqiloblar, buyuk jug'rofiy kashfiyotlar, mamlakatlar va xalqlar o'rtasidagi turli aloqalarning kengayishi o'rta asrlardagi yirik yer egalari, qirollar, sultonlar va ularga qaram bo'lgan dehqonlar o'rniga jamiyat sahnasiga savdogarlar, fabrikantlar, bankirlarning kelishiga, davlat hayotida hisob-kitob va moliyaviy ishlar ahamiyatining keskin oshib ketishiga sabab bo'ldi. Iqtisodiy va moliyaviy munosabatlarning avj olishi kapitalistik davlatlarga moliyaviy munosabatlardan siyosiy maqsadlarda foydalanish, soliq, boj, kredit kabi vositalar yordamida ichki va tashqi siyosatda muayyan muvaffaqiyatlarga erishish imkonini yaratdi. XVII-XVIII asrlarda taraqqiy etgan davlatlarda jamiyatni boshqarish sohasidagi qudratli ma'muriy-buyruqbozlik tizimlarining vujudga kelishida (Shvetsiya, Avstriya, Prussiya, Rossiya kabi) katta o'rin tutdi. Bunday ma'muriy-boshqaruv tizimining vujudga kelishi ulkan amaldorlar guruhi va yirik qurolli kuchlarni saqlab turish zaruratini vujudga keltirdi, bu esa oqibatda davlat xarajatlarini keskin oshirib yubordi. Bunday sharoitda davlat moliyaviy tizimlarini vujudga keltirish, ularning bir maromda ishlashini ta'minlovchi qoidalarni yaratish, jamiyat moliyaviy faoliyati tamoyillarini ishlab chiqish dolzarb muammolardan bo'lib qoldi. Shu davrga kelib samarali moliya va soliq siyosati yuritish har bir davlat uchun muhim ahamiyat kasb etdi. Chunki Rim imperatori Tiberiy ta'biri bilan aytganda: «Soliq to'lovchilar - junini oldirishni istovchi, lekin terilarini shilib olinishiga qarshi bo'lgan qo'ylar singari bo'lib, me'yordan oshish har qanday davlatni taraqqiyotga emas, balki tanazzulga olib kelishi mumkin». Shunday sharoitlar tufayli moliya va moliyaviy munosabatlarga oid ko'plab ilmiy va adabiy asarlar yuzaga keldi. Mashhur shotland iqtisodchisi Adam Smit «Xalqlar boyligining tabiati va sabablari haqida tadqiqot» asarida moliyaning davlat va jamiyat hayotidagi yuksak ahamiyatini ko'rsatib berdi.

Fan-texnika ulkan yutuqlarga erishgan, ishlab chiqarish yuksak rivojlangan, jamiyatni idora qilishda davlat muhim o‘rin tutgan bizning davrimizga kelib moliya va moliyaviy munosabatlar tarixiy taraqqiyotning eng muhim omillaridan biriga aylandi. Davlat moliyaviy mexanizmlar yordamida ishlab chiqarishni, iqtisodiy hayotni, fan-texnika taraqqiyotini, madaniyatni, ijtimoiy ehtiyojni qondirish masalalarini, davlat va jamiyat xavfsizligini ta’minlash sohalarini samarali tartibga solmoqda. Har qanday davlatda moliya va moliyaviy salohiyat norasmiy hokimiyat bo‘lib, uning yordamida muayyan ichki va tashqi siyosat amalga oshirilishi mumkin.

Moliya va moliyaviy tizimlar har qanday davlatga mablag‘larni soliqlar, boj va boshqa yig‘imlar tarzida fuqarolardan yig‘ib olish, bir joyga to‘plash hamda ulardan ko‘zlangan maqsadga muvofiq foydalanish imkonini beradi. Shu yo‘l bilan davlat apparatining bir maromda ishlashi, mamlakatning samarali mudofaa qudrati, insonparvarlik sohalarining rivoji, jamiyatning kam ta’minlangan va yordamga muhtoj bo‘lgan tabaqalarining ijtimoiy jihatdan himoyalaniishi ta’minlanadi, iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishlarini tezroq rivojlantirish choralari ko‘riladi.

Shunday qilib, moliyaning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

1. *Pul munosabatlari, ya’ni pul moliyani mavjud bo‘lishi va amal qilinishini moddiy asosi hisoblanadi (pul yo‘q joyda moliya bo‘lmaydi).*

2. *Islohotlarning bosh tashkilotchisi bo‘lmish davlatning mavjudligi.*

3. *Pul munosabatlari jarayonida umumdavlat pul fondlarini shakllanish jarayoni amalga oshiriladi. Aytish mumkinki, moliyaning alohida belgisi uning fondli xarakteridir.*

4. *Budjetga mablag‘larning doimiy tushishi soliqlar, yig‘imlar va boshqa to‘lovlar davlatning majburiy tazyiqi xususiyatini o‘z-o‘zidan bermaydi va bu holat davlatning huquqiy-me’yoriy asoslarini yaratishga qaratilgan ijodiy faoliyati vositasida hamda bunga xos fiskal apparatning yaratilishi bilan ta’minlanadi.*

Mazkur belgilar bo‘yicha moliyani barcha pul munosabatlari yig‘indisidan xatosiz ajratib olish mumkin. Misol uchun, fuqarolar o‘rtasida, fuqarolar va chakana savdo o‘rtasidagi (hattoki, chakana narxlarni davlat tomonidan tartibga solish sharoitida ham) yuzaga keladigan pul munosabatlarini “moliya” deb bo‘lmaydi, chunki bu yerda davlat pul munosabatlarini fuqarolik-huquqiy usul bilan tartibga soladi.

Pul munosabatlarining boshqa guruhi - bu jismoniy shaxslar tomonidan daromad solig‘i to‘lash. Bu yerda moliyaning barcha belgilari aniq ishtirok etadi: soliqni to‘lanishi pul shaklida amalga oshiriladi; ikkita teng huquqli bo‘lmagan subyektlar ishtirok etadi (jismoniy shaxs va davlat); davlat mazkur munosabatlarning barcha elementlarini aniqlab beradi, ularni qonun ko‘rinishida rasmiylashtiradi, nazoratni amalga oshiradi, qonunbuzarlik uchun jazolar belgilaydi. Mazkur to‘lovlar natijasi umumdavlat pul fondi - davlat budjetining daromadlar qismi shakllanadi.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, moliyaga birinchi ta’rifni quyidagicha berish mumkin:

Moliya bu davlat tomonidan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy masalalarni bajarish uchun mo‘ljallangan umumdavlat pul fondlarini shakllantirish va ishlatish jarayonida yuzaga keladigan pul munosabatlari yig‘indisidir.

Moliya vujudga kelishining birlamchi asoslari qanday? Axir bungacha ancha oldin insoniyat pulga, davlat tuzilmasiga ega ediku. Nima uchun faqatgina o‘rta asrlarga kelib mazkur holat va uni aks ettiruvchi ibora yuzaga keldi?

1. Aynan Markaziy Yevropada birinchi burjua inqiloblari natijasida umumdavlat pul mablag‘lari fondi - budjet yuzaga keldi, hech qaysi davlat hukmdori unga yolg‘iz o‘zi xo‘jayinlik qila olmaydi.

2. Budjetni shakllantirish va ishlatish tizimi alohida xususiyat kasb eta boshladi, ya’ni davlat daromadlari va xarajatlari tizimi tarkibiy va qonuniy birikmalari bilan yuzaga keldi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, budjetning xarajatlar qismi asosiy guruhlari bir necha yuz-yilliklar deyarli o‘zgarmay keldi. O‘sha davridayoq xarajatlarni to‘rtta yo‘nalishi belgilangan edi: harbiy maqsadlarga, boshqaruvga, iqtisodiyotga, ijtimoiy zaruriyatlarga. Davlat xarajatlaridagi tarkibiy o‘zgarishlar XX asrning ikkinchi yarmida yuz berdi. Ular ba’zi G‘arbiy Yevropa mamlakatlarining

harbiy xarajatlarni sezilarli qisqartirib, ijtimoiy maqsadlarga, iqtisodiyotga xarajatlar qilishga ko'proq e'tibor berganliklarida namoyon bo'ladi.

3. Pul shaklidagi soliqlar birmuncha afzal xususiyat kasb etdilar. Avvalgi davlat daromadlari, asosan, natural to'lov va in'omlar hisobiga shakllangan.

Shunday yo'sinda, davlatchilik va pul munosabatlarining faqat zarur bosqichida yaratilgan mahsulotni qiymat ko'rinishida taqsimlash imkoni tug'ildi.

Taqsimlash jarayonlari - jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarning bir qismi hisoblanadi. Moliya ham iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. U qiymat harakatining muhim shakllari yordamida davlat pul fondlarini shakllantirish va ishlatishda namoyon bo'ladi.

Har qanday davlatning pul daromadlari va fondlarining asosiy moddiy manbai yalpi ichki mahsulot va uning asosiy qismi - milliy daromad hisoblanadi. Moliya yordamida uning taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi amalga oshiriladi, shu bilan ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'molga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir o'tkaziladi.

Moliya shu bilan birga tarixiy kategoriya ham hisoblanadi. U o'zining paydo bo'lish, rivojlanish bosqichlariga ega, ya'ni vaqt o'tishi bilan o'zgarib boradi. Moliyaning rivojlanishini ikkita asosiy bosqichga bo'lish mumkin.

Birinchi bosqich - moliyaning rivojlanmagan shakli. U birinchidan, moliyaning noishlab chiqarish xususiyati bilan xarakterlanadi, ya'ni asosiy qismi (2G'3 qism budjet) harbiy maqsadlarga sarflangan va deyarli moliya iqtisodiyotga hech qanday ta'sir o'tkazmagan. Ikkinchidan, bir bo'g'indan tashkil topgan budjet va moliyaviy munosabatlarni chegaralash miqdoridan, ya'ni moliya tizimi qisqaligi va keng qamrovli emasligidan. Ularning barchasi budjetni shakllantirish va ishlatish bilan bog'liq bo'ladi. Tovar-pul munosabatlarining, davlatchilikning rivojlanishi bilan umudavlat pul fondiga va shunga mos ravishda, ularni shakllantirish va ishlatish bo'yicha pul munosabatlarining yangi guruhiga zarurat paydo bo'ldi. Hozirgi vaqtda moliya munosabatlari siyosiy va iqtisodiy tuzumning darajasidan qat'iy nazar o'z rivojlanishining ikkinchi bosqichiga o'tdi. Bu bosqich moliya tizimining ko'p bo'g'inligi, uni iqtisodiyotga ta'sir darajasining yuqoriligi va moliyaviy munosabatlarning turli-tumanligi bilan xususiyatlanadi.

Davlat moliyasi bilan bir qatorda mahalliy moliyalar, budjetdan tashqari fondlar, davlat korxonalari moliyasi rivoj topdi. Davlatlar hamjamiyatlari moliyasi kabi yangi moliyaviy munosabatlar sohasi paydo bo'ldi. Misol uchun, Yevropa hamjamiyati mamlakatlari qishloq xo'jaligini moliyalashtirish, mazkur davlatlarning alohida rejalarida integratsion jarayonlarning salbiy oqibatlarini bartaraf qilishga ishlatiladigan davlatlararo pul fondlarini tashkil qildilar. Moliya munosabatlarining yangi sohalaridan biri xususiy transmilliy korporatsiyalar moliyasidir.

Pul fondlari va shunga mos ravishda ularga tegishli moliyaviy munosabatlarning turlichaligi ularni darajalarga bo'lishni asoslaydi. Umumdavlat pul fondlari markazlashgan pul fondlari hisoblanadi, qolgan barchalari esa - markazlashmagan pul fondlaridir. Markazlashgan fondlar hisobidan jamiyatning makrodarajadagi masalalarini hal etilishi ta'minlanadi. Bu, avvalo, umumdavlat ahamiyatidagi ehtiyojlarni ta'minlashga, mamlakat mudofaasiga markaziy davlat va boshqaruv organlarining saqlashga, milliy ahamiyatga ega bo'lgan xalq xo'jaligi tarmoqlarini qo'llab-quvvatlashga, alohida hududlarning ijtimoiy, iqtisodiy va rivojlanish darajalarini tenglashtirishga, atrof-muhit muhofazasiga, fundamental izlanishlar va fan-texnika progressini qo'llab-quvvatlashga safarbar etiladi.

Bularning barchasi, moliyaning mazkur bosqichda ijtimoiy takror ishlab chiqarish elementlari - moddiy boyliklar, ishchi kuchi va ishlab chiqarish munosabatlarini takror ishlab chiqarishga ta'sir qilishining muhim qurollaridan biriga aylanishini isbotlaydi.

Konkret iqtisodiy va siyosiy sharoitlar, davlatning roli va tabiatiga bog'liq holda moliya deyarli bir xil institutlarga ega holda, ko'pincha sifat jihatidan turli mazmunga ega bo'ladi. Misol uchun, yaqin vaqtgacha dunyoda ikki siyosiy va iqtisodiy tizim amal qilib keldi. Hozirgi kunda esa, fan-texnika taraqqiyoti davlatlarni taraqqiyot darajasiga ko'ra farqlanishini keltirib chiqardi. Yuqoridagi aytilganlardan kelib-chiqib, moliyaga yana ham kengroq ta'rif berish mumkin.

Moliya - bu davlatning o'z vazifa, funksiyalarini bajarish va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish sharoitlarini ta'minlash maqsadida markazlashgan va markazlashmagan pul

fondlarini shakllantirish jarayonida yuzaga keladigan, davlat tomonidan tashkil qilinadigan pul munosabatlari yig'indisidir.

4. Moliyaning funksiyalari

Moliya o'z mohiyatiga ko'ra iqtisodiy kategoriya bo'lib, hozirda ijtimoiy-siyosiy tuzumi turlicha bo'lgan davlatlar tomonidan birdek foydalanilmoqda. Bu kategoriya boshqa iqtisodiy kategoriyalar (pul, foyda, tannarx, qiymat, kredit va h.k.) kabi jamiyatdagi ma'lum munosabatlar, mehnat mezon va iste'mol me'yori, ishlab chiqarishni rag'batlantirish, milliy daromadni taqsimlash kabi munosabatlarning mohiyatini ifodalaydi.

Moliyaning mavjudligi, eng avvalo, jamiyatda tovar-pul munosabatlarining mavjudligi bilan bog'liq. Moliya munosabatlarining rivojlanishi jamiyatdagi mehnat taqsimoti, mulkchilik shakllari, xo'jalik yurituvchi subyektlarning tashkiliy-huquqiy faoliyatining iqtisodiy jihatdan alohidaligi hamda tashqi iqtisodiy aloqalar bilan ham bog'liqdir. Milliy daromadning taqsimlanishi pul shaklida amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida hamda boshqa qonunlarda mulkchilikning turli shakllarida bo'lishining mustahkamlanishi, tovar-pul munosabatlarining yanada rivojlanishi hamda bozor mexanizmining takomillashuviga olib keladi.

Lekin pul moliya munosabatlarining barcha tomonlarini o'z ichiga olmaydi. Moliya munosabatlarining mavzusi, asosan, davlat hamda korxonalarning pul fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish masalalaridan tashkil topadi. Shuning uchun ham moliyaning rivojlanishi davlatning rivojlanishi va uning zaxiralarga bo'lgan ehtiyoji bilan bevosita bog'liqdir.

Moliyaning mohiyati, uning iqtisodiy kategoriya sifati ijtimoiy munosabatlar orqali ko'rinib, o'ziga xos vazifani bajaradi.

Davlat hamda korxona va tashkilotlarning kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun zarur bo'lgan pul mablag'laridan davlat fondini tashkil qilish, taqsimlash va iste'mol qilish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy munosabatlar jarayonida ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish ustidan nazorat va ijtimoiy mahsulotning taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi sodir bo'ladi.

Moliyaning mohiyati uning funksiyalarida namoyon bo'ladi.

Funksiya obyekt ichki mohiyatining konkret shaklini namoyon bo'lish jarayonidir.

Moliyaning funksiyalari yuzasidan iqtisodchi olimlarning o'rtasida qator baxsli holatlar mavjud.

Bir qator taniqli moliyachilar moliyaning 3 ta funksiyasi mavjudligini e'tirof etishadi.

A.M.Birman moliyaning quyidagi funksiyalari mavjudligini e'tirof etadi:

1. Xo'jalik yuritish jarayonini pul mablag'lari bilan ta'minlash
2. Nazorat
3. Taqsimlash

A.M.Aleksandrov va E.A.Voznesenskiy tasdiqlaydiki, moliya quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Pul fondlarini shakllantirish
2. Shakllantirilgan pul fondlaridan foydalanish
3. Nazorat

I.T.Balabanovning fikriga ko'ra bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaning taqsimlash funksiyasi o'zining mazmunini yo'qotadi.

Iqtisodchi V.M.Rodionovning fikriga ko'ra, moliya taqsimlash va nazorat funksiyalarni bajaradi.

Hozirgi sharoitda O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar moliyaning *taqsimlash* va *nazorat* funksiyalarini bajarishini e'tirof etishadi.

Iqtisodiy subyektlarning asosiy maqsadi foyda olish hisoblanadi.

Foyda markazlashtirilmagan pul fondlarining asosiy moliyaviy manbai hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mulkchilikning ko‘p ukladli shakllarini paydo bo‘lishi va bozor iqtisodiyotining amal qilishi to‘liq iqtisodiy mustaqillikni ta‘minlovchi demokratik tizimni shakllantirishni obyektiv zarur qilib qo‘yadi. Bunday sharoitda iqtisodiy subyektlar faoliyatining moliyaviy natijalari, ya‘ni tadbirkorlik foydasini taqsimlash ular tomonidan qabul qilinadigan moliyaviy qarorlarga bog‘liqdir.

Savol tug‘iladi. Turli darajadagi ko‘p sonli fondlarni shakllantirishning asosiy moliyaviy manbalari nima hisoblanadi?

Albatta bunda makrodarajada *Yalpi ichki mahsulot*. Yalpi ichki mahsulotni taqsimlash jarayoni turli xil moliyaviy dastaklar: *me‘yorlar, stavkalar, tariflar, ajratmalar va boshqa moliyaviy dastaklar* vositasida amalga oshiriladi.

Mikrodarajada esa, uning manbai korxonalar *pul daromadlari* va *jamg‘armalari* hisoblanadi.

Jamiyat taraqqiyotining turli ijtimoiy-iqtisodiy bosqichlarida, turli moliyaviy tizimlar amal qiladi, ba‘zi hollarda mavjud iqtisodiy munosabatlarni muvaffaqiyatli obyektiv namoyon qiladi, boshqa hollarda esa, muvaffaqiyatsizroq, biroq moliya har doim **taqsimlash** funksiyasini bajaradi.

Moliyaning boshqa muhim funksiyasi nazoratdir. U taqsimlash funksiyasi bilan uzviy bog‘liqdir. Moliya munosabatlarining turli tarkibi orasida pul fondlarining shakllanishi va ishlatilishi nazorati bilan bog‘liq bo‘lmagan birorta ham munosabat yo‘qdir. Shu bilan birga faqatgina nazorat bilan bog‘liq bo‘lgan moliyaviy munosabat ham yo‘q.

Moliya ijtimoiy mahsulot va milliy daromadni shakllantirish, taqsimlash va ishlatishning barcha bosqichlarida nazoratni amalga oshiradi. Nazoratni bosh maqsadi ijtimoiy ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, xalq xo‘jaligining barcha bo‘g‘inlarida ishning sifatini yaxshilash maqsadida markazlashgan va markazlashmagan pul fondlaridan oqilona foydalanishga erishishdir.

Moliyaning **nazorat** funksiyasi korxonalarni barcha xo‘jalik faoliyatlarida namoyon bo‘ladi. So‘m orqali nazorat qilish ishlab chiqarish va noishlab chiqarish xarajatlari ustidan, bu xarajatlarning daromadlarga mos kelishi ustidan, asosiy fondlar va aylanma mablag‘larning shakllanishi va ishlatilishi ustidan amalga oshiriladi. Mazkur nazorat mablag‘lar aylanishining barcha bosqichlarida - moliyalashtirish va kreditlashtirishda, naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishda, budjet va moliya tizimining boshqa bo‘g‘inlari bilan o‘zaro aloqalarda amal qiladi. So‘m orqali nazorat yordamida mahsulot realizatsiyasi jarayoniga, shartnoma bo‘yicha shartlarni bajarilishiga, rentabellikka, foydaga, fond qiymatiga, aylanma mablag‘lar aylanishiga ta‘sir o‘tkazadi.

Shunday qilib so‘m orqali nazorat daromadlar o‘lishini, mablag‘lar va moddiy boyliklar oqilona sarflanishini rag‘batlantiradi, korxonalarni kamchiliklarni bartaraf etishga, xo‘jalik faoliyatini yaxshilashga, uning samaradorligini oshirishga, xo‘jasizlik va isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaslikka majbur qiladi. So‘m orqali nazoratning muhim xususiyati shunda namoyon bo‘ladiki, u mablag‘lar kelib tushishi va ishlatilishi jarayonida uzluksiz davom etadi va maxsus tekshiruv hamda kuzatishlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lmay, mustaqil ahamiyat kasb etadi.

Moliyaning nazorat funksiyasi obyekt — korxonalar, tashkilotlar, muassasalar faoliyatining moliyaviy ko‘rsatkichlari hisoblanadi. Moliyaviy nazoratning samaradorligini oshirish ko‘proq korxonada bosh hisobchi, moliya bo‘limlarining xodimlari ishni qay darajada yo‘lga qo‘yilganligini, moliyaviy axborotning haqqoniyligini, moliyaviy intizomga rioya qilishni, buxgalteriya hisobi hisobotini to‘g‘ri yuritishga bog‘liqdir. Faqatgina shunday sharoitlarda moliyaviy nazoratning natijalari xalq xo‘jaligidagi holatni tahlil qilish va obyektiv baholash hamda takror ishlab chiqarish jarayoni borishini muvofiqlashtirishga qaratilgan qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Nazorat savollari.

- 1. Moliya ilmi nimani o‘rganadi?**
- 2. Moliyani o‘rganishning zarurligi nimada?**
- 3. Moliyani o‘qitishdan maqsad nima hisoblanadi?**
- 4. Moliyani o‘rganish predmeti nima hisoblanadi?**
- 5. Kursning asosiy vazifalari nimalardan iborat?**
- 6. “Moliya” tushunchasi qanday munosabatlarni bildiradi?**
- 7. Moliya kategoriyasining rivojlanish tarixini tushuntirib bering.**
- 8. Moliyaning asosiy belgilari nimalardan iborat?**
- 9. Moliyaga qanday ta’riflar berish mumkin?**
- 10. Moliyaning rivojlanishini qanday bosqichlarga bo‘lish mumkin?**
- 11. Moliyaning obyektiv zarurligi nimadan iborat?**
- 12. Moliya qanday funksiyalarni bajaradi?**
- 13. Moliyaning nazorat funksiyasi obyekti nimalar hisoblanadi?**

2-mavzu. Moliya siyosati, mexanizmi va tizimi /4 soat/**1-ma'ruza. Moliya tizimi****Reja**

- 1. Moliya tizimi haqida tushuncha**
- 2. Moliya tizimining bo'g'inlari**

1. Moliya tizimi haqida tushuncha

Ijtimoiy ishlab chiqarishning turli sharoitlarida moliyaning rivojlanish qonuniyatini tahlil qilish moliyaviy munosabatlarning mohiyatida umumiy belgilar mavjudligidan guvohlik beradi. Bu moliyani amal qilishining obyektiv sabablari va shartlarini saqlanib qolingani bilan ta'riflanadi. Bularning orasida ikkitasi ajralib turadi: tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi va bu munosabatlarning subyekti sifatida davlatning amal qilishi. Boshqa qiymat kategoriyalaridan farqli ravishda (misol uchun pul, kredit, mehnatga haq to'lash fondi va boshqalar) moliya davlatning amal qilishi bilan organik bog'liqdir.

Biroq, barcha moliyaviy munosabatlar mohiyatidagi umumiy belgilarning mavjudligi ular o'rtasidagi ma'lum farqlarni rad etmaydi.

Moliyaviy munosabatlar davlat faoliyati natijasida emas, balki ijtimoiy ehtiyojlar tufayli yuzaga keladi. Davlat faoliyati emas, balki, aynan, ijtimoiy shart-sharoitlar moliyaning amal qilishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Moliyaviy munosabatlarning paydo bo'lishida davlatning rolini bo'rtirib ko'rsatish nazariy jihatdan to'g'ri bo'lmaydi, aksincha amalda, agarda xo'jalik yuritishning real shart-sharoitlari hisobga olinmasa, zarar qilishi mumkin.

Moliya – xo'jalik yuritishning barcha darajalaridagi ijtimoiy takror ishlab chiqarishning ajralmas elementidir. Ularning har ikkalasi quyi bo'g'in hisoblanmish korxonalar (tashkilotlar, muassasalar), tarmoqlararo birlashmalar (assotsiatsiyalar, konsernlar) va xalq xo'jaligini boshqarishning davlat tizimlari uchun bir xil darajada muhimdir. Moliyasiz ishlab chiqarish fondlarini kengaytirilgan asosda, yakka tartibda va ijtimoiy doiraviy aylanishini ta'minlash, iqtisodiyotning tarmoq va hududiy tuzilmalarini tartibga solish, fan-texnika yutuqlarini joriy qilishni rag'batlantirish, boshqa ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish mumkin emas.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar va davlatni ijtimoiy ehtiyojlarining turlichaligi turli ko'rinishdagi moliyaviy munosabatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Ular bir-birlaridan farq qilish bilan bir vaqtda ayrim umumiy jihatlari bilan xarakterlanadilar. Bu esa, ularni alohida guruhlariga birlashtirish imkonini beradi. Moliyaviy munosabatlarni turlicha guruhlashtirish mumkin, lekin faqatgina obyektiv kriteriylari bo'yicha guruhlanishi ilmiy asoslangan hisoblanadi.

"Tizim" iborasi so'nggi 40-50-yil davomida falsafa fanida chuqur tadqiq etib kelinmoqda va uni ijtimoiy hayot sohasiga keng joriy etish rasm bo'lib bormoqda. Ijtimoiy, shu jumladan huquqiy hodisalarga tizimli yondashish real voqelikning tub mohiyatini teran anglashga, ularning atrofida boshqa hodisalar bilan uzviy aloqadorlik va o'zaro ta'sir holatida rivojlanishini anglab yetishga ko'maklashmoqda. *Yagona tizim* - o'zaro uzviy aloqador va chambarchas bog'liq qismlar (predmet, jarayon, voqealar) ning bir butun sifatida harakatlanishi, mavjud bo'lishidir. Tizimning muhim jihati - tarkibiy xususiyatning borligi, ya'ni voqelikning ichki tarkibiy qismlarga egaligi, bu qismlar orasida pog'onali bo'ysunish mavjudligi hamda bu qismlarning nisbiy mustaqilligi.

Tizimning mazkur sifatlariga e'tibor qaratishimizning boisi, siyosiy tizim tarkibiga kiruvchi qismlar o'rtasida o'zaro aloqadorlikning mavjud ekanligini chuqur tushunish va ular o'rtasidagi munosabatlarning uzviy bog'liqligi va dialektikasiga e'tiborni jalb etishdir.

Moliya tizimi - moliyaviy munosabatlarning turli sohalarini o'z ichiga olib, har qaysi sohalar pul mablag'lari fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish xususiyatlari bilan tavsiflanadi.

Moliya tizimini ikkiyoqlama tushunish mumkin, ya'ni bir tomondan moliya munosabatlarining yig'indisi sifatida, ikkinchi tomondan moliya organlarining yig'indisi sifatida. Moliyaning mohiyatidan kelib chiqib, moliya tizimini o'rganishda uni moliya munosabatlari yig'indisi ekanligi nuqtai nazaridan kelib chiqib yondoshamiz.

Tabiati bo'yicha moliyaviy munosabatlar taqsimlovchi hisoblanadilar, shu bilan birga qiymatni taqsimlash, avvalo, subyektlar bo'yicha amalga oshiriladi. Subyektlar ijtimoiy ishlab chiqarishdagi ahamiyatidan kelib chiqib, maqsadli pul fondlarini shakllantiradilar. Aynan subyektning ijtimoiy ishlab chiqarishdagi roli moliyaviy munosabatlarni turkumlashning birlamchi obyektiv belgisi hisoblanadi. Bunga asosan moliyaviy munosabatlarning yig'indisida uchta yirik sohalar ajratilishi mumkin: **korxonalar, tashkilotlar va muassasalar moliyasi; sug'urta; davlat moliyasi.**

Har bir sanab o'tilgan soha ichida bo'g'inlar ajraladi, shu bilan birga moliyaviy munosabatlarni guruhlashtirish subyekt faoliyatining maqsadli pul fondlarini tarkibi va yo'nalishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatuvchi xarakteridan kelib chiqib amalga oshiriladi.

Mazkur belgi korxonalar, tashkilotlar va muassasalar moliyasi sohasida tijorat asosida faoliyat ko'rsatuvchi korxonalar moliyasi, notijorat faoliyat bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar va muassasalar moliyasi, jamoat birlashmalari moliyasi kabi bo'g'inlarni hosil qilish imkoniyatini beradi. Sug'urta sohasida, qaysiki u yerda subyekt faoliyatining xarakteri sug'urta obyektining xususiyatini belgilab beruvchi, bo'g'inlar sifatida ijtimoiy sug'urta, shaxsiy sug'urta, mulkiy sug'urta, javobgarlik sug'urtasi, tadbirkorlik tavakkalchiliklari sug'urtasi hisoblandi. Davlat moliyasi sohasida – davlat budjeti, budjetdan tashqari fondlar, davlat krediti hisoblanadi.

2. Moliya tizimining bo'g'inlari

Moliya munosabatlarining soha va bo'g'inlari o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, ularning yig'indisi **moliya tizimini** tashkil qiladi.

Shuningdek «moliya tizimi» iborasi boshqa ma'noda, ya'ni moliya organlari va muassasalari yig'indisi sifatida ham ishlatiladi.

Moliya tizimining barcha bo'g'inlari o'z navbatida ichki moliyaviy munosabatlar tarkibidan kelib chiqib quyi bo'g'inlarga bo'linadi. Demak, tijorat asosida faoliyat ko'rsatuvchi korxonalar moliyasi tarkibida, tarmoq yo'nalishidan kelib chiqib, sanoat korxonalari moliyasi, qishloq xo'jaligi korxonalari moliyasi, savdo korxonalari moliyasi, transport korxonalari moliyasi va boshqa mulkchilik shaklidan kelib chiqib, davlat korxonalari moliyasi, shirkat korxonalari moliyasi, aksionerlik jamiyatlari moliyasi, xususiy korxonalar va boshqalar moliyalariga bo'linishi mumkin. Tijorat asosida faoliyat yurituvchi korxonalarning tarmoq va iqtisodiy xususiyatlari ularning moliyaviy munosabatlarini tashkil qilishga, maqsadli pul fondlarini tarkibiga, ularni shakllantirish va ishlatish tartiblariga o'zining sezilarni ta'sirini ko'rsatadi.


Sug'urta munosabatlari sohasida sug'urta tarmoqlarini tashkil qiluvchi bo'g'inlar sug'urta turlari bo'yicha bo'linadi.

Davlat moliyasi tarkibida ichki bo'g'in moliyaviy munosabatlarini guruhlanishi davlat boshqaruvi darajasidan kelib chiqib amalga oshiriladi (respublika, mahalliy).

Moliya tizimini alohida bo'g'inlarga ajratish har bir bo'g'inning vazifalaridagi farqlanishga hamda markazlashgan va markazlashmagan pul fondlarini shakllantirish va ishlatish usullaridagi farqlanishga asoslanadi. Umumdavlat markazlashgan pul fondlari moddiy ishlab chiqarish sohalarida yaratilgan milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash yo'li bilan tuziladi.

Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishdagi davlatning bajaradigan muhim roli uning ixtiyorida moliyaviy resurslarning katta qismini markazlashtirish zaruriyatiga olib keladi. Ularni ishlatish shakllari davlat budjeti va budjetdan tashqari fondlar orqali namoyon bo'ladi. Bular hisobidan davlatning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy vazifalarini hal etish ehtiyoji ta'minlanadi. Pul fondlarini tashkil qilish va ishlatish shakllari hamda usullari moliya tizimining kredit va sug'urta bo'g'inlari

orqali qo'llaniladi. Markazlashmagan pul fondlari korxonalarni o'zlarining pul daromadlari va jamg'armalari hisobidan tashkil topadi.



2-rasm. Moliya tizimi

Yagona moliya tizimining asosi korxonalar moliyasi hisoblanadi, chunki ular moddiy ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etadilar. Markazlashgan davlat fondlarining manbai moddiy ishlab chiqarish sohasida yaratilayotgan milliy daromad hisoblanadi.

Umumdavlat moliyasi xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari rivojlanishining ma'lum sur'atlarini ta'minlashda, moliyaviy resurslarni iqtisodiyot tarmoqlari va mamlakat hududlari o'rtasida, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalari o'rtasida hamda mulk shakllari, aholining alohida guruh va qatlamlari o'rtasida qayta taqsimlashda yetakchi rol o'ynaydi.

Moliyaviy resurslardan samarali foydalanish davlatning faol moliyaviy siyosati asosidagina mumkin bo'ladi.

Moliya tizimi orqali davlat markazlashgan va markazlashmagan pul fondlarini, jamg'arish va iste'mol fondlarini soliqlar, davlat budjeti xarajatlari, davlat kreditini qo'llash bilan shakllantirishga ta'sir o'tkazadi.

Davlat budjeti davlat moliya tizimining bosh bo'g'ini hisoblanadi. U davlat boshqaruv organlari funksiyalarini ta'minlash uchun markazlashgan pul fondlarini shakllantirish va ishlatish shaklidir.

Davlat budjeti mamlakatning asosiy moliyaviy rejasi hisoblanadi va qonuniy tarzda Oliy Majlis tomonidan tasdiqlanadi. Davlat budjeti orqali davlat xalq xo'jaligi taraqqiyotini, ijtimoiy-madaniy tadbirlarni, mudofaani, davlat hokimiyat va boshqaruv organlarini saqlashni moliyalashtiradi.

Budjetdan tashqari fondlar - bu davlat hukumati va mahalliy hokimiyatlarning budjetga kiritilmaydigan xarajatlarni moliyalashtirish bilan bog'liq bo'lgan mablag'laridir. Budjetdan tashqari fondlarning shakllanishi oddiy soliq to'lovchi uchun soliqlardan hech qanday farq qilmaydigan majburiy maqsadli ajratmalar hisobidan amalga oshiriladi. Budjetdan tashqari fondlarga ajratmalar summasining asosiy qismi tannarx tarkibiga kiritiladi va ish haqi fondiga nisbatan foizlarda o'rnatiladi.

Budjetdan tashqari fondlarning maqsadga muvofiq amal qilishi muhim ijtimoiy, iqtisodiy tadbirlarni moliyalashtirishni operativ amalga oshirish imkonini beradi. Davlat budjetidan farqli ravishda budjetdan tashqari fondlar mablag'larining sarflanishi hokimiyat organlari tomonidan kamroq nazorat qilinadi. Bu, bir tomondan, ularning ishlatilishini yengillashtiradi, boshqa tomondan esa, bu mablag'larni to'la bo'lmagan hajmda sarflash imkonini beradi. Shuning uchun budjetdan tashqari fondlar mablag'lari sarflanishi nazoratini kuchaytirish maqsadida budjetdan tashqari fondlarni ularning sarflanishi bosqichida maqsadli yo'nalishni saqlagan holda davlat budjetiga konsolidatsiya qilindi (birlashtirildi).

Sug'urta - ishlab chiqarish munosabatlarning zaruriy elementidir. U ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonidagi moddiy zararlarni qoplash bilan bog'liqdir. Normal takror ishlab chiqarish jarayonining muhim sharti uning uzliksizligi va to'xtovsizligi hisoblanadi. Ishlab chiqarishning doimiy yangilanib borishi insonlarning barcha ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarda, shu jumladan rivojlangan jamiyatda ham mavjud extiyojlarini qondirish uchun zarurdir.

Agarda ijtimoiy ishlab chiqarish jarayoni tabiiy ofatlar yoki boshqa favqulodda hodisalarning (yong'inlar, portlashlar, epidemiyalar va b.) salbiy oqibatlari ta'sirida to'xtasa yoki buzulsa, u holda jamiyat, avvalo, turli oldini olish tadbirlarini amalga oshirishga, mabodo ular ko'zlangan natijani bermasa, u holda yetkazilgan moddiy zararni qoplashga, ishchi kuchini takror ishlab chiqarishning normal sharoitlarini qayta tiklashga majbur bo'ladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyasi mamlakat yagona moliya tizimining asosi hisoblanadi. U ijtimoiy mahsulot va milliy daromadni yaratish va taqsimlash jarayoniga xizmat ko'rsatadi hamda markazlashgan pul fondlarini shakllantirishning bosh omili hisoblanadi. Korxonalar moliyasining holatiga markazlashgan pul fondlarining moliyaviy resurslar bilan ta'minlanganligi bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bunda shuni alohida ta'kidlash lozimki, korxonalar moliyasidan mahsulot ishlab chiqarish va realizatsiya qilish jarayonida faol foydalanish bu jarayonda budjet, bank krediti hamda sug'urtaning ishtirokini rad etmaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik-operativ va moliyaviy mustaqillik asosida korxonalar o'z faoliyatlarini albatta foyda olish maqsadida tijorat asosida amalga oshiradilar. Ular mustaqil ravishda mahsulot realizatsiyasi tushumini taqsimlaydilar, ishlab chiqarish va ijtimoiy maqsadlardagi fondlarni shakllantiradilar va sarflaydilar, kredit resurslari va fond bozori resurslaridan foydalanib mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish uchun zarur mablag'larni topadilar. Tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi korxonalar mustaqilligining kengayishini, arziyas davlat aralashuvini bartaraf qilishning va shu bilan birga ishning haqiqiy natijasi uchun javobgarlik xissining oshirilishini ta'minlaydi.

Budjet munosabatlari deb respublika va mahalliy davlat organlarining xo'jalik subyektlari, shuningdek aholi bilan markazlashgan pul fondlarini shakllantirish va ishlatish bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy munosabatlarga aytiladi.

Budjet moliya resurslarini kerakli soha va yo'nalishlarda jamlab davlatni iqtisodiyotni boshqarish va ijtimoiy siyosatni amalga oshirishga imkoniyat beradi. Bunda budjet resurslarining daromad qismi bo'yicha shakllanishi, undan samarali foydalanish nazorat qilinadi. Taqsimlash va nazorat funksiyalari orqali budjetning iqtisodiy kategoriya sifatidagi mohiyati yuzaga chiqadi. Shu yo'l bilan budjet davlat daromadlari va xarajatlarini rejalashtiruvchi moliyaviy munosabatlarni

bildiradi. Budget ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'sir etuvchi qudratli iqtisodiy dastak sifatida yuzaga chiqadi.

Davlat moliyasi davlatni kerakli iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy funksiyalarini bajarish uchun pul mablag'lari bilan ta'minlashga yo'naltirilgan moliya tizimining muhim bo'g'inidir.

Sanab o'talgan turli xildagi funksional vazifalarni bajaradigan bo'g'inlar bo'yicha davlat iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning tarmoqli va hududiy muammolarining yechimlari keng miqyosda ta'sir ko'rsatadi.

Nazorat savollari.

- 1. Moliyani amal qilishining obyektiv sabablari nimalardan iborat?**
- 2. Moliyaviy munosabatlarning yig'indisini qanday sohalar ajratish mumkin?**
- 3. Moliya tizimini nimalar tashkil qiladi?**
- 4. Moliya tizimining bo'g'inlari o'z navbatida qanday quyi bo'g'inlarga bo'linadi?**
- 5. Sug'urta munosabatlari qanday bo'g'inlarga bo'linadi?**
- 6. Yagona moliya tizimining asosini nima tashkil qiladi?**

2-mavzu. Moliya siyosati, mexanizmi va tizimi /4 soat/**2-ma'ruza. Moliya siyosati va moliya mexanizmi****Reja**

- 1. Moliya siyosatining mohiyati va vazifalari**
- 2. Moliya siyosatining turlari**
- 3. Moliya siyosatining bo'g'inlari**
- 4. O'zbekiston Respublikasi moliya siyosatining asosiy yo'nalishlari**
- 5. Moliya mexanizmining mazmuni**
- 6. Moliya mexanizmining tarkibi va tuzilishi**

1. Moliya siyosatining mohiyati va vazifalari

Siyosatning asl ma'nosi grekcha "*Politika*" so'zidan olingan bo'lib, davlatni boshqarish san'ati degan ma'noni beradi.

Siyosat - bu ustqurmaga taalluqli tushuncha bo'lib, ma'lum maqsadlarga erishishga qaratilgan yo'nalishlar, chora va tadbirlar yig'indisidir.

Har qanday jamiyatda ham davlat moliyadan o'zining funktsiya va vazifalarini bajarishda hamda ma'lum maqsadlarga erishishda foydalanadi. Oldinga qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirilishida moliya siyosati muhim o'rinni egallaydi. Uni ishlab chiqish va hayotga tadbiq etish jarayonida jamiyat oldida turgan masalalarni xalq etilish sharoitlari ta'minlanadi. U iqtisodiy manfaatlarga ta'sir etuvchi faol qurol sifatida namoyon bo'ladi.

Iqtisodiy siyosat - xo'jalik yuritishning tamoyillari va shakllari, iqtisodiyotni rivojlantirish vazifalarini yechishdagi usullar, chora-tadbirlar va faoliyatlar yig'indisidir. Iqtisodiy siyosat jamiyat rivojlanishining turli bosqichlarida turlicha bo'lishi, iqtisodiy rivojlanish darajasiga qarab o'zgarib turishi mumkin. Iqtisodiy siyosat o'z ichiga:

- baho siyosati;
- pul siyosati;
- kredit siyosati;
- amortizatsiya siyosati;
- moliya siyosati kabilarni oladi.

Moliya siyosati - bu davlatning iqtisodiy siyosatini tarkibiy qismi bo'lib, moliyaviy resurslarni (manbalarni) jalb etish, ularni taqsimlash, ishga solish va foydalanishga davlat orqali yo'naltirilgan barcha chora-tadbirlar yig'indisi.

Ma'lum mamlakatning moliya siyosati qator omillarga: tarixiy shart-sharoitlar, iqtisodiyotning rivojlanish darajasi, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlar, ularga erishish muddatlari va hattoki milliy qadriyatlarga ham bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy hayotning evolyutsion rivojlanishi va davlat tuzumining barqarorlik davrida davlatning ichki va tashqi moliya siyosati mavjud ijtimoiy munosabatlarni saqlab qolish va o'zgartirishga yo'naltiriladi. Inqilobiy o'zgarishlar davrida mavjud tuzumni tezroq o'zgartirishdan manfaatdor siyosiy kuchlar uni buzish va yangi ijtimoiy munosabatlar tizimini shakllantirishga yo'naltirilgan siyosat olib boradilar.

Moliya siyosatining muhim vazifasi - u yoki bu iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning davlat rejasini yoki chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun tegishli moliyaviy resurslar bilan ta'minlashdir. Lekin moliya siyosatini faqat iqtisodiy siyosatga bog'lash mumkin emas. Moliya siyosati - bu moliyaviy munosabatlar sohasida davlatning mustaqil faoliyat ko'rsatadigan sohasi. Moliya siyosati mustaqil xususiyatga ega bo'lish bilan bir vaqtda davlatning har qanday istalgan ijtimoiy faoliyatni amalga oshirishi uchun xoh ijtimoiy, xoh iqtisodiy yoki xalqaro munosabatlar olib borishida muhim vositadir.

Moliya siyosati quyidagi vazifalarni bajaradi:

✓ birinchidan, moliyaviy resurslarning hajmini va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish. Moliya siyosati ko'zda tutayotgan tadbirlarni, ular bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni real mavjud bo'lgan moliyaviy resurslar bilan ta'minlanishiga erishishi kerak. Shuningdek ajratilayotgan har bir so'mlik resursdan maksimal darajada samaraga erishishni ta'minlash lozim;

✓ ikkinchidan, moliyaviy resurslarning taqsimotida optimal nisbatlarni belgilash, ulardan oqilona foydalanish.

Moliya siyosatining bu vazifasi korxona daromadlarining davlat ixtiyoriga o'tishining oqilona shakllarini belgilash, aholining davlat daromadlarini shakllantirishdagi xissasini to'g'ri belgilash, moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohalari o'rtasidagi taqsimlash mutanosibliklarini optimallashtirish yo'llari bilan bajariladi;

✓ uchinchidan, muhim va murakkab vazifasi, tegishli moliya mexanizmini ishlab chiqish, iqtisodiy siyosat belgilab bergan rivojlanish yo'nalishlarini ta'minlash maqsadida uni takomillashtirish.

Moliya siyosatining samaradorligini belgilash uchun jamiyatning ehtiyoji qanchalik qondirilganligi, qo'yilgan maqsadlar va vazifalar amalga oshirilganligi baholanishi lozim.

Moliya siyosatiga baho berish va unga tuzatish, qo'shimchalar kiritish uchun birinchi navbatda jamiyat ehtiyojini qondira oladigan holdagi ijtimoiy taraqqiyot rejasini aniq bilish zarur. U rejada bo'lajak va yaqin kelajakda amalga oshirish vaqtlari belgilangan chora-tadbirlar bo'lishi lozim. Faqat shundagina moliya siyosatini ishlab chiqish va muvaffaqiyatli amalga oshirish hamda obyektiv baholash mumkin.

Moliya siyosatini asosiy yo'nalishlaridan biri - moliyaviy resurslarni imkon qadar yuqori hajmini aniqlash va ushbu manbalar doimiyligi hamda uzluksizligini ta'minlashdir, chunki moliyaviy resurslar salohiyati barcha o'zgarishlarning moddiy bazasidir. Shuning uchun moliya siyosatini aniqlash va uning strategik va taktik asoslarini ishlab chiqish uchun davlatning moliyaviy ahvoli, moliyaviy salohiyati, boshqacha qilib aytganda davlatning moliyaviy imkoniyatining obyektivligi haqida aniq ma'lumotga ega bo'lish lozim.

Moliyaviy resurslarni taqsimlash va qayta taqsimlash negizida quyidagilarni tanlash turadi:

- moliyaviy resurslar egalarini va ularni taqsimlovchilarini;
- moliyaviy resurslardan foydalanishda ustivor yo'nalishlarni;
- moliyaviy resurslarni tashkil etish uchun manbalar va mablag'larni jalb etish usullarini;
- davlat qo'lida moliyaviy resurslarni markazlashtirish darajasini.

Bu masalalar davlatning hayot mazmuniga va funksiyalariga bog'liq holda yechiladi va amalga oshiriladi.

Moliya siyosatining mazmuni ko'p qirrali bo'lib, quyidagi muhim bo'g'inlarni o'z ichiga oladi:

a) moliyaviy munosabatlarni rivojlantirishning ilmiy asoslangan konsepsiyalarini ishlab chiqish. Bu konsepsiyalar quyidagilarni o'rganish asosida ishlab chiqiladi:

- iqtisodiy qonunlar talablarini o'rganish;
- xo'jalik rivojlanishining holatini har tomonlama tahlil qilish;
- ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlarining bundan keyingi rivojlanish istiqbollari o'rganish;
- aholining talab va ehtiyojlarini o'rganish.

b) istiqbolda va joriy davr mobaynida moliyadan foydalanishning asosiy yo'nalishlarini belgilab olish; shu tarzda iqtisodiy siyosatda ko'zda tutilgan maqsadlarga yetish yo'llaridan kelib chiqiladi, xalqaro omillar inobatga olinadi va moliyaviy resurslarni yanada ko'paytirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

v) oldinga qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan amaliy hatti-harakatlar, chora-tadbirlar ko'rish.

Yuqoridagi asosiy bo'g'inlarning birligi moliya siyosatining mazmunini aniqlab beradi.

Faqat hozirgi kundagi joriy davrga mo'ljallangan, kundalik ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan moliya siyosati samarasizdir. Shuningdek, uzoq davrga mo'ljallangan, istiqbolni ko'zlab

ishlab chiqilgan konsepsiyalar va yo‘nalishlar, ular qanchalik oliyjanob, jozibali bo‘lmasin, davlatning amaliy harakatlari, chora-tadbirlari bilan ta‘minlanmasa, inqirozga duchor bo‘ladi.

2. Moliya siyosatining turlari

Xal qilinishi lozim bo‘lgan vazifalarning xarakteriga, murakkabligiga va davrining uzoqligiga qarab, moliya siyosati:

1. Moliyaviy strategiya.

2. Moliyaviy taktikaga bo‘linadi.

Moliyaviy strategiya – moliya siyosatining istiqbolga (kelajakka) mo‘ljallangan va ijtimoiy hamda iqtisodiy strategiya orqali belgilangan keng ko‘lamli masalalarni xal etishga yo‘naltirilgan uzoq muddatli kursi.

Uni ishlab chiqish jarayonida moliyaning rivojlanish asosiy tendensiyalari taxmin qilinadi, ulardan foydalanish konsepsiyalari shakllanadi, moliyaviy munosabatlarni tashkil etish tamoyillari ko‘zda tutiladi.

Moliyaviy taktika — moliyaviy strategiya belgilab bergan vazifalarni jamiyat rivojlanishining konkret bosqichida moliyaviy munosabatlarni tashkil etish usullarini o‘zgartirish orqali amalga oshiradi.

Rivojlanishni har bir bosqichining moliyaviy strategiyasi obyektiv iqtisodiy sharoitni hisobga oluvchi iqtisodiy strategiyaning vazifalari bilan belgilanadi. Masalan, mamlakat iqtisodiyotini bozor munosabatlariga o‘tkazishning dastlabki bosqichida davlat iqtisodiy siyosatining asosiy strategik maqsadlari quyidagicha belgilangan:

1. Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini bosqichma-bosqich shakllantirish;
2. Ko‘p ukladli iqtisodiyotni yaratish, xususiy mulkning davlat tomonidan himoya qilinishini ta‘minlash;
3. Korxonalar va fuqarolarga keng iqtisodiy erkinliklar berish, ularning xo‘jalik faoliyatiga davlat tomonidan aralashuvda huquqiy asoslar va vositalardan foydalanish;
4. Iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o‘zgarishlar qilish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, jahon iqtisodiy tizimiga qo‘shilib borish.

Mazkur iqtisodiy strategik vazifalarni amalga oshirishda quyidagi yo‘nalishlarda moliyaviy taktika ishlab chiqiladi va tegishli moliya mexanizmi shakllantiriladi:

- qattiq moliya siyosatini amalga oshirish, davlat budjeti taqchilligini iloji boricha kamaytirish, dotatsiya va subvensiyalarni bosqichma-bosqich qisqartirib borish;
- budjetdan mablag‘larni eng zarur umumdavlat ehtiyojlari uchungina ajratish;
- investitsiya kreditlaridan keng foydalanish;
- soliq tizimini takomillashtirish, budjet daromadlarini barqaror bo‘lib turishini ta‘minlaydigan mustahkam soliq siyosatini olib borish va h.k.

Moliya siyosatining strategiyasi va taktikasi o‘zaro bog‘liqdir. Taktik vazifalarni xal qilish uchun strategiya qulay shart-sharoit yaratadi.

Taktika esa, iqtisodiy va ijtimoiy sohadagi rivojlanishning xal qiluvchi joylarini va muhim muammolarni aniqlash, moliyaviy bog‘liqliklarni tashkil etish shakllari va usullarini o‘z vaqtida o‘zgartirish yo‘li bilan strategiya belgilab bergan vazifalarni qisqa muddat ichida, eng kam xarajatlar bilan amalga oshiradi.

Moliya siyosati inson faoliyatining mahsus shakli sifatida ustqurma kategoriyalariga taalluqlidir. U bilan jamiyatning iqtisodiy bazisi orasida chambarchas bog‘langan o‘zaro bog‘liqlik mavjuddir.

Bir tomondan, moliya siyosati iqtisodiy munosabatlar orqali vujudga keladi, ikkinchi tomondan, iqtisodiy bazis asosida vujudga kelib va rivojlanib, moliya siyosati ma‘lum bir mustaqillikka ega. Shuning uchun u iqtisodiyotga, moliyaning ahvoliga teskari ta‘sirini o‘tkazadi. Bu ta‘sir har xil bo‘lishi mumkin: bir xil paytlarda siyosiy chora-tadbirlarni o‘tkazish orqali iqtisodiyotni rivojlantirishga qulay shart-sharoit yaratiladi, boshqalarda esa u to‘sqinlik qiladi.

Moliya siyosati moliyaviy munosabatlar mohiyatini o'zgartirmaydi. Lekin, davlat moliyaning mohiyatini bilib, u o'z manfaatlariga qaratishga harakat qiladi.

Moliyaviy munosabatlar - obyektiv voqelik iqtisodiy munosabatining bir qismi bo'lib, jamiyatning iqtisodiy bazisini tashkil qiladi. Moliya siyosati esa bazisga asoslanadi, shu bazisdan kelib chiqadi. Moliya siyosati ilmiy asoslangan moliyaviy nazariyaga tayanadi va tajribaga ko'rsatma beradi, shu tariqa moliya siyosati nazariyani tajriba bilan bog'laydi. Tajriba esa, nazariyaning to'g'riligini tekshirish mezonidir.

3. Moliya siyosatining bo'g'inlari

Davlat moliya siyosati – ko'p qirrali tushuncha. Uning ko'lami davlatning *iqtisodiyot va ijtimoiy sohani boshqarishdagi ishtiroki parametrlari* bilan aniqlanadi.

Budjet va pul-kredit siyosati. Odatda, moliya siyosati tarkibida ma'lum darajadagi mustaqil budjet va pul-kredit siyosati ajratib ko'rsatiladi.

Budjet siyosati deganda davlat tomonidan quyidagilarni belgilash tushuniladi:

- davlat budjeti daromadlarini shakllantirish manbalarini;
- budjet xarajatlarining ustuvor yo'nalishlarini;
- budjetning yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan balanslashmaslik chegaralarini;
- budjet taqchilligini moliyalashtirish manbalarini;
- budjet tizimining alohida bo'g'inlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning tamoyillarini.

O'z navbatida, budjet siyosati tarkibida *soliq siyosati, investitsion siyosat, davlat qarzini boshqarish siyosati, budjet yaxlitligi siyosatlari* nisbiy mustaqillikka ega bo'ladilar. Soliq siyosati soliqlarning tarkibini, ularning stavkalarini hajmlarini, har bir soliq turi bo'yicha imtiyozlar va jazolarni belgilaydi. Bir vaqtning o'zida soliq tizimini to'laligicha, shuningdek alohida soliqlarning tartibga soluvchi yoki rag'batlantiruvchi choralari o'rnatiladi.

Pul-kredit siyosati deganda emissiyani boshqarish, inflyatsiyani va milliy pul birligi kursini tartibga solish orqali pul muomalasi barqarorligini ta'minlash; bank tizimi faoliyatini reglamentlash va tartibga solish orqali xalq xo'jaligi va moliya tizimining turli bo'g'inlarida hisob-kitoblarning o'z vaqtida va uzluksizligini ta'minlash; davlat va korporativ qimmatli qog'ozlarning emissiyasi va joylashtirilishini reglamentlash va ularning aylanishini (sotish va sotib olish kursini) tartibga solish orqali, Markaziy bank tomonidan qayta moliyalashtirish stavkalarini ko'tarish yoki pasaytirish orqali moliya bozori faoliyatini boshqarish tushuniladi.

Pul-kredit siyosati tarkibida *emissiya siyosati, baho siyosati, valyuta siyosati, kredit siyosati* – unda o'z navbatida, masalan, *foiz siyosati va investitsion siyosatlar* nisbiy mustaqillikka ega bo'ladilar. Shuni ta'kidlash kerakki, budjet munosabatlari amaliyotida investitsiyalar deganda asosiy vositalarni o'stirish va modernizatsiya qilishni moliyalashtirish tushunilsa, bank amaliyotida esa, investitsiyalar deganda qimmatli qog'ozlar portfelini shakllantirish tushuniladi.

Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan *pul-kredit orqali muvofiqlashtirish* bu davlatning iqtisodiy siyosatining tarkibiy qismi hisoblanib, o'zida pul muomalasi va ssuda kapitali bozorining muomaladagi pul massasi, kredit hajmi, hisob-foiz stavkalari va boshqa ko'rsatkichlarini bevosita va bilvosita tartibga solishi tushuniladi. Pul-kredit orqali muvofiqlashtirishning asosiy pirovard maqsadi bu aholi farovonligini oshirish va maksimal ravishda aholi bandligini ta'minlash hisoblanadi.

Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan pul-kredit orqali muvofiqlashtirish vositalarining davlat tomonidan ishlab chiqilgan va qonuniy tasdiqlangan mexanizmi **pul-kredit siyosati** deyiladi

Mamlakatda pul-kredit siyosatini amalga oshirish huquqi faqatgina Markaziy bankka berilgan bo'lib, bu siyosatni amalga oshirish Markaziy bankning eng asosiy vazifasi bo'lib hisoblanadi.

Markaziy bankning pul-kredit siyosati instrumentlarini shartli ravishda bir necha mezonlariga qarab bo'lish mumkin.

Shakl bo'yicha pul-kredit siyosati instrumentlari *ma'muriy* (bevosita) va *bozor* (bilvosita) instrumentlarga bo'linadi. *Ta'sir etish obyekti* (pul talabi yoki pul taklifi)ga ko'ra instrumentlar pul qo'llab-quvvatlovchi (*kredit ekspansiya*) yoki uni cheklovchi (*kredit restruktizatsiyasi*)ga bo'linadi. *Ta'sir etish muddatlariga* qarab *qisqa muddat* va *uzoq muddatga* mo'ljallangan instrumentlarga bo'linadi va h.k.

Ko'pgina mamlakatlar tomonidan hozirda qo'llanilib kelayotgan pul-kredit siyosatining vositalaridan biri bu tijorat banklarining majburiyatlariga nisbatan *majburiy xaxira* talablari me'yoriidir. Pul-kredit siyosatining bu vositasi qo'llanilish jihatidan sodda bo'lib, tijorat banklarining to'lovga qobiliyatligi darajasiga ta'sir qiladi. Shuning uchun hozirda, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda pul-kredit siyosatining bilvosita usullaridan aynan shu vositasi keng ko'lamda qo'llanilmoqda, shu jumladan O'zbekistonda eng samarali vosita(instrument) ham aynan shu vositadir (bilvosita instrumentlardan).

Pul-kredit siyosatini moliya siyosati tarkibiga kiritilishi shubhasiz emas, ammo ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik va o'zaro bog'liqlik shubhasizdir. Moliya siyosati tarkibiga budjet siyosati bilan birgalikda pul-kredit siyosatini kiritilishining to'g'riligini jahonda ro'y berayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz tahlili ham tasdiqlab turibdi. Ma'lubki bu inqiroz faoliyat sohasi pul-kredit operatsiyalari hisoblangan moliya bozorlaridagi inqirozdan boshlangan.

Xalqaro moliya siyosati katta ahamiyat kasb etib bormoqda. Uning asosida xalqaro mehnat taqsimoti bilan, davlat qarzini shakllantirish va so'ndirish bilan, xalqaro tashkilotlar, shu jumladan xalqaro moliya tashkilotlari faoliyatida ishtirok etish bilan bog'liq xalqaro munosabatlar sohasidagi valyuta-moliyaviy va kredit munosabatlarini boshqarish yotadi. Hozirgi kunda Xalqaro valyuta fondi (XVF), Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB), Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (ETTB), Osiyo tiklanish va taraqqiyot banki (OTTB) va b. (misol uchun, London kreditorlar klubi, Parij kreditorlar klubi) kabi xalqaro moliya tashkilotlarining moliya siyosati katta ahamiyat kasb etib bormoqda.

Alohida davlatlarning xalqaro moliya siyosati, odatda, o'z mamlakatining ishlab chiqarish kuchlarini rivojlanishiga yo'naltirilgan va mos ravishda har qaysi davlat xalqaro xomashyo, tovarlar, ishchi kuchi va kapital bozorlarida o'zining salmoqli o'rniga ega bo'lishga harakat qiladi.

Davlat o'zining manfaatlarini *bojxona* va *valyuta siyosatlarini* orqali himoya qiladi. Ularning xususiyatlari davlatni o'z eksport va importini kengaytirish yoki qisqartirishdan manfaatdorlik darajasi bilan belgilanadi. Shundan kelib chiqib, bojxona to'lovlari yoki alohida bojxona rejimlari tizimi qo'llaniladi. Bojxona va valyuta siyosatining asosiy maqsadi – davlatning oltin, valyuta zahiralari saqlash va ko'paytirish hisoblanadi.

Davlat o'zining manfaatlarini yana xalqaro tashkilotlar faoliyatida ishtirok etish, bu tashkilotlarning moliyaviy fondlarini shakllantirishda va hamkorlikdagi dasturlarni moliyalashtirishda ishtirok etish bilan mamlakat obro'sini oshirish orqali himoya qiladi.

Xalqaro moliya tashkilotlarining moliya siyosati moliyaviy inqiroz yoki moliyaviy qiyinchiliklarni boshidan kechirayotgan davlatlarga moliyaviy yordam ko'rsatishga yo'naltirilgan. Yordam, odatda, kreditlar berish shaklida yoki davlatning mavjud tashqi qarzlarini restruktizatsiyalash shaklida ko'rsatiladi.

Xalqaro moliya takilotlarining yordami beg'araz ko'rsatilmaydi va qator iqtisodiy yoki siyosiy shartlarga asoslanadi, qarz oluvchi mamlakat uchun uchun doimo naf keltirmaydi.

4. O'zbekiston Respublikasi moliya siyosatining asosiy yo'nalishlari

Yaqin o'tmishda, mamlakat iqtisodiyoti va ijtimoiy rivojlanishiga to'sqinlik qilib qolgan moliyaviy siyosat o'z kamchiliklarini namoyon qildi. Uzoq davrlar mobaynida mamlakatni iqtisodiy rivojlanishida moliya va faol moliyaviy siyosatning ahamiyatiga yetarlicha baho berilmadi. Iqtisodiyotda moliyaviy munosabatlarning ahamiyatini buzib ko'rsatish sodir bo'ldi, moliya va moliyaviy dastaklarning faol ahamiyati inkor etilib, moliyaviy siyosat talab etilgan muammolarni xal qilishga qaratilgan zarur usullarni ishlab chiqishga ojizlik qilib qoldi. Rivojlanishning uzoq davriga mo'ljallangan ibratli konsepsiyalarni ishlab chiqilmaganligi, kam

samara beradigan, qisqa muddatli foyda olishni ko‘zlab ko‘rilgan chora-tadbirlar iqtisodiyotni og‘ir ahvolga olib keldi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishib, iqtisodiy rivojlanishda bozor munosabatlariga o‘tishda, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida bo‘lgani kabi, moliya va moliyaviy munosabatlarda ham chuqur islohotlarni amalga oshirishga to‘g‘ri keldi.

Prezidentimiz I. Karimov belgilab bergan iqtisodiy strategiyadan kelib chiqqan holda, bozor iqtisodiyotini dastlabki bosqichida moliya va soliq siyosatining birinchi darajadagi chora-tadbirlari va ustivor yo‘nalishlari quyidagilardan iborat bo‘ldi:

1. Barqaror moliyaviy siyosatni amalga oshirish, davlat budjeti taqchilligini iloji boricha kamaytirish, budjetdan beriladigan dotatsiya va subvensiyalarni barcha turlarini bosqichma-bosqich qisqartirib borish;

2. Budjet mablag‘larini daromad tushgandan keyingina taqsimlanadigan yo‘ldan og‘ishmay borish, birinchi darajali, eng zarur umumdavlat ehtiyojlari uchungina budjetdan mablag‘lar ajratish;

3. Xalq xo‘jaligi tarmoqlarini, ayrim korxonalarni rivojlantirish uchun budjetdan qaytarib olmaslikni ko‘zda tutib ta‘minlash amaliyotidan voz kechish, buning o‘rniga ana shu maqsadlarda investitsiya kreditlaridan keng foydalanish;

4. Soliq tizimini takomillashtirish budjet daromadlarini barqaror sur‘atda to‘lab turishni ta‘minlaydigan, kichik va xususiy korxonalarining, chet el kapitali ishtirokidagi qayta ishlaydigan va xalq iste‘moli mollarini ishlab chiqaradigan qo‘shma korxonalarni rivojlanishini rag‘batlantiradigan soliq siyosatini olib borish.

Belgilangan strategik vazifalar davlatning taktik chora-tadbirlari asosida bajariladi. Hozirgi kunga kelib, iqtisodiy o‘sish davri boshlandi. Yalpi ichki mahsulotning o‘sish sur‘ati barqarorlashdi.

Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 8-fevral va 18-iyuldagi yig‘ilishlarida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilab berilgan 2008-yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalarini amalga oshirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida iqtisodiyotni barqaror, muvozanatli va izchil rivojlantirishning belgilangan prognozlariga erishildi hamda makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning mutanosibligi ta‘minlandi.

2008-yilda *Yalpi ichki mahsulot* (YaIM)ning real o‘sishi 9,0 foizni tashkil qildi. Sanoat, qurilish va xizmatlar sohasida yuqori sur‘atlarda o‘sish kuzatildi. Xususan, sanoatda ishlab chiqarish hajmi 12,7 foizga, qishloq xo‘jaligida 4,5 foizga, transport va aloqada 16,7 foizga va qurilish ishlarida 8,3 foizga oshdi.

O‘tgan yilda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 21,3 foizga o‘sib, uning YaIM tarkibidagi ulushi 45,3 foizni tashkil qildi. Xususan, savdo va umumiy ovqatlanish xizmati 26,8 foizga hamda moliyaviy xizmatlar hajmi 32,2 foizga o‘sd¹.

Hozirgi bosqichda davlatning moliyaviy siyosati quyidagilarga qaratilgan:

1. Ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini har tomonlama oshirish hisobiga aholining turmush tarzini yuqoriga ko‘tarish.

2. Tadbirkorlarning haqiqiy mustaqilligini ta‘minlash, mehnat va xizmatga bo‘lgan tashabbusini oshirish hamda ularni har tomonlama huquqiy kafolatlash.

3. Aholining kam ta‘minlangan qatlamini ijtimoiy himoya qilish (pensionerlar, ko‘p bolali oilalar, talabalar).

4. Daromadi cheklangan xizmatchilarni (sog‘liqni saqlash, maorif, boshqaruv, mudofaa) ijtimoiy himoya qilish.

5. Yangi moliyaviy strategiya, rang-barang mulk shakllari, bozor munosabatlarini rivojlantirish, tovar va mahsulotlar bozorini, ish kuchi va kapital bozorlarini rivojlantirish.

6. Jamiyatning ijtimoiy - iqtisodiy hayotiga moliyaviy ta‘sir ko‘rsatish, uni soliqqa tortish, moliyalashtirish va moliyaviy bozor uslublari orqali amalga oshirish.

7. Moliya tizimida iqtisodiy tanglik ko‘rsatkichlarini imkon qadar bartaraf etish (davlat budjeti kamomadi, emissiyaning joylarda ko‘payib borishi, inflyatsiya darajasining yuqoriligi, ichki va tashqi qarzlarni borligi, tugallanmagan qurilishlarning mavjudligi), chunki iqtisodiy tanglik

¹ Manba: http://www.cbu.uz/uz/monet_policy/monet_direct2009.htm

nisbatan davlat moliyasi bilan bir qatorda korxonalar moliyasida ham mavjud. Pul muomalasini tartibga solish. Milliy valyutaning ichki va tashqi konvertatsiyasini ta'minlash hisobiga so'mning qadrini oshirish.

9. Iqtisodiyotni jahon andozalariga yetkazish maqsadida xorijiy investitsiyalarni kirib kelishini ta'minlash.

10. Qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish hisobiga korxonalar iqtisodiy salohiyatini oshirish.

11. Sug'urta tizimini rivojlantirish va uning samaradorligini oshirishning huquqiy va iqtisodiy asoslarini kengaytirish va kuchaytirish.

Tovarlar va xizmatlarning mamlakatlararo harakatini tartibga solib turuvchi, milliy iqtisodiyotni mustahkamlash va himoya qilishga qaratilgan boj siyosati takomillashib bordi. Bu siyosat hozirgi kunda mamlakat ichki bozoriga past sifatli, inson salomatligiga putur yetkazuvchi tovarlarni kirib kelishini oldini olish va ilg'or texnologiyalar, fan-texnika yutuqlari natijalarining mamlakat iqtisodiyotiga kirib kelishini rag'batlantirish yo'lidano'g'ishmay bormoqda.

Moliyaviy siyosatining hozirgi kundagi vazifalari quyidagilardan iborat bo'lmog'i lozim:

1. Respublika davlat budjetidagi taqchillikni yo'l qo'yilgan eng kam daraja doirasida (YaIMning 2-3 %i atrofida) cheklashga yo'naltirilgan qattiq moliyaviy siyosatni o'tkazish.

2. Davlat xarajatlarining birinchi navbatda iqtisodiyotdagi zarur tarkibiy o'zgarishlarni o'tkazish, ishlab chiqarishning orqaga ketishiga barham berish maqsadlarini ko'zlab yo'naltirishni ta'minlash.

3. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish talablaridan kelib chiqqan holda, aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlash, aholining konstitutsiya bilan kafolatlangan huquqlarini himoya qilishni ta'minlovchi moliyaviy bazani yaratish, erkin mehnat va ishbilarmonlik asosida aholi turmush darajasini ko'tarishga zarur shart-sharoitlar yaratish. Bu maqsadlarda ularga soliqlardan imtiyozlar berish, imtiyozli kreditlar berish, maqsadli fondlardan moliyaviy qo'llab-quvvatlash.

4. Ijtimoiy himoyaning adresli bo'lishiga, moliyaviy mablag'larning ijtimoiy yordamga haqiqatda muxtoj aholi qatlamlariga yetib borishini ta'minlashga erishish.

5. Soliq siyosatini takomillashtirish:

- soliq tizimining ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moddiy xomashyo, tibbiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan, to'plangan mol-mulkdan samarali foydalanishga rag'batlantiruvchi ta'sirini oshirish;

- korxonalar zimmasidagi soliq yukini keskin kamaytirish, qo'shilgan qiymat solig'idano'linadigan soliq stavkasini kamaytirish va shu asosda ishlab chiqarishni jonlantirishga turtki berish;

- soliq tushumlari tarkibini tubdan o'zgartirish, resurs soliqlari, mol-mulk solig'ining rolini oshirish.

7. Muayyan budjetlarni shakllantirish manbalari bo'lgan umumdavlat soliqlari bilan mahalliy soliqlar o'rtasida aniq chegara o'tkazish.

8. Davlat budjeti daromadlarini katta qismini joylarga berish, mahalliy budjetlarning daromad manbalarini mustahkamlash.

9. Soliq siyosati belgilab bergan chora-tadbirlarni amaliyotga tadbiiq etuvchi tegishli moliya mexanizmini ishlab chiqish va takomillashtirish.

5. Moliya mexanizmining mazmuni

Moliyaviy siyosatni amalga oshirish hamda uni hayotga muvaffaqiyatli tadbiiq qilish uchun moliya mexanizmidan foydalaniladi. U jamiyat tomonidan iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida qo'llaniladigan moliyaviy munosabatlarni tashkil etish uslublari yig'indisini tashkil qiladi. Moliya mexanizmi o'z tarkibiga moliya munosabatlarini tashkil etish turlari, shakllari va usullarini, ularni miqdoriy aniqlash uslublari oladi.

Mohiyati jihatidan **moliya mexanizmi** - taqsimlash va qayta taqsimlash munosabatlarining keng tizimini amalga oshirish, daromad va jamg'armalarni tashkil qilish, markazlashgan va markazlashmagan pul fondlarini tuzishni taominlovchi shakl va usullar yig'indisidan iboratdir.

Moliya mexanizmining tarkibi ancha murakkab bo'lib, unga turli moliyaviy munosabatlarga xos elementlar kiradi. Aynan moliyaviy o'zaro aloqalarning ko'pligi ularni tashkil etishning turlari, shakllari va usullarini (moliya mexanizmi elementlarini) ko'p miqdorda qo'llashni taqazo etadi.

Davlat o'zining ijro qiluvchi va qonun chiqaruvchi organlari yordamida iqtisodiy qonunlar taosirini chuqur o'rganish, moliyaning rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish, iqtisodiy va moliyaviy siyosat vazifalarini o'rganish asosida ichki mahsulot va milliy daromadni taqsimlash usullarini o'rnatadi, pul jamg'armalarining shakllarini belgilaydi, to'lov va ajratmalar turlarini ishlab chiqadi, davlat moliyaviy resurslaridan foydalanish yo'nalishlari va tamoyillarini ishlab chiqadi va b.

Moliya mexanizmi *direktiv (ma'muriy) va tartibga soluvchi* mexanizmlarga bo'linadi.

Direktiv (ma'muriy) moliya mexanizmi – davlat ishtirok etadigan moliya munosabatlari: soliqlar, davlat krediti, budjet xarajatlari, budjetdan moliyalashtirish, budjet qurilmasi va budjet jarayonini tashkil qilish, moliyaviy rejalashtirishni tashkil etishning barcha tizimlarini batafsil ishlab chiqilishini nazarda tutadi.

Bir qator holatlarda boshqa, ya'ni butun moliya siyosatini amalga oshirilishida katta ahamiyatga ega bo'lgan (korporativ qimmatli qog'ozlar bozori) moliya munosabatalariga yoki bunday munosabat tomonlaridan biri – davlatning vakili bo'lganda (davlat korxonalari moliyasi) ham tadbiiq etiladi.

Tartibga soluvchi moliya mexanizmi davlat manfaatlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qilmaydigan moliya munosabatlarida qo'llaniladi va faqatgina asosiy qoidalarni o'rnatilishini nazarda tutadi. Moliya mexanizmining bunday xilma-xilligi xususiy korxonalarda ichki xo'jalik moliya munosabatlarini tashkil qilish uchun xarakterlidir.

Bu holatda davlat moliya resurslaridan foydalanishning umumiy tartiblarini o'rnatadi.

6. Moliya mexanizmining tarkibi va tuzilishi

Moliya mexanizmi quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

1. Moliyaviy rejalashtirish va istiqbolni belgilash (prognozlash).
2. Moliyaviy dastaklar va rag'batlantirish vositalari.
3. Moliyani boshqarish.

Moliyaviy rejalashtirish va istiqbolni belgilash (prognozlash) - moliyaviy mexanizmning asosiy qismi bo'lib, u moliyaviy rejalar va balanslarni hamda moliyaviy ko'rsatkichlar, me'yorlar tuzishni o'z ichiga oladi.


Moliyaviy dastaklar va rag'batlantirish vositalariga foydani taqsimlash usullari, turli fondlarga to'lovlar, ajratmalar, qo'llaniladigan imtiyozlar, jazolar (sanksiyalar), jarimalar kiradi.

Moliyani boshqarish - subyektlarning moliyaviy munosabatlarni amalga oshirish, yo'lga qo'yish va takomillashtirish usullari yig'indisidan iborat.

Ayrim iqtisodchilar, yuqoridagilarni inkor etmagan holda, moliyaviy munosabatlarning ko'p qirraligi, soha va bo'g'inlardan iboratligini hisobga olib moliya mexanizmini quyidagi sohalar va bo'g'inlarga ajratib ko'rsatiladilar.

O'z navbatida bu har bir soha alohida tarkibiy bo'g'inlarni o'z ichiga oladi. Misol uchun, davlat moliyasi mexanizmi budjet mexanizmi va budjetdan tashqari fondlar amal qilish mexanizmlariga bo'linadi. Hududiy bo'linishidan kelib chiqib umumdavlat moliya mexanizmi va mahalliy moliya mexanizmlariga ajratish mumkin. Moliyaviy mexanizmni ijtimoiy takror ishlab chiqarish nuqtai nazaridan qaralganda uning funksional bo'g'inlari hosil bo'ladi, ya'ni mablag'larni jamlash, moliyalashtirish, rag'batlantirish va b.

Moliya mexanizmining har bir soha va bo'g'inlari bir butunning tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular o'zaro bog'liqdir. Shu bilan birga, har bir soha va bo'g'in nisbatan mustaqil amal qiladi. Bu holat moliya mexanizmi tarkibiy qismlarining doimiy muvofiqligini zarurligini keltirib chiqaradi.



5-rasm. Moliya mexanizmining bo'g'inlari

Moliya mexanizmining soha va bo'g'inlari bir-birlari bilan murakkabligi va boshqa jihatlari bo'yicha farq qiladi. Masalan, budget mexanizmi:

- soliq turlarining ko'pligi;
- ularni undirish usullarining turli-tumanligi;
- moliyalashtirish usullarining turlichaligi;
- byujet mablag'laridan foydalanishning ko'p o'nalishliligi bilan xarakterlanadi.

Korxona moliya mexanizmi orqali esa,

- korxona pul jamg'armalari shakllari belgilanadi;
- foyda va daromadlar taqsimlanadi;
- moliyaviy resurslar taqsimlanadi;
- turli maqsadli fondlar tuziladi va ulardan foydalanish ta'minlanadi.

Moliya mexanizmining elementlari tarkibida fondlar va to'lovlarni miqdor jihatdan aniqlash usullari qismi eng harakatchan va tez o'zgaruvchan bo'lib, ular ishlab chiqarish shart-sharoitlarining hamda jamiyat oldida turgan vazifalarning o'zgarishiga qarab tez-tez o'zgarib to'g'rilanib turiladi. Masalan, pul mablag'lari fondlarining shakllari o'zgarmagani holda, foydani taqsimlash usullari bir necha bor o'zgardi, taqsimlash qoldiq usuli, normativ usuli, majburiy to'lovlar usuli; soliq turlari o'zgarmagani holda, ularning stavkalari, ular bo'yicha imtiyozlar, sanksiya va jarima kabi jazo choralari iqtisodiy talablari bozor talablariga ko'ra tez-tez qayta qurilib, o'zgarib turadi.

O'zbekiston soliq tizimida uzoq davr mobaynida samarali faoliyat qilib kelgan oborot solig'i o'rniga joriy qilingan qo'shilgan qiymat solig'i (QQS)ning stavkasi dastlab 30% miqdorida, keyinchalik 25, 20, 18, 17 % miqdorlarigacha tushirildi. Hozirgi kunda esa, 20 % lik miqdor qo'llanilmoqda.

Moliyaviy mexanizmni shakllantirish bilan davlat uni u yoki bu davr moliya siyosati talablari bilan iloji boricha to'la mos kelishiga intiladi. Bu esa davlatning maqsad va vazifalarini to'laqonli bajarilishining garovi hisoblanadi.

Nazorat savollari.

1. Iqtisodiy siyosatning mazmuni nimadan iborat?
2. Iqtisodiy siyosat o'z ichiga nimalarni oladi?
3. Moliya siyosati qanday chora-tadbirlar yig'indisi hisoblanadi?
4. Moliya siyosatining muhim vazifasi nimalardan iborat?
5. Moliya siyosati qanday bo'g'inlarni o'z ichiga oladi?
6. Moliyaviy strategiya nima?
7. Moliyaviy taktika deganda nimani tushunasiz?
8. Moliya siyosati qanday vazifalarni bajaradi?
9. Budget siyosati deganda nima tushuniladi?

10. Pul-kredit siyosati deganda nima tushuniladi?
11. Xalqaro moliya siyosati qanday ahamiyatga ega?
12. Moliya siyosatining obyekti nima hisoblanadi?
13. Moliya siyosatining subyektlari kimlar hisoblanadi?
14. Hozirgi bosqichda davlatning moliyaviy siyosati qaysi yo‘nalishlarga qaratilgan?
15. Moliyaviy siyosatining hozirgi kundagi vazifalari nimalardan iborat bo‘lmog‘i lozim?
16. Moliya mexanizmiga ta’rif bering.
17. Moliya mexanizmi qanday turlarga bo‘linadi?
18. Direktiv (ia’muriy) moliya mexanizmining mohiyati nimada?
19. Tartibga soluvchi moliya mexanizmining mazmuni nimadan iborat?
20. Moliya mexanizmining tarkibiy tuzilishi qanday?
21. Moliya mexanizmining asosiy bo‘g‘inlarini aytib bering.

3-mavzu. Moliyani boshqarish va nazorat /4 soat/**1-ma'ruza. Moliyani boshqarish****Reja**

- 1. Moliyani boshqarish haqida umumiy tushuncha**
- 2. Moliyani boshqarishning shakl va usullari**
- 3. Moliyaviy boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimi**
- 4. Davlat moliyasini boshqarish tizimi**
- 5. Moliyani boshqarish organlarining funksiyalari**

1. Moliyani boshqarish haqida umumiy tushuncha

Boshqaruv - bu ma'lum bir natijaga erishish uchun obyektga ta'sir etishning maqsadli uslublari va yo'llari yig'indisidir. Boshqaruv jarayoni inson faoliyatining barcha sohalariga, shu jumladan moliyaviy sohasiga ham taalluqlidir. Boshqarish, insonlarning ongli ravishdagi maqsadga yo'naltirilgan faoliyati sifatida, jamiyat rivojlanishining obyektiv qonuniyatlarini bilishga asoslanadi. Shu bilan birgalikda, boshqarishga davlat tegishli boshqarish tuzulmalari orqali katta ta'sir o'tkazadi.

Boshqaruv faoliyatining muhim sohasi *moliyani boshqarish* hisoblanadi. Uni ma'lum bir uslub va tamoyillarga hamda turli rag'batlantirish va jazo (sanksiya)larga tayanib maxsus apparat amalga oshiradi.

Boshqarish san'ati oldinga qo'yilgan masalalarni tezroq hal qilish maqsadida mavjud usullar orasidan eng samaraligini tanlash yoki qo'llanilayotgan usullardan oqilona foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iboratdir.

Har qanday boshqaruv tizimiga xos bo'lgani kabi, moliyani boshqarishda ham obyektlar va subyektlar mavjud bo'ladi. Moliyani boshqarishning obyekti bo'lib turli moliyaviy munosabatlar hisoblanadi; subyektlari esa, boshqarishni amalga oshiruvchi tashkiliy tuzulmalar hisoblanadi. Moliyaviy munosabatlarning turkumlanishidan kelib chiqib, ularning sohaları bo'yicha quyidagi 3 guruh obyektlarga bo'linadi:

- korxonalar moliyasi;
- sug'urta;
- davlat moliyasi.

Ushbu obyektlarga quyidagi moliyani boshqaruv subyektlari mos keladi:

- korxonalarning moliya xizmatlari (bo'limlari);
- sug'urta organlari;
- moliya organlari va soliq inspeksiyalari.

Moliyani boshqarishni amalga oshiruvchi barcha tashkiliy tuzulmalar yig'indisi moliyaviy apparat deyiladi.

Davlat moliyasini boshqarishning *maqsadi* moliya siyosati shartlarini amalga oshirish hisoblanadi. Aynan samarali moliya siyosati bevosita moliyaning o'ziga (boshqaruv obyektiga) yuklatilgan ishning aniq bir usullari bilan, moliya tizimi organlarini (boshqaruv subyektlarini) tashkil qilish bilan bog'liq bo'lgan boshqarishning potensial imkoniyatlarini yaxlit birlashtirish imkonini beradi.

Barcha davlatlarda moliya siyosati institutsional moliya tizimi orqali amalga oshiriladi. Ularning faoliyati moliyaning bo'g'inlarini xususiyatlarini, barcha moliya muassasalari funksiyalarini uslubiy umumiyligini hisobga olgan holda; boshqarishning barcha quyi organlarini markazlashgan boshqaruvda faol ishtirok etishini hisobga olgan holda moliyani boshqarishga quriladi.

Moliya siyosatini yuritish va mos ravishda moliyani boshqarishning asosiy *uslubiy tamoyillari* quyidagilar hisoblanadi:

- yakuniy maqsadlarga bog'liqlik
- barcha xo'jalik tarmoqlarining makroiqtisodiy balanslashuvi;
- jamiyatning barcha a'zolari manfaatlariga mos kelishlik;
- iqtisodiy qonunlardan foydalanish;
- real imkoniyatlar asosida ichki va tashqi iqtisodiy hamda siyosiy sharoitlarni hisobga

olish.

Moliyani boshqarishning *maqsadi* – makroiqtisodiy balanslashuvda, budget profitsitida, davlat qarzining kamayishida, milliy valyutaning mustahkamligida, natijada esa aholining farovonligini o'sishida namoyon bo'luvchi barqarorlik va moliyaviy mustaqillikni ta'minlash.

2. Moliyani boshqarishning shakl va usullari

Moliya tizimining barcha soha va bo'g'inlarida, maqsad qilingan natijaga erishish uchun moliyaviy boshqaruv subyektlari moliyaga ta'sir etishning turli maxsus usullaridan foydalanadi. Shu bilan birga ular uchun moliyaviy boshqaruvning umumiy uslub va qoidalari mavjuddir. Jumladan, moliyani boshqarishda bir necha umumiy xususiyatga ega bo'lgan funksional elementlar mavjud. Ular:

1. Rejalashtirish.
2. Tezkor (operativ) boshqarish.
3. Nazorat.

Moliyani boshqarish tizimida asosiy o'rinni rejalashtirish tashkil qiladi, chunki aynan rejalashtirish jarayonida har qanday xo'jalik yurituvchi subyekt har tomonlama o'zining moliyaviy holatini baholaydi, moliyaviy resurslarni oshirish imkoniyatlarini, ulardan eng samarali foydalanish yo'nalishlarini aniqlaydi. Rejalashtirish jarayonida boshqarish qarorlari moliyaviy ma'lumotlar tahlili asosida qabul qilinadi. Shuning uchun bunday ma'lumotlar yetarlicha to'la va haqqoniy bo'lmog'i lozim. Ma'lumotlarni haqqoniy va o'z vaqtida olinishi asoslangan qarorlar qabul qilinishini ta'minlaydi. Moliyaviy ma'lumotlar buxgalteriya, statistik va tezkor (operativ) hisobotlarga asoslanadi.

Tezkor (operativ) boshqarish bu – mavjud moliyaviy holatni tezkor (operativ) tahlil qilish asosida moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash yordamida minimal xarajat qilib maksimal samaraga erishishga qaratilgan chora-tadbirlar yig'indisidir. Tezkor (operativ) boshqarish egiluvchanlik xususiyatiga egadir.

Nazorat - boshqaruv elementi sifatida bir vaqtning o'zida moliyani rejalashtirishda hamda tezkor (operativ) boshqarishda qo'llaniladi. Nazorat haqiqiy natija bilan rejadagi ko'rsatkichlarni taqqoslashga yordam beradi, moliyaviy resurslarni o'sish rezervlarini aniqlaydi va samarali xo'jalik yuritish yo'llarini ko'rsatib beradi.

Moliyani boshqarish *strategik yoki umumiy boshqaruv* va *tezkor (operativ) boshqaruv*larga bo'linadi. Strategik boshqaruv istiqbolni belgilash, maqsadli dasturlar va boshqalarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan moliyaviy resurslar hajmini o'rnatish orqali namoyon bo'ladi. U davlat va iqtisodiy (xo'jalik) boshqarish organlari tomonidan amalga oshiriladi. Moliyani strategik (umumiy) boshqaruv subyektlarini: Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi va Prezident devoni tashkil etadi.

Moliyani *tezkor (operativ) boshqarish* moliya tizimi apparatining bosh funksiyasi hisoblanadi. Moliyani tezkor (operativ) boshqaruv subyektlarini Moliya Vazirligi, Davlat Soliq qo'mitasi va ularning joylardagi bo'linmalari, budgetdan tashqari fondlarning, sug'urta tashkilotlarining boshqaruv apparatlari, xo'jalik subyektlarining moliya bo'lim (xizmat) lari tashkil etadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyani boshqarishni ilmiy asoslangan holda, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning tajribalarini o'rgangan holda hamda respublikaning ichki xususiyatlarini hisobga olib tashkil qilinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

XX asrning 2-yarimi jahon xo'jaligida revolyutsion ham evolyutsion burilish davri bo'ldi. Natijada ilmiy texnik taraqqiyotning keskin avj olishi va jahon xo'jaligi tovar ishlab chiqarishining keskin o'sishi barcha sohalarida bo'lganidek boshqaruvning ilmiy konsepsiyalarida ham taraqqiyotlar bo'lishiga olib keldi. Natijada zamonaviy moliyaviy menedjment konsepsiyasi mustaqil shakllana boshladiki, uning asosiy muammosi sifatida korxonalar moliyaviy munosabatlari, pul mablag'larini aylanishining ichki va tashqi omillarini ta'siriga asoslangan holda samarali tashkil etish masalalarini o'z ichiga ola boshladi.

Bozor iqtisodiyoti xo'jalik subyektlari orqali ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonida bozordagi talab va taklif, aniq ist'emo'lchilar talablari, ishlab chiqaruvchi uchun maksimal foyda olish imkoniyatini tug'diruvchi mahsulot ishlab chiqarishni ko'zda tutadi.

3. Moliyaviy boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimi

Iqtisodiyotda bozor munosabatlariga o'tish jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining barcha sohalariga axborotlashtirish sohasida erishilgan eng so'ngi yutuqlarni tadbiq etish sur'atlarini nihoyatda tezlashtirib yubordi. «Axborotlashtirish» atamasi mahalliy ko'p terminalli axborot-hisoblash tizimlari va omaviy xizmat ko'rsatish tarmoqlarini yaratish tufayli ilk bor paydo bo'lgan.

Axborotlashtirish kishilik jamiyatining barcha sohalariga kirib bormoqda Yaqin yillarda iqtisodchining ish joyini kompyutersiz tasavvur qilish qiyin va bu universal texnikaning imkoniyatlari mutaxassislar tomonidan to'liq darajada foydalanilishi kerak. Kompyuterda ishlashni bilish iqtisodchilarni ishga qabul qilishdagi talablardan biri ekani tasodifiy hol emas.

Boshqaruv shakllari va usullarini takomillashtirish fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari, elektron hisoblash mashinalari va boshqa texnik vositalar yordamida axborotni jamlash, qayta ishlash, uzatish qonunlari va usullarini o'rganish bilan shug'ullanuvchi axborotlashtirishni yanada rivojlantirish asosida o'tadi. Axborotlashtirishning usul va vositalari yangi yoki zamonaviy deb ataluvchi avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalari ko'rinishida ham amalga oshirilmoqda. Shunday davr keldiki, unda jamiyat, ishlab chiqarishni salohiyati va ilmiy darajasi EHMLarning miqdoriy quvvati va axborotlarni ular yordamida qayta ishlashni takomillashtirish darajasi bilan belgilanadi.

Insonning axborot ishlab chiqishi bo'yicha imkoniyatlarini kuchaytiruvchi zamonaviy texnologiyalar bilan qurollantirish - axborotlashtirish sanoatini jadal rivojlantirishni talab etuvchi eng muhim texnik-iqtisodiy vazifadir.

Bunda yangi, xali ilmiy adabiyotlardan mustahkam joylashib ulgurmagan tushunchalar - "Axborotlashgan iqtisodiyot" "Axborotlashgan resurslar", "Axborotlar biznesi", "Axborotlar tizimini boshqarish" va hokazo yuzaga keldi.

Axborot tushunchasi lotincha «informatio» so'zidan olingan bo'lib, biron-bir dalil, voqea, hodisani bayon qilish, tushuntirishni bildiradi.

Korxonalar moliyasini avtomatlashtirilgan tizimda boshqarish jarayonining asosi korxonalarda moliyaviy boshqaruvning axborotlar tizimini mavjudligi hisoblanadi.

Korxonalar moliyaviy boshqaruv tizimining axborotlar manbalarini 2 turga, ya'ni *ichki axborotlar manbalari* va *tashqi axborotlar manbalariga* ajratamiz.

Axborotlar resurslarining manbalari mavjud ekan biz bevosita korxonalar moliyasini avtomatlashtirilgan tizimda boshqarish asosiga ega hisoblanamiz.

Iqtisodiy axborot - axborotning eng muhim turlaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiy axborotlar ishlab chiqarish jarayonlari, moddiy resurslar, bozorlar, bank va moliya muassasalari faoliyati bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir.

Chunonchi, iqtisodiy axborotlarning tarkibiy qismlaridan biri sifatida *moliyaviy axborotlarni* ham ko'rib utamiz.

Avomatlashtirilgan moliyaviy axborotlar tizimlarining majmuasi jamiyat infratuzilmasi xususan, moliyaviy infratuzilmaning eng muhim tarkibiy qismi bo'ladi.

Mamlakatimiz tovarlar va moliya bozorining shiddat bilan rivojlanishi jamiyat hayotining barcha jabhalarida axborotlashtirish jarayonlarining jadallik bilan o'sishi uchun kuchli turtki bo'ladi. Axborotlarning va ishlab chiqarish-xo'jalik, boshqaruv faoliyati va foydalanuvchilarning turli-tuman kategoriyalariga axborotli xizmat ko'rsatishning rolini baholashga yondoshish o'zgarmoqda. Davlatning qonunchilik va tartibga soluvchi faoliyati natijasida mikro va makroiqtisodiy obyektlar darajasida ishlab chiqilayotgan hisob-statistika ma'lumotlarining ishonchliligi, o'z vaqtidaligi va qonuniyligiga talab o'smoqda. Ishlab chiqarish va biznesning axborotlar bilan hamkorlik qilishi, soliqlarning yig'ilishining to'liqligi va o'z vaqtidaligining zaruriy sharti bo'lib qoldi, bu holat bugungi kunda eng turli, shu jumladan moliyaviy-iqtisodiy axborotlarning asosiy iste'molchisi - davlatning mavjud bo'lishi va gullab-yashnashini borgan sari ko'proq darajada belgilaydi.

Axborot texnologiyalari asosida moliyaviy faoliyat darajasida quyidagi vazifalarni hal etishi mumkin:

- korxonaning moliyaviy faoliyati tug'risidagi ma'lumotlarni qayta ishlash;
- korxonaning moliyaviy faoliyati holati to'g'risida davriy nazorat hisobotlarini tuzish

Dasturiy ta'minot yordamida ma'lumolar bazasidagi narsalar tashkilotda moliyaviy qaror qabul qilishda ishtirok etuvchi mutaxassislariga tegishli davriy va maxsus hisobotlarda o'zgaradi. Ko'rsatilgan moliyaviy axborotni olish uchun foydalaniladigan ma'lumotlar bazasi ikki elementdan tashkil topishi lozim:

1. Korxonaning moliyaviy faoliyatini baholash asosida jamlanadigan moliyaviy axborotlar;
2. Boshqariladigan obyektning rejalashtirilgan ahvolini belgilovchi rejalar, standartlar, budjetlar va boshqa me'yoriy hujjatlar.


Avtomatlashtirish tarixan ishlab chiqarishda boshlangan va so'ngra ofisga tarqalgan, boshida faqat mayda-chuyda kotibalik ishini avtomatlashtirish maqsadiga ega bo'lgan. Kommunikatsiya vositalari rivojlangan sari ofis texnologiyalarini avtomatlashtirish mutaxassis va boshqaruvchilarni qiziktirib qoldi, ular bunda o'z mehnati samaradorligini oshirish imkoniyatini ko'radilar.

4.Moliyani boshqarish haqida umumiy tushuncha

Bizning mamlakatimizda moliyani boshqarishning yangi tizimi tuzilgan bo'lib, u muntazam takomillashtirib borilmoqda. Moliyani boshqarish tizimi 6-rasmda aks ettirilgan. Moliya siyosatini amalga oshirish natijasida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish uchun sharoitlar yaratuvchi YaIMning qayta taqsimlanishi amalga oshiriladi.

Tuzilgan moliyani boshqarish tizimi o'uyidagilarni amalga oshirishi zarur:

1. Turli darajadagi budjetlarning bajarilishi ta'minlash;
2. Davlat dasturlarini moliyalashtirilishining tezkorligi oshirish;
3. Davlat mablag'larining kelib tushishi va maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish;
4. Budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish hamda moliya va soliq organlarining muvofiqligini oshirish;
5. Budjetlarning daromadlar bazasini soliqlarning yig'uvchanligini oshirish, soliqlarni undirish uslubiyotini takomillashtirish va ularni to'la yig'ish hisobiga ko'paytirish;
6. Mablag'larni barcha darajadagi budjetlarning ijtimoiy himoyaga mo'ljallangan moddalari bo'yicha ijtimoiy siyosatni amalga oshirish va o'z vaqtida va to'la moliyalashtirilishini ta'minlashga yo'naltirish;
7. Valyuta-moliya operatsiyalarining samaradorligini oshirish va milliy valyutani kuchaytirish va b.



6-rasm. O'zbekiston Respublikasi davlat moliyasini boshqarish tizimi

Moliya tizimini umumiy boshqarishni *yuqori hokimiyat va boshqaruv organlari* amalga oshiradi:

1. O‘zR Prezidenti (Prezident Devoni) moliya siyosatining maqsadini belgilaydi, O‘zR Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan moliya qonunchiligi bo‘yicha “veto” huquigga ega.

2. O‘zR Parlamenti (ikki palatadan: quyi Qonunchilik palatasi va Senatdan iborat O‘zR Oliy Majlisi) soliqlar, yig‘imlar, soliqsiz to‘lovlarni o‘rnatadi, davlat budjetini tasdiqlaydi, moliyaviy qonunchilikni qabul qiladi va b.

3. O‘zR Hukumati (Vazirlar Mahkamasi) davlat budjetini ishlab chiqadi, moliyani boshqarishning muvofiqlashtiruvchi markazi sifatida namoyon bo‘ladi.

4. O‘zR Moliya vazirligi – moliya siyosatini amalga oshiruvchi markaziy organ. U O‘zbekiston Respublikasida moliya, pul-kredit va valyuta siyosatining yaxlitligini ta‘minlaydi.

5. Davlat soliq qo‘mitasi va Davlat bojxona qo‘mitasi soliqlarni, bojxona bojlarini, yig‘imlar va boshqa to‘lovlarni to‘ri hisoblanishi, budjetga to‘la va o‘z vaqtida tushishi ustidan nazoratni amalga oshiradilar.

5. O‘zR Markaziy banki pul-kredit va moliya siyosatini amalga oshirish bo‘yicha muhim organ hisoblanadi. U G‘aznachilik bilan birgalikda budjetning kassa ijrosini amalga oshiradi, boshqa kredit muassasalarining faoliyatini nazorat qiladi.

6. O‘zRning Hisob palatasi moliyaviy qonunchilikni bajarilishini va davlatni pul mablag‘larining harakatini nazorat qiladi. U O‘zR Oliy Majlisiga bo‘ysunadi.

5. Moliyani boshqarish organlarining funksiyalari

Davlatning moliyaviy faoliyatini amalga oshirishda davlatning barcha hokimiyat va boshqaruv organlari ishtirok etadi. Ularning har biri moliya bilan bog‘liq bo‘lgan ma‘lum funksiyalarni bajaradi. Ularning moliyaviy faoliyatini xarakteri va mazmuni sezilarli farq qiladi, chunki mazkur organlarning vazifalari va huquqiy mavqei turlichadir. Shularni hisobga olib, davlatning moliyaviy faoliyatini amalga oshiruvchi organlarni bir nechta guruhlariga ajratish mumkin.

Birinchi guruhni davlatning vakillik organlari (Oliy Majlis, Xalq deputatlari kengashlari) va o‘zining funksiyalari bilan bir qatorda tegishli hududlar – davlat yoki alohida ma‘muriy-hududiy birliklar ko‘lamida moliyaviy faoliyatni amalga oshiruvchi umumiy vakolatdagi ijroiya hokimiyati organlari (Vazirlar Mahkamasi, hokimiyatlar) tashkil qiladi. Bu organlarning moliya faoliyati sohasidagi vakolatlari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida va ularning huquqiy maqomini belgilovchi me‘yoriy hujjatlarda (“O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi, “Joylardagi davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi, “Budjet tizimi to‘g‘risida” qonunlar) mustahkamlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetini qabul qiladi va uning ijrosini nazorat etadi, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni joriy qiladi (Konstitutsiyaning 78-moddasi), moliya, pul-kredit, soliq, bank tizimlarining asoslarini va budjet qo‘rilmasini belgilaydi (Konstitutsiyaning 122, 124-moddalari). Uning o‘zi davlatni moliya faoliyatining muhim masalalari yuzasidan qonunlar qabul qiladi (misol uchun, budjet tizimi to‘risida, soliqlar to‘g‘risida, banklar va bank faoliyati to‘g‘risida, valyutani tartibga solish to‘g‘risida va h.k.).

Vazirlar Mahkamasi davlat budjetini ishlab chiqish va ijrosini tashkil qiladi, davlatning pul va kredit tizimini musatahqamlash bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishiga hayrixohlik qiladi, O‘zbekiston Respublikasi Hukumati ixtiyorida bo‘lgan davlat budjetdan tashqari fondlarini shakllantirish va foydalanish masalalarini hal etadi, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va davlat budjetini ijro etish bo‘yicha boshqa davlat boshqaruvi organlarining ishini muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi. Bundan tashqari, mustasno tariqasida Vazirlar Mahkamasining majlislarida davlat qimmatli qog‘ozlarini muomalaga chiqarish hajmlari va davlatning ichki va tashqi qarzlarini

oshirish chegaralari to'g'risidagi, soliqlarning va davlat bojlarining stavkalarini o'rnatish va o'zgartirish to'g'risidagi takliflar ko'rib chiqiladi.

Xalq deputatlari Kengashlari va hokimiyatlar o'zlarining vakolatlari doirasida tegishli ma'muriy-hududiy birliklarning moliyasini boshqarishni ta'minlaydilar. Jumladan, bu organlar, mahalliy budjetlar loyihalarini ishlab chiqishni, ularni tasdiqlash va ijrosini, shuningdek bu budjetlarning ijrosi bo'yicha hisobotlarni tasdiqlashni amalga oshiradilar, qonunchilik bo'yicha mahalliy budjetlarga kelib tushuvchi mahalliy soliqlar, yig'imlar va to'lovlar hajmlarini va ular bo'yicha imtiyozlarni belgilaydilar.

Davlat moliyaviy faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning *ikkinchi guruhini tarmoq va maxsus huquq doirasidagi* ijroiya hokimiyati organlari tashkil etadi.

Tarmoq huquq doirasidagi organlarga ular uchun moliya faoliyati asosiy bo'lmagan vazirliklar, idoralar va boshqa tarmoq boshqaruv organlari kiradi. Bu organlar tomonidan moliya faoliyati ularning iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy qurilish qismi tomonidan yuklatilgan ko'rsatma bo'yicha *tarmoq boshqaruv organlari* sifatidagi o'zini asosiy funktsiya va vazifalarini bajarish munosabati bilan amalga oshiriladi. Ko'rastib o'tilgan boshqaruv organlari, idoraviy bo'ysinuvdagi muassasalarning smetalarini tasdiqlash, tarmoq doirasida pul mablag'larini taqsimlash va boshqa moliyaviy funktsiyalar sifatidagi moliyaviy faoliyatning funktsiyalarini bajarsalarda, tarmoq boshqaruv organlari bo'yicha qolaveradilar va ularning vakolatlari davlat boshqaruvining u yoki bu sohasi doirasidan chetga chiqmaydi.

Maxsus huquq doirasidagi organlarga faqatgina ularning asosiy vazifasi moliya faoliyati bo'lgan davlat organlari kiradi hamda ular bunday vazifalarni hal etish uchun maxsus tuziladilar. Bu bilan ular, tarmoq huquq doirasidagi organlardan farqli o'laroq, tarmoqlararo, idoralar usti xarakteridagi maxsus vakolatlarga ega bo'ladilar va barcha boshqa davlat organlariga, yuridik va jismoniy shaxslarga moliya sohasida ularning vakolatlariga kiruvchi masalalar bo'yicha majburiy bajarilishi lozim bo'lgan ko'rsatmalarni berish huquqiga ega bo'ladilar.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi davlat boshqaruvi organi hisoblanib, yagona soliq-budjet siyosatini tashkil etish faoliyatini amalga oshiradi. "O'zbekiston Respublikasining Moliya vazirligi to'g'risida"gi Nizomga asosan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tizimiga: Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, Toshkent shahar va viloyat hokimiyatlarining moliya boshqarmalari, shahar va tuman hokimiyatlarining moliya bo'limlari kiradi.

Moliya vazirligining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- Davlat budjeti va konsolidatsiyali budjet taxminining loyihasini tayyorlash, uning bajarilishini ta'minlash, Davlat budjetining bajarilganligi haqida hisobotni tayyorlash;
- aholining yashash turmushini oshirish va iqtisodiyotning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlarni ta'minlash maqsadida soliqlarning fiskal va rag'batlantiruvchi rolini optimallashtirishni nazarda tutuvchi soliq siyosati va soliqqa tortishning tizimini takomillashtirish borasidagi takliflarni ishlab chiqish;
- davlatning tashqi o'zlashtirmalari loyihasiga baho berish;
- davlat mablag'larining maqsadli va foydadorlik bilan o'zlashtirilishi ustidan o'z vakolatlari doirasida davlat moliya nazoratini o'tkazish.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi zimmasiga yuklatilgan vazifalarga muvofiq quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

- budjet tizimini takomillashtirish sohasida budjet tizimi va budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish borasida taklif tayyorlaydi va ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritadi, budjetlararo munosabatlarning budjet tizimini takomillashtirish borasida huquqiy-me'yoriy aktlar loyihasini ishlab chiqadi, soliq-budjet siyosati va moliya sohasida ilmiy izlanishlarni tashkil etish va boshq.;

- istiqboldagi rejalar va joriy yil budjet siyosatining asosiy yo'nalishlari uchun soliq-budjet siyosati sohasida takliflar ishlab chiqib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritadi, mustahkam budjet taxmini va davlat budjeti loyihalarini tayyorlaydi, davlat xarajatlari tuzilishini takomillashtirish bo'yicha taklif tayyorlaydi, budjet tashkilotlarining xarajatlari va ularni

moliyalashni rejalashtirish budjeti uslubini ishlab chiqib, tadbqiq etadi, davlat budjetining foyda va xarajatlarini boshqaradi;

- xalqaro andozalarga mos ravishda Markaziy bank bilan hamkorlikda yagona budjetni ishlab chiqish va bajarish sohasida yagona budjetning bajarilishini nazorat qiladitegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda davlatning maqsadli fondi va uning o'zlashtirilishlari borasida yillik kvartal tushumlar taxminini ishlar chiqib, tasdiqlaydi, budjetdan tashqari fondlarning viloyatlar bo'yicha taqsimlangan tushumlar va xarajatlar yo'nalishi tasdiqlangan taxminiy foyda va xarajatlari bo'yicha monitoring o'tkazadi;

- davlat qarzlarini boshqarish sohasida Markaziy bank bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasining ichki qarzlar bo'yicha hisob olib, xizmat ko'rsatib, monitoring olib boradi, davlat qarzlarining tuzilishini takomillashtirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritadi, davlat qimmatli qog'ozlarining emitenti vazifasini bajaradi, ularni chiqarish shart-sharoitlarini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi, davlat tashqi qarzlarini boshqaradi, davlatning tashqi o'zlashtirmalarining chegaraviy parametrlarini ishlab chiqadi, belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasining kafolatini tayyorlaydi va taqdim etadi, tashqi kreditorlar bilan zayom va boshqa kelishuvlar bo'yicha majburiyatlarni bajarishni tashkil etadi, O'zbekiston Respublikasi kafolatlagan va jalb qilgan xorijiy kreditlarning o'zlashtirilishi va xizmat ko'rsatilishi yuzasidan hisobot va nazorat olib borish;

- moliya bozori va institutlarini tartibga solishda o'z vakolati doirasida mustahkam moliya tizimining faoliyat ko'rsatishi, mamlakat tizimidagi moliya bozori va moliya institutlarini davlat tomonidan tartibga solinishi uchun chora-tadbirlar ishlab chiqadi, belgilangan tartibda korxonalarning ustav kapitalidagi davlat ulushini boshqaradi, sug'urta faoliyatini tartibga soladi va nazorat olib boradi.

G'aznachilik davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash uchun budjet mablag'laridan maqbul foydalanish yo'li bilan barcha budjetdan mablag' oluvchilar uchun xarajatlarning kassa ijrosini o'z vaqtida va maqsadli amalga oshiradi.

Davlatning moliya faoliyatini amalga oshiruvchi maxsus huquq doirasiga ega bo'lgan organlardan biri *O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki* hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida" qonuniga asosan bu organ ham davlat boshqaruv organi, ham yuridik shaxs hisoblanadi.

Markaziy bankning *bosh maqsadi* milliy valyutaning barqarorligini ta'minlashdan iborat.

Uning asosiy vazifalari:

- monetar siyosatni hamda valyutani tartibga solish sohasidagi siyosatni shakllantirish, qabul qilish va amalga oshirish;

- O'zbekiston Respublikasida hisob-kitoblarning samarali tizimini tashkil etish va ta'minlash;

- banklar, kredit uyushmalari va garovxonalar faoliyatini litsenziyalash hamda tartibga solish, banklar, kredit uyushmalari garovxonalarni nazorat qilish, qimmatbaho qog'ozlar blankalari ishlab chiqarishni litsenziyalash;

- O'zbekiston Respublikasining rasmiy oltin-valyuta rezervlarini, shu jumladan kelishuv bo'yicha hukumat rezervlarini saqlash va tasarruf etish;

- davlat budjetining kassa ijrosini Moliya vazirligi bilan birgalikda tashkil etishdan iboratdir.

Moliya faoliyatini amalga oshiruvchi maxsus huquq doirasiga ega bo'lgan organlar qatorida moliyaviy nazoratni amalga oshirish uchun tuzilgan bir qancha organlarni ko'rsatishimiz mumkin. Ularga Hisob palatasi, Davlat soliq qo'mitasi, Nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish Respublika Kengashi va boshqalarni misol qilishimiz mumkin.

Quyidagilar O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining asosiy vazifalari hisoblanadi:

- Davlat budjeti loyihasining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va parametrlarini shakllantirish jarayonini chuqur va puxta o'rganish, ularni bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish borasida o'tkazilayotgan siyosatning g'oyat muhim ustuvor yo'nalishlariga,

respublikani iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish sohasida qabul qilingan maqsadli kompleks dasturlarga to‘la-to‘kis mos kelishi nuqtai nazaridan tanqidiy baholash;

- tarmoqlar va hududlar bo‘yicha Davlat budjetining daromad qismi shakllantirilishi va ijrosini moddama-modda, har tomonlama chuqur tahlil etish, budjet daromadlarining asosiy moddalari bo‘yicha prognoz ko‘rsatkichlarining realligi va tig‘izligiga baho berish, bunda yoqilg‘i-energetika kompleksi, qazib chiqarish sanoati, iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish va savdo, iqtisodiyotning daromad hosil qiluvchi boshqa tarmoq va sohalaridagi zaxiralarni aniqlashga alohida e‘tibor qaratish;

- agrosanoat kompleksidagi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holati monitoringini amalga oshirish, qishloq va suv xo‘jaligini rivojlantirishga ajratiladigan budjet mablag‘lari hamda budjetdan tashqari jamg‘armalarning mablag‘laridan maqsadli, oqilona va samarali foydalanilishini nazorat qilish;

- mahalliy budjetlar shakllantirilishi va amalga oshirilishini, ularning balanslanishini muntazam tahlil etish va nazorat qilish, mahalliy boshqaruv va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalar hamda funksiyalarni bajarish uchun ularga real moliyaviy mablag‘lar ajratib berish vazifasini hal etish zarurligidan kelib chiqqan holda respublika va mahalliy budjetlar o‘rtasidagi nisbatni maqbullashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

- respublika darajasida ham, mahalliy darajada ham davlat budjetining ijrosi va davlat mablag‘larining sarflanishi ustidan nazoratni tashkil qilish va ta‘minlash. Davlat xarajatlarini kamaytirish rezervlarini aniqlash. Markazda va joylarda budjet mablag‘laridan qonuniy, maqsadli va samarali foydalanilishini, ulardan foydalanishda qonunbuzarliklar va suiiste‘molchiliklarning oldini olish choralarini amalga oshirish;

- budjetdan tashqari jamg‘armalar — Respublika yo‘l jamg‘armasi, Pensiya jamg‘armasi, Maktab ta‘limini rivojlantirish jamg‘armasi, Ish bilan ta‘minlashga ko‘maklashish jamg‘armasi, Qishloq xo‘jaligini avanslash jamg‘armasining davlat budjeti tarkibida yig‘iladigan mablag‘lari to‘liq tushishi, ulardan maqsadli, oqilona va samarali foydalanilishi ustidan qattiq nazoratni amalga oshirish;

- o‘tkazilayotgan pul-kredit siyosatini, milliy valyutani mustahkamlash, uning xarid qobiliyatini oshirish, pul massasi va pul agregatlarini maqbul holga keltirish, bankdan tashqari pul aylanishini keskin qisqartirish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlarni chuqur tahlil qilish va baholash;

- respublika tashqi savdo oborotining ahvolini chuqur tahlil qilish, respublika to‘lov balansini shakllantirish va undan foydalanishni baholash. Tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksporti prognozi bajarilishi, mahsulot importi maqbullashtirilishining ta‘minlanishi, eksport tushumlari va xorijiy valyutani sotish to‘la-to‘kis va o‘z vaqtida bo‘lishi monitoringini amalga oshirish. Ichki valyuta bozorida valyutaga bo‘lgan talab va taklifni o‘rganish, ayirboshlash kursi dinamikasi bo‘yicha takliflar ishlab chiqish, milliy valyutaning erkin almashtirilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

- tashqaridan olinadigan qarzlarining hajmlari va maqsadga muvofiqligini tanqidiy baholash, olinadigan xorijiy kredit va grant mablag‘laridan samarali va oqilona foydalanilishini, shuningdek Hukumat tomonidan yoki Hukumatning kafolati bilan olingan tashqi kreditlarga o‘z vaqtida xizmat ko‘rsatilishini qattiq nazorat qilish;

- oltin-valyuta zaxiralarning holati va uning harakati ustidan nazoratni amalga oshirish, tashqi aktivlarni boshqarish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni tahlil qilish va ularni xorijiy banklarda samarali joylashtirish va qayta joylashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish, oltin-valyuta zaxiralari, shu jumladan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar bilan o‘tkaziladigan operatsiyalar ustidan nazoratni ta‘minlash.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat soliq qo‘mitasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 12-yanvardagi 14-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g‘risida”gi Qaroriga asosan tashkil qilingan.

Davlat soliq xizmati organlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini, soliqlarning, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya va Respublika pul jamg'armalariga majburiy to'lovlarning to'g'ri hisoblab chiqarilishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishini, shuningdek fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallarining to'g'ri va to'liq hisoblab chiqarilishi hamda o'z vaqtida kiritilishini nazorat qilish;

2. Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlash, soliq to'lovchilarga soliqlar bo'yicha majburiyatlarni bajarishlarida yordam ko'rsatish;

3. Soliq siyosatining ro'yobga chiqarilishida bevosita qatnashish;

4. Soliqqa tortiladigan obyektlar va subyektlarning to'liq hamda o'z vaqtida hisobga olinishini ta'minlash;

5. Soliqlar bo'yicha huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etish.

Davlat soliq xizmati organlari o'z vakolatlari doirasida quyidagi huquqlarga ega:

1) soliq to'lovchilarning (shu jumladan, soliq to'lovchi bilan bog'liq bo'lgan subyektlarning) moliyaviy hujjatlari, shartnomalari (kontraktlari), rejalari, smetalari, daromadlar haqidagi deklaratsiyalari soliqlar va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya va Respublika yo'l jamg'armalariga majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallarini kiritish bilan bog'liq boshqa hujjatlarini, shuningdek eksport-import operatsiyalari bilan bog'liq hujjatlarini tekshirish, tekshiruv vaqtida yuzaga keladigan masalalar bo'yicha zarur tushuntirishlar, ma'lumotnomalar va axborotlar olish;

2) yuridik va jismoniy shaxslardan soliq to'lovchilarning faoliyatiga taalluqli axborotlar, ma'lumotnomalar, hujjatlar va ularning nusxalarini olish;

3) belgilangan tartibda:

– soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining buzilishiga yo'l qo'yayotgan yuridik va jismoniy shaxslardan daromadni (foydani) va soliqqa tortiladigan boshqa obyektlar yashirilganligidan dalolat beruvchi hujjatlarni, shuningdek huquqbuzarlik predmetlarini olib qo'yish;

– tadbirkorlik faoliyati bilan shugullanish tartibini buzayotgan jismoniy shaxslardan litsenziyalarini, patentlari yoki ro'yxatdan o'tganlik to'g'risidagi guvohnomalarini olib qo'yib, so'ngra qonun buzilganligiga doir materiallarni mazkur faoliyat bilan shugullanishga ruxsat bergan organlarga topshirish;

4) kassalarni va tovar-moddiy boyliklar hamda hujjatlar saqlanadigan joylarni muhrlab qo'yish, tovarlar, buyumlar, xom ashyo, materiallar va yarim tayyor mahsulotlarning namunalarini, shuningdek hujjatlarni olib qo'yish va ularni tekshirishga, tadqiq qilishga va ekspertizaga yuborish;

5) savdo, tovarlarni berish va xizmatlar ko'rsatish qoidalariga, shuningdek naqd pul tushumining bankka vaqtida topshirilishiga rioya etilishini tekshirish;

6) yuridik va jismoniy shaxslarning qaerda joylashganligidan qat'i nazar, daromad (foyd) olish uchun foydalaniladigan yoxud soliqqa tortish obyektlarini saqlab turish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish binolari, omborxonalar, savdo va boshqa binolarni hamda joylarni (shu jumladan alohida rejimdagi korxonalarni) tekshirish, bajarilgan ishlarni, ko'rsatilgan xizmatlarni tekshiruv tariqasida o'lchash va tovar-moddiy boyliklarni ro'yxat qilish. Soliq xizmati organlarining soliqlar bo'yicha tekshirish o'tkazayotgan mansabdor shaxslari mazkur binolar yoki joylarga kiritilmagan taqdirda davlat soliq xizmati organlari o'zlarida mavjud bo'lgan axborotlar (shu jumladan, soliq to'lovchining xarajatlari haqidagi axborotlar) asosida yoki boshqa shunga o'xshagan soliq to'lovchilarga solinadigan soliqlarni nazarda tutgan holda soliqlar summasini mustaqil ravishda belgilashga haqlidirlar;

7) yuridik va jismoniy shaxslardan qonun hujjatlarining buzilganligi aniqlangan hollarni bartaraf etishni talab qilish;

8) yuridik hamda jismoniy shaxslar hujjatlar asosida (hisob-kitobli) tekshiruv o'tkazilishini yoki davlat soliq xizmati organlarining mansabdor shaxslari daromad (foyd) olish uchun foydalaniladigan yoki soliqqa tortish obyektni saqlab turish bilan bog'liq binolar va joylarga

kirishini rad etsa, soliqlar va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya va Respublika yo'l jamg'armalariga majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish va to'lash bilan bog'liq moliyaviy hisobotlar, hisob-kitoblar, deklaratsiyalar va boshqa hujjatlarni soliq xizmati organlariga va ularning mansabdor shaxslariga tekshirish o'tkazilayotgan vaqtda taqdim etmasa (yoki taqdim etishni rad qilsa), bunday yuridik shaxslarning, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq jismoniy shaxslarning banklardagi va boshqa moliya-kredit muassasalaridagi hisob-kitob va boshqa hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarini to'xtatib qo'yish;

9) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda:

– soliqlarga oid qonunbuzarliklar haqidagi ishlarni ko'rib chiqish va yuridik hamda jismoniy shaxslarga nisbatan moliyaviy jazo choralari qo'llash;

– ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va ma'muriy jazo choralari qo'llash;

10) soliqlar borasida qonunbuzarlik faktlari bo'yicha tovar-moddiy boyliklarni qonun hujjatlarida belgilangan hollarda va tartibda musodara qilish;

11) soliqlar bo'yicha boqimandalarni, shuningdek jarima summalarini qonun hujjatlariga muvofiq so'zsiz undirib olish;

12) yuridik va jismoniy shaxslarning gayriqonuniy ravishda olgan mablag'larini davlat daromadiga undirish haqida ularga nisbatan sudda da'vo qo'zgatish;

13) tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslarning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish va taftish qilishni belgilangan tartibda muvofiqlashtirish, nazorat qiluvchi organlar xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish va taftish qilish yuzasidan amalga oshirayotgan ishlarni to'xtatish haqida takliflar kiritish;

Davlat soliq xizmati organlarining 1-7-bandlarda nazarda tutilgan huquqlari davlat soliq xizmati organlarining barcha mansabdor shaxslariga, 8-14-bandlarda nazarda tutilgan huquqlari esa (tezkor-qidiruv faoliyati bundan mustasno) faqat davlat soliq xizmati organlarining boshliqlari va ularning o'rinbosarlariga beriladi. 8-15-bandlarda nazarda tutilgan huquqlar soliq sohasidagi huquqbuzarliklarga qarshi kurashish maxsus bo'linmasi va uning hududiy bo'linmalarining mansabdor shaxslariga beriladi.

O'zbekiston Respublikasining Davlat bojxona qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 8-iyuldagi PF-1815-sonli "O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasini tashkil qilish to'g'risida"gi Farmoniga asosan tashkil etilgan.

Davlat bojxona qo'mitasi organlarining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

1. Respublikaning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va belgilangan vakolatlar doirasida uning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash;

2. Respublika boj siyosati ishlab chiqilishi va amalga oshirilishida qatnashish;

3. Boj qonunlariga rioya qilinishi ustidan nazorat o'rnatish;

4. Boj ishlarini amalga oshirishda fuqarolarning, shuningdek yuridik shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish;

5. Respublikaning tashqi iqtisodiy aloqalari rivojlanishiga ko'maklashish;

6. Xorijiy davlatlarning bojxona organlari, bojxona ishi masalalari bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish, xalqaro bojxona va savdo tashkilotlarida qatnashish;

7. O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalaridan kelib chiquvchi bojxona ishiga oid majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash;

8. Boj poshlinalari, soliqlar va boshqa boj to'lovlarini undirish.

Nazorat savollari.

1. "Boshqarish" iborasining ma'nosi nima?

2. Moliyani boshqarishga ta'rif bering.

3. Davlat moliyasini boshqarishning maqsadi nima hisoblanadi?

4. Moliyani boshqarish obyekti nima hisoblanadi?
5. Kimlar moliyani boshqarish subyektlari hisoblanadi?
6. Moliyani boshqarish qanday uslubiy tamoyillarga ega?
7. Moliyani boshqarish qanday funksional elementlardan tashkil topadi?
8. Moliyani boshqarishda rejalashtirish qanday o‘rin tutadi?
9. Moliyani boshqarish jarayonida nazorat qanday ahamiyatga ega?
10. Moliyani strategik boshqarishni kim amalga oshiradi?
11. Moliyani operativ (tezkor) boshqarish funksiyasi kimga yuklatilgan?
12. Moliyaviy boshqarishni avtomatlashtirishning zarurligi va ahamiyati qanday?
13. Moliyani boshqarish tizimi nimaga yo‘naltirilmog‘i zarur?
14. Moliya tizimi ustidan boshqarishni kim amalga oshiradi?
15. Davlat moliyasini boshqarish tizimi sxemasini tushuntirib bering.
16. Davlat moliya faoliyatini amalga oshiruvchi organlarni qanday guruhlariga ajratish mumkin?
17. Moliya vazirligining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
18. Davlat soliq xizmati organlarining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
19. Davlat bojxona xizmati organlarining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
20. Hisob palatasining asosiy vazifalari nimalardan iborat?

3-mavzu. Moliyani boshqarish va nazorat /4 soat/**2-ma'ruza. Moliyaviy nazorat****Reja**

- 1. Moliyaviy nazoratning mazmuni va ahamiyati**
- 2. Moliyaviy nazoratning obyektlari, subyektlari va usullari**
- 3. Davlat moliyaviy nazoratining mazmuni**
- 4. Davlat moliyaviy nazorati organlari**

1. Moliyaviy nazoratning mazmuni va ahamiyati

Nazorat iqtisodiy tizimning zarur elementi sifatida butun insoniyat sivilizatsiyasi bilan birga rivojlanadi, evolyutsion taraqqiyot va inqilobiy to'fonlar jarayonida, jamiyat iqtisodiy formatsiyasi, siyosiy tizimi, davlat va xo'jalik boshqaruvi, qonun chiqaruvchi, ijroiya va sudlov hokimiyati organlari almashinuvi jarayonida o'zgarib boradi.

Nazorat - jamiyat iqtisodiy hayotidagi obyektiv hodisa va har qanday davlat boshqaruvining muhim bo'g'inidir. Shu bilan birga u ko'p ming rahbar va mutaxassislar, mehnat jamoalari, jamoat va davlat tashkilotlarining subyektiv ijod sohasidir.

Moliyaviy nazorat - butun nazorat tizimining tarkibiy qismi bo'lib, uning yo'nalishi davlat moliya siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirish, tarmoqlar iqtisodiyotidagi barcha soha va bo'g'inlarda moliyaviy resurslarni shakllantirish va samarali foydalanishga qaratilgan bo'ladi. Bozor munosabatlari rivojlangan taqdirda ham moliyaviy nazoratning salohiyati pasaymasdan, balki oshib boradi.

Moliyaviy nazorat - moliyaning nazorat funksiyasini amalga oshirish ko'rinishida namoyon bo'lib, u moliyaviy nazoratning mazmuni va yo'nalishini belgilab beradi. Shunday bo'lsada, moliyaviy nazoratning mazmuni va yo'nalishi jamiyatdagi ishlab chiqarish kuchlari va munosabatlarining o'zgarishidan kelib chiqqan holda o'zgarib turadi. Masalan, korxonalarning xo'jalik yuritish huquqlarining kengayishi, ularning moliyaviy faoliyatini olib borishdagi mustaqilligi, tadbirkorlikning rang-barang ko'rinishdagi mulk shakllarining vujudga kelishi moliyaviy nazoratning mazmunini boyitishga olib keladi.

Moliyaviy nazorat bu maxsus shakl va uslublarni qo'llash orqali xo'jalik yurituvchi subyektlar va boshqaruv organlarining moliyaviy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan masalalarni tekshirishga qaratilgan harakatlar va taftishlar yig'indisidir.

Moliyaviy nazorat - bu moliyaviy tekshirish va u bilan bog'liq bo'lgan masalalar harakatini va muomalasini majmui bo'lib, xo'jalik subyektlari faoliyatini va boshqarishni o'ziga xos usullar va shakllar yordamida tashkil etish.

Moliyaviy nazorat tizimi subyektlar (nazorat qiluvchilar), obyektlar (nazorat qilinuvchilar), nazoratning usul va vositalarini birgalikda jamlab, o'z ichiga oladi. Ular nazorat obyektining holatini, ijroning kutilgan natijalarini aniqlash, ularni tahlil qilish va baholash, tuzatish kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar yo'sinini ishlab chiqish uchun yaxlit uyg'unlikda hamkorlik qiladi.

Moliyaviy nazorat - tarmoqlar iqtisodiyotidagi nazoratning tarkibiy qismi bo'lib, u qiymat kategoriyasi bilan bog'liqdir. Moliyaviy nazorat ma'lum bir sohalarda qo'llanilib, o'ziga xos maqsadli yo'nalishga ega bo'ladi. Moliyaviy nazoratning obyektiga moliyaviy resurslarning harakati, shakllanishi hamda foydalanishdagi taqsimlash va pullik jarayonlar shuningdek, tarmoqlar iqtisodiyotining barcha bo'g'inlaridagi fond shaklidagi pul resurslari ham kiradi.

Bevosita *tekshirish predmetlari* esa, moliyaviy (qiymat) ko'rsatkichlar tarkibiga kiruvchi foyda, daromad, bevosita va bilvosita soliqlar, rentabellik, mahsulot tannarxi, muomala xarajatlari, turli xil maqsadlar va fondlarga ajratmalar hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichlar uyg'unlashgan xarakterga ega bo'ladi, shuning uchun nazorat xo'jalik yurituvchilarning ishlab chiqarish, xo'jalik

yuritish, tijorat hamda moliya-kredit mexanizmidagi o‘zaro bog‘liqlikni barcha tomonlarini qamrab oladi.

Moliyaviy nazorat quyidagi tekshirishlarni o‘zida aks ettiradi:

- obyektiv iqtisodiy qonunlar talabiga rioya etish;
- milliy daromad va yalpi ijtimoiy mahsulot qiymatini taqsimlash va qayta taqsimlashdagi optimallikni ta‘minlash;
- davlat budjeti daromadlarini tashkil etish va ijrosi (budjet nazorati)ni ta‘minlash;
- korxona, tashkilot va budjet muassasalarida moliyaviy, mehnat va moddiy resurslardan samarali foydalanish;
- xo‘jalik subyektlarining moliyaviy holati va soliq nazorati.

Moliyaviy nazoratning oldida hal qilinishi lozim bo‘lgan quyidagi vazifalar turadi:

- tarmoqlar iqtisodiyotidagi pul daromadlari va fondlari bilan moliyaviy resurslarga bo‘lgan talab o‘rtasidagi mutanosiblikka ta‘sir o‘tkazish;
- davlat budjeti oldidagi moliyaviy majburiyatlarni o‘z vaqtida va to‘liqligicha bajarilishini ta‘minlash;
- moliyaviy resurslarni yuksaltirishda ichki ishlab chiqarish rezervlarini aniqlash;
- tannarxni pasaytirish hisobiga rentabellikni oshirish yo‘llarini ko‘rsatish;
- xo‘jalik subyektlarining pul resurslari va moddiy boyliklarini maqsadga muvofiq obyektlarga sarflashga ta‘sir qilish, shuningdek, buxgalteriya hisobi va hisobotini to‘g‘ri yurgizish;
- harakatdagi qonunchilik va me‘yoriy hujjatlarga rioya qilishni ta‘minlash, shuningdek, turli xil mulk shaklidagi korxonalarni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish uchun takliflar berish;
- korxonalarning tashqi iqtisodiy faoliyati va valyuta operatsiyalaridan yuksak iqtisodiy samara olishga shart-sharoit yaratish va shu kabilar.

Moliya intizomiga rioya qilish uchun moliyaviy nazorat korxona, tashkilot va muassasalar javobgarligi bilan uzviy bog‘liqlikda bo‘ladi. Bunday javobgarlik moliya intizomini buzgan shaxsga nisbatan, ham ma‘muriy ko‘rinishda, ham iqtisodiy usulda bo‘lishi mumkin, iqtisodiy usul bilan ta‘sir ko‘rsatish muayyan moliyaviy jazo choralari (sanksiyalari) orqali amalga oshiriladi.

Moliyaviy javobgarlikni kuchaytirish, bir tomondan, moliyaviy nazoratning ta‘sirini yuksaltirishda qo‘llanilayotgan moliyaviy sanksiyalar miqdorini kamaytirishni talab qilsa, ikkinchi tomondan, ularning samaradorlik darajasini oshirishni talab etadi.

Moliya pul munosabatlarining alohida usullari yordamida kengaytirilgan takror ishlab chiqarish, taqsimlash, muomala va iste‘molning barcha bosqichlarini namoyon qiladi.

Moliyaning nazorat funksiyasini mavjudligi o‘z o‘rnida moliyaviy nazorat mavjudligini keltirib chiqarmaydi, u tegishli davlat organlarining muhim tashkil etuvchi faoliyatini taqazo etadi.

1. Moliyaviy nazorat - kengaytirilgan takror ishlab chiqarishda moliyani muhim rolining bir ko‘rinishidir.

2. Moliyaviy nazorat davlat boshqaruv organlari faoliyatining ko‘rinishlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

3. Moliyaviy nazorat - boshqaruvning tartibga solish, rejalashtirish, hisob-kitob va xo‘jalikni yurituvchi subyekt faoliyatining tahlili singari mustaqil vazifasidir.

4. Taqsimlash munosabatlari orqali moliyaviy nazorat ishlab chiqarish, ayirboshlash, muomala va iste‘mol munosabatlariga tatbiq etiladi.

Moliyaviy nazorat - moliyaviy, kredit va xo‘jalik organlari (tashkilotlari)ning rejalarining bajarilish jarayonida moliyaviy, budjet, soliq, kredit, hisob-kitob va kassa intizomini ta‘minlashga qaratilgan va pul xarajatlarning qonuniyligi, asosiligi va oqilonaligini tekshirishdan iborat qonun me‘yorlari bilan tartibga solinuvchi faoliyatidir.

Moliyaviy nazoratning vazifasi yo‘l qo‘yiladigan chetga chiqish me‘yorlarini malakali belgilashdan iborat, qolgan barcha chetga chiqishlarni qayd etish va bartaraf qilish talab qilinadi. Boshqaruvning ichki va tashqi xo‘jalik jarayonlarini kuzatish, tekshirishni amalga oshirar ekan, nazorat bozor iqtisodiyotida, bu harakatlarning hammasi faqat samarali boshqarish uchun foydali bo‘lgandagina mavjudlik huquqiga egadir.

Moliyaviy nazorat deganda nazorat vazifalari yuklatilgan davlat va jamoat organlarining korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning moliya-xo'jalik faoliyatini iqtisodiy samaradorligini holis baholash maqsadi bilan bu faoliyat ustidan nazoratning ko'p tomonlama tarmoqlardagi tizimini, xo'jalik va maqsadga muvofiqligini aniqlashni hamda davlat budjeti daromadlarining rezervlarini aniqlashni tushunmoq kerak.

Keltirib o'tilgan ta'riflar tahlili nazoratning *eng muhim jihati* – og'ishlarni qayd qilish va baholash xulosalaridan iboratligi xususida xulosa chiqarish imkonini beradi. Bu, fikrimizcha, nazoratning mohiyatini belgilab beradi.

Og'ishlarni qayd qilish uchun:

- qonun nuqtai nazaridan nazorat qilinayotgan obyektning ruxsat etilgan holati va kutilgan daraja va xatti-harakati yo'l qo'yiladigan daraja bilan qiyoslanadi;
- harakatlar, xarajatlar, natijalar, standartlar, rejalashtirilayotgan yoki zarur ma'lumotlar bilan qiyoslanadi;
- qo'llangan va huquqiy cheklashlar bilan amalga oshirilgan harakatlar qiyoslanadi;
- kutilayotgan va haqiqiylari oqilona va maqsadga muvofiqlari bilan qiyoslanadi;
- boshqa qiyoslashlar ham amalga oshiriladi.

Nazoratning mohiyati va nazorat qiluvchi shaxsning ish usuli shundan iborat.

O'tkazilgan qiyoslashlardan ish manfaatiga xizmat qiladigan va hatto aybdorlarni jazolash uchun baholash xulosalari chiqarish nazoratni boshqarishning boshqa vazifalaridan farqlaydigan maqsadi shu.

Shunday qilib, *moliyaviy nazorat* - davlat tomonidan tashkil etishni nazorat qilish vazifalari yuklatilgan davlat yoki mustaqil jamoat organlari tomonidan hukumat, korxonalar, tashkilotlar va muassasalar faoliyatining samaradorligini aniqlashga qaratilgan nazorat tizimidir. Davlat budjetini shakllantirish va sarflashdagi rezervlarni, moliyaviy va moddiy resurslarni boshqarishning barcha darajalarida operatsiyalarning maqsadga muvofiqligi va samaradorligini, qonuniylik tamoyillaridan chetga o'tish va ularni buzishlarni aniqlash nazorat tizimi vazifasiga kiradi.

Nazorat maqsadi - tuzatish choralarini ko'rish, aybdorlarni javobgarlikka tortish va bularning oldini olishdan iborat.

2. Moliyaviy nazoratning obyektlari, subyektlari va usullari.

Jamiyatdagi iqtisodiy hayotning turli xil sohalarida va xo'jalik boshqaruvidagi ko'p qirrali murakkab vazifalarni hal qilishda moliyaviy nazorat faol ishtirok etadi, shunga binoan uni tashkil etish uchun ma'lum bir talablarni aniqlashni taqozo etadi.

Moliyaviy nazoratning turkumlanishi quyidagi 7-rasmda aks ettirilgan.

Moliyaviy nazoratni amalga oshiruvchi *subyektlar* o'z mavqeidan kelib chiqib quyidagicha farqlanada:

- ✓ davlat moliya nazorati
- ✓ korxona ichidagi moliya nazorati
- ✓ jamoat moliya nazorati
- ✓ mustaqil (auditorlik) moliya nazorati.

Davlat moliya nazoratini umumdavlat boshqaruv organlari bilan bir qatorda, alohida vazirliklar orqali ham amalga oshiradi. Umumdavlat boshqaruv organlari moliya nazoratini amalga oshirayotganda, mamlakat hududidagi xo'jalik subyektlarining mulkchilik shakli va idoraviy bo'ysunishidan qat'i nazar barchasini qamrab oladi. Vazirliklar tomonidan amalga oshirilayotgan moliya nazoratini faqat o'zlarining tarkibidaga maxsus nazorat-taftish organlari amalga oshiradi. Ularning tekshirish obyektlari esa, vazirliklar tarkibidagi korxonalar, konsernlar, assotsiatsiyalar va aksionerlik jamiyatlarining ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatidan iborat bo'ladi.

Korxona ichidagi moliya nazoratini korxona, tashkilot va muassasa ichida tashkil qilingan iqtisodiy xizmat (buxgalteriya, moliya bo'limi)lari amalga oshiradi. Nazorat obyekti esa, alohida korxonaning moliya va ishlab chiqarish jarayoni hamda alohida korxona tarkibiga kiruvchi tuzulmaviy bo'lim (filial, shaxobcha, bo'lim)lar hisoblanadi.

Jamoat moliya nazoratini alohida guruh, alohida jismoniy shaxslar (mutaxassislar) ixtiyoriy va mehnat haqi talab qilmaslik sharti asosida amalga oshiradi. Nazorat obyekti bo'lib, tekshiruvchi oldida turgan muayyan vazifalar nazarda tutiladi.

Mustaqil (auditorlik) moliya nazoratini maxsus audit firmalari va xizmatlari amalga oshiradi.

Moliyaviy nazoratni amalga oshirish shakli quyidagicha bo'ladi:

- dastlabki;
- joriy;
- so'nggi.


Moliya nazoratining *dastlabki* shakli yuridik va jismoniy shaxslarning moliya xo'jalik jarayonini yurgizishda muhim ahamiyat kasb etib, u korxona moliya rejasini tashkil qilishda, ko'rib chiqishda va tasdiqlashda, muassasa va tashkilotlarning daromadlar va xarajatlar smetasi, ta'sis hujjatlarini imzolashdan oldin amalga oshirilishi lozim bo'lgan jarayonlar tartibidir. Shunday qilib, dastlabki nazorat moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanishga ijobiy shart-sharoit yaratib beradi. Moliyaviy nazoratning bu shakli amaldagi qonunchilik va me'yoriy hujjatlar buzilishining oldini olishga xizmat qiladi.

Joriy moliyaviy nazorat shakli xo'jalik-moliya operatsiyalari jarayoni orqali moliya rejalari bajarilayotgan paytda qo'llaniladi. Ushbu shaklning asosiy ahamiyati korxonalarning ichki xo'jalik rezervlarini izlash hisobidan jamg'armani oshirishga ta'sir qiladi. Joriy moliya nazorati korxona, tashkilot va muassasalarning moliya xizmatlari orqali moliya rejasi bajarilayotganda, moliyaviy intizomlar buzilishining oldini olish maqsadida kundalik tadbirlarni amalga oshiradi.

Moliya nazoratining *so'nggi* shakli hisobot davri va butun moliya-yili tugagandan so'ng amalga oshiriladigan tadbirlar yig'indisidir. Bunda, budjetni ijro etishdagi davlat pul resurslarini maqsadga muvofiq xarajat qilinganligi, korxona va tashkilotlarning moliya rejasini bajarganligi hamda budjet muassasalari smetasining bajarilish natijalari tekshiriladi. So'nggi moliya nazorati dastlabki moliyaviy nazorat shakli bilan o'zaro bog'liqlikdadir, chunki so'nggi nazorat dastlabki moliya nazorati bazasida amalga oshiriladi.

Moliyaviy nazoratni qonuniy ravishda, zaruriyat tug'ilganda va o'z vakolati chegaralarida O'zbekiston Respublikasining davlat boshqaruv organlari olib boradi. Ulardan: Moliya vazirligi, Davlat Soliq qo'mitasi, Davlat Mulki qo'mitasi, Davlat Bojxona qo'mitasi va boshqalar. Markaziy bank tijorat banklarini nazorat qiladi va qolgan fondlar faoliyatini Ijtimoiy ta'minot vazirligi qoshida vakolatli maxsus tuzilgan inspeksiya olib boradi.

Davlat moliyasi nazorat organi bo'lib Moliya vazirligi qoshida tuzilgan nazorat-taftish boshqarmasi (NTB) hisoblanadi.



7-rasm. Moliyaviy nazoratning turkumlanishi

8-avgust 1996-yilda O'zbekiston Respublikasining Prezidenti "Tekshirishlarni tartibga solish va nazorat organlari faoliyatini koordinatsiyasini takomillashtirish" to'g'risidagi Qarorga imzo qo'ydi. Unda tekshirishlarni nazorat qilish maqsadida, xo'jalik subyektlarining faoliyatiga, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, nazorat organlari tomonidan sababsiz aralashishga yo'l qo'ymaslik xo'jalik subyektlarini moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish va tahlil qilishni muvofiqlashtirish O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasi zimmasiga yuklatildi. Uning qoshida nazorat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika Kengashi tashkil etildi va unga quyidagi vazifalar yuklatildi:

- yil, yarim-yil va choraklar davrida rejali tekshirishlarni o'tkazish jadvalini ishlab chiqish va tasdiqlash;

- amalda kompleks tekshirishlarni o'tkazishni kiritish va ularda bitta korxona hamma vakolatli tashkilotlar tomonidan tekshirilib, shuni evaziga o'tkaziladigan tekshirishlar miqdorini va ayrim masalalarni qayta tekshirilishini kamaytirish.

Jamoat nazoratini mustaqil, masalan, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyati, atrof-muhitni himoya qilish jamiyatlari amalga oshira boshladilar.

Moliyaviy nazorat amalga oshirish usullari bo'yicha ham farqlanib, u quyidagilarga bo'linadi:

- tekshirish;
- o'rganish;
- tahlil;
- taftish.

Tekshirish usuli orqali, hisobot, balans va xarajat hujjatlari asosida korxona moliyaviy-xo'jalik faoliyatining alohida masalalari ko'rib chiqiladi. Tekshirish jarayonida moliya intizomining buzilgan nuqsonlari aniqlanadi, natijada, mavjud muammolarni bartaraf etish va salbiy holatlarni takrorlanmasligi uchun chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

O'rganish korxona, tashkilot va muassasalar faoliyatining alohida tomonlarini qamrab oladi. Tekshirishdan farqli o'laroq, o'rganish ko'rsatkichlarning keng ko'lamini qamrab oladi va xo'jalik subyektlarining moliyaviy holatini, uni rivojlanish istiqbollari, ishlab chiqarishni qayta tashkil qilish yoki qayta ixtisoslashuvining zarurligini aniqlab beradi. O'rganish so'rov va anketalar o'tkazish orqali amalga oshirilish mumkin.

Tahlil moliyaviy nazoratning bir usuli sifatida tizimli va omilli bo'lishi lozim. U davriy yoki-yillik hisobotlar orqali bajariladi. Pirovardida, rejaning bajarilish, mablag'larni sarflanish me'yorlariga rioya etilish, moliyaviy intizomga rioya etilish darajalari aniqlanadi.

Moliyaviy nazoratning *taftish* usuli korxona va tashkilotlarning hisobot davridagi moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tekshirish uchun ko'llaniladigan eng muhim usullaridan biri hisoblanadi.

Amaliyotda har qanday taftishni amalga oshirishdan oldin maxsus dastur qabul qilinib, uning tarkibida taftish maqsadi, obyekti, mavzusi va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan asosiy masalalar aks ettiriladi.

Taftishning maqsadidan kelib chiqib, turli xil yondashishlar qo'llaniladi, jumladan, reja va hisobotdagi ma'lumotlarni qiyoslash, naqd pullarni tekshirish, hujjatli va qarama-qarshi tekshirishlar, tovar-moddiy boyliklarni inventarizatsiya qilish va shunga o'xshashlar.

Taftish so'nggida taftishni amalga oshirgan mutaxassislar tomonidan dalolatnoma tuziladi. Dalolatnomada korxonaning ishlab chiqarish faoliyatida yuzaga kelgan kamchiliklar va muammolarni bartaraf qilish uchun chora-tadbirlar ko'rsatiladi.

Moliyaviy nazorat uslubini kuzatish, qiyoslash, tahlil qilish, olingan natijalarni umumlashtirish, ulardan bir butun xulosa chiqarish, ayrim faktlardan umumiy xulosaga kelish va



Taftish

umumiy holatdan xususiy xulosalarga kelishni o'z ichiga olgan o'ziga xos uslubiy yo'sinlar, yo'l va vositalar yordamida moliya-iqtisodiy axborotni va nazorat obyektining haqiqiy holatini o'zaro bog'liqlikda o'rganish deb tushunish mumkin.

Moliyaviy nazorat uslubiy usullarining quyidagi tasnifini tavsiya etamiz:

✓ *umumuslubiy usullar*: taftish, audit, tahlil, mavzuli tekshirish, tadqiq qilish, pirovard natijani dasturiy baholash;

✓ *hujjatlar asosidagi nazorat usullari*: rasmiy va arifmetik tekshirish, yuridik baholash, mantiqiy nazorat, muqobil tekshirish, teskari hisob usuli, balans-uyg'unligini tekshirish, qiyoslash, hisobotlarning sanoq bahosi;

✓ *faktlar bo'yicha nazorat usullari*: ro'yxatga olish, ekspertiza, ko'z bilan kuzatish, nazorat o'lchovi, nazorat tariqasida ishga tushirish, vaqtni aniq o'lchash, ish kuni taqsimlanishini o'rganish, laboratoriya tahlili.

Nazorat samaradorligiga rasmiy va mantiqiy, hujjatlar va faktlar asosidagi tekshirishlar singari xilma-xil usullarni qo'shib foydalanish orqali erishiladi. Tekshirish jarayonida jalb qilinadigan axborot manbalarining to'g'riligini aniqlash, xo'jalik subyektlarining murakkab vaziyatlardagi yoki noaniqlik sharoitidagi xatti-harakatlarining izchilligini oydinlashtirish, faktik materialni tahlil qilish va umimlashtirish - bularning bari nazoratning turli-tuman usullaridan foydalanishni taqozo etadi.

Hujjatlar, faktlar asosidagi yoki kompyuter yordamidagi uslubiy usullarni tahlil qilinayotgan ma'lumotlar manbalariga ko'ra aniqlash mumkin.

Hujjatlar asosidagi nazorat uchun, xususan, dastlabki hujjatlar; buxgalteriya hisobi registrlari; buxgalteriya, statistika va operativ-texnik hisobotlar; rejali, me'yoriy, texnologik, loyixa-konstruktorlik ko'rinishidagi boshqa hujjatlar axborot manbai bo'lib xizmat qiladi.

Faktik nazorat tekshirilayotgan obyektlarning haqiqiy holatini natura holida ko'zdan kechirish (qayta hisoblash, vaznini o'lchash, o'lchash, ekspertiza qilish, laboratoriya tahlili va boshqalar) ma'lumotlari bo'yicha o'rganishdan iborat.

Hujjatlarning mukammalligi va dastlabki hujjatlar va hisob qaydlarining shubhasiz asosiligi zarurat tug'ilganda maxsus faktik nazorat uslublari yordamida aniqlanadi. Faqat hujjatlar orqali nazorat qilish uslublariga asoslangan taftish obyektning butun moliya-xo'jalik faoliyatini o'rganmay, buxgalteriya hujjatlari va hisob registrlarini tekshirishdangina iborat bo'lib qoladi.

Hujjatlar asosidagi va faktik nazorat bir-birini to'ldiradi, ularning alohida qo'llanilishi amalda g'oyat kam uchraydi. Hujjatlar asosidagi va faktik nazorat uslublarga bo'linishining shartli ekanligini faktik ma'lumotlarni hisob ma'lumotlariga qiyoslash bilan yakunlanuvchi ro'yxatga olish uslubida kuzatish mumkin.

Hisob-kitob faoliyatiga kompyuter texnologiyalarining keng joriy etilishi, ko'p buxgalteriya ma'lumotlarini saqlashda dastlabki hujjatlarni qayta ishlash, kompyuter dasturlari yordamida buxgalteriya hisob-kitobi registrlari va hisobotlarini tuzish nazoratning yangi - kompyuter usulini amalga kiritish imkoniyatini yaratadi.

Kompyuterdan har qanday axborotni qog'ozda, ya'ni muayyan hujjat ko'rinishida olish mumkinligiga oid e'tirozlarni asossiz deb hisoblash mumkin. Qog'ozdagi ifoda faqat bu hujjatni tuzgan mas'ul shaxs tomonidan imzolangan taqdirdagina hujjat sifatida xizmat qilishi mumkin. Bundan tashqari, kompyuterlarning turli viruslarga moyilligi, hujjatlar bilan asoslovsiz, osongina tuzatishlar kiritilishi soxtalashtirilgan ma'lumotlar olish xavfini tug'diradi. Shu tufayli zamonaviy nazoratchi yoki auditor uchun kompyuterda qayta ishlangan hujjatning to'g'riligini (yoki ishonchsizligini) farqlay bilish muhim. Hujjatning o'ziga xos shakli va uni olish uchun maxsus bilim zarurligi, nazarimizda ilmiy-amaliy hayotga «kompyuter nazorati» atamasini kiritishga asos beradi.

Kompyuter nazorati hujjatlar asosidagi va faktik nazoratdan ayri holda olib borilishi mumkin emas, ularning hammasi o'zaro bir-birini to'ldiradi.

Moliyaviy nazoratni to'liq yoki qisman, kompleks yoki mavzuli, yoppasiga yoki tanlab o'tkaziladigan nazorat turlariga bo'lish tekshirish hajmi yoki tekshirilayotgan obyektning to'liq qamrab olinishiga bog'liq.

Davlat organlari tomonidan idoraviy buysunishdagi korxonalar va tashkilotlarda o'tkaziladigan taftishlar, shuningdek audit va tahlil (shartnoma yoki dasturga bog'liq holda), bizning nazarimizda, komplekslik mezoniga javob beradi.

Korxona, tashkilot moliya-xo'jalik (tadbirkorlik tijorat) faoliyatining ayrim bo'limlari (qism, uchastkalari) holatini tekshirish mavzuli tekshirish deb ataladi. Masalan, moddiy boyliklar (asosiy vositalar yoki nomoddiy aktivlar)ning saqlanishi va ulardan foydalanishni tekshirish, moliyaviy natijalar aniqlanishining to'g'riligini tekshirish va boshqalar.

Kompleks yoki mavzuli (operatsiya) tekshirishni o'tkazish chog'ida hujjatlar yalpi yoki tanlab tekshirilishi mumkin. Yalpi tekshirish chog'ida nazoratdan o'tkazilayotgan davr mobaynidagi dastlabki hujjatlar hisob registrlari va hisobotlar tariqasida rasmiylashtirilib amalga oshirilgan barcha operatsiyalar mazmuni ko'rib chiqiladi. Tanlab tekshirishda tekshirib chiqilayotgan davrdagi operatsiyalarni bir qismi (masalan, har bir oyda ketma-ket yoki har qayeridan bir necha kun) qamrab olishni nazarda tutiladi. Agar tanlab tekshirish chog'ida suiste'mol qilish, ko'zbo'yamachilik aniqlansa, u holda yalpi tekshirishga o'tish lozim. «To'liq tekshirish» yoki «qisman tekshirish» atamaları hujjatlar asosidagi yoki faktik nazorat usullariga taalluqli. Ro'yxatta olishni o'tkazishda barcha moddiy boyliklarning saqlanganligini tekshirish bilan to'liq qamrab olish mumkin.

Shunday qilib, boshqaruv tizimidagi subyektlarning maqomi va roli, subyektlarning o'zi, nazorat amallarini bajarish vaqti, manbalari, tekshirish bilan qamrab olish hajmi va to'laligi moliyaning nazorat usulini tasniflash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Yuzaga kelgan murakkab sharoitda moliyaviy nazoratni ishonchli va samarali mexanizmida davlat hukumat organlari bilan boshqaruv organlarining kelishilgan va birdamlik asosida faoliyat olib borilishi lozim. Bu organlarning har birini faoliyatidagi vazifalari, belgilangan kompetensiyalari, ish usullari O'zbekiston Respublikasini qonunlarida belgilanib, ular doirasida olib boriladi. Shuning bilan bir qatorda, ishning murakkabligi va ko'p qirraligini inobatga olgan holda, davlatni iqtisodiy ahamiyatini himoya qilinishi, ayrim vaziyatlarda, birlashgan kuchni yoki boshqacha qilib aytganda, o'zaro bog'langan faoliyatini quyidagi 3 asosiy yo'nalishi bo'yicha amalga oshirilishi kerak:

- moliyaviy qonun buzilishini aniqlash va bartaraf qilish;
- davlatga moliyaviy zararni qonun bilan belgilangan soliqlar, penyalari, jarimalar va boshqa sanksiyalar yordamida moddiy qoplashni ta'minlash;
- moliyaviy qonun buzishni oldini oladigan profilaktik chora-tadbirlarni o'tkazish;

Moliyaviy nazorat moliyani nazorat funksiyasini amalga oshirish uchun asosiy usul bo'lib, uni vazifalarini va maqsadini belgilab beradi. Shuning bilan bir qatorda nazoratning mazmuni, uning yo'nalishini o'zgarishi, ishlab-chiqarish kuchlarini rivojlanish darajasiga va jamiyatni ishlab-chiqarish munosabatlariga bog'liq.

3. Davlat moliyaviy nazoratining mazmuni

O'zbekiston Respublikasida *davlat moliyaviy nazorati* davlat mablag'larini sarflash bo'yicha qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlarga, me'yorlarga, stpndartlarga va qoidalarga rioya etilishi ustidan nazorat bo'yicha harakatlar va operatsiyalar yig'indisini bildiradi.

Davlat budjetini-shakllantirish va sarflanishidagi rezervlarni, moliyaviy va moddiy resurslarni boshqarishning barcha darajalarida operatsiyalarning maqsadga muvofiqligi va samaradorligini, qonuniylik tamoyillaridan chetga og'ish va ularni buzishlarni aniqlash *nazorat tizimi* vazifasiga kiradi. *Nazoratning maqsadi* - tuzatish choralarini ko'rish, aybdorlarni javobgarlikga tortish va buzilishlarning oldini olishdan iborat.

Davlat nazorat organlarining vazifasi, eng avvalo, davlat qonunlari va Prezident farmonlarining ijrosini; ajratilgan budjet mablagʻlari yoʻnaltirilishining qonuniyligi, toʻgʻriligi va maqsadga muvofiqligini; hukumat va uning organlari faoliyatining samaradorligini, moliyaviy va moddiy resurslarni boshqarishning barcha darajalarida davlat mablagʻlari samarali va tejab sarflanishini tekshirishga yoʻnaltirilishi kerak.

Davlat hokimiyati, birinchi navbatda, qonun chiqaruvchi organlar va ijroiya hokimiyati organlari va nazorat qilish vakolatiga ega boʻlgan boshqaruv organlari budjet-moliya nazoratining subyektlari sifatida ishtirok etadilar. Oʻzbekistonda bu Oliy Majlis, Prezident devoni, Vazirlar Mahkamasi, Moliya vazirligi, Davlat soliq qoʻmitasi, Davlat bojxona qoʻmitasi, Markaziy bankdir.

Davlat moliyaviy resurslarini boshqarish – jamiyat oldidagi ulkan masʼuliyat, shu sababli budjet–moliya nazorati boshqaruvning zaruriy elementi boʻlishi shart. *Budjet-moliya nazorati* – davlat nazoratining asosiy turidir.

Budjetning daromad va xarajat qismlarini tekshirish vazifasi faqat budjet-moliya nazoratiga xos boʻlib, u moliyaviy nazoratning mohiyatini gʻoyat yorqin aks ettiradi. Hozirgi kunda davlat budjeti oldida turgan vazifalarni qay darajada amalga oshirilishi, moliyaviy nazorat tizimining qay darajada shakllanganligi bilan belgilanadi.

Shuningdek, davlat budjet mablagʻlaridan foydalanishda huquqiy tartiblarga rioya etilishini kuzatib borish, amalga oshirilayotgan moliyaviy harakatlarning iqtisodiy asoslanganligi va samaradorligini bu harakatlarning davlat oldida turgan vazifalarga muvofiq kelishini moliyaviy nazoratini olib borish iqtisodiy sharoitlardan kelib chiqmoqda.

Davlat moliyaviy nazorati davlatning moliyaviy siyosatini amalga oshirilishiga, budjet mablagʻlaridan samarali foydalanish sharoitlarini yaratishga koʻmaklashadi. Birinchi navbatda u *barcha darajadagi budjetlarning va budjetdan tashqari fondlarning tuzilishi, koʻrib chiqilishi, tasdiqlanishi va ijrosi ustidan, korxonalar va tashkilotlar, banklar va boshqa moliya muassasalarining moliyaviy faoliyati ustidan nazoratni* nazarda tutadi. Iqtisodiyotning nodavlat sektori ustidan davlat moliyaviy nazorati faqatgina ularning davlat oldidagi moliyaviy majburiyatlarini bajarilishiga, shu jumladan soliqlar va boshqa majburiy toʻlovlarni toʻlanishi, kreditlar va boshqa mablagʻlardan foydalanishning qonuniyligi va maqsadlilikiga rioya qilinishi, pulli hisob-kitoblarni tashkil qilishda hukumat tomonidan oʻrnatilgan qoidalarining bajarilishi, buxgalteriya hisobi va hisobotlarini yuritilishiga tegishlidir.

4. Davlat moliyaviy nazorati organlari

Davlat moliyaviy nazorati barcha darajadagi qonunchilik va ijroiya organlari tomonidan amalga oshiriladi. Budjet jarayonining barcha basqichlarida Parlament moliyaviy nazorati tegishli qoʻmitalar va komissiyalar vakolatiga kiradi. Oliy Majlis tomonidan tashkil etilgan va unga boʻysunuvchi, doimiy faoliyat koʻrsatuvchi davlat moliyaviy nazorat organi *Oʻzbekiston Respublikasining Hisob palatasi* hisoblanadi. Uning faoliyati mulkchilik shaklidan, idoraviy va ijtimoiy mansubligidan qatʼiy nazar barcha xoʻjalik yurituvchi subyektlarga, mahalliy oʻzini-oʻzi boshqarish organlariga, davlat budjeti mablagʻlariga tayanadigan, davlat mulkini boshqaradigan yoki soliq, bojxona yoki boshqa imtiyozlarga ega boʻlgan jamoat tashkilotlariga yoʻnaltirilgan. OʻzR Hisob palatasi xodimlari tekshirishlar natijalari boʻyicha xulosalarini tayyorlaydilar va ularni tekshirilgan tashkilotlar rahbarlariga qonun buzilishlarini bartaraf qilish boʻyicha choralar koʻrish uchun yuboradilar. Agarda, davlat mablagʻlariga hiyonat aniqlansa, ish huquqni muhofaza qiluvchi organlarga topshiriladi. Qonun buzarliklar aniqlanganda majburiy bajariladigan koʻrsatmalar beriladi. Bir necha martalik qonun buzarliklar sodir etilganida, Oliy Majlis bilan kelishilgan holda, tashkilotning barcha turdagi hisob-kitoblarini toʻxtatib qoʻyish toʻgʻrisida qaror qabul qilinadi. Bunda Hisob palatasiga qonun buzarlarga nisbatan maʼmuriy jazo choralari qoʻllash huquqi berilmagan.

Ijroiya hokimiyati yoʻnalishi boʻyicha davlat moliyaviy nazoratini amalga oshiruvchi muhim organ *Oʻzbekiston Respublikasining Moliya vazirligi* hisoblanadi. Uning zimmasiga budjetni shakllanishi va bajarilishi, davlat mablagʻlarini sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirish yuklatilgan. Moliyaviy nazoratni amalga oshirishdagi muhim rol uning huzuridagi oʻzining hududiy

organlariga ega bo'lgan *Nazorat-taftish Bosh boshqarmasiga* (NTBB) topshirilgan. Uning *asosiy vazifasi* – budjet mablag'laridan, davlat mulkidan, davlat tomoindan taqdim etiladigan soliq va budjet imtiyozlaridan maqsadli va samarali foydalanishni ta'minlash, shuningdek budjet ssudalarini maqsadli sarflash va o'z vaqtida qaytarish ustidan nazorat olib borish.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi *Nazorat-taftish Bosh boshqarmasining* asosiy vazifalari quyidagilar:

- respublika va mahalliy budjetlarning qat'iy bajarilishi ustidan doimiy nazoratni ta'minlash;

- tijorat banklarini moliya organlari, budjet muassasalarining birinchi navbatdagi sarfxarajatlarini mablag' bilan ta'minlash hamda budjet muassasalari xodimlariga ish xaqi, ijtimoiy nafaqalar, stipendiyalarni to'lash muddatlariga va to'liqligiga rioya qilish, shuningdek budjet muassasalariga ko'rsatib o'tilgan maqsadlar uchun naqd pul berish bo'yicha faoliyati ustidan nazorat va monitoringni amalga oshirish;

- belgilangan shtat-smeta intizomiga va budjet mablag'larini xo'jalik ehtiyojlariga sarflash limitlariga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

- hokimiyat va boshqaruv organlari rahbarlari va mansabdor shaxslarning budjet jarayoniga asossiz aralashish hollarining oldini olish kabi bir qator vazifalar ham nazorat-taftish organlari zimmasiga yuklatilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining *Nazorat-taftish Bosh boshqarmasiga* amaldagi qonunchilikka asosan, budjet intizomini buzganlik uchun mansabdor shaxslarni jinoiy va ma'muriy javobgarlikka tortish huquqi berilgan.

Davlat moliyaviy nazorati sohasida amaldagi qonunchilikka rioya etilish qismiga tegishli bo'lgan O'zbekiston Respublikasi davlat budjetining va budjetdan tashqari fondlarining kassa ijrosini nazorat qilish Moliya vazirligining *G'aznachiligiga* yuklatilgan. G'aznachilik tizimi amaldagi qonunchilikka rioya etilish qismiga tegishli bo'lgan O'zbekiston Respublikasi davlat budjetining va budjetdan tashqari fondlarining kassa ijrosini nazorat qilish bo'yicha ishlarni olib boruvchi Bosh boshqarma hamda o'zlarining hududlarida davlat budjeti va budjetdan tashqari fondlarga tushumlar va ularni ishlatilishini nazorat qiluvchi hududiy organlardan tashkil topgan. G'aznachilik Moliya vazirligiga qilingan ishlar bo'yicha har kuni axborot berib boradi.

Ikkita mustaqil davlat xizmatlarining funksiyalari va harakatlarida bir-birin takrorlashga yo'l qo'yilmasligi uchun Moliya vazirligi G'aznachilik dastlabki moliyaviy nazoratni, NTBB so'nggi moliyaviy nazoratni amalga oshirish bo'yicha qaror qabul qilgan.

Amaliyotda funksiyalarning bunday taqsimlanishi quyidagicha ko'rinish olgan: budjet mablag'laridan foydalanishning qonuniyligi va mablag'larni banklardagi hisob raqamlardan o'tishi ustidan nazoratni G'aznachilik amalga oshiradi, xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan budjet mablag'larini sarflanishining asoslanganligi va maqsadlili ustidan nazoratni esa NTBB amalga oshiradi.

Soliq qonunchiligiga rioya etilishi ustidan moliyaviy nazorat *davlat soliq xizmati* tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzurida Bosh *Nazorat-taftish boshqarmasi* tashkil etilgan.

Bosh boshqarma O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to'grisida" 2000-yil 13 martdagi 87-son qarori bilan tashkil etilgan tarkibiy bo'linmasi hisoblanadi.

Bosh boshqarma Qoraqalpogiston Respublikasi, Viloyatlar va Toshkent shahar Davlat soliq boshqarmalarida o'z faoliyatida bevosita unga bo'ysunadigan nazorat-taftish bo'linmalariga ega bo'ladi.

Quyidagilar Bosh boshqarmaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo'jalik faoliyatini soliqqa oid qonun hujjatlariga rioya qilinishi yuzasidan hujjatlar asosida tekshirish (taftish)larni hamda Huqumat

qarorlari bilan nazorat, soliq organlariga yuklangan masalalar bo'yicha nazorat tartibidagi tekshirishlarni belgilangan tartibda tashkil etish va o'tkazish;

- xo'jalik yurituvchi subyektlardan undiriladigan soliqlar va yig'implarni hisoblab chiqarishda, undirishda qonuniylikka rioya qilinishi, to'lovlarning to'g'ri hisoblab chiqarilishi va budjetga o'z vaqtida to'lanishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

- soliqqa doir huquq buzishlarni aniqlash, ularning oldini olish, ularga barham berish;

- soliq majburiyatlarini bajarishda xo'jalik yurituvchi subyektlarga yordam ko'rsatish;

- Davlat soliq qo'mitasining boshqa bo'linmalari bilan birgalikda xo'jalik yurituvchi subyektlarni kompleks tekshirishlarning istiqboli rejalarini tayyorlash, tekshirishlar o'tkaziladigan obyektlarni aniqlash va ularni amalga oshirish;

- hujjatlar asosida va nazorat tartibidagi tekshirishlarni o'tkazish jarayoni hamda tartibi ustidan nazorat o'rnatish, shuningdek, ularni o'tkazishda (barcha darajadagi soliq organlariga) amaliy va metodik yordam ko'rsatish;

- davlat soliq xizmati organlari tomonidan tekshirishlar materiallari bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qarorlar qabul qilinishi va moliyaviy sanksiyalar qo'llanilishi ustidan nazorat o'rnatish;

- xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan hujjatlar asosida va nazorat tartibidagi tekshirishlar yakunlari bo'yicha budjet oldidagi majburiyatlarning bajarilishi (qo'shimcha hisoblangan summalar, moliyaviy sanksiyalar, ma'muriy jarimalar va shu kabilarning undirilishi) ustidan nazorat o'rnatish;

- hujjatlar asosida va nazorat tartibidagi tekshirishlar natijasida aniqlangan soliq qonunchiligi buzilishlari va boshqa holatlar to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish va tahlil qilish;

- fuqarolarning soliq qonunchiligi buzilishlari holatlari to'g'risidagi xatlari, shikoyatlari va arizalarini ko'rib chiqish.

Davlat bojxona xizmati O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi talablariga muvofiq tovarlarni O'zbekiston bojxona chegarasi orqali harakatlanishi ustidan davlat nazorati sohasida vakolatlarga ega.

Sanab o'tilgan organlardan tashqari davlat moliyaviy nazoratini boshqa qator davlat organlari: O'zR Markaziy banki, Davlat mulkini boshqarish qo'mitasi va boshqalar ham amalga oshiradilar.

Nazorat savollari.

1. **Nazorat deganda qanday faoliyat tushuniladi?**
2. **Moliyaviy nazorat deganda qanday faoliyat tushuniladi?**
3. **Moliyaviy nazoratning obyektiga nimalar kiradi?**
4. **Tekshirish predmetlari nimalar hisoblanadi?**
5. **Moliyaviy nazorat qanday tekshirishlarni o'zida aks ettiradi?**
6. **Moliyaviy nazoratning oldida qanday vazifalar turadi?**
7. **Nazoratning maqsadi nimadan iborat?**
8. **Moliyaviy nazoratni amalga oshiruvchi subyektlar qanday turkumlanadi?**
9. **Davlat moliya nazoratini kimlar amalga oshiradi?**
10. **Korxona ichidagi moliya nazoratini kimlar amalga oshiradi?**
11. **Jamoat moliya nazoratini kimlar amalga oshiradi?**
12. **Mustaqil (auditorlik) moliya nazoratini kimlar amalga oshiradi?**
13. **Moliyaviy nazorat qanday shakllarda amalga oshiriladi?**
14. **Moliya nazorat qanday usullarda amalga oshiriladi?**
15. **Nazorat tizimida davlat moliyaviy nazorati qanday o'ringa ega?**
16. **Budjet-moliya nazoratining mazmunini tushuntirib bering.**
17. **Davlat moliyaviy nazorati organlariga qaysilar kiradi?**

- 18. Davlat moliyavin nazoratini amalga oshirishda Hisob palatasining ahamiyati va o‘rnini tushuntiring.**
- 19. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Nazorat-taftish Bosh boshqarmasining asosiy vazifalari nimalardan iborat?**
- 20. Davlat moliyavin nazoratini amalga oshirishda G‘aznachilikning o‘rni nimada?**
- 21. O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi Nazorat-taftish Bosh boshqarmasining asosiy vazifalari nimalardan iborat?**

4-mavzu. Korxonalar va tashkilotlar moliyasi /8 soat/

1-ma'ruza. Turli faoliyat sohalari moliyasining xususiyatlari

Reja

1. Moddiy ishlab chiqarish sohasi moliyasining xususiyatlari
2. Faoliyatning noishlab chiqarish sohasida moliyani tashkil etish asoslari


1. Moddiy ishlab chiqarish sohasi moliyasining xususiyatlari

Ijtimoiy ishlab chiqarishning hammasi o'zida sarflanayotgan mehnat xarakteriga asoslanib ikki yirik *sohaga* ajraladi:

- moddiy ishlab chiqarish;
- nomoddiy ishlab chiqarish.

Birinchi sohaning *xususiyati* - bu tovar ishlab chiqarishdir, ikkinchi sohaning o'ziga xos *xususiyati* - bu turli xizmatlar (ijtimoiy, maishiy va boshqalar) ko'rsatishdir. Moddiy ishlab chiqarishni tashkiliy tuzulmasining asosi bo'lib korxonalar, birlashmalar, assotsiatsiyalar tashkil etadi, noishlab chiqarish sohasida esa, muassasalar, tashkilotlar va boshqa tuzulmalar faoliyat ko'rsatadi.

Moddiy ishlab chiqarish sohaslarida turli xarakterli moliyaviy munosabatlar vujudga keladi. Shu asosda, tashkil etilgan bir maqsadga yo'naltirilgan pul fondlari xususiyatini inobatga olganda, moliyaviy munosabatlar tizimida bir turdagi pul munosabatlarga nisbatan quyidagi guruhlarini birlashtirish mumkin (9-rasm):



9-rasm. Moddiy ishlab chiqarish sohasida yuzaga kelayotgan moliyaviy munosabatlar

➤ moddiy ishlab chiqarishning xo'jalik bo'linmalarida birlamchi daromadlarni shakllantirish, xo'jalik ichidagi maqsadli fondlar - nizom fondi, ishlab chiqarishni rivojlantirish fondi, rag'batlantirish fondi va boshqalarni tashkil etish va foydalanish bilan bog'liq bo'lgan. Ulardan bir qismi ishlab chiqarish, ikkinchi qismi ta'minot ehtiyojlarni qondirish uchun ishlatiladi;

➤ turli korxonalar orasida vujudga kelayotgan munosabatlar, agar bu munosabatlar taqsimlash xarakteriga ega bo'lsa, lekin almashtirishga xizmat qiluvchi emas. Bu pul munosabatlari asosidagi moliyaviy resurslarni harakati fond shaklida emas, balki, shartnomalar bo'yicha jarimalar

olish yoki to'lash, turli birlashmalar qatnashchilarini badal to'lovlarini to'lashi, ishlab chiqarish jarayonlarini kooperatsiyalashdan tushgan foydani taqsimlashda ularni ishtirok etishi, aksiya va obligatsiyalarga mablag'larni investitsiyalash va ular bo'yicha dividendlar va foizlar olish va h. k. ;

➤ turli sug'urta fondlarini tashkil etish va foydalanish bilan bog'liq bo'lgan moddiy ishlab chiqarish korxonalari va sug'urta tashkilotlari o'rtasida vujudga keladigan moliyaviy munosabatlar;

➤ bank ssudalarini olish va qoplash, ular bo'yicha foizlar to'lash hamda ma'lum to'lov evaziga vaqtincha foydalanish uchun bo'sh pul mablag'larini banklarga berish bilan bog'liq bo'lgan korxonalar va banklar o'rtasida vujudga keladigan munosabatlar;

➤ budjet va budjetdan tashqari fondlarni tashkil etish va foydalanish bilan bog'liq bo'lgan moddiy ishlab chiqarish va davlat o'rtasida vujudga keladigan munosabatlar. Moliyaviy munosabatlarning bu guruhi budjetga, budjetdan tashqari fondlarga to'lovlar, budjetdan moliyalashtirish va h. k.;

➤ korxonalar bilan ularning yuqori boshqaruv tuzulmalari orasida vujudga keladigan munosabatlar. Bunga "vertikal" o'zaro bog'liqlik deyiladi, tarmoq ichki chegaralarida saqlanib qolgan moliyaviy resurslarning qayta taqsimlanishi.

Yuqorida ko'rsatilgan pul munosabatlari korxonalar moliyasining mazmunini hosil qilib, xo'jalik subyektlarining jamg'armalarini va pul daromadlarini tashkil etish, foydalanish va ularni moliya-bank tizimining majburiyatlarini bajarish uchun, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish xarajatlarini moliyalashtirish, ishchilarni moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan pul munosabatlari deb aniqlash mumkin.

Mulkchilikning turli shakllari, tarmoqlarning xususiyatlari, iqlimiy-tabiat omillarning mavjudligi ham moliyaviy o'zaro bog'liqliklarni ko'p qirrali qilib, ta'sirini o'tkazadi. Bu asosda moddiy ishlab chiqarishda moliyaviy munosabatlarning ko'p qirraligi, usullarini turli-tumanligidan iborat bo'lgan *birinchi spetsifik xususiyati* vujudga keladi.

Ishlab chiqarishning moddiy asosi - bu ishlab chiqarish fondlaridir. Ularni olish, yangilash va kengaytirish uchun korxona zarur bo'lgan moliyaviy resurslarga ega bo'lishi va maqsadli pul fondlarini tashkil etishi kerak. Maqsadli pul fondlari ishlab chiqarish fondlarini aylanishida xizmat qiladi va ularni uzluksizligini ta'minlaydi. Bu holat, ishlab chiqarish fondlarini tashkil etish, doim to'ldirish va ko'paytirish jarayonlarini ifodalab berib, moddiy *ishlab chiqarish moliyasining ikkinchi xususiyatini* hosil qiladi.

Ishlab chiqarish natijasida yaratilgan qiymat sotilgandan so'ng taqsimlanadi. Shu taqsimlanish jarayonida ish haqi fondini tashkil etish, sof daromadni taqsimlash va sarflash uchun moliyaviy munosabatlar vujudga keladi. Sof daromad faqatgina moddiy ishlab chiqarishda emas, balki nomoddiy ishlab chiqarishda ham bir nechta pul fondlarini tashkil etilishida manba bo'lib, taqsimlanish jarayonida moliyaviy munosabatlarning murakkab birikmalarini vujudga keltiradi.

Foyda shaklini olgan sof daromad hisobiga, moddiy ishlab chiqarish sohalarida, ishlab chiqarishni kengaytirish, uni moddiy-texnika bazasini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish fondi, ishchi-xodimlarni moddiy rag'batlantirish uchun belgilangan iste'mol fondi, zahira va rezerv fondi tashkil etiladi. Sof daromad umumdavlat pul fondlarini (budjet, Pensiya fondi va boshqalar) tashkil etilishida, soliq to'lovlari, ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar va boshqa shakllarda manba bo'lib xizmat qiladi. Shunday qilib, moddiy ishlab chiqarishda tashkil etilgan moliyaviy resurslar xalq xo'jaligini boshqa bo'g'inlarida pul fondlarini tashkil etish uchun ishlatiladi. Bu esa, butun davlatni moliyaviy tizimini boshlang'ich asosi bo'lib xizmat qiladi va moddiy ishlab chiqarish moliyasining *uchinchi xususiyatini* ifodalaydi. Turli xil ehtiyojlarni qondirish imkoniyati, mamlakatning umumiy moliyaviy holati aynan moddiy ishlab chiqarish moliyasining holatiga bog'liqdir.


Moliya, shuningdek ayirboshlash va iste'molga o'z ta'sirini o'tkazishi mumkin. Bu maqsadli pul fondlari orqali amalga oshiriladi. Ularning miqdori, tashkil etish shartlari va tartibi, foydalanish tamoyillari ayirboshlash va iste'mol sohalarini talablarini hisobga olgan holda o'zgaradi. Moliyani hamma takror ishlab chiqarish jarayonlari davrlari bilan uzviy bog'liqligi moddiy ishlab chiqarish moliyasining *to'rtinchi spetsifik xususiyatini* ifodalaydi. Bu xususiyat,

iqtisodiy rag‘batlantirish sifatida, moliya bilan foydalanish jarayonida obyektiv asos bo‘lib, katta ahamiyatga ega.

Moddiy ishlab chiqarish sohasi noishlab chiqarish sohasini vujudga kelishiga imkon yaratadi. Moddiy ishlab chiqarish sohasi xalq xo‘jaligining asosiy sohasi bo‘lib, qiymat, ijtimoiy mahsulot va milliy daromadni vujudga keltiradi. Noishlab chiqarish sohasi esa, shu vujudga kelgan daromadni taqsimlanishida ishtirok etadi.

2. Faoliyatning noishlab chiqarish sohasida moliyani tashkil etish asoslari

Noishlab chiqarish sohasi - bu iqtisodiyotning moddiy boyliklar ishlab chiqarmaydigan tarmoqlari majmuidir. Ularga: uy-joy kommunal xo‘jaligi va aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish, boshqarish, maorif, madaniyat va boshqa jamoat tashkilotlari kiradi. Noishlab chiqarish sohasida ham turli xarakterga ega bo‘lgan moliyaviy munosabatlar vujudga keladi va ularni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:



10-rasm. Noishlab chiqarish sohasida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlar

➤ tarmoq (uning boshqaruv organi nomidan) yoki muassasani (tashkilotni) o‘zini budjet bilan pul munosabatlari. Ular asosida budjet mablag‘lari hisobidan tarmoq pul fondlari tashkil etiladi (ta‘lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat va boshqalar). To‘lov asosida faoliyat ko‘rsatayotgan tashkilotlar budjetga belgilangan to‘lovlarni o‘tkazishlari mumkin;

➤ yuqori boshqaruv organlari bilan ularga qarashli muassasalar (tashkilotlar) o‘rtasida hamda oxirgilarni ichida vujudga keladigan munosabatlar. Ular xo‘jalik subyektlarini ixtiyorida tarmoq fondlaridan foydalanish, maqsadli pul fondlarini tashkil etish bilan birga sodir bo‘ladi, masalan ish haqi, kapital ta‘mirlash va h. k. Muassasalar va tashkilotlar ichida, ish haqi va iqtisodiy rag‘batlantirish fondini tashkil etish va sarflash hamda pul mablag‘larini maqsadli yo‘nalishlar bo‘yicha qayta taqsimlash bilan bog‘liq bo‘lgan moliyaviy munosabatlardir.

➤ turli tarmoq xo‘jalik subyektlari o‘rtasida vujudga keladigan pul munosabatlari, shuningdek budjetdan tashqari fondlarni tashkil etish va foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan moliyaviy munosabatlar;

➤ xo‘jalik subyektlari bilan xizmatni iste‘mol qiluvchilar va homiylar o‘rtasidagi pul munosabatlari. Ular asosida noishlab chiqarish sohasidagi muassasalar va tashkilotlarning moliyaviy manbalari tashkil etiladi.

Nomoddiy ishlab chiqarish ham moliyani tashkil etilishiga ta‘sir etadi va *birinchi o‘ziga xos xususiyati* bo‘lib, moliya jismoniy va yuridik shaxslarga xizmat ko‘rsatish jarayonini ifoda etadi.

Xizmat ko'rsatishni turli-tumanligi va iste'molchilarga ularni taqdim etish xarakteri bir turda bo'lmashidan kelib chiqib, noishlab chiqarish sohasidagi muassasalar va tashkilotlar to'lov yoki to'lovsiz faoliyat ko'rsatishlari mumkin. Bu pul fondlarini tashkil etish tartibiga va manbalariga, ulardan foydalanish tamoyillari va yo'nalishlariga ta'sir etadi.

Noishlab chiqarish sohasidagi muassasalar va tashkilotlarning moddiy asosi bo'lib, tovar ishlab chiqarish sharoitida natural-moddiy va qiymat (pul) shakliga ega bo'lgan noishlab chiqarish fondlari hisoblanadi. Shu fondlarga ega bo'lish, yangilash, kengaytirish va ishlatish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar moliyaviy munosabatlarni ifodalaydi. Ular asosida maqsadli pul fondlarini tashkil etish va foydalanish vujudga keladi va shunda nomoddiy ishlab chiqarish moliyasining *ikkinchi o'ziga xos xususiyati* namoyon bo'ladi.

Ularning *uchinchi xususiyati* xizmat ko'rsatish va uni iste'moli o'rtasida almashish davri yo'qligida. Modomiki, xizmat o'z tabiati bo'yicha nomoddiy, u jamg'arilmaydi va yaratilishi bilan u uzoqlashib (yoki begonalashib) ketishi kerak. Bu esa, noishlab chiqarish sohasida pul mablag'larni harakatini, xarakterini, maqsadli pul fondlarini tashkil etish va foydalanish sharoitini va tartibini alohida, o'ziga xosligini ifodalaydi.

Noishlab chiqarish sohasining ko'p tarmoqlarida yuqori malakali, odatda oliy ma'lumotli ishlovchilar tashkil etadi. Shuning uchun noishlab chiqarish soha aqliy mehnatni eng ko'p to'planishi bilan ajraladi va umumiy xarajatlar ichida eng katta miqdori bo'lib, ularga xizmat ko'rsatganlari uchun ish haqi to'lashga sezilarli darajada mablag' ajratiladi. Natijada noishlab chiqarish sohasida aqliy mehnatni samaradorligini oshirishga, uni rag'batlantirishga yo'naltirilgan maxsus moliyaviy mexanizmdan foydalanish zarurligida ifodalanganligi noishlab chiqarish sohasi moliyasining *to'rtinchi o'ziga xos xususiyatini* bildiradi.

Noishlab chiqarish sohasining, odatda, o'z daromadlari bo'lmagan muassasalar uchun pul mablag'lari davlat budjetidan ajratiladi yoki uni smetali moliyalashtirish deyiladi.

Smetali moliyalashtirish muassasani hamma xarajatlarini qoplash uchun davlat budjetidan ajratilgan pul hajmini aniq bir maqsadga qaratilganligi va choraklarga taqsimlanishini aniqlaydi. Noishlab chiqarish muassasalarini ta'minlash uchun budjet mablag'laridan tashqari korxonalar, ijtimoiy va boshqa tashkilotlardan mablag'lar ajratilishi mumkin, lekin moliyalashtirishning asosiy manbai sifatida davlat budjeti bo'lib qoladi. Boshqa moliyaviy rejalardan yoki daromadlar va xarajatlar shaklida tuzilgan balansdan, smeta smetali moliyalashtirish muassasalarini budjet bilan bo'ladigan munosabatlari bir tomonlama yoki faqat xarajatlar rejasini ifoda etib ajraladi. Agarda ayrim budjet muassasalarida ishlab chiqarish yoki boshqa faoliyatlardan daromadlar olinmasa, odatda, ular maxsus mablag'lar shaklida daromadlar va xarajatlar smetasida inobatga olinib, alohida ishlatiladi. Bunda budjet muassasi smetasiga, muassasa normal ishlamo'g'i uchun, xarajatlar to'liq hajmda kiritiladi, maxsus va budjetdan tashqaridagi mavjud bo'lgan mablag'lar inobatga olinmaydi.

Smeta noishlab chiqarish muassasalarining talablarini va davlat budjetini imkoniyatlarini inobatga olib va shartli ravishda davlat qarorlarini va boshqa me'yoriy hujjatlarga, yo'riqnomalarga amal qilingan holda tuziladi. Budjet muassasalarining xarajatlari har bir smetani ajratgan pulni aniq bir maqsadga yo'naltirilganligini aniqlaydigan budjet klassifikatsiyaning moddasi, bo'limi va paragrafi bo'yicha taqsimlanadi yoki guruhlantiriladi. Muassasaning normal ishlashi uchun mablag'lardagi haqiqiy talab har bir xarajatning o'ziga xos hisoboti bilan asoslanadi.

Noishlab chiqarish sohasida, tijorat asosida faoliyat ko'rsatuvchi korxonalar qatorida: kommunal, maishiy xizmat, sug'urta, bank va boshqa tijorat faoliyati olib boruvchi ko'pgina muassasalar va tashkilotlar mavjud.

Notijorat faoliyat ma'lum bir daromad olishni inkor etmaydi, lekin shu daromad tashkilotni rivojlantirishga sarflanadi. Notijorat tashkilotlarni mavjudligi jamiyat uchun zarur, chunki ularga ko'pgina tibbiy, maorif, ta'lim, madaniy, ilmiy muassasalar va h. k. kiradi.

Ijtimoiy ishlab chiqarish korxonalari va ular qaramog'idagi tashkilotlarning o'z daromadlari va jamg'armalari bo'lib, to'liq moliyaviy mustaqillikka ega va davlat budjeti oldida asosiy faoliyatlari bo'yicha majburiyatlarini olib borishmaydi. Ularning faoliyatini amalga oshirish uchun daromadlar va xarajatlar smetasi shaklida moliyaviy reja tuziladi, lekin xo'jalik faoliyati natijasida olingan daromadlardan davlatga soliq to'lanadi.

Moliyaviy rejaning daromadlar va xarajatlar moddalari ijtimoiy tashkilot faoliyatining sohasiga asoslanib ajraladi. Tashkilotning ko'pchiligida daromadlar boshlang'ich a'zolik to'lovlaridan uning qaramog'ida bo'lgan korxonalarni foydasidan ushlab qolingani mablag'lardan tashkil topadi.

Ijodiy uyushmalarning ijtimoiy tashkilotlarda (Rassomlar uyushmasi, Arxitektorlar uyushmasi va boshqalar)da boshqa xil daromadlar ham bo'ladi - bu davlat korxonalari va xo'jalik tashkilotlarning maxsus ajratilgan pul mablag'lari. Ijtimoiy tashkilotlarning daromatlari tarkibida ko'ngilli sport jamiyatlariga, jismoniy tarbiyani rivojlantirishga, mahalliy bastakorlar va yozuvchilar uyushmasining apparatlarini, ma'muriy xo'jalik xarajatlarini va boshqalarni qoplash uchun davlat budjetidan ajratilgan pul mablag'lari (assignovaniyalar) bo'lishi mumkin. Xarajatlar moddalarida esa, ijtimoiy tashkilotlarning asosiy faoliyati bilan bog'liq bo'ladigan mablag'larning sarflanishi aks ettiriladi. Ular: kapital qurilish, kapital ta'mirlash, ma'muriy-xo'jalik xarajatlar, apparatga xizmat haqi to'lashdir.

Xarajatlarni yo'nalishi, ularning faoliyatini xarakteri bilan aniqlanadi.

Nazorat savollari.

- 1. Moddiy ishlab chiqarish sohasida qanday moliyaviy munosabatlar yuzaga keladi?**
- 2. Moddiy ishlab chiqarish sohasi moliyasining xususiyatlari nimalardan iborat?**
- 3. Noishlab chiqarish sohasida qanday moliyaviy munosabatlar vujudga keladi?**
- 4. Noishlab chiqarish sohasi moliyasining xususiyatlari nimalardan iborat?**

4-mavzu. Korxonalar va tashkilotlar moliyasi /8 soat/**2-ma'ruza. Tijorat tashkilotlari va korxonalarining moliyasi****Reja**

- 1. Tijorat tashkilotlari va korxonalari moliyasining mohiyati va funksiyalari**
- 2. Tijorat tashkilotlari va korxonalari moliyasini tashkil etish tamoyillari**

1. Tijorat tashkilotlari va korxonalari moliyasining mohiyati va funksiyalari

Yuridik shaxs – fuqarolik huquqi subyekti, fuqarolik-huquqiy munosabatlari ishtirokchisi. O'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudga da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi. Yuridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lishlari kerak.

O'zbekiston Respublikasining fuqarolik qonun hujjatlariga muvofiq, foyda olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan (*tijoratchi tashkilot*) yoki foyda olishni ana shunday maqsad qilib olmagan tashkilot (*tijoratchi bo'lmagan tashkilot*) yuridik shaxs bo'lishi mumkin.

Tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxs xo'jalik shirkati va jamiyati, ishlab chiqarish kooperativi, unitar korxona va qonunlarda nazarda tutilgan boshqacha shaklda tuzilishi mumkin.

Tijoratchi tashkilot bo'lmagan yuridik shaxs jamoat birlashmasi, ijtimoiy fond va mulkdor tomonidan moliyaviy ta'minlab turiladigan muassasa shaklida, shuningdek qonunlarda nazarda tutilgan boshqacha shaklda tashkil etilishi mumkin.

Yuridik shaxslarning yuqoridagidek farqlanishidan kelib chiqib, ularning moliyasini ham ikkita sohaga ajratish mumkin: *tijorat korxonalari moliyasi* va *notijorat tashkilotlar moliyasi*. Bu ikki guruh xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyasi tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish shakli, daromadlar va xarajatlarni shakllantirishi, mulkka egalik qilishi, majburiyatlarni bajarishi, soliqqa tortilishi bilan bog'liq holda o'zining xususiyatlariga ega.

Tijorat tashkilotlari va korxonalarining moliyasi, moliya tizimining asosiy bo'g'ini bo'lib, YaIM qiymatini yaratish, taqsimlash va ishlatish jarayonlarini qamrab oladi. Ular, asosan yalpi ijtimoiy mahsulot va milliy daromad yaratiladigan, moddiy ishlab chiqarish sohasida faoliyat yuritadilar.

Iqtisodiy tuzumdagi o'zgarishlar natijasida tadbirkorlik faoliyatining yakuniy maqsadi xususiy kapitalina saqlab holda foyda olish bo'lib qoldi.

Tijorat tashkilotlari va korxonalari tadbirkorlik faoliyatini olib borishida ishlab chiqarishni tashkil etish va mahsulot realizatsiyasi, xizmatlar ko'rsatish va ishlar bajarish, o'z moliyaviy resurslarini shakllantirish va moliyalashtirishning tashqi manbalarini jalb qilish, ularni taqsimlash va ishlatish bilan bog'liq bo'lgan ma'lum moliyaviy munosabatlar yuzaga keladi.

Moliyaviy munosabatlarning moddiy asosi *pul* hisoblanadi. *Moliyaviy munosabatlar* – pul munosabatlarining bir qismi va faqatgina pul mablag'larining real harakatida yuzaga keladi, xususiy kapitalni, markazlashgan va markazlashmagan pul fondlarini shakllanishi va ishlatilishi bilan kuzatiladi.

Tijorat tashkilotlari va korxonalarining moliyasi – bu xususiy kapitalni, maqsadli pul fondlarini shakllantirish, ularni taqsimlash va ishlatish jarayonidagi tadbirkorlik faoliyatini olib borishda yuzaga keladigan pul munosabatlari.

Tijorat tashkilotlari va korxonalari moliyasining funksiyalari huddi umumdavlat moliyasinikidek, ya'ni sh va *nazorat*. Ikkala funksiya ham uzviy bog'langan.

1. Taqsimlash funksiyasining vositasida ta'sischilarning qo'yilmalari hisobiga birlamchi kapitalni shakllantirish, ularni ishlab chiqarishga avanslashtirish, kapitalni takror ishlab chiqarish, daromadlar va moliyaviy resurslarni taqsimlanishida alohida tovar ishlab chiqaruvchilarning, xo'jalik subyektlarining va to'lagigicha davlatning manfaatlarini optimal hisobga olinishini ta'minlovchi asosiy mutanosibliklarni yaratish amalga oshadi. Moliyaning taqsimlash funktsiya bilan tijorat tashkilotlari va korxonalarining pul fondlarini olinayotgan daromadlarni taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi orqali shakllanishi bilan bog'liq. Ularga: ustav kapitali yoki ustav fondi, zahira fondi, qo'shimcha kapital, jamg'arish fondi, iste'mol fondi, valyuta fondi va b. kiradi.

Taqsimlash munosabatlari jamiyat manfaatlariga to'lagigicha bo'lgani kabi, alohida xo'jalik yurituvchi subyektlarning, ularning xodimlarini, aksionerlarni, kredit va sug'urta institutlarini ham manfaatlariga taalluqlidir. Shuning uchun, birlamchi vazifa – ularni optimal tashkil qilish. Bu vazifani bajarilishiga moliyaning nazorat funksiyasi yordam beradi.

Mablag'lar normal doiraviy aylanishining buzilishi, mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish xarajatlarining ortib ketishi bilan xo'jalik yurituvchi subyektning va to'lagigicha jamiyatning daromadlari pasayadi. Bu esa, ishlab chiqarish jarayonidagi kamchiliklardan, ishlab chiqarish samaradorligiga taqsimlash munosabatlarining yetarlicha ta'sir qilmayotganligidan guvohlik beradi. Moliyaviy ko'rsatkichlarning tahlili xo'jalik faoliyati natijalarini baholash va zarurat bo'lganda moliyaviy natijalarni yaxshilash maqsadidagi moliyaviy ta'sir choralari ko'rish imkonini beradi.

2. Nazorat funksiyasining obyektiv asosi – mahsulot ishlab chiqarish va sotish, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish xarajatlarini qiymat hisobi, daromadlar va pul fondlarini shakllanish jarayoni. Moliya, taqsimlash munosabatlari sifatida, takror ishlab chiqarish jarayonini moliyalashtirish manbalari bilan ta'minlaydi (taqsimlash funktsiyasi) va bu bilan takror ishlab chiqarish jarayonining barcha davrlarini: ishlab chiqarish, ayirboshlash, iste'mollarni yaxlit bog'laydi. Biroq, daromadlarni mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish jarayonida yaratilgan va ularni sotishdan so'ng olinganidan ortiq taqsimlash va ishlatishning ilojisi yo'q. Xo'jalik subyekti tomonidan olinadigan daromadlarining hajmi uning kelajakda rivojlanish imkoniyatlarini belgilaydi. Korxonaning raqobatbardoshligi, uning moliyaviy barqarorligi ishlab chiqarishning samaradorligiga, xarajatlarning qisqartirilishiga va moliyaviy resurslardan oqilona foydalanishligiga bog'liq.

Xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyati ustidan moliyaviy nazoratni quyidagilar amalga oshiradi:

- bevosita xo'jalik yurituvchi subyektning o'zi, moliyaviy ko'rsatkichlarni har tomonlama tahlil qilish, moliyaviy rejalarni bajarilishining borishini, mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotishdan tushumlarning o'z vaqtida kelishini, tovar-moddiy qiymatliklarni yetkazib beruvchilar, buyurtmachilar va mahsulot iste'molchilari, davlat, banklar va boshqa kontragentlar (shartnomaviy munosabatlarining bir tomoni) oldidagi majburiyatlarni bajarilishini nazorat qilish yo'li bilan;

- aksiyadorlar va aksiyalarning nazorat paketiga ega bo'lganlar, pul mablag'larini samarali joylashtirish, foyda olish va dividendlar to'lanishi ustidan nazorat qilish yo'li bilan;

- soliq organlari, budjetga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida va to'la to'lanishini nazorat qiladi;

- O'zR Moliya vazirligining nazorat-taftish xizmati, budjet mablag'laridan foydalanuvchi korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini nazorat qiladi;

- tijorat banklari, ssudalar berish va qaytarishda, boshqa turdagi bank xizmatlarini ko'rsatishda;

- mustaqil auditorlik firmalari, auditorlik nazoratlarini o'tkazishda.

Tijorat tashkilotlari va korxonalari xo'jalik faoliyatining ijobiy moliyaviy natijasi moliyaviy resurslarni boshqarishda qo'llanilayotgan shakl va usullarning samarali ekanligidan dalolat bersa, aksincha, salbiy natija yoki uning yo'qligi moliyaviy resurslarni boshqarishdagi, ishlab chiqarishni tashkil etishdagi kamchiliklardan va korxonani bankrot bo'lish ehtimolidan dalolat beradi.

2. Tijorat tashkilotlari va korxonalari moliyasini tashkil etish tamoyillari

Tijorat tashkilotlari va korxonalarining moliyaviy munosabatlari xo‘jalik faoliyatining asoslari: xo‘jalik mustaqilligi, o‘zini-o‘zi moliyalashtirish, moddiy manfaatdorlik, moddiy javobgarlik, moliyaviy zahiralari bilan ta‘minlash bilan asoslangan ma‘lum *tamoyillar* bo‘yicha quriladi.

Xo‘jalik mustaqilligi tamoyili moliya sohasidagi mustaqilliksiz amalga oshirilishi mumkin emas. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar, mulkchilik shaklidan qat‘iy nazar, iqtisodiy faoliyat sohasini, moliyalashtirish manbalarini, foyda olish maqsadida pul mablag‘larini joylashtirish yo‘nalishlarini mustaqil belgilaydilar. Bozor tijorat tashkilotlari va korxonalarini kapital qo‘yishning yangi sohalarini qidirib topishni, iste‘mol ehtiyojiga mos keluvchi egiluvchvni ishlab chiqarishni yaratishni rag‘batlantiradi. Tijorat tashkilotlari va korxonalari qo‘shimcha foyda olish maqsadida boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ustav kapitalini shakllanishida ishtirok etib, ularning, davlatning qimmatli qog‘ozlarini sotib olish shaklidagi qisqa muddatli va uzoq muddatli investitsiyalar xarakteridagi investitsiyalarni amalga oshirishlari mumkin. Biroq, to‘la xo‘jalik mustaqilligi to‘g‘risida gapirish mumkin emas, chunki davlat ular faoliyatining ma‘lum tomonlarini tartibga solib turadi. Demak, tijorat tashkilotlari va korxonalarini turli darajadagi budjetlar bilan o‘zaro aloqalari qonunchilik bilan o‘rnatiladi. Mulkchilikning barcha shaklidagi tijorat tashkilotlari va korxonalari qonunchilik tartibida o‘rnatilgan stavkalarga mos tarzda tegishli soliqlarni to‘laydilar, budjetdan tashqari fondlarni shakllanishida ishtirok etadilar. Davlat amortizatsiya siyosatini ham belgilab beradi..


O‘zini-o‘zi moliyalashtirish tamoyili. Bu tamoyilning amalga oshirilishi – xo‘jalik yurituvchi subyektning raqobatbardoshligini ta‘minlovchi tadbirkorlik faoliyatini asosiy shartlaridan biri.

O‘zini-o‘zi moliyalashtirish mahsulot ishlab chiqarish va sotish, ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatish xarajatlarini to‘laligicha o‘zi qoplashi, ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun investitsiyalarni o‘zining pul mablag‘lari va zarurat bo‘lganda bank va tijorat kreditlari hisobiga amalga oshirilishi tushuniladi.

Rivojlangan bozor munosabatlariga ega davlatlarning o‘zini-o‘zi moliyalashtirish darajasi yuqori bo‘lgan korxonalarining xususiy kapitali 70% va undan ko‘pni tashkil qiladi.

Tijorat tashkilotlari va korxonalarini moliyalashtirishning *asosiy o‘z manbalariga* quyidagilar kiradi: amortizatsiya (eskirish) ajratmalari, foyda, ta‘mirlash fondlariga ajratmalar. Hozirgi kunda barcha tijorat tashkilotlari va korxonalari bu tamoyilga rioya qilish ikoniga ega emaslar. Qator soha korxona va tashkilotlari, iste‘molchi uchun zarur bo‘lgan mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish bilan, obyektiv sabablarga ko‘ra ularning rentabelligini ta‘minlay olmaydilar. Ularga shahar yo‘lovchi transporti, uy-joy-kommunal xo‘jaligi, qishloq xo‘jaligining alohida korxonalari kiradi. Bunday korxonalar imkoniyat darajasida qaytarish va qaytarmaslik asosidagi budjetdan qo‘shimcha moliyalashtirish ko‘rinishidagi davlat yordamini oladilar.

Moddiy manfaatdorlik tamoyili. Bu tamoyilning obyektiv zarurligi tadbirkorlik faoliyatining asosiy maqsadi – foyda olish bilan asoslanadi. Tadbirkorlik faoliyatining natijalaridan manfaatdorlik nafaqat uning ishtirokchilarida, balki to‘laligicha davlatda ham namoyon bo‘ladi. Bu tamoyilning amalga oshirilishi korxonaning alohida xodimlariga yuqori darajada mehnatga haq to‘lash bilan ta‘minlanishi mumkin. Korxona uchun bu tamoyil davlat tomonidan optimal soliq siyosatini, iqtisodiy asoslangan amortizatsiya siyosatini olib borilishi, ishlab chiqarishni rivojlanishi uchun iqtisodiy shart-sharoitlarni yaratilishi natijasida amalga oshishi mumkin. Korxonaning o‘zi bu tamoyilning amalga oshishiga yangitdan yaratilgan qiymatni taqsimlashda, iste‘mol fondi va jamg‘arma fondini shakllantirilishida iqtisodiy asoslangan mutanosibliklarga rioya qilish bilan



O‘zini-o‘zi moliyalashtirish

yordam berishi mumkin. Davlatning manfaatlari korxonalarning rentabelli faoliyati bilan, ishlab chiqarishning o'sishi va soliq intizomiga rioya qilinishi bilan ta'minlanishi mumkin.

Moddiy javobgarlik tamoyili moliyaviy-xo'jalik faoliyatini yuritish va uning natijalari uchun ma'lum javobgarliklar tizimining mavjudligini bildiradi. Bu tamoyilni amalga oshirishning moliyaviy usullari turli xildir va qonunchilik bilan tartibga solinadi. Shartnomaviy majburiyatlarni, hisob-kitob intizomini, olingan kreditlarni qaytarish muddatlarini, soliq qonunchiligi va shu kabilarni buzgan korxonalar penya va jarimalar to'laydilar. Rentabelli bo'lmagan, o'zining majburiyatlari bo'yicha javob bera olmaydigan korxonalarga bankrotlik tadbirlari qo'llanilishi mumkin.

Korxonalarning rahbarlari soliq qonunchiligini buzilishi yuzasidan ma'muriy javobgarlikka egadirlar. Korxonalar va tashkilotlarning alohida xodimlariga brakka yo'l qo'yganligi uchun jarimalar tizimi, mukofotlardan mahrum qilish, mehnat intizomini buzganligi uchun ishdan bo'shatish choralari qo'llaniladi.

Moliyaviy zahiralalar bilan ta'minlash tamoyili biznesga qo'yilgan mablag'larni qaytmaslik havfini mavjudligi bilan asoslanuvchi tadbirkorlik faoliyatining shartlari bilan xarakterlanadi. Bozor munosabatlari sharoitida tavakkalchilikning oqibatlari tadbirkorning o'ziga yuklanadi, chunki u o'zi ishlab chiqqan dasturini o'zining tavakkalchiligi asosida ixtiyoriy va mustaqil amalga oshiradi. Bundan tashqari, xaridorlar uchun iqtisodiy kurashda tadbirkorlar o'zining mahsulotlarini pullarini o'z vaqtida qaytmaslik tavakkalchili bilan ham sotishga majbur bo'ladilar. Korxonalarning moliyaviy qo'yilmalari ham qo'yilgan mablag'larni o'z vaqtida qaytmaslik yoki ko'zlangandan oz daromad olish tavakkalchiligi bilan ham bog'liqdir. Va nihoyat, ishlab chiqarish dasturlarini ishlab chiqishda bevosita iqtisodiy hatoliklarga ham yo'l qo'yilishi mumkin. Mazkur tamoyilning amalga oshishi xo'jalik yuritishning noqulay davrlarida korxonaning moliyaviy holatini mustahkamlash imkoni beruvchi moliyaviy zahiralarni va turdagi fondlarni shakllantirish hisoblanadi.

Barcha tashkiliy-huquqiy shakllardagi korxonalar tomonidan moliyaviy zahiralalar budjetga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langanidan so'ng qoladigan sof foydadan shakllantiriladi. Aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy zahiralarni qonunchilik bilan o'rnatilgan tartibda shakllantiradilar. Amaliyotda, past moliyaviy imkoniyatlari sababli, ularning moliyaviy barqarorligi uchun zarur bo'lgan moliyaviy zahiralarni shakllantirmaydilar.

Korxonalar moliyasini tashkil qilishining barcha tamoyillari doimiy rivojlanishda bo'ladi va har qaysi iqtisodiy vaziyatlarda ularning amalga oshirilishi uchun jamiyatdagi ishlab chiqarish kuchlarining va ishlab chiqarish munosabatlarining holatiga mos keluvchi shakllari va usullari qo'llaniladi.

Nazorat savollari.

1. **Yuridik shaxs deganda kim tushuniladi?**
2. **Tadbirkorlik faoliyatining yakuniy maqsadi nima hisoblanadi?**
3. **Qanday faoliyatni tijorat faoliyati deyish mumkin?**
4. **Tijorat tashkilotlari va korxonalari qanday funksiyalarni bajaradilar?**
5. **Xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyati ustidan moliyaviy nazoratni kimlar va qanday tartibda amalga oshiradilar?**
6. **Tijorat tashkilotlari va korxonalarning moliyaviy munosabatlari qanday tamoyillar bo'yicha quriladi?**

4-mavzu. Korxonalar va tashkilotlar moliyasi /8 soat/**3-ma'ruza. Notijorat tashkilotlar moliyasini tashkil etish asoslari****Reja**

- 1. Notijorat tashkilotlar haqida tushuncha**
- 2. Notijorat tashkilotlar moliyaviy resurslarini shakllantirish xususiyatlari**

1. Notijorat tashkilotlar haqida tushuncha

Notijorat tashkiloti tijorat tashkilotidan, avvalambor, faoliyatining maqsadi bo'yicha farq qiladi. Tijorat tashkilotining *asosiy maqsadi* – foyda olish bo'lsa, notijorat tashkiloti esa, quyidagi maqsadlarda tashkil etiladi:

- *ishtirokchilarning moddiy (mulkiy) ehtiyojlarini qondirish maqsadida (matlubot kooperativlari);*
- *ma'naviy yoki o'zga nomoddiy ehtiyojlarni qanoatlantirish uchun (jamoat birlashmalari);*
- *xayriya, ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy yoki boshqa ijtimoiy foydali maqsadlar (jamoat fondlari);*
- *boshqaruv, ijtimoiy-madaniy vazifalarni yoki tijoratchilikdan iborat bo'lmagan boshqa vazifalarni amalga oshirish uchun (muassasalar).*

Notijorat tashkilotiga quyidagicha ta'rif berish mumkin. **Notijorat tashkiloti (NTT)** – bu foyda olish maqsadida emas, balki ishtirokchilarning moddiy (mulkiy) ehtiyojlarini qondirish, ma'naviy yoki o'zga nomoddiy ehtiyojlarni qanoatlantirish, xayriya, ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy yoki boshqa ijtimoiy foydali maqsadlar, boshqaruv, ijtimoiy-madaniy vazifalarni yoki tijoratchilikdan iborat bo'lmagan boshqa vazifalarni amalga oshirish uchun tuzilgan yuridik shaxs. Shuni ta'kidlash joizki, fuqarolik qonunchilik NTTlarga tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga ruxsat beradi, agarda u notijorat tashkilotni tashkil etish maqsadlariga erishishga yo'naltirilgan va bu maqsadlarga mos kelsa. Notijorat tashkilotlarning huquqiy maqomi O'zR Fuqarolik kodeksi normalari (1-qism, 4-bob, 3-§) bilan belgilanadi. Yuridik shaxs sifatida NTT to'la huquqli huquq subyekti hisoblanadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, har qanday NTT uning faoliyati maqsadlariga mos keluvchi fuqarolik huquqlariga va faoliyati bilan bog'liq bo'lgan majburiyatlarga ega.

Yuridik shaxs sifatida notijorat tashkilot quyidagi belgilarga ega bo'lishi kerak:

- o'z mulkida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lishlik;
- bu mulklar bilan o'zining majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lish (muassasalardan tashqari);
- o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la olishlik va ularni amalga oshira olishlik, majburiyatlarni bajara olishlik, sudda da'vogar va javobgar bo'la olishlik;
- mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lishlik.

Tashkiliy-huquqiy shakllari bo'yicha NTTlar matlubot kooperativlariga, jamoat birlashmalariga, jamoat fondlariga, muassasalarga bo'linishi mumkin.

Matlubot kooperativi (MK)- ishtirokchilarning moddiy (mulkiy) ehtiyojlarini qondirish maqsadida fuqarolarning a'zolikka asoslangan ixtiyoriy birlashmasi matlubot kooperativi hisoblanib, bu birlashuv uning a'zolari tomonidan o'z mulkiy (pay) badallarini qo'shish yo'li bilan amalga oshiriladi. MK boshqa NTTlar bilan solishtirganda alohida maqomga ega. MK o'zining faoliyatini ishtirokchilarning moddiy (mulkiy) ehtiyojlarini qondirish maqsadida olib boradilar (misol uchun, uy-joy-qurilish kooperativlari, mulkdorlar kooperativlari (shirkatlari) va b.). boshqa NTTlar esa, boshqa ijtimoiy (nomoddiy) manfaatlarga ega bo'lishlik uchun tuziladi.

Jamoat birlashmalari (JB) - ma'naviy yoki o'zga nomoddiy ehtiyojlarni qanoatlantirish uchun o'z manfaatlarining mushtarakligi asosida qonunda belgilangan tartibda birlashgan fuqarolarning ixtiyoriy birlashmalari.

Jamoat birlashmalari o'z ustavlarida nazarda tutilgan ishlab chiqarish yoki o'zga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga haqlidirlar.

Jamoat fondlari - fuqarolar va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriy mulkiy badallar qo'shish asosida tashkil etilgan, xayriya, ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy yoki boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarni ko'zlaydigan, a'zoli bo'lmagan nodavlat notijorat tashkiloti.

Muassasalar - boshqaruv, ijtimoiy-madaniy vazifalarni yoki tijoratchilikdan iborat bo'lmagan boshqa vazifalarni amalga oshirish uchun mulkdor tomonidan tashkil etilgan va to'la yoki qisman moliyaviy ta'minlab turiladigan tashkilot.

Yuridik shaxslar birlashmalari. Tijorat tashkilotlari o'zlarining tadbirkorlik faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek mushtarak mulkiy manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida notijorat tashkilotlar hisoblanuvchi uyushmalar (ittifoqlar) va o'zga birlashmalariga birlashishlari mumkin.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yuridik shaxs sifatida fuqarolik-huquqiy munosabatlarning qatnashchilaridir.

2. Notijorat tashkilotlar moliyaviy resurslarini shakllantirish xususiyatlari

Ijtimoiy-madaniy xususiyatga, jamoat tartibini saqlash, boshqaruv va mudofaga taalluqli bo'lgan rang-barang xizmatlarni ko'rsatayotgan xo'jalik subyektlari *notijorat asosida faoliyat ko'rsatayotgan muassasa va tashkilotlarni* tashkil etadi.

Rejali iqtisodiyot davrida ushbu muassasa va tashkilotlar xizmatining qariyb barchasi bepul ko'rsatilar edi. Keyingi-yillarda aholini ijtimoiy-madaniy tadbirlarga bo'lgan talabini sifatli va o'z vaqtida ta'minlash maqsadida pullik xizmat ko'rsatish sohalari ham kengaya boshladi.

Iqtisodiyotni notijorat sektori muassasa va tashkilotlarining *moliyaviy mablag'lari* – bu o'z faoliyatini amalga oshirish va kengaytirish uchun turli manbalar hisobidan shakllantiriladigan pul mablag'lari. Notijorat asosida faoliyat ko'rsatayotgan muassasa va tashkilotlar moliyaviy resurslarining shakllanishi ikki xususiyatga bog'liq bo'ladi.

1. Ko'rsatayotgan xizmatlar ko'rinishi.

2. Iste'molchiga yetkazib berilishi (pullik yoki bepul).

Ayrim xizmatlar iste'molchilarga faqat bepul ko'rsatiladi, boshqalari – pullik, qolganlari esa, ham pullik, ham tekinga ko'rsatiladi.

Mamlakatning jamiyatga to'laligicha xizmat ko'rsatuvchi davlat boshqaruvi va mudofaasi sohasida har qaysi fuqaro va huquqiy shaxs bunday xizmatlarni tekinga iste'mol qiladi. Bularni moliyalashtirishning yagona manbai bo'lib budjet mablag'lari hisoblanadi, lekin shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, bu mablag'lar xizmat ko'rsatayotgan xodimlarni to'laligicha ijtimoiy-iqtisodiy hayotini qondira olishi va hech ham tijorat asosida faoliyat ko'rsatayotgan muassasa va tashkilotlardagi o'rtacha ish haqidani kam bo'lmasligi lozim. Aks holda bu sohada xizmat ko'rsatayotgan xodimlar ichida xizmatiga nisbatan loqaydlik, korrupsiya kabi salbiy illatlar tomir otishi tabiiydir.

Yuqorida keltirganimizdek, ayrim muassasa va tashkilotlar notijorat asosida faoliyat ko'rsatayotgan bo'ladi, ammo keng ommaga pullik xizmat ko'rsatadilar. Jumladan, teatr, kinoteatr, advokatlar, notarial idora va boshqalar. Zero, mazkur xo'jalik subyektlariga budjetdan mablag' ajratilsada, u e'tiborli xususiyatga ega emas.

Iqtisodiyotning nobozor sektoriga ijtimoiy-madaniy xarakterdagi xizmatlar kiradi. Ular turlichadir va shunga ko'ra iste'molchilarga pulli hamda bepul ko'rsatilib, keyinchalik moliyalashtirishning turli manbalariga ega bo'ladi. Ijtimoiy-madaniy talablar uchun yo'naltirilgan moliyaviy resurslarning aniq tarkibi avvalambor talab xarakteriga bog'liq bo'ladi. Bunda talablarni uch guruhga ajratish mumkin: jamiyat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan talablar - bu talab ta'minoti har bir fuqaro oladigan daromadga bog'liq bo'lmay, balki davlat konstitutsiyasi orqali kafolatlangan bo'lishi kerak (masalan: fuqarolarning boshlang'ich va o'rta ma'lumotga ega bo'lish talabi). Bularning moliyalashtirish manbai bo'lib, budjet va budjetdan tashqari fondlardan

ajratiladigan umumdavlat moliyaviy resurslari hisoblanadi. Umumiy xarakterga ega bo'lgan, biroq umumdavlat resurslaridan zaruriy minimum miqdorda davlat budjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan talablar, bu talab ta'minoti boshlangan normativ darajasida boshqa moliyaviy manbalar hisobidan, shu jumladan aholi mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Bunday manbalarga aholiga minimum darajada xizmat ko'rsatish, o'rta darajada ma'lumot olish, fuqarolarning belgilangan normada ijtimoiy ta'minoti va boshqalar kiradi. Fuqarolar, ularning dam olishlari, uy-joy bilan ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan talablari, ular jamiyat hisobidan ta'minlanmay, balki ular ta'minotining moliyaviy resurslari bo'lib, korxona, tashkilot va aholi mablag'lari hisoblanadi.

Nazorat savollari.

1. **Notijorat tashkiloti tijorat tashkilotidanqanday farq qiladi?**
2. **Notijorat tashkiloti qanday maqsadlarda tashkil etiladi?**
3. **Notijorat tashkilotlar qanday turlarga bo'linadi?**
4. **Notijorat asosida faoliyat ko'rsatayotgan muassasa va tashkilotlar moliyaviy resurslarining shakllanishi qanday xususiyatlarga bog'liq bo'ladi?**
5. **Notijorat tashkilotlar moliyaviy resurslarini shakllantirish xususiyatlari nimalardan iborat?**

4-mavzu. Korxonalar va tashkilotlar moliyasi /8 soat/**4-ma'ruza. Jamoat tashkilotlari va birlashmalari moliyasi****Reja**

- 1. Jamoat tashkilotlari moliyasini tashkil etish asoslari**
- 2. Jamoat tashkilotlari va birlashmalarining daromad va xarajatlari**
- 3. Kasaba uyushmalari moliyasi**
- 4. Siyosiy partiyalar moliyasi**

1. Jamoat tashkilotlari moliyasini tashkil etish asoslari

Jamoat tashkilotlari mamlakat siyosiy jamoat tizimining ajralmas qismidir. Bu tashkilotlar odamlarning bitta mutaxassislikka yoki ijtimoiy guruhga, bir xil maqsadlarga, qiziqish yoki umumfuqarolik masalalarini hal qilishda bir xil yondashuvligi, g'oyaviy maqsadlar uchun birlashishi asosida vujudga keladi. Bizning mamlakatimizda bir qancha jamoat tashkilotlari faoliyat yuritadi: kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, ijodiy uyushmalar, sport va boshqa o'z xohishiga ko'ra birlashgan jamiyatlar, maxsus tashkiliy shakl asosida birlashgan va keyingi yillarda keng tarqalgan maqsadli fondlar va hayriya fondlari misol bo'ladi.

Jamoat tashkilotlari moliyasi quyidagi munosabatlarni o'z ichiga oladi:

- jamoat tashkilotlari va ularning a'zolari o'rtasidagi jamoatga kirish va a'zolik badallarini to'lash, shuningdek jamoat tashkiloti bo'yicha har xil to'lovlar va imtiyozlarni qo'llash;
- jamoat tashkilotlarining korxonalar, ishlab chiqarish birlashmalari va tashkilotlar bilan moliyaviy munosabatlari. Korxonalar tomonidan xayriyalar, shuningdek har xil madaniy tadbirlar va ko'rgazma, festivallar o'tkazish uchun mablag'lar ajratish;
- jamoat birlashmalari ichida fondlarni tashkil qilish va foydalanish bo'yicha (ish haqi fondi, kapital qo'yilmalar) munosabatlari;
- yuqori va quyi turuvchi jamoat tashkilotlari o'rtasida daromadlarini yuqori tashkilotga o'tkazish yoki yuqori tashkilotdan yordam olish;
- jamoat tashkilotlari va ularga bo'ysinuvchi xo'jalik-ishlab chiqaruvchi tashkilotlar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlari.

Jamoat tashkilotlarining moliyasiga, asosan, ikkita *omil* ta'sir ko'rsatadi.

Birinchisi shundan iboratki, jamoat birlashmalari fuqarolarning o'z xohishiga ko'ra birlashishi asosida yuzaga keladi. Shuning uchun pul fondlarini moddiy bazasi sifatida shakllantirish va ulardan foydalanish o'z xususiyatlariga ega. Mablag'lar tushishining asosiy manbai birlashmalarga kirish va a'zolik badallaridan tashkil topadi.

Ikkinchi omil, jamoat birlashmalari ma'lum mulkka (imoratlar va asbob-uskunalar), korxonalar va ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan (sanoat, qurilish, nashriyot va boshqalar), shuningdek moliyaviy mablag'larga ega bo'ladi. Jamoat birlashmalari ulush asosidagi mulkka ham ega bo'lishi mumkin (masalan, tijorat banklari, qo'shma korxonalar va boshqalarni tashkil etishda). Natijada jamoat tashkilotlari moliyasi davlat tomonidan qisman boshqariladi, lekin asosan nizom bilan belgilangan bo'ladi. Jamoat birlashmalarining nizomida uning maqsadlari, vazifalari va boshqa tizimlar bilan hamkorlikning yo'nalishlari, shuningdek moliyaviy-moddiy ko'rinishdagi mablag'larning shakllanish tamoyillari o'z aksini topadi. Davlat bilvosita ta'sir qilish, ya'ni iqtisodiy ta'sir ko'rsatish usullarini qo'llaydi:

- har xil obyektlarni soliqqa tortish;
- foydaga solinadigan soliq stavkasi;
- moliyaviy va soliq imtiyozlari, shuningdek ayrim hollarda dotatsiya va subvensiyalar ajratish orqali.

Jamoat birlashmalarining mulkidan foydalanishning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u ayrim olingan a'zolar uchun daromad manbai bo'ladi. Jamoat birlashmalarining barcha daromadlari umumiy xizmat ko'rsatishga, nizom ehtiyojlarini to'la qondirishga yo'naltiriladi. A'zolik badallarini to'lash va u yoki bu ko'rinishdagi moddiy yordam olish o'rtasida hech qanaqa bevosita bog'liqlik mavjud emas.

Yuqorida ko'rib o'tilgan omillar birgalikda jamoat birlashmalarining moliya-xo'jalik faoliyatidagi tijorat hisobi va moliyaviy smetalarini belgilaydi. Bu xususiyatlar ularning moliyasi faoliyatida o'z aksini topadi.

2. Jamoat tashkilotlari va birlashmalarining daromad va xarajatlari

Jamoat birlashmalarining moliya rejasidagi daromad qismi jamoatga kirish va a'zolik badallaridan, xo'jalik asosidagi korxonalarining faoliyatidan va pulli tadbirlar asosida yuzaga keladigan daromadlardan tashkil topadi. Ijodiy birlashmalarni moliyalashtirish manbai bo'lib, shuningdek korxona va tashkilotlar foydasidan ajratiladigan maxsus pul ajratmalari ham bo'lishi mumkin. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bo'yicha bu ko'rinishdagi foydadan ajratmalar daromad solig'idan ozod etilgan.

Keyingi-yillarda jamoat birlashmalari faqat tekinga emas, balki pulli xizmatlar doirasini kengaytirmoqda (sport seksiyalarini tashkil etish, tikuvchilik kurslarini tashkil etish va h. k.) va bu tadbirlar ular daromad manbasini kengaytirmoqda. Bundan tashqari ayrim jamoat birlashmalari daromadlari tarkibida davlat budjetidan ajratmalar ham bo'lishi mumkin. Jumladan, ko'ngilli sport jamiyatlariga jismoniy tarbiyani rivojlantirish uchun mablag'lar ajratilar edi. Biroq, mazkur manba hozirgi vaqtda deyarli ishlatilmayapti.

Jamoat tashkilotlari va birlashmalari moliyaviy rejalarining xarajatlar qismida jamoat birlashmalari asosiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan va ular apparatini saqlash bilan bog'liq bo'lgan, kapital qurilish va kapital ta'mirlash bilan, ma'muriy xo'jalik xarajatlari bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar aks ettiriladi.

Jamoat tashkilotlari va birlashmalari moliyaviy rejasining xarajat moddalarini aniqlashtirish mazkur birlashmalarining faoliyat xususiyatidan kelib chiqadi.

Sport jamiyatlarida mablag'lar sport inshootlarini saqlashga, instruktor-trenerlik tarkibining ish haqiga safarbar etilsa, madaniy oqartuv tashkilotlarida - binolarni saqlash va lektorlarga haq to'lashga sarflanadi, Qizil yarim oy jamiyatlarida esa, sanitariya-oqartuv tadbirlariga, tabiiy ofatdan zarar ko'rgan aholiga yordam ko'rsatishga ishlatiladi va h. k.

Ko'pchilik jamoat tashkilotlari va birlashmalari moliyaviy rejalarida xalqaro aloqalar bo'yicha xarajatlar ham ko'zda tutiladi. Bunday xarajatlar tarkibiga quyidagilar kiradi: xorijiy delegatsiya vakillarini mamlakat ichida qabul qilib olish va chet ellarga safar xarajatlari, xalqaro seminarlar, kongresslar, uchrashuvlar tashkil etish xarajatlari. Ayrim holatlarda ushbu xarajatlar xalqaro tashkilotlarga a'zolik badallari uchun ham ishlatilishi mumkinki, bunda ushbu jamoat birlashmalari xalqaro tashkilotning haqiqiy a'zosi bo'lmog'i lozim. Jumladan, mamlakatimiz sport federatsiyalari:

- alohida sport turlari bo'yicha xalqaro sport federatsiyalariga a'zolik badallarini to'laydilar;
- xalqaro federatsiya o'tkazayotgan sport tadbirida ishtirok etish uchun qatnashish badallarini to'laydi;
- o'yinlardan tushgan mablag'lardan ajratmalar qiladilar.

Jamoat tashkilotlari va birlashmalari o'z nizom faoliyatiga ko'ra odatda davlat budjeti oldida hech qanday moliyaviy majburiyatlarga ega emas.

Jumladan, faxriylar, nogironlar jamoat birlashmalari, Qizil yarim oy jamiyati, ixtirochilar va ratsionalizatorlar jamiyati va h. k. lar soliqlardan to'la ozod etilgan.

Jamoat birlashmalari qoshida faoliyat yurituvchi korxonalar tijorat hisobi tamoyilida faoliyat yuritadilar. Shuning uchun ular moliyasini tashkil etish boshqa korxonalardagi asosiy xususiyatlar bilan umumiy bo'lib, asosiy fondlar va aylanma mablag'lar doiraviy aylanishini tashkil etish (nizom

fondini shakllantirish), foyda olish va taqsimlash, budget bilan hisob-kitoblar odatdagi tartibda amalga oshiriladi.

Xo'jalik faoliyatidan daromadlarning o'sishi jamoat birlashmalariga o'z mulkini ko'paytirish va umumiy daromadlar summasida a'zolik badallari ulushini kamaytirish imkonini beradi, jumladan, qurolli kuchlarga ko'maklashuv ko'ngilli jamiyatlarida xo'jalik faoliyatidan olingan daromadlar uning 80% atrofidagi xarajatlarini, a'zolik badallari esa, taxminan 20% ini qoplashga imkon berdi. Kinochilar uyushmasi, rassomlar uyushmasida a'zolik badallarining jami daromadlardagi ulushi 3% dan ortmaydi.

3. Kasaba uyushmalari moliyasi

Kasaba uyushmalari - ishlab chiqarishda, xizmat ko'rsatish va madaniyat sohasida faoliyatining umumiy manfaatlari bilan bog'liq bo'lgan mehnatkashlarni birlashtiruvchi ommaviy tashkilotlardir. Ular "Kasaba uyushmalari" to'g'risidagi qonunga asosan faoliyat yuritadilar.

Hozirgi kunda Kasaba uyushmalarining umumiy konfederatsiyasi tashkil etilgan (KUUK). Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida kasaba uyushmalari ishchi va xizmatchilarning manfaatlarini, ayniqsa, davlat va tadbirkorlar bilan mehnat shartnomasi tuzish vaqtida himoya qilishga qaratilgan. Kasaba uyushmalari mehnatkashlar moddiy va kasbiy holatiga aloqador bo'lgan barcha qonun loyihalarini (masalan, aholi bandligi to'g'risidagi, ijtimoiy-ta'minot va ijtimoiy himoya to'g'risidagi qonunlar) ishlab chiqishda faol ishtirok etishlari lozim. Kasaba uyushmalari mehnatkashlar mehnat sharoitlari, turmush tarzi va dam olishlarini tashkil etish va yaxshilash uchun harakat qiladilar.

Kasaba uyushmalari moliyasini tashkil qilish, asosan, o'zida jamoat birlashmalari moliyasiga xos bo'lgan xususiyatlarni aks ettiradi.

Kasaba uyushmalari va ularga bo'ysunuvchi korxona va tashkilotlar quyidagi uch tur pul munosabatlarini o'zida mujassamlashtiradi:

- kasaba uyushmalari va uning a'zolari o'rtasidagi munosabatlar. Ular ikki tomonli xarakterga ega, ya'ni a'zolar kirish va a'zolik badallarini to'laydi va ikkinchi tomondan kasaba uyushmalaridan har xil moddiy va moliyaviy yordam oladilar;

- kasaba uyushmalarini korxona, tashkilot va birlashmalar bilan moliyaviy munosabatlari. Ular tarkibiga ish haqidan ajratmalar, korxonalarining ixtiyoriy badallari, jumladan, madaniy tadbirlar o'tkazish uchun ajratmalar kiradi;

- kasaba uyushmalari tizimi ichidagi pul munosabatlari, ya'ni kasaba uyushmalari yuqori va quyi bo'g'inlari o'rtasidagi, kasaba uyushmalari va ular qaramog'idagi ijtimoiy-madaniy muassasalar, xo'jalik tashkilotlari o'rtasidagi pul munosabatlari va h. k. Kasaba uyushmalari o'z faoliyatini amalga oshirish uchun mustahkam moddiy-moliyaviy vositaga egadirlar. Ularning ixtiyorida sihatgohlar, pansionatlar, dam olish uylari, turistik bazalar, madaniy-oqartuv muassasalari, sport inshootlari mavjud. Mazkur fondlarning ayrim qismi davlat (budget) mablag'larini jalb etish hisobiga yaratilgan. Kasaba uyushmalari qator qo'shma korxonalar, tijorat banklari kabi yirik investorlarning ta'sischilari, ya'ni ular nizom jamg'armasining mulkdorlari hisoblanadi. Kasaba uyushmalari mablag'larining bir qismi qimmatli qog'ozlarni sotib olishga safarbar etilgan.

Kasaba uyushmalari to'la moliyaviy mustaqil bo'lib, davlat budjeti oldida o'zining asosiy faoliyati bo'yicha hech qanday moliyaviy majburiyatlarga ega emas (ularga qarashli bo'lgan korxonalar foyda, va h. k. soliqlaridan tashqari).

Kasaba uyushmalari tashkilotlarining o'z mablag'lari tarkibiga quyidagilar kiradi:

- a'zolik badallari;
- xo'jalik tashkilotlari faoliyatidan daromadlar;
- pullik tadbirlardan daromadlar.

Kasaba uyushmalari tashkilotlari daromadlarida a'zolik badallari ular umumiy hajmining yarmidan ko'p qismini tashkil etadi. A'zolik badallari ish haqidan 1% miqdorida belgilangan.

Kasaba uyushmalari tashkilotlari o'z daromadlarining ikkinchi manbai Kasaba uyushmalari tomonidan moliyaviy-xo'jalik faoliyati, jumladan, uning qaramog'idagi korxona va tashkilotlar, yordamchi xo'jaliklar (qishloq xo'jaligi, savdo, transport, sanoat, maishiy xizmat va h. k.) yuritilishi bilan bog'liqdir. Kasaba uyushmalari tashkilotlari moliyaviy-xo'jalik faoliyati o'zini-o'zi qoplash tamoyiliga asoslanadi, vakolatli Kasaba uyushmalari tizimi ichida o'z mablag'larini bo'g'inlar o'rtasida qayta taqsimlash bilan bog'liq smeta asosidagi moliyalashtirish ham qo'llanilishi mumkin.

Kasaba uyushmalari tashkilotlarining xarajatlari ularning nizom vazifalaridan kelib chiqadi. Ular tarixiga avvalo moddiy yordam ko'rsatish, mehnat muhofazasi hamda ma'muriy-xo'jalik xarajatlari kiradi. Tashkiliy xarajatlarga yig'ilishlar, konferensiyalar o'tkazish va safar xarajatlari kiradi. Kasaba uyushmalari xarajatlarining belgilovchi qismi madaniy-oqartuv va sport muassalarini saqlash va rivojlantirish bilan bog'liq.

Kasaba uyushmalarining umumiy konfederatsiyasi (KUUK) xalqaro tashkilot - Umumjahon Kasaba uyushmalari federatsiyasi (UKF) tarkibiga kiradi. Shuning uchun KUUK xarajatlarga xalqaro aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlash xarajatlari, jumladan, UKFga a'zolik badallarini to'lash xarajatlari kiradi.

Kasaba uyushmalari tashkilotlari moliyasi vertikal boshqaruv tizimini hisobga olgan holda tuziladi. Kasaba uyushmalarining daromadlari uning yuqori va quyi tashkilotlari orasida taqsimlanadi. A'zolik badallari, asosan, birlamchi tashkilotda qoladi va uning ayrim qismi Kasaba uyushmalari bo'g'inlari o'rtasida taqsimlanadi.

Hozirda mamlakatimizda mustaqil kasaba uyushmalarining konfederatsiyasi (MKUK) shakllangan va faoliyat yuritmoqda. Mustaqil kasaba uyushmalarining konfederatsiyasi (MKUK) moliyasini tashkil etish odatdagidek, ammo bu tashkilot unchalik katta mulkka ega emas.

4. Siyosiy partiyalar moliyasi

Siyosiy partiyalar va ijtimoiy harakatlar jamoat birlashmalarining muhim ko'rinishidir. Bu yerda jamoaga birlashtirishning asoslari sifatida g'oyaviy tamoyillar yoki ijtimoiy g'oyalar maydonga chiqadi. Siyosiy partiyalar va ijtimoiy harakatlar moliya tizimi boshqa jamoat birlashmalaridagi kabi bo'lsada, ma'lum xususiyatlarga ham ega.

Har qanday siyosiy partiya faoliyatining asosiy manbai sifatida a'zolik badallari maydonga chiqadiki, ular odatda barcha xarajatlarni qoplashga imkon bermaydi. Shu bilan bir vaqtda ijtimoiy harakatlar uchun bundan tashqari korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, xususiy tadbirkorlar va alohida fuqarolarning jamg'armalari va xayriya-exsonlari ham qo'llaniladi. Siyosiy partiyalar va ijtimoiy harakatlar daromadlari manbalarining uchinchi guruhiga nashriyotchilik va boshqa faoliyatdan tushumlar kiradiki, ushbu manba tijorat xususiyatiga ega bo'ladi.

Demokratik jamiyatlarda ko'p holatlarda siyosiy partiyalarni nafaqat to'g'ridan to'g'ri moliyalashtirish, balki ularga moddiy yordam (yig'ilishlar uchun binolarni tekinga yoki imtiyozli shartlarda berish, siyosiy-partiyaviy yo'nalishdagi muzeylarni moliyalashtirish va h. k.) ko'rsatish uchun ham davlat budjeti mablag'laridan foydalanish qonun yo'li bilan taqiqlangan. Shu bilan bir vaqtda qonunan rasmiylashtirilgan ma'lum cheklanishlar ham ko'zda tutilishi mumkin. Masalan, Chexiya va Slovakiyada parlamentga saylangan barcha partiya va harakatlar har bir saylov ovozi uchun 10 krondan mablag' oladi. Shunday qilib, davlat oz miqdorda bo'lsada partiyalar saylov tadbirlarini va ularning joriy faoliyatini subsidiyalashtiradi.

Mamlakatimizda so'nggi-yillarda amalga oshirilayotgan siyosiy islohotlar natijasida siyosiy partiyalarning moliyaviy ta'minoti, shu jumladan davlat budjetidan ham moliyalashtirishning huquqiy asosi yaratildi, ya'ni 2004-yil 30-aprelda siyosiy partiyalarni moliyalashtirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi.

Unga asosan siyosiy partiyalarni *moliyalashtirish manbalari* quyidagilardan iborat:

- kirish va a'zolik badallari, agar siyosiy partiyaning ustavida bunday badallar to'lash nazarda tutilgan bo'lsa;
- qonun hujjatlariga muvofiq tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar;
- O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan qonunga muvofiq ajratiladigan mablag'lar;
- O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari va fuqarolari tomonidan qonunga muvofiq beriladigan xayriya yordami.

Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish *qonuniylik, ochiqlik, oshkoralik va siyosiy partiyalarning teng huquqliligi* kabi asosiy prinsiplar asosida amalga oshiriladi.

Shuningdek, qonunda siyosiy partiyalar faoliyatining turli jabhalarni davlat tomonidan moliyalashtirish ko'zda tutilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida"gi qonunining 7-moddasida siyosiy partiyalarning ustavda nazarda tutilgan faoliyatini davlat tomonidan moliyalashtirish to'g'risida quyidagilar nazarda tutilgan: «Siyosiy partiya, agar u O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasiga (bundan buyon matnda qonunchilik palatasi deb yuritiladi) saylov yakunlari bo'yicha "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy qonuniga muvofiq qonunchilik palatasida siyosiy partiya fraksiyasini tuzish uchun zarur miqdorda deputatlik o'rinlarini olgan bo'lsa, o'zining ustavda nazarda tutilgan faoliyatini moliyalashtirish uchun davlat mablag'larini olish huquqiga ega bo'ladi.

Siyosiy partiyalarning ustavda nazarda tutilgan faoliyatini moliyalashtirish uchun ajratiladigan davlat mablag'larining yillik hajmi shu mablag'larni ajratish mo'ljallanayotgan yildan oldingi yilning 1-yanvaridagi holatga ko'ra belgilangan eng kam ish haqining ikki foizini qonunchilik palatasiga o'tkazilgan oxirgi saylovda saylovchilar ro'yxatiga kiritilgan fuqarolar soniga ko'paytmasi miqdorida shakllantiriladi.

Ushbu moddaning ikkinchi qismida ko'rsatilgan davlat mablag'larini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan tartibda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qonunchilik palatasiga oxirgi saylovning O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan aniqlangan natijalari asosida bu mablag'larni olish huquqiga ega bo'lgan siyosiy partiyalar o'rtasida ularning qonunchilik palatasida olgan deputatlik o'rinlari miqdoriga mutanosib ravishda taqsimlaydi».

Mazkur qonunning 8-moddasida esa, siyosiy partiyalarning qonunchilik palatasiga va davlat hokimiyatining boshqa vakillik organlariga saylovda ishtirok etishini davlat tomonidan moliyalashtirish tartibi keltirilgan: «Siyosiy partiyalarning qonunchilik palatasiga va davlat hokimiyatining boshqa vakillik organlariga saylovda ishtirok etishini moliyalashtirish belgilangan tartibda faqat ana shu maqsadlar uchun ajratiladigan davlat mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Siyosiy partiyalarni saylovda boshqa mablag'lar hisobidan moliyalashtirish va moddiy jihatdan o'zgacha tarzda qo'llab-quvvatlash taqiqlanadi.

Siyosiy partiyalarning qonunchilik palatasiga saylovda ishtirok etishini moliyalashtirish uchun ajratiladigan davlat mablag'larining bir deputatlikka nomzod hisobiga to'g'ri keladigan miqdori O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan belgilanadi.

Siyosiy partiyaning qonunchilik palatasiga saylovda ishtirok etishini moliyalashtirish uchun ajratiladigan davlat mablag'lari shu partiyadan qonunchilik palatasi deputatligiga ko'rsatilgan nomzodlar ro'yxatga olingandan keyin ro'yxatga olingan nomzodlar soniga muvofiq hajmda siyosiy partiyaning hisob-kitob varag'iga belgilangan tartibda o'tkaziladi.

Qonunchilik palatasiga saylovda siyosiy partiyalarning ishtirok etishini moliyalashtirish uchun ajratilgan davlat mablag'lari siyosiy partiya tomonidan:

- saylovoldi ko'rgazmali tashviqot vositalarini nashr qilishga;
- qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlarning televidenie, radio orqali va boshqa ommaviy axborot vositalarida chiqishlarini tashkil etishga;
- qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlarning saylovchilar bilan uchrashuvlarini tashkil etishga;

- qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlarning ishonchli vakillari va bevosita saylov okrugida saylovoldi tashviqotini o'tkazish uchun jalb qilinadigan boshqa faollar ishini tashkil etishga;

- saylov kampaniyasini o'tkazishga doir umumpartiyaviy tadbirlarga sarflanishi kerak.

Agar qonunchilik palatasiga saylov yakunlari bo'yicha siyosiy partiya fraksiya tuzish uchun zarur miqdorda deputatlik o'rinlarini ololmagan bo'lsa, siyosiy partiyaning qonunchilik palatasiga saylovda ishtirok etishini moliyalashtirish uchun ajratilgan davlat mablag'lari mazkur partiyaning boshqa manbalardan olgan mablag'lari hisobidan O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetiga qaytarilishi kerak».

Siyosiy partilarni davlat tomonidan moliyalashtirish manbai va uni ajratish tartibi qonunning *10-moddasida* keltirilgan: «Siyosiy partiyalarni davlat tomonidan moliyalashtirish manbai O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetining mablag'laridir.

Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish uchun ajratiladigan davlat mablag'lari siyosiy partiyalarning hisob-kitob varaqlariga belgilangan tartibda o'tkaziladi.

Moliya yili uchun ajratilgan, lekin shu yil mobaynida siyosiy partiya tomonidan foydalanilmagan davlat mablag'lari moliya yili tugaganidan keyin bir oy ichida O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetiga qaytarilishi kerak. Siyosiy partiya davlat mablag'larini olishdan voz kechishga haqli».

Shuningdek, siyosiy partiyalarning daromadlari yuridik va jismoniy shaxslarning xayriya mablag'lari hisobidan ham shakllanishi mumkin. Siyosiy partiyalarga xayriya yordamlari berishning tartibi va umumiy jihatlari yuqoridagi qonunning III qismida keltirilgan. Unga ko'ra siyosiy partiya xayriya yordamini faqat O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari (chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar bundan mustasno) va fuqarolaridan pul shaklida hamda mol-mulk berish, xizmatlar ko'rsatish, ishlar bajarish tarzida va faqat ustavda nazarda tutilgan faoliyatni amalga oshirish uchun olish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari va fuqarolari tomonidan xayriya yordami berish ixtiyoriy ravishda va ularning faqat o'z mablag'laridan amalga oshiriladi.

Siyosiy partiya O'zbekiston Respublikasining bir yuridik shaxsidan bir yil mobaynida olgan xayriya yordami summasi xayriya yordami berilgan yilning 1-yanvaridagi holatga ko'ra belgilangan eng kam ish haqining besh ming baravaridan oshmasligi lozim.

O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxsi siyosiy partiya pul mablag'lari shaklidagi xayriya yordamini berishda uni siyosiy partiyaning hisob-kitob varag'iga yuridik shaxslar uchun naqd pulsiz hisob-kitoblar qoidalarida nazarda tutilgan rekvizitlarni ko'rsatgan holda o'tkazadi va to'lov topshiriqnomasida xayriya yordami berishga cheklashlar yo'qligi haqida belgi qo'yadi.

Xayriya yordami, agar u yuqorida ko'rsatilgan summadan ortiqroq bo'lsa, olingan kundan e'tiboran bir oy ichida siyosiy partiya xayriya yordami beruvchiga uni qaytarishi, qaytarish imkoniyati bo'lmagan taqdirda esa, davlat daromadiga o'tkazishi lozim.

Siyosiy partiya O'zbekiston Respublikasining bir fuqarosidan bir yil mobaynida olgan xayriya yordami summasi xayriya yordami berilgan yilning 1-yanvaridagi holatga ko'ra belgilangan eng kam ish haqining besh yuz baravaridan oshmasligi lozim. Ushbu cheklash siyosiy partiya a'zolari partiya ustaviga asosan to'laydigan a'zolik badallariga tatbiq etilmaydi.

O'zbekiston Respublikasining fuqarosi siyosiy partiya pul mablag'lari shaklidagi xayriya yordamini berishda uni siyosiy partiyaning hisob-kitob varag'iga shaxsan, pasporti yoki uning o'rnini bosuvchi hujjatni taqdim etgan hamda to'lov topshiriqnomasida yoxud pul jo'natmasida familiyasi, ismi, otasining ismi va pasportiga oid ma'lumotlarni ko'rsatgan holda o'z mablag'laridan o'tkazadi.

Xayriya yordami, agar yuqorida ko'rsatilgan summadan ortiqroq bo'lsa, olingan kundan e'tiboran bir oy ichida siyosiy partiya xayriya yordami beruvchiga uni qaytarishi, qaytarish imkoniyati bo'lmagan taqdirda esa, davlat daromadiga o'tkazishi lozim.

Siyosiy partiyalarga pul mablag'lari shaklidagi, mol-mulk berish, xizmatlar ko'rsatish, ishlar bajarish tariqasidagi (shu jumladan grantlar ajratish, texnik yordam ko'rsatish, safarlar bilan, shuningdek O'zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida o'tkaziladigan treninglar,

seminarlar, konferensiyalar bilan bog‘liq xarajatlarga haq to‘lash orqali) xayriya yordami quyidagilar tomonidan berilishiga yo‘l qo‘yilmaydi:

- chet davlatlar;
- chet davlatlarning yuridik shaxslari, ularning vakolatxonalari va filiallari;
- xalqaro tashkilotlar, ularning vakolatxonalari va filiallari;
- chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar;
- chet el fuqarolari;
- fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar.

Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, diniy tashkilotlar va nomi yashirilgan yoki faqat taxallusi ko‘rsatilgan shaxslar tomonidan siyosiy partiyalarga pul mablag‘lari shaklida, mol-mulk berish, xizmatlar ko‘rsatish, ishlar bajarish tarzida xayriya yordami berilishiga ham yo‘l qo‘yilmaydi.

Siyosiy partiyalar uchun boshlang‘ich partiya tashkilotlari va markaziy boshqaruv apparati mavjudligi sharoitida boshqarishning vertikal tarkibi xosdir. Siyosiy partiyalar va ijtimoiy harakatlar moliyasini tashkil etish uchun yuqori va quyi partiya tashkilotlari o‘rtasidagi, jumladan, dotatsiya shaklidagi ichki partiyaviy moliyaviy munosabatlar ham xosdir.

Siyosiy partiyalar odatda ma‘lum mulkka egadirlarki, ularning miqdori uning rahbariyati o‘tkazayotgan siyosatni ommabopligi hamda mamlakat ijtimoiy-siyosiy tizimida ushbu partiya egallagan mavqedan kelib chiqadi. Ijtimoiy harakatlar, aksincha hech qanday mulkka ega emas, ularning yo‘lboshchilari ko‘pincha jamoa asosida o‘z hisobidan faoliyat yuritadilar.

Siyosiy partiyalar moliyaviy rejalarida daromadlar tarkibini to‘liqligini ko‘rish mumkinki, ular tarkibida tijorat hisobi asosida xo‘jalik yurituvchi tashkilotlardan tushum muhim o‘rin egallaydi. Ijtimoiy harakatlarda moliyaviy reja sifatida yillar bo‘yicha farq qiladigan smeta maydonga chiqadi.

Alohida siyosiy partiyalar xarajatlarining tarkibi ular faoliyatining ko‘lamiga bog‘liq. Mazkur xarajatlar siyosiy partiya nizom faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

- partiya rahbariyati va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar ish haqi xarajatlari;
- mitinglar, yig‘ilishlar, namoyishlar o‘tkazish xarajatlari;
- ko‘rgazmali tashviqot bo‘yicha xarajatlari;
- memorial uy-muzeylarni saqlashni joriy xarajatlari.

Bundan tashqari bu xarajatlar tarkibida ma‘muriy binolarni saqlash va yangilarini qurish xarajatlari va h. k. lar ham hisobga olinishi mumkin.

Ijtimoiy harakatlar smetasida asosiy o‘rinni homiylarning va maxsus maqsadli badallar mablag‘larining harakatning faol qatnashchilari uchun qilinadigan xarajatlar egallaydi.

Nazorat savollari.

1. **Jamoat tashkilotlari moliyasi qanday munosabatlarni o‘z ichiga oladi?**
2. **Jamoat tashkilotlarining moliyasiga qanday omillar ta’sir ko‘rsatadi?**
3. **Jamoat tashkilotlari va birlashmalarining daromadlari nimalardan tashkil topadi?**
4. **Jamoat tashkilotlari va birlashmalarining xarajatlari qaysi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi?**
5. **Jamoat tashkilotlari va birlashmalari moliyaviy rejasining xarajat moddalarini aniqlashtirish nimalarga bog‘liq bo‘ladi?**
6. **Kasaba uyushmalari moliyasining mazmuni nimadan iborat?**
7. **Siyosiy partiyalr moliyasining mazmuni nimadan iborat?**
8. **Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish O‘zbekiston Respublikasida qaysi qonun asosida amalga oshiriladi?**
9. **Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish manbalari nimalar hisoblanadi?**
10. **Siyosiy partiyalarni moliyalashtirishning asosiy prinsiplari qaysilar?**

11. Siyosiy partiyalarning ustavda nazarda tutilgan faoliyatini davlat tomonidan moliyalashtirish qanday amalga oshiriladi?
12. Siyosiy partiyalarni saylovlarda ishtirok etishini davlat tomonidan moliyalashtirish tartibini tushuntiring.
13. Siyosiy partiyalarni davlat tomonidan moliyalashtirish manbai va uni ajratish tartibi qanday?
14. Siyosiy partiyalarga xayriya yordami berish va unga qo'yiladigan talablarni tushuntiring.
15. Siyosiy partiyalarga xayriya yordami berishda qanday cheklashlar mavjud?

5-mavzu. Korxonalar faoliyatini moliyalashtirish /4 soat/

1-ma'ruza. Korxonalarni moliyalashtirishning shakl va usullari

Reja

1. Korxonani moliyalashtirish manbalari

2. Korxonalarda investitsion jarayonni moliyaviy ta'minlash

1. Korxonani moliyalashtirish manbalari


Moliyalashtirish manbalari – bu moliyaviy mablag'larni olishning amldagi va kutilayotgan kanallari, shuningdek bu moliyaviy mablag'larni taqdim qilishi mumkin bo'lgan iqtisodiy subyektlarning ro'yxati. Loyihani moliyalashtirish strategiyasining asosini loyihaning individual xususiyatlari va ularga ta'sir qiluvchi omillardan kelib chiqib moliyalashtirish sxemasini ishlab chiqish tashkil qiladi.

Korxonani moliyalashtirish – korxonalarni zaruriy moliyaviy resurslar bilan ta'minlash. Moliyalashtirish budjet mablag'laridan assignovaniyalar, kredit mablag'lari, horijiy yordamlar, boshqa shaxslarning badallari ko'rinishidagi *ichki* va *tashqi* manbalardan amalga oshiriladi.

Moliyalashtirish strategiyasini moliyalashtirish manbalaridan kelib chiquvchi asosiy turlari quyidagilardan iborat:

- ichki manbalardan moliyalashtirish;
- jalb qilingan mablag'lardan moliyalashtirish;
- qarz mablag'laridan moliyalashtirish;
- aralash (kompleks, kombinatsiyalashgan) moliyalashtirish.

Korxonani moliyalashtirish manbalari quyidagi 14-rasmda tasvirlangan.



4-rasm. Korxonani moliyalashtirish manbalari

Ichki manbalar sifatida korxonaning o'z mablag'lari – foyda va amortizatsiya ajratmalari hisoblanadi.

Korxonaning pul mablag'lari – korxonaning naqd va naqdsiz ko'rinishda to'plangan pullari. Ba'zida pul mablag'lariga qo'shimcha yuqori likvidli qimmatli qog'ozlar ham kiritladi.

Foydani qayta investitsiyalash – bu o'z faoliyatini kengaytirayotgan korxonani moliyalashtirishning eng qulay va nisbatan arzon shakli.

Moliyalashtirishning *tashqi manbalarini* xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. *Jalb qilingan investitsiyalar:*

- investorni yuqori foyda va korxonaning o'zi qiziqtiradi;
- investor qachondir investitsiyadan voz kechish maqsadiga ega bo'lishi (bo'lmasligi)

mumkin;

- investor mulkining ulushi uning investitsiyalarini korxonaning barcha kapitaliga nisbatidan aniqlanadi.

2. *Qarzli investitsiyalar:*

- korxona kontrakt bo'yicha qarz summasini qaytarish majburiyatini oladi;
- qarz olingan shartlarga muvofiq tarzda so'ndirilishi kerak;
- korxona olingan qarz uchun foizlar to'laydi;
- korxona kreditor uchun zarur va maqbul kafolatlarni beradi;
- agar kredit muddatlarida qaytarilmasa, kreditor kafolatlarni olib qo'yishi mumkin;
- qarz summasi qaytarilganidan so'ng kreditor odidagi majburiyatlar to'xtaydi.

Moliyalashtirish strategiyasi amalga oshirilayotganda, turli xil manbalardan mablag'larni taqdim qiluvchi, quyidagi moliyaviy vositalar (moliyalashtirish sxemalari) qo'llaniladi:

- moliyaviy investorga ulushni sotish;
- strategik investorga ulushni sotish;
- venchurli moliyalashtirish;
- qimmatli qog'ozlarni ommaviy taklif qilish (IPO);
- qimmatli qog'ozlarni yopiq (xususiy) joylashtirish;
- horijiy moliya bozorlariga chiqish;
- bank kreditlari, kredit liniyalari, ssudalar;
- tijorat (tovar) krediti;
- davlat krediti (investitsion soliq krediti);
- obligatsiyali qarz;
- loyihaviy moliyalashtirish;
- eksport operatsiyalarini sug'urtalash;
- lizing;
- franchayzing;
- faktoring;
- forfeiting;
- grantlar va hayriya badallari;
- tadqiqotlar va ishlanmalar to'g'risida kelishuvlar;
- davlat tomonidan moliyalashtirish;
- veksellarni chiqarish;
- o'zaro hisob-kitoblar;
- barter;
- boshqalar.



Barterli kelishuv

2. Korxonalarda investitsion jarayonni moliyaviy ta'minlash

Korxona investitsiya siyosatidagi muhim yo'nalish *investitsiya resurslari shakllanishini boshqarish* hisoblanadi.

Investitsiyalashning maqsadidan kelib chiqib investitsiya jarayonida qatnashuvchi investitsiya resurslarining tarkibi va mutanosibligi o'zgarishi mumkin. Real investitsiya loyihalarini amalga oshirishda investitsiya resurslari moliyaviy (pul mablag'lari va b.), moddiy (asosiy fondlar, moddiy qiymatliklarning zahirali va sh.k.) va nomoddiy shakllarda (patentlar, litsenziyalar va sh.k.) qo'llanilishi mumkin.

Investitsion jarayonni moliyaviy ta'minlash tizimi manbalarning, investitsiya faoliyatini moliyalashtirish usullari va shakllarining organik birligidan kelib chiqadi. Investitsion resurslarni shakllantirish manbalari turli-tumandir. Bu manbalarning mazmuni aniqlash va turkumlashning zarurligini asoslaydi. Investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarini turkumlanishiga asosan barcha manbalarni uchta asosiy guruhlariga ajratish mumkin: *o'z manbalari, qarz manbalari, jalb qilingan manbalar*. Bunda korxonaning o'z mablag'lari *ichki (ikkilamchi)*, jalb qilingan va qarz mablag'lari – *tashqi (birlamchi)* manbalar sifatida qaraladi.

O'z mablag'lariga quyidagilar kiradi:

- korxonaning ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatidan olingan sof foyda;
- amortizatsiya ajratmalari;
- mulkni yo'qotilishi bilan yuzaga kelgan sug'urta qoplamalari;
- asosiy vositalarni sotishdan olingan mablag'lar;
- nomoddiy aktivlarni sotishdan olingan mablag'lar.

Korxonalarning jalb qilingan mablag'lari – doimiy asosda taqdim qilingan mablag'lar bo'lib, ular bo'yicha mazkur mablag'larning egalariga daromadlar to'lanishi mumkin hamda egalariga qaytarilmasligi mumkin.

Ularga quyidagilar kiradi:

- aksiyadorlik jamiyati aksiyalarini joylashtirishdan olingan mablag'lar;
- korxona ustav fondiga mehnat jamoasi a'zolarining, fuqarolarning, yuridik shaxslarning pay va boshqa badallari;
- yuqori turuvchi xolding va aksiyadorlik kompaniyalari tomonidan ajratiladigan mablag'lar;
- maqsadli investitsiyalashga dotatsiyalar, grantlar va ulushli qatnashishlar ko'rinishida beriladigan davlat mablag'lari;
- qo'shma korxonalarning ustav kapitalida ishtirok etish va xalqaro tashkilotlarning, horijiy davlatlarning, fuqarolar va yuridik shaxslarning bevosita qo'yilmalari shaklidagi horijiy investorlarning mablag'lari.

Korxonalarning qarz mablag'lari – ma'lum vaqtga va qaytarish sharti hamda ulardan foydalanganlik uchun to'lovni to'lash sharti bilan olingan mablag'lar.

Ularni *uzoq muddatli* va *qisqa muddatli*larga ajratish mumkin.

O'zoq muddatli qarz mablag'lariga quyidagilar kiradi:

- banklar va boshqa institutsional investorlarning uzoq muddatli kreditlari;
- uzoq muddatli davlat investitsion kreditlari;
- uzoq muddatli (bir yildan uzoq muddatli) obligatsiyalar va boshqa qarz majburiyatlarini muomalaga chiqarishdan olingan mablag'lar;
- lizing va b.

Qisqa muddatli qarz mablag'lari:

- tijorat (tovar) kreditlari;
- qisqa muddatli (bir yildan kam muddatli) obligatsiyalar va boshqa qarz majburiyatlarini muomalaga chiqarishdan olingan mablag'lar;;
- banklar va boshqa institutsional investorlarning qisqa muddatli kreditlari.

Investitsiyalarning o'z va jalb qilingan manbalari korxonaning *xususiy kapitalini* tashkil qiladi. Bu manbalar bo'yicha tashqaridan jalb qilingan summalar qaytarilishi shart emas. Investorlar investitsiyalarni amalga oshirshadan olinadigan daromadlarda ulushli mulk egaligi huquqida ishtirok etadilar. Investitsiyalarning qarzli mablari korxonaning *qarz kapitalini* tashkil qiladi.

Moliyalashtirish manbalarining turli-tumanligida investitsion faoliyatni moliyalashtirishning asosiy usullariga ***o'zini-o'zi moliyalashtirish, aksiyadorlik moliyalashtirish, budjetli moliyalashtirish, kreditli moliyalashtirish, lizingli va kombinatsiyalashgan (aralash) moliyalashtirishlarni*** kiritishimiz mumkin.

Moliyalashtirish usuli deganda investitsion jarayonni moliyalashtirish maqsadida investitsion resurslarni jalb qilish mexanizmi tushuniladi. *Moliyalashtirish shakllari* deganda moliyalashtirish usuli mohiyatining tashqi ifodasi tushuniladi.

To'la ichki o'zini-o'zi moliyalashtirish eng ishonchli hisoblanadi va investitsiya loyihalarini faqatgina o'z (ichki) manbalar hisobidan moliyalashtirishni nazarda tutadi. Moliyalashtirishning bu usuli horij amaliyotida "leveridjsiz moliyalashtirish"ni xarakterlaydi. Investitsiyalarni moliyalashtirishning muhim o'z manbalari *sof foyda* va *amortizatsiya ajratmalari* hisoblanadi. ***Foyda*** korxona sof daromadining asosiy shakli sifatida namoyon bo'lib, mahsulotning qo'shilgan qiymatini ifodalaydi va korxona faoliyati natijalarini umumlashtiruvchi ko'rsatkich hisoblanadi.

Soliq lar va boshqa majburiy to'lovlar to'langanidan so'ng korxona ixtiyorida sof foyda qoladi. U zahira kapitali, taqsimlanmagan foyda va jamg'arish fondi ko'rinishida to'planib boradi. Odatda, foydaning investitsiya maqsadlariga yo'naltirilayotgan qismi jamg'arish fondida yoki shunga o'xshash fondlarda to'planib boradi. Jamg'arish fondi xo'jalik yurituvchi subyektning yangi mulkni tashkil qilish, asosiy vositalar, aylanma mablag'larini olish uchun ishlatiladigan mablag'lari manbai sifatida maydonga chiqadi. Zahira fondi korxonaning zararlarini qoplash, obligatsiyalarni so'ndirish va o'z aksiyalarini qayta sotib olish uchun shakllantiriladi. Foydaning taqsimlanmagan qismi ham kapitalizatsiya uchun yo'naltirilishi mumkin. O'zining iqtisodiy mazmuni bo'yicha foyda rivojlanish uchun ishlatiladigan o'z mablag'lari zahirasi shakllaridan biri hisoblanadi. Ishlab chiqarishni rivojlantirishga yo'naltirilayotgan sof foydaning hajmi bir qancha omillarga bog'liq bo'ladi: mahsulot realizatsiyasi hajmiga, narhlarga, mahsulot birligi tannarxiga, foyda solig'i stavkasiga, iqtisodiy rivojlanishning umumiy strategiyasiga asoslanuvchi iste'mol va korxonaning rivojlanishiga taqsimlash siyosatiga.

Moliyalashtirishning o'z manbalarini ahamiyatligi bo'yicha keyingisi ***amortizatsiya ajratmalari*** hisoblanadi. Ular korxonalarda asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymatini tayyor mahsulot qiymatiga o'tkazishi natijasida tashkil bo'ladi. Asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymatini bosqichma-bosqich tiklanishi jarayonida bo'shab qolgan pul mablag'lari amortizatsiya ajratmalari ko'rinishida amortizatsiya fondida to'planib boradi. Amortizatsiya fondining kattaligi korxonaning asosiy fondlarini hajmiga, ularning boshlang'ich yoki tiklanish qiymatiga, turlari va yoshlari o'yicha tarkibiga, shuningdek maqsadi va amortizatsiya ajratmalarini hisoblashning qo'llanilayotgan usuliga bog'liq.

O'z manbalardan foydalanishning asosiy *afzalliklariga* quyidagilar kiradi: foyda qismi bo'yicha: ularni yo'naltirish bo'yicha vaqt va mablag' sarfining yo'qligi, qaytarmaslik riskining yo'qligi, manba sifatida qo'llanilishi korxonaning investitsion jozibasini kuchaytiradi; amortizatsiya qismi bo'yicha: korxona ixtiyorida har qanday moliyaviy holatda ham mavjud bo'lishi, amortizatsiyani turli xildagi usullar bilan hisoblash imkoniyati.

Foyda qismidagi *kamchiliklarga* to'lovlarni amalga oshmasligi, barterlar, soliqqa tortish va sh.k. oqibatida manbalarining chegaralanganligini keltirish mumkin; amortizatsiya qismi bo'yicha: amortizatsiya fondi hajmining inflyatsiya darajasiga, nazoratning amaliy mexanizmini mavjud emasligi sababli maqsadsiz ishlatish ehtimoliga bog'liqligi.

Investitsiya resurslarini shakllantirishning o'z manbalarini sanab o'tilganlaridan qolganlari, odatda, korxonaning investitsiya strategiyasini ishlab chiqish jarayonida ko'rib chiqilmaydi, madomiki ularning shakllanishi taktik va operativ rejalashtirishning predmeti hisoblanadi.

Aksiyadorlik moliyalashtirish yuridik va jismoniy shaxslarning korxona ustav kapitaliga qo'yilmalarini bildiradi. Buning natijasida investorlar korxonaning mulkdorlariga aylanadi.

Moliyalashtirishning mazkur shakli bo'yicha mablag'larni yig'ish qimmatli qog'ozlar bozori orqali amalga oshiriladi.

Qarzli moliyalashtirish turli manbalardan, obligatsiyalar va boshqa qarz majburiyatlarini muomalaga chiqarishdan olingan kreditlar va qarzlar shaklida namoyon bo'ladi. Moliyalashtirishning mazkur shakli doirasida investitsiya mablag'larini yig'ish qimmatli qog'ozlar bozori, kredit resurslari bozori va davlatdan moliyalashtirish orqali amalga oshiriladi.

Investitsiya krediti investitsiya maqsadlariga yo'naltirilgan turli xildagi bank kreditlari sifatida namoyon bo'ladi. Kredit kreditlashtirishning asosiy tamoyillariga amal qilingan tartibda beriladi, ya'ni *qaytaruvchanlik, muddatlilik, to'lovlilik, ta'minlanganlik, maqsadli foydalanish*.

Davlat tomonidan kreditlashtirish aniq bir korxonaga (yoki ma'lum loyihaga) imtiyozli asosda bevosita (maqsadli) kreditlar shaklida amalga oshiriladi. Davlat kreditning foiz stavkalarini, qaytarish muddatlari va tartibini o'rnatadi.

Obligatsiyali qarz qarzli moliyalashtirishning bir ko'rinishi sifatida, obligatsiyalarni emissiya qilish asosida tashqi o'zlashtirishni bildiradi. *Obligatsiya* – qimmatli qog'oz bo'lib, uning egasi tomonidan ma'lum summadagi pulni to'laganligi hamda muayyan vaqtdan keyin unda ko'rsatilgan (nominal) pulni hamda ma'lum foizlarni qo'shib qaytarilishini tasdiqlaydi.

Davlatdan moliyalashtirish ko'p hollarda yuqori samarali investitsiya loyihalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash ko'rinishida, davlatning tashqi aloqalari doirasidagi loyihalarni moliyalashtirish ko'rinishlarida amalga oshiriladi.

Lizingli moliyalashtirish jihozlar sotib olish uchun berilgan kreditlar bilan o'xshashlikka ega, biroq lizing mulkiy munosabatlarga asoslanadi. Lizing vaqtincha bo'sh bo'lgan yoki jalb qilingan moliyaviy mablag'larni investitsiyalashga yo'naltirilgan tadbirkorlik faoliyatining muhim bir turi hisoblanadi. Bunda bir taraf (lizing beruvchi) ikkinchi tarafning (lizing oluvchining) topshirig'iga binoan uchinchi tarafdan (sotuvchidan) lizing shartnomasida shartlashilgan mulkni (lizing obyektini) mulk qilib sotib oladi va uni shu shartnomada belgilangan shartlarda haq evaziga egalik qilish va foydalanish uchun lizing oluvchiga o'n ikki oydan ortiq muddatga beradi.

Aralash moliyalashtirish amaliyotda ancha keng tarqalgan va moliyalashtirishning bir emas, balki bir nechta usullarini bir vaqtning o'zida qo'llashni nazarda tutadi. Aralash moliyalashtirishda investitsiyalarni moliyalashtirishning o'z manbalari ulushini nazorat qilib borish zarur.

Moliyalashtirish usullari va manbalarini tanlash ko'plab mezonlar bog'liq. Ular orasidan korxonaning tashkiliy-huquqiy shaklini, korxona operatsion faoliyatining tarmoq xususiyatlarini, korxona hajmi va yoshini, turli mabalaridan jalb qilingan kapitallari qiymatini, moliyalashtirish manbalarini tanlash imkoniyatini, kapital bozori kon'yunkturasini, foydani soliqqa tortish darajasini, risk darajasiga munosabatni, pul oqimlari hajmini, korxona kapitala tuzilishini, qo'yilma obyektini ko'rsatishimiz mumkin.

Nazorat savollari.

1. **Korxonalarni moliyalashtirish manbalariga nimalar kiradi?**
2. **Korxonaning pul mablag'lari deganda nimalar tushuniladi?**
3. **Korxonalarni moliyalashtirishda qanday moliyaviy vositalardan foydalaniladi?**
4. **Investitsiya operatsiyalari korxona faoliyati qanday o'rin egallaydi?**
5. **Korxonaning investitsiya faoliyati qanday manbalardan moliyalashtiriladi?**
6. **Korxonaning investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning qanday usullari mavjud?**

5-mavzu. Korxonalar faoliyatini moliyalashtirish /4 soat/**2-ma'ruza. Korxonalarni investitsiya faoliyati****Reja**

- 1. Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida tushuncha**
- 2. Investitsiyalarning turlari**

1. Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida tushuncha

O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida investitsion faoliyatni faollashtirishsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

“Investitsiya” iborasi inglizcha “to invest” so'zidan olingan bo'lib, *qo'yilma qilish* ma'nosini anglatadi.

Investitsiyalar - iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar.

Investitsiya faoliyati - investitsiya faoliyati subyektlarining investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq harakatlari majmui.

Quyidagilar investitsiya faoliyatining subyektlari (investorlar va ishtirokchilar) bo'lishlari mumkin:

- O'zbekiston Respublikasining rezidentlari - fuqarolari (jismoniy shaxslari), yuridik shaxslari;
- mahalliy davlat hokimiyati organlari va davlat boshqaruv organlari;
- xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar va chet ellik yuridik shaxslar hamda fuqarolar, shuningdek fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va O'zbekiston Respublikasining chet elda doimiy yashovchi fuqarolari;
- hamkorlikda investitsiya faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek davlatlar va xalqaro tashkilotlar.

Investorlar qonun hujjatlariga muvofiq buyurtmachi (mablag' kirituvchi), kreditor, sotib oluvchi bo'lishlari, shuningdek investitsiya faoliyati ishtirokchisi vazifasini bajaruvchi bo'lishlari mumkin.

Investitsiya faoliyatining ishtirokchilari investor bilan tuzilgan shartnoma asosida investorning buyurtmasini bajaruvchi bo'lishlari mumkin.

Investor - o'z mablag'larini, qarzga olingan va jalb etilgan mablag'larni, mulkiy boyliklarni va ularga doir huquqlarni, shuningdek intellektual mulkka doir huquqlarni investitsiya faoliyati obyektlariga investitsiyalashni amalga oshiruvchi investitsiya faoliyati subyektlari hisoblanadi.

Investitsiya faoliyatining ishtirokchisi quyidagilarga haqli:

- tanlov (tender) savdosining ishtirokchisi bo'lish;
- investorlar bilan ularning buyurtmalarini bajarish uchun shartnomalar tuzish;
- agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, investor oldidagi o'z majburiyatini bajarishga boshqa shaxslarni jalb etish;
- agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, investitsiya faoliyati obyektining haqiqiy qiymatini pasaytirish natijasida erishilgan tejarni mustaqil ravishda tasarruf etish.

Investitsiya faoliyatining ishtirokchisi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Investitsiya faoliyatining ishtirokchisi:

- qonun hujjatlarida belgilangan normalar, qoidalar va standartlarga rioya etishi;
- shartnomalarni o'z vaqtida va lozim darajada bajarishi;

- shartnomani bajarmasligi yoki lozim darajada bajarmasligi tufayli investorga yetkazilgan zararni qoplashi;
- mahalliy davlat hokimiyati organlari va davlat boshqaruv organlarining o'z vakolati doirasida qo'yilgan talablarini bajarishi shart.

Investitsiya faoliyatining ishtirokchisi litsenziyalanishi lozim bo'lgan faoliyatni amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda litsenziya olishi shart.

Investitsiya faoliyatining ishtirokchisi zimmasida qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

2. Investitsiyalarning turlari

Tadbirkorlik faoliyatining obyektlariga investitsiyalar turli xil shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Hisob, tahlil, rejalashtirish va nazorat uchun ular alohida belgilari bo'yicha turkumlanadi. Pul mablag'lari qo'yilmasi obyektlari bo'yicha *real* va *moliyaviy* investitsiyalarga bo'linadi.

Real investitsiyalar (kapital qo'yilmalar) – mablag'larni moddiy va nomoddiy aktivlarga (innovatsiyalarga) avanslashtirish. Kapital qo'yilmalar quyidagi mezonlar bo'yicha *turkumlanadi*:

- tarmoq tuzilmasi bo'yicha (sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, aloqa, savdo va b.);
- mulkchilik shakli bo'yicha (davlat, xususiy, aralash va b.);
- takror ishlab chiqarish tuzilmasi bo'yicha (yangi qurilish, kengaytirish, tiklash, texnik qayta qurollantirish, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar quvvatlarini saqlab qolish;
- texnologik tuzilishi bo'yicha (qurilish-montaj ishlari, jihozlar sotib olish, boshqa kapital xarajatlar);

- tayinlanishi bo'yicha (ishlab chiqarish obyektlari, uy-joy va madaniy-maishiy qurilishlar);

- moliyalashtirish manbalari bo'yicha – ichki va tashqi (qarz va jalb qilingan).

Nomoliyaviy aktivlarga qilinayotgan investitsiyalarning asosiy ulushini asosiy kapitalga qo'yilmalar tashkil etadi (kapital ta'mirlash xarajatlari bilan birga).

Moliyaviy investitsiyalar – bu mablag'larni davlat va korporativ (aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalari va obligatsiyalari) qimmatli qog'ozlarga qo'yish, maqsadli pul omonatlari, boshqa korxonalarning ustav kapitalig qo'yilmalar. Ishtirok etish xarakteri bo'yicha *bevosita* va *bilvosita* moliyaviy investitsiyalarga bo'linadi. *Bevosita* investitsiyalar investorni pul mablag'larini qo'yish obyektlarini tanlashda bevosita ishtirok etishini nazarda tutadi. *Bilvosita* investitsiyalar moliyaviy vositachilar – tijorat banklari, investitsiya kompaniyalari va fondlari, sug'urta kompaniyalari orqali amalga oshiriladi. Moliyaviy vositachilar yig'ilgan mablag'larni investor manfaatlarida samarali foydalanishni ta'minlash uchun o'zining xohishi bo'yicha joylashtiradi. O'zining xizmatlari uchun ular haqlarini oladilar.

Investitsiyalash davri bo'yicha moliyaviy qo'yilmalar *qisqa muddatli* (bir yil muddatgacha) va *uzoq muddatli* (bir yildan ortiq muddatga)larga turkumlanadi. Uzoq muddatlilar asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirish manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Risk darajasi bo'yicha moliyaviy investitsiyalarning quyidagi turlari mavjud. *Risksiz investitsiyalar* – mablag'larni moliyaviy vositalarning shunday turlariga qo'yishki, ular bo'yicha kutilayotgan daromadni yoki kapitalni yo'qotishning real riski yo'q va foyda olish deyarli kafolatlangan. *Past riskli investitsiyalar* – risk darajasi o'rtacha bozor ko'rsatkichidan past bo'lgan moliyaviy aktivlarga kapital qo'yilishi. *O'rta riskli investitsiyalar* – alaqancha riskli moliyaviy vositalarga (misol uchun, maksimal daromad olinishi kutilayotgan yosh kompaniyalar aksiyalariga) kapital qo'yilma qilish.

O'zbekiston moliya bozorida investitsiya faoliyati subyektlari: emitentlar, investorlar, nodavlat moliyaviy vositachilar va b. hisoblanadi.

Nazorat savollari.

1. Investitsiyalar deganda nima tushuniladi?
2. Investitsiya faoliyati deganda qanday faoliyat tushuniladi?
3. Kimlar investitsiya faoliyatining subyektlari bo'lishlari mumkin?
4. Kim investor bo'lishi mumkin?
5. Investitsiya faoliyatining ishtirokchisi qanday huquq va majburiyatlarga ega?
6. Real investitsiyalar deganda qanday investitsiyalar tushuniladi va ular qanday mezonlar bo'yicha turkumlanadi?
7. Moliyaviy investitsiyalar deganda qanday investitsiyalar tushuniladi va ular qanday turkumlanadi?

6-mavzu. Davlat moliyasi va uning bo‘g‘inlari /6 soat/

1-ma’ruza. Davlat moliyasining mohiyati

Reja

1. Davlat moliyasining mazmuni
2. Davlat daromadlari
3. Davlat xarajatlarning mazmuni
4. Davlat xarajatlarning tashkiliy tuzilishi

1. Davlat moliyasining mazmuni

Davlat moliyasi mamlakat moliya tizimining asosiy sohasi bo‘lishi bilan bir qatorda u davlatni o‘z oldida turgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ekologik funksiyalarini amalga oshirishda moliyaviy resurslar bilan ham ta’minlab turadi.


Davlat moliyasining iqtisodiy mohiyati – bu yalpi ichki mahsulotning qiymatini va milliy daromadning bir qismini taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida davlat va davlat korxonalari ixtiyorida markazlashgan va markazlashmagan moliyaviy resurslarning shakllanishi va ulardan kengaytirilgan takror ishlab chiqarish bilan bir qatorda jamiyatning o‘sib borayotgan ijtimoiy, madaniy tadbirlarida foydalanishdagi pul munosabatlari yig‘indisidir.

Mazkur sohadagi pul munosabatlarining subyektlari bo‘lib: davlat, korxonalar, birlashmalar, muassasalar va keng aholi qatlami hisoblanadi.

Davlat moliyasining iqtisodiy tuzilishi tom ma’noda bir xil emas, u bir-biriga bog‘liq bo‘lgan bo‘g‘inlardan tashkil topsada, lekin bajarayotgan funksiyalari bilan bir-biridan farq qiladigan bo‘g‘inlar yig‘indisidan iboratdir.

Davlat moliyasi sohasining bo‘g‘inlariga: davlat budjeti, budjetdan tashqari fondlar, davlat krediti va davlat korxonalari moliyasi kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat moliyasini quyidagi tuzilishda ko‘rishimiz mumkin:



15-rasm. O‘zbekiston Respublikasi davlat moliyasining tuzilishi

Respublikamizda davlat budjetining tuzilishi ikki bo‘g‘inlidir – bu Respublika budjeti va mahalliy budjetlar yig‘indisi.

Respublika budjetidan asosan jamiyat ahamiyatiga molik bo‘lgan chora-tadbirlar moliyalashtiriladi, jumladan, markazlashtirilgan investitsiyalar, mudofaa xarajatlari, boshqaruv xarajatlari. Respublika budjetidan mamlakat miqyosidagi iqtisodiy – ijtimoiy masalalar ijobiy hal qilinishiga qaratilgan.

Bozor iqtisodiyoti rivojlanishi bilan budget munosabatlari ichida mahalliy budgetlarga e'tibor kuchaymoqda. Keyingi paytlarda mahalliy hokimiyatga mustaqillik berilishi munosabati bilan bular tez sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Mahalliy budgetlardan asosan mahalliy ahamiyatga molik bo'lgan chora-tadbirlar moliyalashtiriladi. Jumladan, hududiy infratuzilmani tashkil qilishda, mehnat resurslarining qayta tiklash, aholining mehnat farovonligini oshirishga xizmat qiladigan ijtimoiy tadbirlar va haqozolar.

Davlat moliyasi sohasining tarkibiy qismidan biri bu budgetdan tashqari fondlardir.

Har bir darajadagi budgetdan tashqari fondning asosiy maqsadi – bu ayrim maqsadli chora-tadbirlarni maxsus ajratmalar va boshqa manbalari evaziga moliyalashtirishdir.

Budgetdan tashqari fondlar funksional maqsadlarini vazifalari kabi boshqarish darajasida ham xilma-xildir. Funksional maqsadlari bo'yicha ularni iqtisodiy yoki ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan fondlarga ajratish mumkin. Boshqarish darajasi bo'yicha esa, budgetdan tashqari fondlarni davlat va mahalliy ahamiyati bo'yicha ajratish mumkin.

Budgetdan tashqari fondlarni zotan respublika va mahalliy hokimiyat organlari boshqarsada, lekin bular o'ziga xos moliyaviy siyosatga va mustaqillikka egadirlar. Budgetdan tashqari fondlarning xususiyatli tomoni shundaki, ular oldindan ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi va faqat shu yo'nalishlarda foydalaniladi. Budgetdan tashqari fondlar tarkibiga: davlat Pensiya fondi, davlat aholini bandligiga ko'maklashish fondi, davlat yo'l fondi va bir nechta umumjamoa ahamiyatga ega bo'lgan "Iste'dod", "Amir Temur", "Navro'z" va boshqa fondlar kiradi.

Davlat moliyasining xarakterli bo'lagidan biri bu davlat kreditidir. Davlat kreditining mazmuni shundaki, bu davlat o'z xarajatlarini moliyalashtirish uchun aholining, xo'jalik subyektlarining ortiqcha moliyaviy resurslarini vaqtincha foydalanishidir. Demak, bu yerda davlat qarz bermasdan, balki qarz olishidir. Davlat kreditidan foydalanish uchun hukumat moliyaviy bozorga jismoniy va yuridik shaxslarga mo'ljallangan zayomlar, qisqa muddatli obligatsiyalar, g'aznachilik majburiyatlari va boshqa turdagi davlat qimmatli qog'ozlarini muomalaga chiqaradilar. Mamlakat hayotida davlat krediti iqtisodiyotni barqarorlashtirish va moliyaviy sog'lomlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Muomaladan pul oqimini sustlashishini oldini olishga xizmat qiladigan davlat krediti pul muomalasidagi aylanishini tezlashtiradi.

Davlat moliyasi tarkibida respublika va mahalliy darajada tashkil etilayotgan budgetni o'zaro bog'liqliklari muhim ahamiyatga ega. Budget munosabatlari yordamida davlat tuzimlari ixtiyorida moliyaviy usullari bilan qayta taqsimlanayotgan milliy daromadni asosiy qismi yig'iladi. Turli darajadagi budgetlar – respublika, mahalliy har biri o'ziga tegishli ravishda respublika va mahalliy hukumat boshqaruv organlarining faoliyatini moliyaviy bazasidir. Bozor islohotlari sharoitida bu budgetlar o'zaro bog'langan. Budget daromadlar va xarajatlar tarkibidagi har bir darajasini belgilanishi respublika va mahalliy davlat hukumat boshqaruv organlarining orasidagi funksiyalarini bir-biridan chegaralanishiga bog'liq.

Davlat umumiy funksiyalarini amalga oshirish uchun respublika budgetini tashkil etadi. Respublika budgeti butun respublika miqyosida iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarni to'g'ri hal etishda muhim ahamiyatga ega. Uning resurslarini maqsadi makroiqtisodiy darajada o'z funksiyalarini bajarish uchun bog'liq bo'lgan davlat xarajatlarini moliyalashtirishdir hamda uni yordamida iqtisodiyotni barqarorlash, ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan umumdavlat chora-tadbirlarini amalga oshirilishi ta'minlanadi.

Budget munosabatlari tizimida mahalliy budgetlarga muhim ahamiyat berilmoqda. Ular, iqtisodiy jarayonlarni tartibga solishda, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda, hududiy infratuzilmani tashkil etishda, mehnat resurslarini takror ishlab chiqarish uchun moliyalashtirishda va boshqalarda ta'sirini ko'rsatib, borgan sari ko'proq ishlatilmoqda. Ijtimoiy rejalarni amalga oshirishda va o'sib borayotgan ijtimoiy xarajatlarni moliyalashtirishda ham mahalliy budgetlar muhim ahamiyatga ega.

Umumdavlat moliyasi korxona moliyasi bilan uzviy ravishda bog'langan. Bir tomondan moddiy ishlab chiqarish natijasida vujudga kelayotgan milliy daromad budget daromadlarining asosiy manbaidir. Ikkinchi tomondan, keng takror ishlab chiqarish tashkil topilishida faqat korxonalarni o'z mablag'laridan emas, balki umumdavlat pul mablag'larining fondlari, budgetdan

ajratmalar shaklida va bank kreditlaridan foydalanib amalga oshiriladi. O'z mablag'lari yetishmaganda, korxona boshqa korxonalarning mablag'lari bilan aksionerlik asosida hamda qimmatli qog'ozlar (zayom mablag'lari) bilan operatsiyalar bazasida foydalanishi mumkin.

2. Davlat daromadlari

Davlat va davlat korxonalari ixtiyorida moliyaviy resurslarni shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy munosabatlar yig'indisiga **davlat daromadlari** deyiladi.

Davlat ixtiyorida shakllanayotgan moliyaviy resurslar majmuasi markazlashgan pul resurslari va davlat korxonalari ixtiyoridagilar esa, markazlashmagan pul fondlaridir. Markazlashgan davlat daromadlari asosan soliqlardan, ajratmalardan va tashqi iqtisodiy faoliyat daromadlaridan tashkil topadi. Korxonalar o'zlarining daromad va jamg'armalaridan shakllanayotgan moliya resurslari yig'indisi markazlashmagan pul daromadlarini tashkil etadi.

Davlat daromadlarini ikkiga bo'lishdan maqsad, hozirda umumdavlat va jamoa iste'mollarini qoplash qanday amalga oshirilishini nazorat qilish bilan bog'liqdir.

Davlat moliyasining asosiy daromad manbai bo'lib milliy daromad hisoblanadi. Ammo, ayrim hollarda, ya'ni behosdan urush, tabiiy ofat va h. k. lar paytida davlat daromadi manbai bo'lib oldin jamg'arilgan milliy boyliklar (oltin zahira, pullik xususiyashtirish) ham bo'lishi mumkin. Davlat daromadiga moliyaviy resurslar jalb etishni shartli holatda uchta guruhga bo'lish mumkin:

1. Umumdavlat va mahalliy soliqlar hamda soliq funksiyasini bajaruvchi majburiy to'lovlar.
2. Davlat zayomlari.
3. Qog'oz pullar emissiya qilish.

Davlat daromadlari tizimida markaziy moliyaviy manba bo'lib soliqlar xizmat qiladi. Soliqlar asosan fiskal, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatni kasb etadi. Hukumatga kerak bo'lgan moliya resurslarini shakllantirib borish bilan soliqlar fiskal funksiyasini kasb etsa, ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida ayrim tarmoqlar iqtisodiyotiga molik imtiyozlarni berish bilan iqtisodiy yo'nalish kasb etiladi va nihoyat kam daromadli aholini soliqlardan ozod qilish hisobiga ijtimoiy vazifalar hal etiladi.

Davlat daromadini davlat zayomlari orqali ta'minlash nafaqat budget taqchilligini moliyalashtirishga balki, rang-barang kapital xarajatlarga, iqtisodiyotning davlat sektoriga yo'naltiriladi. Davlat zayomlaridan foydalanishga asosan moliyaviy tanglik davrlarida keng yondoshiladi, ayrim hollarda esa, uning miqdori soliqlarga nisbatan ham oshib ketishi mumkin, chunki soliqlar sonini va stavkalarini oshirish salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Davlat daromadlari tushunchasini mazmunan ifoda etgan pul munosabatlarining obyekti bo'lib, turli bosqichlarda va taqsimlash davrlarda har xil moliyaviy shakllarda ifodalangan ijtimoiy mahsulotning qiymatidir (qisman – milliy boylikni). Masalan, davlat korxonalarida taqsimlash obyekti bo'lib, mahsulot sotilgandan so'ng tushadigan daromad va quyidagi tarkibiy elementlaridir: foyda, ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar, amortizatsiya ajratmalari va boshqalar. Budget munosabatlarini obyekti sifatida quyidagi shakllar ko'rilishi mumkin: foyda va ish haqi, budget daromadlarini tashkil etish manbai bo'lgan soliq to'lovlari. O'z navbatida davlat krediti munosabatlarining obyekti bo'lib korxonalarni vaqtincha bo'sh bo'lgan moliyaviy resurslari va aholini jamg'armalaridir.

Davlat daromadlarini tashkil etishni asosiy manbai bu milliy daromaddir.

Milliy daromad deganimizda, moddiy ishlab chiqarish sohalarida bir yilda yangidan hosil qilingan qiymat yoki yalpi ijtimoiy mahsulotning ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan ishlab chiqarish vositalari qiymati chegirib tashlangandan so'ng qolgan qismini tushunamiz.

Milliy daromad moddiy ne'matlar ishlab chiqariladigan sharoitlarda jonli mehnat tomonidan yaratilib, ham qiymat-pul, ham moddiy-buyum shakliga ega bo'ladi. Milliy daromaddan xalq iste'moli va ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadlarida foydalaniladi. U xalq xo'jaligining umumlashtiruvchi hamda xalq turmush farovonligining asosiy ko'rsatkichi.

Davlat daromadlari hamma manbalarini *ikki guruhga* ajratish mumkin – ichki va tashqi. Ichkiga, davlatni ichida vujudga kelgan va davlatni o'z funksiyalarini amalga oshirish uchun foydalanadigan milliy daromad va milliy boyliklar kiradi. Tashqiga esa, davlat zayomlari shaklida boshqa davlatni milliy daromadi va ayrim hollarda milliy boyligi kiradi, agar ular davlat zayomlari shaklida qarzga olinsa yoki reparatsion (urushda ko'rilgan zararlarni qoplash uchun yig'ilgan va urush chiqishiga sababchi bo'lgan davlat tomonidan yengan davlatga to'lanadigan tovon) to'lovlar shaklida bo'lsa. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat daromadlarini yig'ish uchun asosiy usullaridan biri – bu turli ko'rinishlardagi soliqlar, zayomlar va emissiyadir.

Davlat daromadlarini *yig'ish usullaridan biri* – bu emissiyadir va faqat qog'oz pullar emas, balki kredit emissiyasi ham. Soliq va zayomlardan tushgan daromadlar o'sib borayotgan xarajatlarni qoplamagandagina va moliyaviy bozorda yangi zayomlarni chiqarish uchun noqulay ahvol tug'ilganda davlat emissiyaga murojaat qiladi: ham qog'oz pul, ham kredit emissiyasi.

Davlat daromadiga moliyaviy resurslarni emissiya hisobiga jalb qilish eng noiloj paytlarda amalga oshiriladi. Qachonki soliqlardan tushadigan daromadlar va zayomlar davlat xarajatlarini qoplay olmasa, ya'ni moliyaviy bozorda davlat qimmatli qog'ozlarni joylashtirish imkoniyati bo'lmagan taqdirda qog'oz pullar emissiya qilinadi. Qog'oz pullar emissiyasi qachonki xo'jalik subyektlari ishlab chiqarish aylanmasi bilan bog'liq bo'lgan taqdirda iqtisodiy samara beradi.

Agarda budjet taqchilligini qoplash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni qoplash maqsadida qog'oz pul emissiyasi amalga oshirilsa, milliy valyutaning qadrsizlanish jarayoni tez sur'atlar bilan ko'tariladi. Pirovardida daromadi cheklangan aholi qatlami bundan qattiq moliyaviy aziyat chekadi.

3. Davlat xarajatlarining mazmuni

Markazlashgan va markazlashmagan davlat daromadlarini foydalanish bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy munosabatlarga ***davlat xarajatlari*** deyiladi.

Davlat xarajatlarining xususiyatli tomoni davlat sohalari moliyaviy resurslar bilan ta'minlash tadbirlari ila ajralib turadi. Davlat xarajatlarining mazmuni, xususiyati bevosita davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ekologik, boshqaruv va mudofaa funksiyalari bilan bog'liqdir.

Mustaqillikka erishilgandan so'ng davlat xarajatlarining salmoqli qismi aholini ijtimoiy-iqtisodiy talablarini qondirishga yo'naltirilmoqda. Bugungi kunda mazkur sohaning qariyb 3/4 qismini davlat budjeti va budjetdan tashqari fondlar hisobiga moliyalashtirish amalga oshirilmoqda. Shu bilan birgalikda nodavlat sektoridagi korxonalar o'z daromadlarini bir qismini ishchi va xizmatchilarning ijtimoiy-madaniy tadbirlariga yo'naltirsa, ularga nisbatan davlat iqtisodiy rag'batlantirish usullarini qo'llamoqda.

Davlat xarajatlari ichida tarmoqlar iqtisodiyotini iqtisodiy rivojlantirishda ham tubdan o'zgarishlar sodir bo'ldi. Faqat ayrim hollarda, agarda umumjamiyat uchun ustivor ahamiyatga ega bo'lgan taqdirdagina yangi qurilishlarga davlat mablag'lari xarajat qilinmoqda.

Davlat xarajatlarining ma'lum bir qismini davlat boshqaruvi va mudofaa xarajatlari tashkil etadi. Ammo, moliya siyosatining asosiy yo'nalishi ushbu maqsadlarga davlat xarajatlarini bosqichma-bosqich qisqartirishdir va yo'naltirilayotgan mablag'lardan ham oqilona foydalanishdir. Zero, mudofaa xarajatlarini kamaytirish ayrim hollarda davlat kompetensiyasida bo'lmasada, lekin boshqaruv xarajatlarini kamaytirish davlat ixtiyoridadir.

Davlat xarajatlari deb, ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirish va takomillashtirish, xalq farovonligini oshirish, butun jamiyatni boshqa ehtiyojlarini qondirish maqsadida rejali taqsimlash va qayta taqsimlash bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy munosabatlarga aytiladi.

Davlat xarajatlarini moliyalashtirishda asosiy manba davlat budjetida markazlashgan yoki korxona va tashkilotlar ixtiyorida bo'lgan jamiyatning sof daromadlaridir. Davlat xarajatlarining asosiy qismi aholidan soliq to'lovlar sifatida tushgan mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladi. Bundan tashqari davlat xarajatlari uzoq muddatli bank kreditlari, korxonalar va tashkilotlarning boshqa daromadlari hisobidan moliyalashtiriladi.

Davlat xarajatlarini tartibga solinishi, ularni rejalashtirish hamda mablag' ajratish va mablag'lardan foydalanish usullariga qat'iy rioya qilish orqali erishiladi.

Xalq xo'jaligini mutanosib ravishda rivojlanishini va xalqni moddiy va madaniy hayot darajasini ko'tarish maqsadida davlat umumiy ijtimoiy mahsulotni va milliy daromadni ishlab chiqarish va noishlab chiqarish hamda viloyatlar orasida to'g'ri taqsimlash va qayta taqsimlashni vakolatli organlar tomonidan olib boradi. Davlat rejalashtirishining asosiy usuli bo'lib – balansli usul hisoblanadi. Bu degani korxonalar va tashkilotlarga o'z moliyaviy resurslaridan foydalanishida keng vakolat berilishi bilan markalashgan moliyalashtirishni uzviy birligiga erishishdir.

4. Davlat xarajatlarining tashkiliy tuzilishi

Davlat xarajatlarni o'zaro chambarchas bog'langan konkret turlarini majmui *davlat xarajatlarining tizimini* ifodalaydi.

Bu tizim, davlat orqali belgilangan ma'lum tamoyillar asosida tashkil etiladi. Ulardan asosiylari quyidagilar:

- *berilgan mablag'larni ko'zda tutilgan maqsadlarga yo'naltirish va ishlatish* (iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish rejalaridagi qat'iy belgilangan chora-tadbirlarga davlat mablag'larini yo'naltirish). Bu bilan hududiy va xalq xo'jaligining ayrim tarmoqlarini rivojlanishida tasdiqlangan mutanosiblikni saqlanishi bilan amalga oshiriladi va birinchi navbatda ilmiy-texnik taraqqiyotini aniqlaydigan va asosiy ijtimoiy muammolarni xal qiluvchi istiqbolli tarmoqlarni rivojlanishiga mablag'lar ajratish;

- *davlat resurslarini qaytmasligi* – bu korxonalar va tashkilotlarni ta'minoti uchun davlat budjetidan ajratilgan pul mablag'larini qaytarishga zaruriyat yo'qligi. Kredit usulida moliyalashtirishni farqligi – bu kredit oluvchi kreditga bergan mablag'larga belgilangan vaqtda va ulardan foydalanganligi uchun tasdiqlangan foizlar bilan korxona o'z foydasidan davlatga qaytarishi zarur;

- *iqtisod tartibiga rioya qilish* – budjet, kredit va o'z mablag'lari hisobidan davlat xarajatlarini moliyalashtirishda optimal birlikni saqlash. By rejalarini bajarish me'yorida davlat xarajatlarini moliyalashtirish faqat ishlab chiqarish ko'rsatkichlari bajarilganda hamda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish tartibi asosida moliyaviy resurslar ajratilishi ko'zda tutiladi.

Davlat xarajatlarining ayrim turlari iqtisodiy mazmuni va ahamiyati bo'yicha har xil. Bu har xillik xarajatlarni moliyalashtirishning usullari, shakllari va manbalarida ifodalanadi.

Davlat xarajatlari iqtisodiy natijalar jihatidan uch asosiy *guruhlarga* bo'linadi:

1. Ishlab chiqarish xarajatlari – bu davlatning mulki, boyligini ko'paytiradi yoki xususiy xo'jaliklarni iqtisodiy asoslarini mustahkamlaydigan xarajatlardir yoki boshqacha qilib aytganda davlatni xo'jalik faoliyatini ta'minlash va milliy daromadni yaratilishi bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish cohasiga tegishli xarajatlardir. Davlat xarajatlarini jamg'arish fondi bilan iste'mol fondi orasidagi optimal taqsimlanishi davlatning iqtisodiy siyosatining asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

2. Davlat xarajatlarining ikkinchi guruhi milliy daromadni iste'mol qilinishi bilan bog'lanib, jamiyatning ehtiyojini qondirishga yo'naltiriladi. Noishlab chiqarish sohasiga qilinadigan xarajatlar yuqoridagi natijalardan birortasini ham bermaydi, lekin ular befoyda emas. Odob-ahloq chegaralaridagi manfaatlarining borligi ertami-kechmi xo'jalik manfaatlarini yuzaga keltiradi. Noishlab chiqarish sohasiga sarflanayotgan davlat budjetining mablag'lari, avvalo, aholini ijtimoiy himoyaga olish va madaniy chora-tadbirlarga yo'naltirilgan, ulardan ta'lim, madaniyat, tibbiyot xizmatlariga, jismoniy tarbiya va sport va boshqalar. Bularga tabiatni muhofaza qilish va ekologik sharoitni yaxshilash ham kiradi. Undan tashqari davlat xarajatlari mamlakatni mudofaa kuchini mustahkamlashga va boshqaruvga yo'naltiriladi.

3. Davlat rezervlarini tashkil etish uchun ketadigan xarajatlar uchinchi guruhni tashkil etadi. Bu xarajatlar xoh ishlab chiqarish, xoh noishlab chiqarish sohalarida favqulodda zaruriyat tug'ilganda uni bartaraf qilish uchun va muammoni xal qilish uchun yo'naltiriladi.

Davlat xarajatlarining uchta guruhi uzviy ravishda o'zaro bog'langan. Iqtisodiy mazmuni bo'yicha davlat xarajatlarini turkumlash muhim ahamiyatga ega, chunki milliy daromadni taqsimlash quroli sifatida ijtimoiy takror ishlab chiqarishni moliyalashtirishda xarajatlarning ahamiyatini aniqlashga imkon yaratadi.

Davlat xarajatlari turli shakllarda moliyalashtiriladi, ulardan asosiylari:

✓ o'zini-o'zi moliyalashtirish (davlat korxonalari xarajatlarini o'z moliyaviy resurslari evaziga moliyalashtirishi);

✓ budjet orqali moliyalashtirish (umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan xarajatlarni moliyalashtirilishini ta'minlash);

✓ kredit orqali moliyalashtirishni ta'minlanishi (bir tomondan davlat korxonalari o'z joriy va investitsion xarajatlarini qoplash uchun olingan bank ssudalarini ishlatsa, ikkinchi tomondan esa davlatni turli darajadagi boshqaruv organlari davlat krediti shaklida moliyaviy bozordan pul mablag'larini jalb qiladi).

Davlat xarajatlarining moliyaviy ta'minotini yuqorida ko'rsatilgan shakllari orasidagi oqilona nisbati iqtisodiy manfaatini to'g'ri balansini topishiga imkon yaratadi va har bir shaklni qo'llashdan yuqori natijalarga erishishni ta'minlaydi.

Nazorat savollari.

1. Davlat moliyasining mohiyati nimalardan iborat?
2. Davlat moliyasining iqtisodiy mohiyati nimadan iborat?
3. Davlat moliyasi sohasidagi pul munosabatlarining subyektlari kimlar hisoblanadi?
4. Davlat moliyasi sohasining bo'g'inlari nimalardan iborat?
5. Davlat daromadlari deganda qanday munosabatlar tushuniladi?
6. Markazlashgan davlat daromadlari asosan nimalardan tashkil topadi?
7. Markazlashmagan pul daromadlarini nimalar tashkil etadi?
8. Davlat moliyasining asosiy daromad manbai bo'lib nima hisoblanadi?
9. Davlat daromadiga moliyaviy resurslar jalb etishni qanday guruhlariga bo'lish mumkin?
10. Davlat daromadlari tizimida markaziy moliyaviy manba bo'lib nimalar xizmat qiladi?
11. Markazlashtirilgan davlat daromadlari tarkibida asosiy o'rinni nima egallaydi?
12. Davlat daromadlari hamma manbalarini qanday guruhlariga ajratish mumkin?
13. Davlat xarajatlari deganda qanday munosabatlar tushuniladi?
14. Davlat xarajatlarini moliyalashtirishning asosiy manbalari nimalardan tashkil topadi?
15. Davlat xarajatlari tizimi deganda nima tushuniladi va u qanday tamoyillar asosida tashkil etiladi?
16. Davlat xarajatlari iqtisodiy natijalar jihatidan qanday guruhlariga bo'linadi?
17. Davlat xarajatlari qanday shakllarda moliyalashtiriladi?

6-mavzu. Davlat moliyasi va uning bo‘g‘inlari /6 soat/**2-ma’ruza. Davlat budjeti****Reja**

- 1. Davlat budjetining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati**
- 2. Davlat budjetining funksiyalari**
- 3. Davlat budjeti daromadlarining mazmuni**
- 4. Davlat budjeti daromadlarining turkumlanishi**
- 5. Budget xarajatlarining mazmuni va turkumlanishi**
- 6. Budgetdan moliyalashtirish**

1.Davlat budjetining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati

Davlat budjeti davlat moliyasi tizimida markaziy o‘rinni egallaydi. Budget tizimi murakkab mexanizm bo‘lib, muayyan mamlakatning o‘ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa jihatlarining butun majmui asosida shakllanadi.

Barcha davlatlarda xo‘jalik subyektlarining faoliyati natijasida yalpi ichki mahsulot (YaIM) va milliy daromad (MD) yaratiladi.

Moddiy ishlab chiqarishda yaratilgan milliy daromad keyinchalik taqsimlash va qayta taqsimlash bosqichlaridan o‘tadi. Milliy daromadni qayta taqsimlashda va undan keyinchalik foydalanishda muhim vazifani davlat budjeti o‘ynaydi. Mamlakatda milliy daromadni qayta taqsimlash jarayonida uning bir qismi pul shaklida budgetga tushadi va moliyaviy resurslarning markazlashgan fondini tashkil etadi.

Budget - davlatning ma’lum muddatga mo‘ljallab tuzilgan va qonun bilan tasdiqlangan daromadlari hamda xarajatlari hisobi bandlar bo‘yicha taqsimlangan hujjat. U umumdavlat moliyaviy resurs fondini shakllantirish va foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan, bir tomondan davlat o‘rtasidagi taqsimlash munosabatlarining bir qismini, ikkinchi tomondan korxonalar va aholi o‘rtasidagi taqsimlash munosabatlarining bir qismini anglatadi.

Davlat budjeti, uning daromad va xarajatlari jamiyatning iqtisodiy kategoriyalari bilan chambarchas bog‘liq, chunki davlat budjeti jamiyatda yaratilgan ijtimoiy mahsulot qiymatining taqsimlanish jarayonida o‘zining moddiy shakliga ega bo‘ladi. Shuningdek, professor V.Rodionovanning ta’biri bilan aytganda “Budget munosabatlari – bu jamiyat iqtisodiy tuzilishining ajralmas qismidir; uni amal qilishi davlat tomonidan unga tegishli funksiyalarni bajarishi uchun zaruriy moddiy-moliyaviy bazani shakllantirish bilan obyektiv ravishda aniqlanadi”¹.

Davlat budjeti orqali jamiyatda yaratilgan yalpi ichki mahsulot qayta taqsimlanadi. Yalpi ichki mahsulotning qayta taqsimlanishi jamiyatdagi umumiy ehtiyojlar: maorif, sog‘liqni saqlash, mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy barqarorlik, aholi tarkibida ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamni moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, havfsizlik, chegaralar dahlsizligini saqlash va favqulodda holatlar uchun saqlanadigan davlat zahiralarining mavjud bo‘lishi zarurati tufayli kelib chiqadi. Shuningdek, davlat budget orqali jamiyatning ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayoniga ta’sir qilishning moliyaviy dastaklariga ega bo‘ladi.

Davlat budjeti davlatning asosiy moliyaviy rejasi sifatida davlat hokimiyatini iqtisodiy imkoniyatlarining moliyaviy asoslarini yaratadi.

Masalan, iqtisodchi G.V. Polyak quyidagi fikrlarni bildiradi: “Davlat budgetdan o‘zining faoliyatini bevosita moliyaviy ta’minlashning asosi sifatida hamda iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning muhim vositasi sifatida foydalanadi”².

¹ Родионова В.М. Финансы.-М.: «Финансы и статистика», 1995., 251-б.

² Поляк Г.В. Бюджетная система РФ.-М.: ЮНИТИ, 2001., 169-б.

Demak, bir tomondan budjetning paydo bo'lishi davlatlarning paydo bo'lishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, ikkinchidan, aynan bozor iqtisodiyoti sharoitida jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy sohalaridagi davlat islohotlarini amalga oshirishning asosiy instrumenti sifatidagi budjetning sifat belgilariga aniqlik kiritiladi.

Iqtisodchi L.A Drobozinaning budjetni ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati to'g'risidagi fikrlari quyidagichadir: "O'zining moddiy mazmuniga ko'ra davlat budjeti – o'zida davlatning markazlashtirilgan pul mablag'lari fondini shakllantirish va undan foydalanishning alohida shaklidir, o'zining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatiga ko'ra milliy daromadni taqsimlashning asosiy qurolidir"¹.

Muallif budjetning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatiga ko'ra bergan ta'rifi aynan bozor iqtisodiyoti sharoitida milliy daromadning taqsimlanishida ijtimoiy xarakterdagi noishlab chiqarish sohalar va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj kam ta'minlangan qatlamini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashda, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning muhim instrumentlaridan biri sifatidagi budjetning mazmuniga urg'u beradi.

Budjet - murakkab iqtisodiy kategoriya hisoblanadi, chunki uning moddiy asosini kengaytirilgan ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayoni tashkil qiladi.

Budjet munosabatlari davlat bilan xo'jalik subyektlari hamda aholi o'rtasidagi qiymat taqsimlanish jarayonida paydo bo'luvchi moliyaviy munosabatlardir. Bunday moliyaviy munosabatlarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, birinchidan, yuqorida ta'kidlaganimizdek, ijtimoiy ishlab chiqarishning taqsimlash bosqichida vujudga keladi, ikkinchidan, markazlashtirilgan moliyaviy resurslarni shakllantirish va undan davlat manfaatlari yuzasidan foydalanishga yo'naltiriladi. Davlat manfaatlari esa - bu ijtimoiy manfaatlar hisoblanadi. Budjet davlatning asosiy markazlashtirilgan moliyaviy resurslar fondi sifatida o'ziga xos ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

Demak, budjet iqtisodiy kategoriya sifatida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish tizimida markaziy bo'g'inda ishtirok etishi bilan aholining ma'lum qatlami manfaatlarini o'zida namoyon qiladi. Bu tushunchada budjet munosabatlari o'zida iqtisodiy rivojlanishning aniq falsafasi va ideologiyasini aks ettiradi.

Budjet munosabatlari obyektiv xarakter kasb etadi, chunki budjet davlat va unga tegishli funksiyalarni amalga oshirishda muhim moddiy-moliyaviy baza shakllantirilishi uchun obyektiv zaruriyatdir. Shu bilan birgalikda budjet munosabatlari bazis elementi hisoblanadi. Takror ishlab chiqarish jarayonida budjet munosabatlari ularga muvofiq keluvchi moddiy shaklni oladi.

Budjet munosabatlari - jamiyat iqtisodiy tizimining elementidir. Iqtisodiy kategoriya sifatida budjet munosabatlari moliyaviy munosabatlarning tarkibiy qismi hisoblanadi. Budjetning moliyaga xos sifat belgilari birinchidan, ijtimoiy mahsulot qiymatining taqsimlanish jarayonida, aniqrog'i, qayta taqsimlanishi jarayonida vujudga kelib, pul munosabatlarining o'ziga xos shakli hisoblanadi. Ikkinchidan, budjet markazlashtirilgan moliyaviy resurslarni shakllantirish, taqsimlash va undan foydalanishga yo'naltirilgan fond hisoblanadi.

Budjet munosabatlarining o'ziga xos *xususiyatlari* quyidagilardan iboratdir:

-budjet davlat qo'lida milliy daromadni bir qismini jamlash va ijtimoiy ehtiyojlar va alohida davlat-xududiy tuzilmalar uchun undan foydalanish bilan bog'liq qayta taqsimlash munosabatlarining alohida iqtisodiy shakli hisoblanadi;

-budjet yordamida milliy daromadning bir qismi va ayrim holatlarda milliy boylik xalq xo'jaligining tarmorqlari, mamlakat xududlari, ijtimoiy faoliyat sohaları o'rtasida qayta taqsimlanadi;

-qiymatni budjet orqali qayta taqsimlash nisbati moliyaning boshqa bug'inlariga nisbatan yirik miqdorni tashkil qiladi va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish ehtiyojlari va jamiyat rivojlanishining har qaysi tarixiy bosqichlarida uni rivojlanishi oldida turgan vazifalari orqali aniqlanadi;

-budjetning taqsimlash sohasi davlat moliyasida markaziy o'rinni egallab, uning boshqa bo'g'inlariga nisbatan muhim ahamiyatga ega.

¹ Дробозина Л.А. Финансы.-М.: ЮНИТИ, 1999., 109-б.

Demak, budjet iqtisodiy mohiyati nuqtai-nazaridan mustaqil iqtisodiy kategoriya sifatida ko‘rib o‘tiladigan bo‘lsa, davlatning moliyaviy asosini, qonuniy o‘rnatilishi nuqtai-nazaridan esa, davlatning asosiy moliyaviy rejasi sifatida ko‘rib o‘tiladi.

Bizning fikrimizcha, birinchidan, budjet munosabatlarining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri sifatida davlat bilan xo‘jalik yurituvchi subyektlar, aholi o‘rtasidagi imperativ xarakterga ega bo‘lgan pul munosabatlari hisoblanishidir. Ikkinchidan, budjet munosabatlari moliyaviy munosabatlarning tarkibiy qismi sifatida markazlashtirilgan pul fondlarini tashkil qilish va undan foydalanish bilan bog‘liq pul munosabatlarini o‘zida aks ettiradi. Xo‘jalik mexanizmining tarkibiy elementi hisoblangan budjet mexanizmidagi yuqorida ta‘kidlangan 2 xususiyatli sifat belgilari budjetning moliyadan V. Rodionova ta‘kidlagan 4 asosiy farqli jihatlariga ega bo‘lish imkoniyatlarini shakllantiradi.

Qonunlar, monografiyalar, darsliklar, ilmiy maqolalar kabi iqtisodiy adabiyotlarda “budjet” terminini qo‘llashga alohida e‘tiborni qaratish lozim.

Masalan, O‘zbekiston Respublikasining „Budjet tizimi to‘g‘risida“gi qonunida budjetga quyidagicha ta‘rif berilgan: *“Davlat budjeti - davlat pul mablag‘larining (shu jumladan davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘larining) markazlashtirilgan jamg‘armasi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi”*.

Professor L.A. Drobozina “pul mablag‘larining asosiy markazlashtirilgan fondi”-deb ta‘kidlaydi. Professor A.Yu. Kazak esa “...asosiy moliyaviy reja sifatida... muhim moliyaviy to‘g‘rilovchi sifatida... pul munosabatlarining... majmuasidir”- deb ta‘kidlaydi.

Mamlakatimizning iqtisodchi olimlaridan prof. M.Yo‘ldoshev va Y. Tursunovlar esa, byujetga quyidagicha ta‘rif berganlar: „Budjet – bu, turli darajadagi markazlashgan pul mablag‘lari fondini vujudga keltirish, taqsimlash va foydalanishga oid asosiy moliyaviy reja bo‘lib, u tegishli davlat yoki mahalliy idora tomonidan ishlab chiqiladigan hamda tasdiqlanadigan yuridik hujjatdan iborat”¹.

Shuningdek, iqtisodchilar Z.X. Srojiddinova, A.V. Vahobov va J.R. Sidiqovlar ham davlat budjetining mohiyatini ochib berish uchun qator ta‘riflar keltirganlar. Ularda: „Davlat budjeti – davlatning pul mablag‘larini markazlashgan fondi (davlat maqsadli fondlari mablag‘lari bilan birgalikda) bo‘lib, moliya yili davomidagi daromadlar manbalari va aniq maqsadlarga ajratiluvchi mablag‘lar hajmlarini nazarda tutadi”. „Davlat budjeti – davlatning asosiy moliyaviy rejasi bo‘lib, moliyaviy rejalar tizimida muhim rol o‘ynaydi”².

Iqtisodchi U.A. Burxanov esa: „Davlat budjeti – umumjamiyat xarajatlarini moliyalashtirish maqsadida tuziladigan, hokimiyatning qonun chiqaruvchi oliy organi tomonidan tasdiqlanadigan davlatning markazlashtirilgan pul fondidir” – deb ta‘rif beradi³.

Yuqoridagi olimlarning davlat budjetiga bergan ta‘riflarini o‘rganish, solishtirish va tahlil qilish natijasida biz bu kategoriyaga quyidagicha ta‘rif berishni ma‘qul, deb topdik: *«Davlat budjeti – bu tegishli darajadagi (markaziy yoki mahalliy) davlat boshqaruv organi tomonidan ishlab chiqiladigan va tasdiqlanadigan moliyaviy reja bo‘lib, unda davlatning o‘z funksiyalaridan kelib chiqib amalga oshiradigan asosiy xarajatlari hamda ularni moliyalashtirish uchun zarur daromadlari o‘z aksini topadi»*.

Budjetning qaysi darajada ekanligidan qat‘i nazar unga uch jihatdan yondashish mumkin⁴:

- iqtisodiy kategoriya sifatida;
- moddiy ma’noda;
- huquqiy kategoriya sifatida.

¹ Yo‘ldoshev M., Tursunov Y. Moliya huquqi.-T.: «Mehnat». 1999., 52-b.

² Срождинова З.Х., Вахобов А.В., Сидиков Ж.Р. Государственный бюджет Республики Узбекистан. Учебное пособие.-Т.:ТФИ, 2001., 4-5-b.

³ Jumaev N.X., Burxanov U.A. Moliyaning dolzarb muammolari.-T.:«Yangi asr avlodi», 2003. 126-b.

⁴ Yo‘ldoshev M., Tursunov Y. Moliya huquqi.-T.: «Mehnat». 1999., 52-b.

Iqtisodiy kategoriya sifatida budjet obyektiv xarakterga ega bo'lgan pul munosabatlari tizimi sifatida qaraladi.

Moddiy ma'noda budjet - tegishli darajadagi davlat va mahalliy hokimiyat idoralari faoliyatini ta'minlovchi, ular oldiga ko'yilgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy vazifalarni bajarish imkonini beruvchi markazlashtirilgan pul mablag'lari fondidan iboratdir. Davlat tomonidan rejalashtirilgan tadbirlarni budjet hisobidan moliyaviy ta'minlash deganda budjetning aynan ana shu moddiy ma'nosi ko'zda tutiladi.

Xuquqiy kategoriya sifatida budjet tegishli hudud doirasida markazlashtirilgan pul mablag'larini shakllantirish, taqsimlash, foydalanishga qaratilgan va tegishli davlat yoki mahalliy hokimiyat idorasi tomonidan tasdiqlangan asosiy moliyaviy reja, yuridik me'yorlardan iboratdir.

Asosiy moliyaviy reja sifatida shuni ta'kidlash joizki, unda moliyaviy rejalashtirishga tegishli bo'lgan: tushumlarning aniq manbalari bo'yicha pul daromadlari (budjet fondini shakllantirish); aniq yo'nalishlar va tadbirlar bo'yicha pul xarajatlari (budjet fondidan foydalanish) kabi alomatlari o'z aksini topadi.

Budjet asosiy moliyaviy reja sifatida quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi:

- budjet universal moliyaviy reja sifatida tegishli hududning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotining barcha sohalari va yo'nalishlarini to'la qamrab oladi;
- budjet boshqa turdagi moliyaviy rejalarga nisbatan muvofiqlashtiruvchi vazifani bajaradi.

2. Davlat budjetining funksiyalari

Davlat budjeti moliyaning tarkibiy qismi sifatida, uning boshqa bo'linmalari singari ikki xil *funksiyani* bajaradi:

- 1) taqsimlash;
- 2) nazorat.

Davlat budjetining taqsimlash funksiyasi orqali uning mohiyati namoyon bo'ladi. Bu narsa davlat budjeti tomonidan amalga oshirilayotgan taqsimlash munosabatlarining mazmunidan yaqqol ko'rinadi. Davlat budjeti orqali amalga oshiriladigan taqsimlash bu jarayonning ikkinchi (oraliq) bosqichidir. Shuning uchun ham Davlat budjetining taqsimlash funksiyasi o'ziga xos bo'lgan xususiyatga ega bo'lib, u taqsimlangan yalpi ichki (milliy) mahsulotni qayta taqsimlash uchun foydalaniladi. Agar taqsimlashning birinchi bosqichida budjet mablag'lari (budjetga to'lovlar) milliy daromadda davlatning ulushi sifatida maydonga chiqsa, uning ikkinchi bosqichida esa, ana shu ulush qismlarga bo'linadi va ko'p sonli kanallar orqali turli tadbirlarni moliyalashtirishga va fondlarni shakllantirishga yo'naltiriladi.

Aholining budjetga to'lovlari ham qayta taqsimlash xarakteriga ega. Ularning budjetga turli soliqlar shaklida (ko'rinishida) kelib tushishi ikkinchi taqsimlash aktidan iboratdir. Ayniqsa, ijtimoiy sohada faoliyat ko'rsatayotgan xodimlar tomonidan turli ko'rinishdagi soliqlarning budjetga to'lanishi ham bu mablag'larning ko'p sonli taqsimlash bosqichlaridan o'tishini taqozo etadi, chunki juda ko'p hollarda bu mablag'lar ancha oldinroq budjet yordamida taqsimlangan bosqichidan o'tib, ijtimoiy sohaga ular budjet assignovaniyalari shaklida yetib borgan bo'ladi.

Demak, ko'rinib turibdiki, mamlakatda yaratilgan yalpi ichki (milliy) mahsulot (milliy daromad)ning alohida olingan bir qismi taqsimlashning budjet mexanizmi orqali bir necha marta taqsimlanishi (qayta taqsimlanishi) mumkin. Bu Davlat budjetini taqsimlash funksiyasining *birinchi xarakterli xususiyatidir*.

Amalga oshiriladigan operatsiyalar ko'lamining kengligi, pul oqimlarining kengligi va tashkil topadigan maqsadli fondlarning xilma-xilligi davlat budjetini taqsimlash funksiyasining *ikkinchi xususiyati* hisoblanadi. Yalpi ichki (milliy) mahsulot (milliy daromad)ning kattagina qismini taqsimlab, budjet turli maqsadlarga mo'ljallangan ko'p sonli fondlarni shakllantiradi. Davlat budjeti bilan iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning barcha bo'linmalari bevosita yoki bilvosita bog'langandir.

Davlat budjetini taqsimlash funksiyasining *uchinchi xarakterli xususiyati* shundan iboratki, bunda taqsimlashning asosiy obyekti bo'lib jamiyatning sof daromadi (qo'shilgan qiymat solig'i, foyda va boshqalar) maydonga chiqadi, lekin bu narsa milliy daromad, yalpi ichki (milliy) mahsulot va milliy boylik boshqa elementlarining ham qisman taqsimlanishi mumkinligini inkor etmaydi. Budjet orqali soliqlar shaklida jismoniy shaxslarning daromadlari ham qayta taqsimlanadi. Shuningdek, budjet mexanizmi orqali xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida ham mablag'lar qayta taqsimlanishi mumkin.

Budjet kanallari bo'yicha qiymatning jamg'arish va iste'mol fondlari tomon harakati sodir bo'ladi. Iqtisodiyotga xarajatlarning ma'lum bir qismi markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish va ijtimoiy sohani saqlash bilan bog'lik bo'lgan xarajatlarning asosiy qismi budjet mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Davlat moddiy rezervlari o'sgan qismining barchasi ham to'lik ravishda budjetdan moliyalashtiriladi. Davlat budjeti ijtimoiy iste'mol fondlarini shakllantirishning asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi, ijtimoiy soha xodimlari uchun iste'mol fondining yaratilishini ta'minlaydi.

Budjet orqali taqsimlash jarayoni ko'p bosqichli amalga oshiriladi. Agar uning *birinchi bosqichi* iqtisodiyot sohalarida (birlamchi taqsimlash) amalga oshirilsa, budjet orqali yalpi ichki (milliy) mahsulotning *ikkilamchi taqsimlanishi* (qayta taqsimlanishi) sodir bo'ladi. Uning *uchinchi bosqichi* (budjetdan moliyalashtirish) iqtisodiyot sohalarini va ijtimoiy sohaning bo'linmalarini qamrab oladi. Biroq, taqsimlanayotgan yalpi ichki (milliy) mahsulotning ayrim elementlari budjet orqali ko'p martalab ham o'tishi (taqsimlanishi) mumkin. Masalan, ijtimoiy soha tashkilotlarining ijtimoiy sug'urta fondiga to'lovlari budjetli taqsimlashning mahsulidir, chunki bu soha tashkilotlarida ish haqi fondi budjetdan moliyalashtirish asosida vujudga keladi, lekin taqsimlashning ikkinchi bosqichidan o'tib, ular yana budjetga ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar shaklida kelib tushadi.

Shunday qilib, Davlat budjetining taqsimlash funksiyasi taqsimlashning ko'p martaligi bilan xarakterlanadi, u ijtimoiy munosabatlarning barcha sohalarida namoyon bo'ladi, jamiyat tomonidan iqtisodiyot, sog'liqni saqlash, maorif, madaniyat, fan, san'at, mudofaa va aholining turmush tarzini yaxshilashda undan foydalaniladi. Faqat Davlat budjetidagina yalpi ichki (milliy) mahsulotni taqsimlashning ana shunday xilma-xil shakllari va usullari taqdim etilgan.

Davlat budjetining *nazorat funksiyasi* ham o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarga ega. Budjetning milliy iqtisodiyot bilan uzviy bog'liqligi takror ishlab chiqarishning barcha bo'linmalarida ahvolning qandayligi to'g'risida ma'lumotlar bilan doimiy ta'minlab turadi.

Mablag'larning budjetga kelib tushishi, budjet assignovaniyalarining yo'nalishi va ulardan foydalanish ishlab chiqarish, taqsimlash, ayriboshlash va iste'moldagi muvaffaqiyat va kamchiliklarni ifoda etadi. Ular milliy iqtisodiyotda nomutanosibliklar (disproporsiyalar)ning vujudga kelayotganligi, rivojlanish sur'atlaridagi buzilishlar, milliy iqtisodiyotda sodir bo'layotgan taqsimlash jarayonlarining to'g'riligi va o'z vaqtidaligi, ishlab chiqarishning samaradorligi va hokazolar to'g'risida go'yoki signal berib turadi. Milliy iqtisodiyot istalgan bir sohasi yoki korxonaning moliyaviy ahvoli, albatta, Davlat budjeti bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarda - soliqlarda, to'lovlarda, budjetdan moliyalashtirish hajmlarida, budjet assignovaniyalarini o'zlashtirishda va hokazolarda o'z ta'sirini ko'rsatadi. Demak, budjet orqali rejadan farqlanish (og'ish), tarmoqlararo moliyaviy aloqalar va davriy qisman disproporsiyalar, jamg'armalarning hajmi, mablag'larni o'zlashtirish sur'atlari va boshqalardagi o'zgarishlar yaqqol ko'rinib turadi. Bularning barchasi Davlat budjetining nazorat funksiyasiga *umumiylik, universallik* xarakterini beradi (*birinchi xususiyat*). Bu esa, o'z navbatida, milliy iqtisodiyotni operativ boshqarishda davlat budjetining nazorat funksiyasidan keng foydalanish uchun sharoit yaratadi.

Davlat budjetining nazorat funksiyasiga tegishdi bo'lgan *ikkinchi xarakterli xususiyat* moliyaviy munosabatlarning alohida sohasi sifatida davlat budjetining yuqori darajada markazlashtirilgandigidan kelib chiqadi. Markazlashtirilganlik har doim yuqori organlar oldida quyi organlarning hisobot berib turishini, ma'lum ketma-ketlikda bo'ysinishning tizimlilikini anglatadi. Bu esa, o'z navbatida, yuqoridan quyigacha davlat moliyaviy nazoratini tashkil etishga shart-sharoit yaratib beradi.

Qattiq majburiylik, imperativlik Davlat budgetining nazorat funksiyasiga tegishli bo'lgan *uchinchi xususiyatdir*. Budget davlatniki bo'lganligi uchun uning nazorat funksiyasi milliy iqtisodiyotni boshqarishning vositalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Nazorat funksiyasining budgetta obyektiv ravishda xosligi uning iqtisodiy kategoriya sifatidagi xususiyati davlat huquqiy asosiga ega ekanlikni taqozo etadi. Shuning uchun ham budget nazorati eng ta'sirchan va samarali sanaladi. Davlat bunday nazoratni amalga oshirish natijasida subyektlarning moliyaviy faoliyatiga operativ ravishda aralashuvi, kerakli hollarda esa, u yoki bu jazolarni qo'llashi mumkin.

Budgetga obyektiv ravishda xos bo'lgan nazorat funksiyasi davlat tomonidan faoliyatning barcha sohalarida keng qo'llaniladi. Budgetni rejalashtirish jarayonlarida va budgetni ijro etishda subyektlar faoliyatining barcha tomonlari tekshirilishi yoki nazorat qilinishi mumkin. Bunday nazorat, odatda, quyidagi maqsadlarni ko'zda tutadi:

1) Davlat budgetining daromadlarini oshirish uchun pul mablag'larini mobilizatsiya (jalb) qilish;

2) mablag'larni sarf etishda ularning qonuniyligini ta'minlash;

3) moliyaviy (budget) mexanizm (i) orqali ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish.

Davlat budgetining funksiyalari uning iqtisodiy mazmun-mohiyatini ifoda etib, budgetni rejalashtirish jarayoni va uni ijro etishda o'zini namoyon etadi.

Budgetning taqsimlash va nazorat funksiyalari o'z harakatlari davomida miqdoriy va sifat jihatlariga egadir.

Taqsimlash funksiyasining *miqdoriy tomoni* u yoki bu fondning o'lchamiga (hajmiga) tegishli hisoblanadi. Bunda turli fondlarning nisbatlari, ular o'rtasidagi proporsiyalar, ularning miqdoriy parametrlarini to'g'ri aniqlash nazarda tutilayapti. Bu yerda har ikki funktsiyaning harakati bir xilda muhimdir. Agar budgetning taqsimlash funksiyasi u yoki bu fondni oshirish yoki kamaytirish yo'li bilan uni ko'zlangan darajaga yetkazishga sharoit yaratar ekan, uning nazorat funksiyasi esa ana shunday taqsimlashning natijasini, uning ijobiy va salbiy tomonlarini ko'rishga (aniqlashga) imkon beradi.

Taqsimlashning *sifat tomoni* budgetning subektlar faoliyatiga har tomonlama faol ta'sir ko'rsatib, chuqur aloqalarni o'zida ifodalaydi. Budgetdan moliyalashtirishdan to'g'ri foydalangan holda fondlarning shakllantirilishi budget mablag'larining iqtisod qilib, samarali foydalanishiga, iqtisod tartibiga rioya qilinishiga, subyektning barcha bo'linmalarida samaradorlikni oshirishga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bunga budgetning taqsimlash funksiyasni faqat miqdoriy omillarga bo'ysundirilganda emas, balki u sifat ko'rsatkichlariga ham bog'langandagina erishilishi mumkin. Bunda budgetning nazorat funksiyasi ham o'zining nimaga mo'ljallanganligini biroz o'zgartiradi - u faqat fondlarning miqdoriy jihatdan nomuvofiqligi to'g'risida emas, balki ana shu nomuvofiqliklar sifat ko'rsatkichlariga ham ta'sir ko'rsatganligi to'g'risida xabar beradi.

Davlat budgetining ikki funksiyasidan foydalanish natijasida budget mexanizmi vujudga keladi. Budget mexanizmi deyilganda, odatda, faqat moliyaviy resurslarni davlatning qo'lida jamlash va ularni budget kanallari bo'yicha taqsimlashning amaldagi tizimi nazarda tutilmasdan, balki takror ishlab chiqarishning barcha bosqichlariga bu jarayonning faol ta'siri ham tushuniladi. Bu mexanizmning detallari juda ko'p: soliqlar va budgetga to'lovlar, budgetdan moliyalashtirishning turli shakllari, mablag'larni budgetlar ichida taqsimlash va boshqalar ana shular jumlasidandir. Budget mexanizmi ishlashining samaradorligi unga tegishli bo'lgan detallarning o'zaro ta'sirchanliga va ularning bir-biriga bog'liqligi bilan belgilanadi.

3. Davlat budjeti daromadlarining mazmuni

YaIMni budget vositasida qayta taqsimlash o'zaro bog'liq bo'lgan va ayni bir paytda, uzluksiz kechadigan ikki bosqichdan iborat:

1) Davlat budjeti daromadlarini shakllantirish;

2) Davlat budjeti mablag'larini sarf qilish.

Budjet daromadlarini shakllantirish jarayonida ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan YaIMning bir qismini davlat foydasiga majburiy olish yuz beradi. Davlatning soliq to'lovchilar bilan moliyaviy munosabatlari shu negizda yuzaga keladi.

Budjet daromadlari ularni to'lovchilar, soliqqa tortish obyektlari, undirish usullari, to'lov muddatlari va boshqalar bo'yicha muhim farqlarga ega, lekin shu bilan birga, ular yagonaligi bilan ajralib turadi, ya'ni ular bir maqsadga - turli darajalardagi budjetlarnin daromad qismini shakllantirishga xizmat qiladi.

Budjet daromadlari mamlakat budjet jamg'armasini shakllantirish jarayonida davlat bilan korxona (birlashma)lar, tashkilotlar v fuqarolar o'rtasida paydo bo'ladigan iqtisodiy munosabatlarni ifoda etadi. Bu iqtisodiy munosabatlar korxonalar, tashkilotlar va aholi tomonidan budjetga to'lanadigan turli to'lovlar ko'rinishida yuz beradi, ularning moddiy-ashyoviy ifodasi budjet jamg'armasiga yo'naltiriladigan pul mablag'lari hisoblanadi.

Budjet daromadlari, bir tomondan, ijtimoiy mahsulot qiymatini takror ishlab chiqarish jarayonidagi turli ishtirokchilar o'rtasida taqsimlash natijalari bo'lsa, ikkinchi tomondan, davlat qo'lida to'plangan qiymatni yana qayta taqsimlash obyekti hisoblanadi, chunki bu qiymat hududiy, tarmoq va maqsadli yo'nalishidagi budjet jamg'armalarini shakllantirishda foydalaniladi.

Xo'jalik yuritishning bozor asoslariga o'tish ijtimoiy ishlab chiqarishga raxbarlikda iqtisodiy usullardan foydalanishni talab qiladigan korxonalar sof daromadining bir qismini ilgari qo'llanib kelgan budjetga olish shakllari samarasizligi daromad tushumlari tizimini tubdan o'zgartirishni taqozo qildi.

Natijada daromadlar tushumi soliq to'lovlari zimmasiga ko'chirildi; korxonalarning budjet bilan o'zaro munosabatlari qonun bilan tartibga solinadigan huquqiy asosga qo'yildi.

Budjet daromadlarini vujudga keltirishning shakllari va usullari ko'pdan-ko'p obyektiv va subyektiv omillar ta'sirida o'zgarib turadi Ularning orasida ishlab chiqaruvchi kuchlar, ishlab chiqarish munosabatlari moliya-budjet fanining rivojlanish darajasi ta'siri birinchi o'rinda turadi

Daromadlarga, shuningdek yuzaga kelgan konkret iqtisodiy va ijtimoiy vaziyat, muayyan davrdagi iqtisodiy siyosat, jamiyat taraqqiyotida tanlangan ustuvorliklar, belgilangan vazifalarga erishish strategiyasi va boshqalar ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Ammo, har kanday hollarda ham safarbar qilingan daromadlarning asosiy maqsadi - barcha boshqarish darajalaridagi hokimiyat organlariga o'z vazifalarini amalga oshirishga imkoniyat beradigan, umumdavlat ehtiyojlarini qondiradigan barqaror moliya bazasini yaratishdan iborat. Daromadning vazifasi budjet xarajatlarini qoplashdan iborat. Ammo bunda xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan o'zaro moliyaviy munosabatlarning shunday shakllarini topish zarurki, daromadlarni budjetga olish usullari mehnat unumdorligini ko'tarishga, jami resurslardan oqilona foydalanishga, tushumlarni ko'paytirishga xizmat qilishi kerak.

Daromadlarning budjetdagi o'rni bilan birga daromadlar o'sishining moddiy asoslarini kengaytirishni ta'minlaydigan rag'batlantiruvchi funksiyasi, budjetning daromad qismini mustahkamlashi huddi shu o'rinda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Turli mamlakatlarda daromadlarning shakllanishini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, konkret to'lov turlari xilma-xil bo'lishiga qaramay hamisha budjetga pul tushumlarining asosan *uchta manbai* mavjud bo'lgan va hozir ham shunday. Ular:

- davlat mulki, umumdavlat resurslari. Ulardan foydalanganlik uchun haq olinadi, muayyan badallar to'lanadi;
- jismoniy va yuridik shaxslardan turli soliqlar va yig'imlar ko'rinishida undiriladigan majburiy to'lovlar;
- davlat zayomlarini qimmatli qog'ozlar va lotereyalarni sotishdan, bankdagi qo'yilmalar bo'yicha olingan daromadlar shakllarida jalb qilingan resurslar.


Davlat budjeti jami daromadlarining umumiy moddiy asosini milliy daromadning qayta taqsimoti mamlakatda yangidan yaratilgan qiymat katta qismining davlat qo'lida to'planishi tashkil

qiladi. Shunday qayta taqsimlashning eng muhim tarkibiy qismlari - *solliqlar, davlat mulki, davlat qarzlaridan* iborat.

Miqdoriy jihatdan davlat budjetining daromadlari yaratilgan (ishlab chiqarilgan) yalpi ichki (milliy) mahsulotda (milliy daromad) davlatning ulushini ko'rsatadi. Ularning absolyut hajmi va salmog'i mamlakatning yalpi ichki (milliy) mahsuloti (milliy daromada)ning umumiy hajmi, u yoki bu davrda davlatning oldida turgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, mudofaa va boshqa vazifalar bilan belgilanadi. Ana shularga muvofiq ravishda Davlat budjetida mablag'larni konsentratsiya qilish (to'plash, yig'ish) miqdori va ularni undirishning shakl va usullari aniqlanadi.

Budjet daromadlarini shakllantirish jarayonining quyidagi tamoyillarga asoslanishi maqsadga muvofiqdir¹ (17-rasm). Ushbu tamoyillarning ayrimlarini mazmunini ko'rib chiqadigan bo'lsak, subyektlarga tegishli bo'lgan mablag'lar bir qismining Davlat budjetiga olinishi ularning mustaqil rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi kerak. Bu chegaradan oshib ketish subyektlarning mustaqilligini yo'qotishga, kasodga uchrash hollarining vujudga kelishiga, ichki rezervlarni qidirib topishga va ishlab chiqarishning o'sish sur'atlarini ta'minlashga intilish susayadi, xufyona iqtisodiyotning rivojlanishiga olib keladi; ma'lum bir xarajatlarni amalga oshirmasdan turib olingan barcha daromadlar subyektlarning ixtiyoriga qoldirilmasdan davlatning ixtiyoriga o'tishi kerak. Bu tamoyilning ta'siri ostiga subyektlar ma'muriyatining noto'g'ri, noqonuniy harakati (masalan, davlat standartlarini buzish va boshqalar) natijasida olingan daromadlar ham kiritilmog'i lozim; subyektlar ixtiyoridan mablag'larning budjetga olinishi ularning samarali faoliyat ko'rsatishini rag'batlantirishi kerak. Bu yerda qo'yilgan vazifa faqatgina Davlat budjeti daromadlarini miqdoriy jihatdan ta'minlash emas, balki shu orqali korxonada faoliyat ko'rsatayotgan mehnat jamoalarining manfaatlariga, ular faoliyatining sifat ko'rsatkichlariga to'lovlarning ta'sirchanligini kuchaytirishdir.

¹ Malikov T.S., Haydarov N.H. Davlat budjeti. O'quv qo'llanma/TMI.-T:"IQTISOD-MOLIYA", 2007. 39-b.



17-rasm. Budjet daromadlarini shakllantirish jarayonining tamoyillari

4.Davlat budjeti daromadlarining turkumlanishi

Davlat budjetining daromadlari o'zlarining manbalari, ijtimoiy-iqtisodiy xarakteri, mulkchilik shakli, soliq va to'lovlarning turi, mablag'larning tushish shakli va ularni budjetga undirish usullariga muvofiq turkumlanishi mumkin.


Davlat budjeti daromadlarining tarkibi (ularni jamlash shakllari) davlatning moliyaviy siyosati bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasining "Budjet tizimi to'g'risida"gi qonunini 11-moddasiga asosan Davlat budjeti daromadlari:

- 1) qonun hujjatlarida belgilangan soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa majburiy to'lovlar;
- 2) davlatning moliyaviy va boshqa aktivlarini joylashtirilishi, foydalanishga berilishi va sotilishidan olingan daromadlar;
- 3) qonun hujjatlariga muvofiq meros olish, hadya etish huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari;
- 4) yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet el davlatlaridan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;
- 5) rezident-yuridik shaxslarga va chet el davlatlariga berilgan budjet ssudalarini qaytarish hisobiga tushadigan to'lovlar;

6) qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa daromadlar hisobiga shakllantiriladi.

Eng avvalo, Davlat budjeti daromadlari o'zlarining manbalariga ko'ra quyidagi uch guruhga bo'linadi (18-rasm):

- soliqli daromadlar;
- soliqsiz daromadlar;
- qaytarilmaydigan tarzda o'tkaziladigan pul mablag'lari.



18-rasm. Davlat budjeti daromadlarining manbalari

Budjetning *soliqli daromadlari* tarkibiga mamlakat soliq qonunchiligiga muvofiq umumdavlat soliqlari va yig'implari, mahalliy soliqlar va yig'implar, bojxona bojlari, boj yig'implari, penya va jarimalar kiradi.

Budjetning daromadlar qismini to'ldirishning manbalaridan biri budjet tizimida boshqa darajada turgan budjetdan dotatsiyalar, subvensiyalar yoki mablag'larning qaytarilmaslik va tiklanmaslikning boshqa shakllarida olinadigan moliyaviy yordamdir. Bunday moliyaviy yordamlar mablag'larni oluvchi budjetning daromadlarida o'z ifodasini topishi kerak. Jismoniy va yuridik shaxslardan, xalqaro tashkilot va xorijiy davlatlar hukumatlaridan qaytarilmaydigan yoki tiklanmaydigan shaklda o'tkazilayotgan mablag'lar ham budjetning shunday daromadlari tarkibiga kiradi.

Soliqli usullar uchun mablag'larning Davlat budjeti foydasiga aniq belgilangan miqdorlarda va oldindan o'rnatilgan muddatlarda undirilishi xarakterlidir. Soliqlarning undirilishi mamlakatning yalpi ichki (milliy) mahsuloti va milliy daromadining taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi bilan bog'liq. Ular yordamida xo'jalik yurituvchi subyektlar va aholiga tegishli bo'lgan mablag'larning bir qismi davlat ixtiyoriga o'tkaziladi.

Davlatning soliqsiz daromadlarini davlat soliqlaridan ajratib turuvchi xususiyatli belgilari mavjud.

Birinchidan, ko'plab soliqsiz to'lovlar ikki yoqlama xarakterga ega, ya'ni ko'plab soliqsiz to'lovlar to'lash bo'yicha huquqiy munosabatlarning subyektlari o'zaro huquq va majburiyatlarga ega. Huquqiy munosabatlarning zaruriy subyekti bo'lgan davlat, soliqsiz to'lovlarni undirar ekan, uning to'lovchilari foydasiga tegishli harakatlarni amalga oshirishi shart, misol uchun qandaydir faoliyat bilan shug'ullanish huquqini berish, bojxona chegarasidan tovarlarni olib o'tish, qandaydir xizmat ko'rsatish va b. O'z navbatida soliqsiz to'lovlarning to'lovchilari davlatdan o'zlarining foydasiga qandaydir harakatlar amalga oshirilishini talab qilish huquqiga ega.

Ikkinchidan, har doim majburiy to'lov hisoblangan soliqlardan farqli o'laroq soliqsiz daromadlar majburiy va ixtiyoriy shaklga ega bo'lishi mumkin. Soliqsiz daromadlarning katta qismi

majburiy to'lovlar hisobiga shakllanadi. Ularning majburiyligi nazarda tutilgan hollarda to'lanmagan holatlarda o'rnatilgan tartibda majburiy undirilishi bilan asoslanadi. Biroq, majburiy soliqsiz va solikli to'lovlarni to'lanishining asoslari bir xil emas: soliqlar soliqqa tortish obyekti mavjud bo'lganida to'lanadi, majburiy soliqsiz to'lovlarni to'lanishining asosi esa vakolatli organlar tomonidan yuridik va jismoniy shaxslar foydasiga ma'lum harakatlarni amalga oshirilishi (u yoki bu huquqlarning berilishi, ishlar, xizmatlar bajarilishi) hisoblanadi. Davlatning soliqsiz daromadlari guruhiga kiruvchi ixtiyoriy to'lovlar yuridik va jismoniy shaxslarning tegishli xohish-irodasiga asoslanadi. Ixtiyoriylik tamoyillari bo'yicha qo'shimcha pul mablag'larini jalb qilish usullari qonunchilik bilan belgilanadi. Ularga davlat qimmatli qog'ozlarini muomalaga chiqarish va tarqatish, davlat lotereyalarini o'tkazish, hayriya faoliyatini amalga oshirish tartibidagi badallar va boshqa qonuniy usullar.

Uchinchidan, soliqsiz to'lovlarning xususiyatlaridan yana biri shuki, soliqlarga nisbatan ular uchun tushumlarning maqsadlilik belgisi xarakterlidir. Davlatning soliqsiz daromadlarini ishlatishning maqsadlilik soliqsiz to'lovlar joriy qilinish paytida o'rnatiladi va har qaysi to'lovni hisoblash va undirish tartibini belgilovchi huquqiy hujjatlar yordamida mustahkamlanadi. Davlatning soliqsiz daromadlari, odatda, Davlat budjeti va budjetdan tashqari fondlarda jamlanadi. Biroq, ayrim soliqsiz daromadlardan tushumlar qonun bo'yicha o'rnatilgan tartibda tegishli mahalliy budjetlarga o'tkazilishi uchun mahalliy hokimiyat organlariga beriladi.

Davlatning soliqsiz daromadlarini turli mezonlar bo'yicha turkumlash mumkin (19-rasm):

- hududiy darajasi bo'yicha – respublika daromadlari va mahalliy hokimiyat organlarining daromadlari;
- shakllantirish usullari bo'yicha – majburiy xarakterga ega bo'lgan daromadlar va yuridik va jismoniy shaxslardan ixtiyoriy tushumlar;
- ularni yig'ish manbalari bo'yicha – Davlat budjetida budjetdan tashqari fondlarda jamlanadigan daromadlar;
- to'lovlarni undirishning asoslari bo'yicha.



19-rasm. Soliqsiz daromadlar tasnifi

O'zbekiston Respublikasining "Budjet tizimi to'g'risida" qonunining 11-moddasida Davlat budjeti daromadlari tarkibida quyidagi soliqsiz daromadlar ko'rsatib o'tilgan:

1) davlatning moliyaviy va boshqa aktivlarini joylashtirilishi, foydalanishga berilishi va sotilishidan olingan daromadlar;

2) qonun hujjatlariga muvofiq meros olish, xadya etish huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari;

3) yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet el davlatlaridan qaytarilmaydigan pul tushumlari;

4) rezident - yuridik shaxslarga va chet el davlatlariga berilgan budjet ssudalarini hisobiga tushadigan to'lovlar;

5) qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa daromadlar.

O'zbekiston Respublikasining "Budjet tizimi to'g'risida" qonunining 18-moddasida esa, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlar daromadlari tarkibida quyidagi soliqsiz daromadlar ko'rsatib o'tilgan:

1) qonuniy xujjatlarida belgilangan normativlarga muvofiq davlat obyektlarini joylashtirish, foydalanishga berishdan olingan daromadlar;

2) qonun hujjatlariga muvofiq meros olish, hadya etish huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari;


3) yuqori budjetlardan beriladigan budjet dotatsiyalari, budjet subvensiyalari va budjet ssudalari;

4) yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet el davlatlaridan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;

5) qonunlarga muvofiq boshqa manbalar.

Davlat budjetining soliqsiz daromadlari quyidagilardan tashkil topadi (20-rasm):


- davlat mulkidan foydalanishdan olinadigan daromadlar;
- budjet tashkilotlari tomonidan ko'rsatilgan pullik xizmatlardan keladigan daromadlar;
- fuqarolik-huquqiy, ma'muriy va jinoiy choralarni qo'llash natijasida olinadigan mablag'lar, jumladan, jarimalar, musodaralar, kompensatsiyalar va davlat subyektlariga yetkazilgan zararni tiklash bo'yicha olinadigan mablag'lar va majburiy undiriladigan boshqa mablag'lar;
- moliyaviy yordam ko'rinishidagi daromadlar (budjet ssudalari va budjet kreditlaridan tashqari);
- boshqa soliqsiz daromadlar.



20-rasm. Davlat budjetining soliqsiz daromadlari

Budjet daromadlari tarkibiga tushumlarning quyidagi ko'rinishlari hisobga olinishi mumkin (21-rasm):

- davlat mulkini vaqtinchalik foydalanishga berish natijasida ijara haqi yoki boshqa ko'rinishda olinadigan daromadlar;
- kredit muassasalaridagi hisob varaqlarida budjet mablag'larining qoldig'i bo'yicha foizlar ko'rinishida olinadigan mablag'lar;
- davlatga tegishli mol-mulkni garovga yoki ishonchli boshqaruvga berishdan olinadigan mablag'lar;
- qaytarish va haq olish asosida boshqa budjetlarga, xorijiy davlatlarga yoki boshqa yuridik shaxslarga berilgan budjet mablag'laridan foydalanganlik uchun haq;
- davlatga qisman tegishli bo'lgan xo'jalik subyektlari ustav kapitalining hissasiga yoki aksiyalar bo'yicha dividendlarga to'g'ri keladigan foyda ko'rinishidagi daromadlar;
- davlat unitar korxonalari foydasining bir qismi (soliq qonunchiligiga muvofiq to'langan soliq va yig'imlardan so'ng);
- davlatga tegishli mol-mulkdan foydalanish natijasida olinadigan qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa daromadlar.



21-rasm. Davlat budjetining daromadlariga tushumlar ko'rinishlari

Davlat mulkiga aylanadigan va qaytarilishini talab etmaydigan mablag'lar ham Davlat budjetining daromadlari bo'lishi mumkin. Biroq ayrim to'lovlar davlatning ixtiyoriga vaqtinchalik foydalanish uchun o'tkazilishi ham mumkin. Bunday holda davlat olingan mablag'larni sarf etsa-da, u bu malag'larni belgilangan muddatlarda va to'liq ravishda qaytarishga majbur. Ana shunday budjet daromadlarining ko'rinishlaridan biri davlat obligatsiyalarini realizatsiya qilishdan olingan tushumlar hisoblanadi. Davlat budjetining daromadiga ular shartli ravishda, faqat shu yilning budjeti daromadlari nuqtai-nazaridan kiritilishi mumkin.

5. Budjet xarajatlarining mazmuni va turkumlanishi

Davlat budjetining xarajatlari umumiy moliyaviy kategoriya bo'lgan budjetning ko'rinishlaridan biri bo'lib, unga tegishli bo'lgan umumiy xususiyatlarga egadir, ya'ni ular taqsimlash xarakteriga ega, ifodalanishning pul shakli xos, pul fondlarining amal qilishi bilan bog'langan va davlat tomonidan tashkil qilinadn. Shu bilan birgalikda Davlat budjetining xarajatlari bir butunning o'ziga xos qismi bo'lganligi uchun ular davlatning markazlashtirilgan pul

fondlari mablag'laridan foydalanish va tegishli fondlarni shakllantirish bilan bog'liqdir. Bu taqsimlash munosabatlarining moddiy-buyumlashgan shakli turli sohalarga yo'naltirilayotgan budget mablag'larining harakatidan iborat.

Davlat budjetining xarajatlari xarajatlarning konkret turlari orqali namoyon bo'ladi. Budget xarajatlari konkret turlarining xilma-xilligi esa, o'z navbatida, quyidagi omillarning mavjudligi bilan belgilanadi: *davlatning iqtisodiy tabiati va funksiyalari; mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi; budjetning milliy iqtisodiyot bilan bog'langanligi; iqtisodiy munosabatlarning rivojlanganlik darajasi; budjet mablag'larining namoyon bo'lish shakllari va h. k.*

Jamiyatning iqtisodiy hayotida budget xarajatlarining roli va ahamiyatini aniqlash uchun ularni ma'lum belgilarga ko'ra turkumlashtirish maqsadga muvofiq. Ular o'zlarining *iqtisodiy mazmuni, ijtimoiy takror ishlab chiqarishdagi roli, ishlab chiqarish tarmoqlari va faoliyat turlari, ijtimoiy mo'ljallanganligi bo'yicha va ma'lum maqsadlariga ko'ra* alohida guruhlariga ajratilishi mumkin.

Eng avvalo, o'zining *iqtisodiy mazmuniga ko'ra*, Davlat budjetining xarajatlari *kapital va joriy* xarajatlarga bo'linadi.

Budjetning kapital xarajatlari innovatsion va investitsion faoliyatga yo'naltirilgan xarajatlardir. Bu xarajatlarning tarkibiga:

a) tasdiqlangan investitsion dasturga muvofiq harakatdagi yoki yangidan tashkil etilayotgan yuridik shaxslarga investitsiyalar uchun mo'ljallangan xarajatlar;

b) yuridik shaxslarga investitsion maqsadlar uchun budget kreditlari sifatida beriladigan mablag'lar;

v) kengaytirilgan takror ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan kapital ta'mirlashni amalga oshirish xarajatlari va shu bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlar;

g) amalga oshirilishi davlat mulkiga tegishli bo'lgan mulkni oshirish yoki uni yangitdan yaratishga olib keladigan xarajatlar;

d) Davlat budjeti xarajatlarining iqtisodiy turkumlanishiga muvofiq budjetning kapital xarajatlari tarkibiga kiritiladigan boshqa xarajatlar.

Davlat hokimiyat organlari, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari, budget tashkilotlarining joriy faoliyatini ta'minlashga yo'naltirilgan budget xarajatlari, boshqa budjetlar va iqtisodiyot alohida tarmoqlariga dotatsiya, subvensiya shaklida ko'rsatiladigan davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar va Davlat budjeti xarajatlarining turkumlanishiga muvofiq kapital xarajatlarning tarkibiga kiritilmagan boshqa xarajatlar budjetning *joriy xarajatlari* deyiladi.

Takror ishlab chiqarishdagi rolga ko'ra Davlat budjetining xarajatlari *milliy iqtisodiyotga (xo'jalikka) qilinadigan xarajatlar* va *ijtimoiy soha hamda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari*ga bo'linadi. Bu xarajatlarga, eng avvalo, davlat korxonalari va davlat ulushi bor bo'lgan korxonalarining ustav kapitalini shakllantirish, ularni yanada kengaytirish va rivojlantirish, davlat moddiy zahiralarini yaratish xarajatlari kiradi. Budgetning ijtimoiy soha hamda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari ham ijtimoiy jihatdan zarur bo'lgan xarajatlardir. Bu xarajatlar iste'mol fondlarini shakllantirish bilan bog'liq. Ularning bir qismi jamiyat a'zolarining individual ehtiyojlarining boshqa bir qismi esa, butun jamiyatning ehtiyojlarini kondirishga mo'ljallangan. Bu yerda Davlat budjetining xarajatlari ijtimoiy iste'mol fondlarini (mamlakatning mudofaa fondi, ilmiy tadqiqotlar fondi va boshqalar) shakllantirishni to'liq, shaxsiy iste'mol fondlarini esa, qisman (nomarkazlashtirilgan moliyaviy resurslar bilan birgalikda) ta'minlaydi. Shu bilan birgalikda, budget mablag'larining katta qismi shaxsiy iste'mol fondlarining ijtimoiy iste'mol fondlariga (maorif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport, fan, ijtimoiy himoya va ijtimoiy ta'minot, aholi uchun ijtimoiy ahamiyat kasb etgan xizmatlar bahosi o'rtasidagi farqlarni qoplash, ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalarga nafaqalar fondlari va boshqalar) tegishli bo'lgan qismini shakllantirishda keng foydalaniladi.

Davlat budjeti xarajatlarining tarmoq belgisi bo'yicha guruhlariga ajratishning asosiga milliy iqtisodiyot (xo'jalik)ning umume'tirof etilgan tarmoqlarga bo'linishi qabul qilingan. Shunga muvofiq

ravishda budget xarajatlari sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport, aloqa, maorif, sog'likni saqlash, madaniyat va sport, fan, ijtimoiy himoya va ijtimoiy ta'minot, davlat boshqaruvi, mudofaa va h. k. xarajatlariga bo'linishi mumkin. Budget xarajatlari milliy iqtisodiyot (xo'jalik) tarmoqlarining pul fondlarini shakllantirishda mustahkam moliyaviy asosni yaratish bilan birgalikda, xarajatlarning tarmoqlararo bo'linishi moliyaviy resurslarni taqsimlashdagi nisbatlarni aniqlashga ham imkon beradi, milliy xo'jalikning tarmoq tarkibiy tuzilishini kerakli yo'nalishda o'zgartiradi. Masalan, hozirgi paytda mamlakatimizda yaratilgan milliy daromadning hajmi budget mablag'larining katta qismini ijtimoiy soha va aholini bevosita ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga yo'naltirish imkonini berayapti. Bir vaqtning o'zida iqtisodiyot ustuvor tarmoqlarining (mashinasozlik, qishloq xo'jaligi, elektroenergetika va boshqalar) katta ko'lamlarda budgetdan moliyalashtirilishi ham ta'minlanayapti.

Ijtimoiy mo'ljallanganligi bo'yicha Davlat budgeti xarajatlarining iqtisodiy guruhlariga ajratilishi davlatning toifasi va u tomonidan bajarilayotgan funksiyalarni o'zida aks ettiradi. Ana shunga muvofiq ravishda Davlat budgetining barcha xarajatlarini quyidagi *guruhlariga* bo'lish mumkin:

- ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari;
- milliy xo'jalikka (iqtisodiyotga) xarajatlar;
- mudofaa xarajatlari;
- boshqaruv xarajatlari.

Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari o'z tarkibiga maorif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport, fan, ijtimoiy ta'minot, aholi uchun ijtimoiy ahamiyat kasb etgan xizmatlar baholaridagi farqlarni budgetdan qoplash va oilalarga ijtimoiy nafaqalarni oladi. Davlatning ijtimoiy funksiyasini o'zida aks ettirib, bu guruhdagi budgetning xarajatlari xalq ta'limi tizimini rivojlantirish va takomillashtirishga, fan va madaniyatni moliyalashtirishga, aholining tibbiy xizmatga bo'lgan talabini (ehtiyojini) qondirishga, ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minotni amalga oshirishga keng yo'l ochib beradi.

Milliy xo'jalikka (iqtisodiyotga) budgetdan xarajatlarning qilinishi davlatning hamon xo'jalikni yurituvchi asosiy subyektlardan biri ekanligidan darak beradi. Aynan bu xarajatlar katta ko'lamlarda yangi sanoat korxonalarini qurish, zamonaviy industrial asosda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish, transport, aloqa va iqtisodiyot boshqa tarmoqlarining texnikaviy qayta qurollanishini ta'minlashga imkon yaratadi. Shuning uchun ham hozirgi sharoitda Davlat budgetining bu xarajatlari orasida iqtisodiyotga xarajatlar va markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari alohida o'rinni egallaydi.

Davlat budgetining *mudofaa xarajatlari* ham davlatning funksiyalaridan kelib chiqadi. Ular har bir davlatning o'z mudofaa qobiliyatini mustahkamlashi kerakligi bilan bog'liqdir. Budget mablag'lari hisobidan Qurolli kuchlarning barcha turlari moliyalashtiriladi.

Davlat tomonidan boshqaruv shaklidagi faoliyat turining amalga oshirilishi, uning xo'jalik-tashkilotchilik funksiyasi Davlat budgetidan *boshqaruv xarajatlari* deb nomlangan alohida xarajatlarning qilinishini taqozo etadi. Boshqaruv (davlat hokimiyati organlari, sud va prokuratura organlari, fuqarolarning o'z-o'zini boshqaruv organlari) xarajatlari davlat organlari faoliyatining moliyaviy asosini tashkil etib, jamiyat hayotining barcha sohalariga rahbarlik qilishga imkon yaratadi.

Davlat budgetining barcha xarajatlari yuqoridagi to'rtta guruhdan qaysi biriga kirishidan qat'iy nazar ular o'zlarining ma'lum konkret maqsadlarga mo'ljallanganligi bo'yicha ham bir necha qismlarga bo'linadi. Bu qismlar Davlat budgeti xarajatlarining konkret turlaridan tarkib topadi. Kapital quyilmalar, dotatsiyalar, subvensiyalar, budget ssudalari, ish haqi, ovqatlanish xarajatlari, kapital va joriy ta'mirlash, kanselyariya va xo'jalik xarajatlarini Davlat budgeti xarajatlarining konkret turlari sifatida ko'rsatish mumkin. Budget xarajatlarining ma'lum konkret maqsadlarga mo'ljallanganligi bo'yicha turkumlanishi budget mablag'laridan oqilona foydalanishga sharoit yaratadi, budget assignovaniyalaridan foydalanish ustidan samarali va ta'sirchan moliyaviy nazoratni amalga oshirishning zaruriy asosi hisoblanadi.

Iqtisodiy nuqtai-nazardan turkumlarga ajratilishi bilan bir qatorda Davlat budgetining xarajatlarini *tashkiliy jihatdan* ham guruhlariga ajratish mumkin. Buning asosida Davlat budgeti xarajatlarini yuqori tashkilotlar (vazirliklar, uyushmalar, assotsiatsiyalar, birlashmalar, konsernlar, kompaniyalar va h. k.) va hududiy belgilar yotishi mumkin. Budget xarajatlarining yuqori tashkilotlar bo'yicha guruhlanishi budget mablag'larini konkret oluvchilarni ko'rsatadi va ular tarmoq ichida pul fondlarini shakllantirishda mas'ul bo'lib, ajratilgan budget assignovaniyalaridan o'z vaqtida, samarali va qonuniy foydalanish ustidan javobgardirlar.

Davlat budgeti xarajatlarining *hududiy belgiga* muvofiq ravishda bo'linishi ular markazlashuvining turli darajalarini o'zida aks ettiradn. Shu munosabat bilan, davlat boshqaruvi darajasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetining xarajatlari respublika va mahalliy budgetlarning xarajatlaridan tarkib topadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida Davlat budgetining xarajatlari uning daromadlari bilan uzviy bog'langandir. Bunday o'zaro bog'liqlik xarajatlarning miqdoriy jihatdan daromadlarga muvofiq kelishi va ularning bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsatishi orqali ifodalanadi. Bir tomondan, aksariyat hollarda, budget xarajatlarining hajmi budget daromadlarining hajmi bilan cheklanadi. O'z navbatida, budget daromadlarining hajmi esa davlatning iqtisodiy imkoniyatlari bilan aniqlanadi. Shuning uchun ham bu yerda budget xarajatlarining shunday hajmini va milliy xo'jalikda pul fondlarini shakllantirishda budget mablag'laridan foydalanishning shunday muddatlarini o'rnatish kerakki, ular minimal xarajatlari qilib maksimal samaraga erishish orqali davlat oldidagi ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlasin, boshqa tomondan esa, ishlab chiqarishning o'sishiga ijobiy ta'sir qilish, ilmiy-texnika taraqqiyotini tezlashtirish va milliy xo'jalikdagi mutanosibliklarni optimallashtirish orqali Davlat budgetining xarajatlari uning daromadlari darajasining ortishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Davlat budgeti xarajatlari hajmining yildan-yilga ortib borishi ularni milliy xo'jalikning samaradorligi nuqtai-nazaridan baholashni juda dolzarb muammoga aylantirib qo'yadi. Bunda milliy xo'jalikning yakuniy natijasini baholab, faqat unga tegishli bo'lgan daromadlarning qo'shimcha ravishda o'sganligiga e'tibor berish bilan cheklannsh maqsadga muvofiq emas. Bu yerda, bir vaqtning o'zida, jamiyatning ijtimoiy taraqqiyot darajasi, ijtimoiy muammolarning qay darajada hal etilganligi ham nazardan chetda qolmasligi kerak. Albatta, milliy xo'jalikning yakuniy natijasi budget xarajatlarining umumiy hajmiga, ularning tarkibiy tuzilishiga, budget mablag'laridan to'g'ri, iqtisod qilib va samarali foydalanishga bevosita bog'liq. Shuning uchun ham hozirgi sharoitda budget xarajatlarining ilmiy asoslangan holda rejalashtirilishiga, budget assignovaniyalaridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratning butun tizimiga alohida e'tibor berish lozim.

Milliy xo'jalikni moliyaviy tartibga solishning muhim vositalaridan biri ham Davlat budgetining xarajatlaridir. Bu yerda, odatda, moliyaviy tartibga solish deyilganda milliy xo'jalikdagi oqilona mutanosibliklarni ta'minlash maqsadida budget mablag'larini tarmoqlar va hududlar kesimida taqsimlash va qayta taqsimlashning shakllari va usullari majmui tushuniladi. Milliy xo'jalikni moliyaviy tartibga solishning obyektiv zarurligi katta o'zgaruvchanlik bilan xarakterlanadigan, uning murakkab bo'lgan organizmi turli qismlarida moliyaviy resurslarni jamg'arish sur'atlarining turlichaligi bilan izohlanadi. Budget resurslarini sarf qilish orqali davlat pul mablag'larini taqsimlashda vujudga kelgan mutanosibliklarni o'zgartirishi va buning oqibatida ba'zi bir tarmoqlarning (hududlarning) rivojlanishini tezlashtirishi va boshqalarining rivojlanishini rag'batlantirmasdan milliy xo'jalikning rivojlanishini tartibga solishi mumkin. Budget mablag'larining katta qismidan muhim ishlab chiqarish-hududiy komplekslarni rivojlantirishga sarflash sekin-astalik bilan chuqur sifat o'zgarishlarining sodir bo'lishiga - ijtimoiy ishlab chiqarish tarkibiy tuzilmasining o'zgarishiga olib keladi.

Mamlakat milliy xo'jaligini moliyaviy jihatdan tartibga solish Davlat budgeti daromadlarini rejalashtirish va budgetdan moliyalashtirish jarayonlari davomida amalga oshiriladi. Rejalashtirish jarayonining o'zidayoq Davlat budgeti xarajatlarining umumiy hajmi gorizontaliga (tarmoq, vazirlik va maqsadli kesimlarda) va vertikaliga (boshqaruvning turli darajalariga muvofiq ravishda) taqsimlanib, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarning sodir bo'lishi uchun tegishli sharoit yaratiladi.

Budjetdan moliyalashtirish jarayonida esa, davlat o'zining ixtiyoriga kelib tushayotgan pul mablag'larini rejalashtirilgan tadbirlar doirasida va undan tashqarida keng manyovr qilish imkoniga ega bo'ladi. Mablag'larni konkret taqsimlovchilarga budjet kreditlarini ochish, budjet assignovaniyalarini berish va ularning samarali foydalanishi ustidan nazoratni amalga oshirib, moliya organlari iqtisodiyotning rivojlanishi ustidan kuzatuvni diqqat bilan amalga oshiradilar va kerak bo'lgan hollarda taqsimlanayotgan budjet mablag'larining mutanosibliklarini o'zgartiradilar.

Davlat budjetida daromadlarni xarajatlarning konkret turlari va yo'nalishlari bo'yicha birlashtirilishi tamoyili bo'lmaganligi uchun bu yerda budjet resurslari bilan keng manyovr qilish va shunga muvofiq ravishda davlatning ixtiyoriga kelib tushuvchi pul mablag'lari har qanday zaruriy yo'nalishda foydalanilishi mumkin.

Davlat budjeti xarajatlarining tarkibi va uning tuzilmasi davlatning tabiatiga, u tomonidan bajarilayotgan funksiyalarga, milliy xo'jalikning ehtiyojlariga bog'liq hamda budjet mexanizmi orqali ishlab chiqarish va iste'molning ba'zi bir omillariga davlatning ta'sirchanligini ta'minlash kabilar bilan belgilanadi.

6. Budjetdan moliyalashtirish

Davlat budjetining xarajatlaridan foydalanish budjetdan moliyalashtirish orqali amalga oshiriladi. Shu munosabat bilan, budjetdan moliyalashtirish deyilganda rejada ko'zda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish uchun subyektlarga budjetdan mablag'larni taqdim etish tizimi tushuniladi. U pul mablag'larini taqdim etishning o'ziga xos bo'lgan shakl va usullari bilan xarakterlanadi hamda ma'lum bir tamoyillarga tayanadi. Budjetdan moliyalashtirishning *tamoyillari, shakllari va usullari* bu tizimning tarkibiy elementlari bo'lib hisoblanadi va uning amal qilish natijalariga o'z ta'sirini ko'rsatadi, Muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalar xalq etilayotgan hozirgi paytda oqilona va samarali budjetdan moliyalashtirish tizimining ahamiyati yanada ortadi.

Budjetdan moliyalashtirishning oqilona tizimini tashkil etishda, eng avvalo, moliyalashtirish tamoyillari muhim rol o'ynaydi. Hozirgi amaliyotda foydalanilayotgan budjetdan moliyalashtirishning tamoyillarini *umumiy* va *xususiy* guruhlariga bo'lish mumkin. Umumiy tamoyillar budjetdan mablag' oladigan barcha subyektlarning faoliyatiga tegishlidir. Xususiy tamoyillar esa, subyektlar faoliyatining tashkil etilishiga bog'liq ravishda budjet mablag'larining taqdim etilish tartibini belgilab beradi,

Budjetdan moliyalashtirishning *umumiy tamoyillari* quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- minimum xarajatlarda maksimum samarani olish;
- budjet assignovaniyalaridan foydalanishning maqsadli xarakterdaligi;
- ko'zda tutilgan rejalarning bajarilishi va oldin berilgan assignovaniyalarning foydalanilganligini inobatga olgan holda budjet mablag'larini taqdim etish.

Umumiy tamoyillar oilan birgalikda budjetdan moliyalashtirish amaliyotida *xususiy tamoyillardan* ham foydalaniladi. Ularning tarkibiga quyidagilar kiradi:

- faqat ishlab chiqarishni kengaytirish xarajatlariga budjet assignovaniyalarini ajratish;
- budjet assignovaniyalarining o'lchamini aniqlashda "qoldiq" yondoshuvidan foydalanish;
- budjetdan moliyalashtirishni rejalashtirilayotgan xarajatlarni kredit usuli orqali ta'minlash bilan birgalikda foydalanish:

- korxonalarning moliyaviy holatini budjetli tartibga solish tamoyili va boshqalar.

Respublika budjetidan xarajatlarni moliyalashtirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

1) fan, ta'lim, madaniyat, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport (respublikaga bo'ysunadigan budjet tashkilotlari bo'yicha);

2) ijtimoiy ta'minot;

3) mudofaa, milliy xavfsizlik va jamoat tartibini ta'minlash;

4) sudlar va prokuratura organlari faoliyatini ta'minlash;

5) davlat zahirasi va safarbarlik zahirasini vujudga keltirish hamda ularni saqlash;

- 6) davlat markazlashtirilgan investitsiyalarini amalga oshirish;
- 7) davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, O'zbekiston Respublikasining chet eldagi diplomatik vakolatxonalari hamda missiyalari faoliyatini ta'minlash;
- 8) iqtisodiyot turli tarmoqlarining respublikaga bo'ysunadigan budjet tashkilotlarini saqlash;
- 9) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning maqsadli davlat dasturlari va tadbirlarini amalga oshirish;
- 10) yer tuzish, meliorativ, tabiatni muhofaza qilish va epizootiyaga qarshi kurash chora-tadbirlarini amalga oshirish;
- 11) qishloq xo'jaligi zararkunandalariga qarshi kurash;
- 12) gidrometeorologiya, do'lga qarshi kurash chora-tadbirlari;
- 13) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa maqsadlar.

Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetidan va mahalliy budjetlardan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda quyidagilarga mo'ljallangan xarajatlar moliyalashtiriladi:

- 1) fan, ta'lim, madaniyat, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport (Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar budjetlaridan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlari bo'yicha);
- 2) ijtimoiy ta'minot;
- 3) aholini ijtimoiy himoya qilish;
- 4) Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini ta'minlash;
- 5) iqtisodiyot turli tarmoqlarining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar budjet tashkilotlarini saqlash;
- 6) qonun hujjatlariga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning maqsadli dasturlari va tadbirlarini amalga oshirish;
- 7) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa maqsadlar.

Amaliyotda budjetdan moliyalashtirishning turli shakllaridan foydalaniladi. *Smetali moliyalashtirish, dotatsiya, subvensiya, budjet ssudalari, baholardagi farqni qoplash* va boshqalar budjetdan moliyalashtirishning shakllaridir.

Davlat budjetining xarajatlaridan foydalanish budjetdan moliyalashtirish orqali amalga oshiriladi. Shu munosabat bilan, budjetdan moliyalashtirish deyilganda rejada ko'zda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish uchun subyektlarga budjetdan mablag'larni taqdim etish tizimi tushuniladi. U pul mablag'larini taqdim etishning o'ziga xos bo'lgan shakl va usullari bilan xarakterlanadi hamda ma'lum bir tamoyillarga tayanadi. Budjetdan moliyalashtirishning *tamoyillari, shakllari va usullari* bu tizimning tarkibiy elementlari bo'lib hisoblanadi va uning amal qilish natijalariga o'z ta'sirini ko'rsatadi, Muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalar xalq etilayotgan hozirgi paytda oqilona va samarali budjetdan moliyalashtirish tizimining ahamiyati yanada ortadi.

Budjetdan moliyalashtirishning oqilona tizimini tashkil etishda, eng avvalo, moliyalashtirish tamoyillari muhim rol o'ynaydi. Hozirgi amaliyotda foydalanilayotgan budjetdan moliyalashtirishning tamoyillarini *umumiy va xususiy* guruhlariga bo'lish mumkin. Umumiy tamoyillar budjetdan mablag' oladigan barcha subyektlarning faoliyatiga tegishlidir. Xususiy tamoyillar esa, subyektlar faoliyatining tashkil etilishiga bog'liq ravishda budjet mablag'larining taqdim etilish tartibini belgilab beradi,

Budjetdan moliyalashtirishning *umumiy tamoyillari* quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- minimum xarajatlarda maksimum samarani olish;
- budjet assignovaniyalaridan foydalanishning maqsadli xarakterdaligi;
- ko'zda tutilgan rejalarning bajarilishi va oldin berilgan assignovaniyalarning foydalanilganligini inobatga olgan holda budjet mablag'larini taqdim etish.

Umumiy tamoyillar oilan birgalikda budjetdan moliyalashtirish amaliyotida *xususiy tamoyillardan* ham foydalaniladi. Ularning tarkibiga quyidagilar kiradi:

- faqat ishlab chiqarishni kengaytirish xarajatlariga budjet assignovaniyalarini ajratish;
- budjet assignovaniyalarining o'lchamini aniqlashda "qoldiq" yondoshuvidan foydalanish;
- budjetdan moliyalashtirishni rejalashtirilayotgan xarajatlarni kredit usuli orqali ta'minlash

bilan birgalikda foydalanish:

- korxonalarning moliyaviy holatini budjetli tartibga solish tamoyili va boshqalar.

Amaliyotda budjetdan moliyalashtirishning turli shakllaridan foydalaniladi. *Smetali moliyalashtirish, dotatsiya, subvensiya, budjet ssudalari, baholardagi farqni qoplash* va boshqalar budjetdan moliyalashtirishning shakllaridir.

Budjetdan mablag' ajratish - qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda Davlat budjetidan budjet tashkilotlariga hamda boshqa budjet mablag'lari oluvchilarga ajratiladigan pul mablag'lari.

Budjet dotatsiyasi - o'z daromadlari va budjetni tartibga soluvchi boshqa mablag'lar yetishmagan taqdirda quyi budjetning xarajatlari bilan daromadlari o'rtasidagi farqni qoplash uchun yuqori budjetdan quyi budjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'lari.

Budjet ssudasi - yuqori budjetdan quyi budjetga yoxud respublika budjetidan rezident-yuridik shaxsga yoki chet el davlatiga qaytarish sharti bilan ajratiladigan mablag'.

Budjet subvensiyasi - qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori budjetdan quyi budjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'lari.

Budjet transferti - budjetdan yuridik yoki jismoniy shaxsga bevosita yoxud vakolatli organ orqali ajratiladigan qaytarilmaydigan pul mablag'lari.

Nazorat savollari.

1. Davlat budjetining mohiyati nimadan iborat?
2. Davlat budjetini ijtimoiy ahamiyatini tushuntiring.
3. Davlat budjetiga yetakchi olimlar tomonidan qanday ta'riflar berilgan?
4. Qanday munosabatlar budjet munosabatlari deyiladi va ular qanday xususiyatlarga ega?
5. Davlat budjeti qanday funksiyalarni bajaradi?
6. Davlat budjetini taqsimlash funksiyasining xarakterli xususiyatlarini sanab bering.
7. Davlat budjetini nazorat funksiyasining xarakterli xususiyatlarini sanab bering.
8. Davlat budjetining daromadlari nimalardan tashkil topadi?
9. Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning qanday manbalari mavjud?
10. Budjet daromadlarini shakllantirish jarayoni qanday tamoyillarga tayanadi?
11. Davlat budjetining daromadlari qanday mezonlar asosida turkumlanadi?
12. Davlat budjeti daromadlarining manbalarini tushuntiring.
13. Davlat budjetining solikli daromadlari deganda qanday daromadlar guruhi tushuniladi?
14. Davlat budjetining soliqsiz daromadlari deganda qanday daromadlar guruhi tushuniladi?
15. Soliqsiz daromadlar qanday turkumlanadi?
16. Budjet xarajatlarining ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatini tushuntiring.
17. Davlat budjeti xarajatlarini qanday mezonlar bo'yicha turkumlash mumkin?
18. Davlat budjeti xarajatlari iqtisodiy mazmuniga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
19. Davlat budjeti xarajatlari takror ishlab chiqarishdagi rolga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
20. Davlat budjetidan ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qilinadigan xarajatlarini izohlang.
21. Davlat budjetidan milliy xo'jalikka (iqtisodiyotga) qilinadigan xarajatlarini izohlang.
22. Budjetdan moliyalashtirish qanday tamoyillarga asoslanadi?
23. Respublika budjetidan xarajatlarni moliyalashtirish qaysi yo'nalishlarda amalga oshiriladi?

- 24.Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjetidan va mahalliy budjetlardan qaysi maqsadlarga mo‘ljallangan xarajatlar moliyalashtiriladi?**
- 25.Budjetdan moliyalashtirish shakllarini tushuntiring.**

6-mavzu. Davlat moliyasi va uning bo‘g‘inlari /6 soat/**3-ma’ruza. Soliqlarning mohiyati****Reja**

- 1. Soliqlarning mazmuni**
- 2. Soliqlarning turkumlanishi**

1. Soliqlarning mazmuni

Soliqlarning eng oddiy ta’rifi mana bunday. **Soliqlar** aholidan, korxonalar va xo‘jalik yurituvchi boshqa subyektlardan davlat (markaziy va mahalliy hokimiyat organlari) tomonidan undirib olinadigan majburiy to‘lovlardir. Soliq o‘z mohiyatiga ko‘ra ijtimoiy mahsulotning (yalpi ichki mahsulotning YaIM) bir qismi bo‘lib, soliq to‘lovchi bundan biron-bir foyda ko‘rish-ko‘rmasligidan qat’iy nazar, o‘z mablag‘laridan davlat hisobiga majburiy ajratmalar ko‘rinishida aks etadi.

Soliqlarning mohiyatini tushunishga yordam beruvchi uchta tavsifni keltirib o‘taylik

1. Soliq to‘lovchi pulning u yoki bu summasini davlatga to‘lar ekan, buning evaziga bevosita biron-bir tovar yoxud xizmat olmaydi. Alohida olingan soliq to‘lovchi tomonidan to‘langan soliq miqdori bilan u iste‘mol qiladigan ijtimoiy ne‘matlar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik mavjud bo‘lmaydi. Xuddi ana shu xususiyatiga ko‘ra soliq bahodan (tovar yoki xizmatlarni ixtiyoriy iste‘mol qilganligi uchun to‘lanadigan haq sifatida) ruxsatnoma (litsenziya)lar va vositachilik yig‘imlaridan farq qiladi, chunki bular majburiy yoki ixtiyoriy to‘lovlar hisoblansa-da, biroq hamma vaqt hukumat tomonidan ko‘rsatilgan xizmatdan muayyan foyda (naf) ko‘rilishi bilan bog‘liqdir.

Davlatga to‘lanadigan soliqlar bilan uning evaziga olinadigan iqtisodiy va ijtimoiy ne‘matlar o‘rtasida bevosita, har bir kishining ko‘zi ilg‘aydigan bog‘liqlikning yo‘qligi soliq to‘lovchilar soliqqa tortishni yuk sifatida baholashlari uchun caba6 bo‘ladi, vaholanki, ular soliqlar hisobidan qilinadigan davlat xarajatlarining yo‘nalishini ma‘qo‘llashlari ham mumkin.

Alohida olingan soliq to‘lovchi odatda jamiyat va o‘zining ko‘rgan foydasi yoki manfaatini to‘lagan soliqlari bilan solishtirib o‘tirmaydi. Bu shunga olib keladiki, oqibatda fuqarolarning bir qismi soliqlar to‘lashdan bo‘yin tovlashga, o‘z daromadlarini yashirishga urinadi. Davlat o‘z fuqarolaridan yig‘ib olgan soliqlarni samarali va oshkora tarzda ishlatsa hamda fuqarolarning aksariyat qismi davlatning iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa dasturlarini o‘z mablag‘lari hisobidan pul bilan ta‘minlashga rozi bo‘lgandagina yuksak soliq ahloqi tamoyillari tantana qiladi.

2. Soliqlar majburiy to‘lovlar hisoblanadi. Soliqlarning to‘la va o‘z vaqtida to‘lanishi uchun javobgarlik soliq to‘lovchilar zimmasiga yuklangan bo‘lsa-da, ular ixtiyoriy emas, majburiy ravishda to‘laydilar, davlat soliq to‘lashdan bo‘yin tovlaganlarni qattiq jazolaydi.

3. Davlat foydasiga soliq to‘lash orqali daromadning avvaldan belgilab qo‘yilgan, eng muhimi, qonuniy tartibda ko‘zda tutilgan qismi undirib olinadi.

Ko‘pgina davlatlarning, jumladan, O‘zbekistonning ham qonunlarida soliqlarni belgilash va ularning hajmlarini aniqlashga faqat oliy qonun chiqaruvchi hokimiyat yoki uning tomonidan vakolat berilgan organlar haqlidirlar, deb mustahkamlab qo‘yilgan. o‘zining xohish-istagiga qarab yangi soliqlar belgilash yoki ularning hajmlarini aniqlashga xech kimning haqqi yo‘q. To‘lovlarning qonuniy, ochiq-oydin xususiyatga ega bo‘lishi soliqlarning bosh tavsifidir.

Soliqlarning asosiy funksiyasi, *fiskal* (lotincha fiscus so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, g‘azna degan ma‘noni anglatadi) xususiyatga ega ekanligidir. Bu o‘rinda mazkur funksiyaning mohiyati shundan iboratki, soliqlar yordamida davlatning moliya resurslari hosil qilinadi hamda davlat faoliyat ko‘rsatishi uchun moddiy sharoit yaratiladi, hozirgi vaziyatda esa butun bozor xo‘jaligi tizimi ishlab turishi uchun moddiy imkoniyat vujudga keltiriladi. Soliqlar orqali korxonalar va

fuqarolar daromadining bir bo'lagini davlat apparatini, mamlakat mudofasini, noishlab chiqarish sohasini, umuman o'z daromadlari manbaiga ega bo'lmagan qismini (madaniyat muassasalari, jumladan, kutubxonalar, arxivlar va boshqalar) yoki lozim darajada rivojlanishni ta'minlash uchun o'zining mablag'i yetishmaydigan tarmoqlarni (fundamental fan, teatrlar, muzeylar, ko'plab o'quv yurtlari va hokazo) saqlab turish maqsadida undirib olish jarayoni ro'y beradi.

Fiskal funktsiya davlatning iqtisodiyotga aralashuvi uchun obyektiv shart-sharoit vujudga keltiradi.

Budjet daromadlarini ta'minlash soliq tizimi vazifalaridan bittasi, holos. Soliq tizimi ana shu vazifani xalq etar ekan, jamg'arma va ishlab chiqarishning o'sish jarayonlariga to'sqinlik qilmasligi, ijtimoiy adolatni buzmasligi, xalq xo'jaligi tuzilishida buzilishlar va chetga chiqishlar sodir bo'lishiga yo'l qo'ymasligi, bozor jarayoniga putur yetkazmasligi zarur.

Soliqlarning yana bir muhim funktsiyasi *iqtisodiy (tartibga soluvchi)* vazifani ado etishidir. Davlat soliqlar orqali ishlab chiqarish sharoitlarini, tovarlar va xizmatlarning sotilishini tartibga solib boradi, iqtisodiy faoliyat uchun muayyan "soliq iqlimi" yaratadi. Soliqlar o'zining iqtisodiy funktsiyasi orqali takror ishlab chiqarishga ta'sir ko'rsatadi, uning o'sish sur'atlarini rag'batlantiradi yoki pasaytiradi, mablag' to'planishini tezlashtiradi yoki sekinlashtiradi, aholining to'lov qobiliyati talabini kengaytiradi yoki kamaytiradi. Sof raqobatli bozor munosabatlari sharoitida ishlab chiqarish amalda soliqlar ta'siridan holi bulur edi. Ishlab chiqarish kuchlarining barq urib rivojlanishi va fan-texnika taraqqiyoti soliqlarning iqtisodiy funktsiyasi ahamiyatini yangi bosqichga ko'tardi. Biroq markazlashgan rejalashtirish tizimida davlat iqtisodiyotni izga solib turish uchun ma'muriy choralar bilan ta'sir ko'rsatardi, shuning natijasida soliqlarning iqtisodiy dastak sifatidagi ahamiyati qolmadi. Bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi sharoitida aynan soliqlar davlatning iqtisodiyotga ta'sir o'tkazishida asosiy vositalardan biri bo'lib qolmoqda. Davlat soliqlarning iqtisodiy funktsiyasi orqali xalq xo'jaligining rivojlanishini rag'batlantiradi, shuning barobarida uning fiskal funktsiyasi uchun bazani kengaytiradi. Oqilona tashkil etilgan davlat soliq siyosati soliqlarning iqtisodiy funktsiyasi orqali ishlab chiqarishni rag'batlantirar, rivojlantirar ekan, fiskal funktsiyasini kengaytiradi, bu bilan soliq yukini ko'paytirmasdan turib, davlatning o'zi faoliyat ko'rsatishi va yashashi uchun obyektiv shart-sharoit ta'min etiladi. Soliqlarning izga solib turuvchi sifatidagi funktsiyasining ahamiyati bozor sharoitida o'sib boradi, bu davrda tadbirkorlarni ma'muriy qaram qilish usullari yo'q bo'lib ketadi yoki juda oz holda qoladi, korxonalar faoliyatini farmoyishlar, ko'rsatmalar va buyruqlar yordamida idora qilish huquqiga ega bo'lgan "yuqori tashkilot" tushunchasining o'zi asta-sekin yo'qola boradi. Biroq iqtisodiy faollikni izga solib turish, uning rivojlanishini jamiyat uchun maqbul bo'lgan yo'nalishda rag'batlantirish zarurati saqlanib koladi.

Soliqqa tortish tizimi orqali texnika taraqqiyotini rag'batlantirish usullarining ta'siri bir xil emas. Masalan, eskirgan uskunalarni zudlik bilan ro'yxatdan chiqarish soliqqa tortish bazasini qisqartirish imkoniyatini yaratish hisobiga, avvalo an'anaviy mablag' talab qiladigan tarmoqlarda kuch-g'ayratlarni faollashtirishga yordam beradi, sanoat va butun xalq xo'jaligi tarmoqlarini ma'lum konservatsiyaga olib keladi. Buning aksicha, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga bevosita ketgan xarajatlarni chegirib tashlash va imtiyozlar berish ilm-fan yutuqlarida barakali foydalanadigan eng ilg'or tarmoqlarning rivojlanishiga yo'l ochadi.

Jahon tajribasi ko'rsatishicha, mayda tavakkalchi firmalar ishlab chiqarish texnikasi sohasidagi ilg'or g'oyalar va yangiliklarni joriy etishni tezlashtiruvchilik vazifasini o'taydi. Hozirgi zamonning rivojlangan mamlakatlari soliq tizimi turli imtiyozlar - soliqqa tortish bazasidan ilmiy tadqiqotlar va konstruktorlik izlanishlariga ketgan xarajatlarni chegirib tashlash, mablag'ning ko'payishidan daromadlarni soliqqa tortish paytida imtiyozlar berish, shu yo'l bilan uzoq muddatli qimmatli qog'ozlarni joylashgirishtirish orqali mablag'lvni jalb qilishga imkoniyat tug'dirish, nihoyat, korporatsiyalarning daromadlarini soliqqa tortishda ilg'or usullarni qo'llanish vositasi bilan ilm-fan yutuqlaridan foydalanuvchi kichik firmalar faoliyatini rag'batlantiradi.

Soliq imtiyozlari va chegirishlar orqali fan-texnika taraqqiyotini rag'batlantirish tizimlari qanchalik murakkab bo'lmasin, bu tizimlardan birortasi ham mukammal emas, ulardan birortasi ham to'siqlardan holi bo'lgan mutloq rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsata olmaydi.

Soliqqa tortish tizimi murakkabligining o'ziyoq suiste'molliklarga, soliqlardan bo'yin tovlashga yo'l ochadi, shuning uchun ham hozirgi zamon rivojlangan mamlakatlarining soliq siyosatida ikkita muqobil yo'nalish to'qnashayapti. Birinchisi, soliqlarni tabaqalashtirish, ko'pdan-ko'p imtiyozlar va umumiy soliq stavkalari ancha yuqori bo'lganda soliqqa tortiladigan daromaddan chegirishni joriy etish.

Ikkinchisi, imtiyozlar, chegirmalar, undirishlardan asta-sekin voz kechish. Bu yo'nalish soliq bazasini kengaytiradi hamda soliqqa tortishda umumiy stavkani pasaytirish imkonini beradi.

Birinchi yo'nalish takror ishlab chiqarish va fan-texnika taraqqiyoti jarayoniga aniq maqsadni ko'zlab ta'sir etishdan kelib chiqadi. Ikkinchi yo'nalish esa, iqtisodiyotning barcha sohalarida erkin tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun mumkin qadar qulay sharoit yaratishga intiladi.

Shunday qilib, davlat soliqlar, imtiyozlar, jazo choralari (sanksiyalar) yordamida texnika taraqqiyotini, ish o'rinlari sonining ko'payishini, ishlab chiqarishni kengaytirishga kapital mablag' sarflashni va hokazolarni rag'batlantiradi. Soliqlar vositasida texnika taraqqiyotini rag'batlantirish avvalo shunda namoyon bo'ladiki, bunda daromadning texnikaviy qayta qurollanish, rekonstruksiya, tovarlar, oziq-ovqat va bir qator boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish uchun uskunalar ishlab chiqarishni ko'paytirishga yo'naltirilgan qismi soliqdan ozod qilinadi.

Soliqqa tortish unumli faoliyatni rag'batlantirish, unumsiz faoliyatni to'xtatish uchun daromadlar manbaiga ta'sir o'tkazish yo'li bilan korxonalarning iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirishi mumkin. Masalan, mamlakat sanoatini chet ellik raqobatchilardan himoya qilish uchun import tovarlarga soliq joriy etish usulidan foydalaniladi, bu bilan xorijga ko'p mablag' chiqib ketishining oldi olinadi, mamlakat ichkarisidagi ishlab chiqarish rag'batlantiriladi. Ayni paytda eksport tovarlar soliqdan ozod qilinishi chetga mahsulot chiqarish imkoniyatlari kengayishi uchun qo'shimcha mablag'lardan foydalanishga sharoit yaratib beradi.

Ijtimoiy xarajatlarni (atrof-muhitni ifloslantirish, aholi sog'ligiga havf tug'dirish va hokazo) ko'paytirayotgan firmalarning mahsulotlariga qo'shimcha soliqlarning joriy etilishi tez-tez ularning faoliyati to'xtab qolishiga olib keladi, tabiatni muhofaza qilish va mehnat sharoitini yaxshilash choralari ko'rish zaruratini tug'diradi.

Soliqlar ishlab chiqarishning muayyan tarmoqlarini himoya qilish uchun undiriladigan paytlar ham bo'ladi (masalan, import gazlamaga soliq solinishi uni xaridor olishi mumkin bo'lgan narxdan qimmatlashtirib yuboradi).

Jamiyat nuqtai nazaridan maqsadga muvofiq bo'lmagan faoliyatni cheklash uchun ham soliqlardan foydalaniladi. Masalan, spirtli ichimliklar va sigaretalarga soliqlar faqat budjetni to'ldirish uchun emas, balki bunday mahsulotlarni iste'mol qilishni cheklash uchun solinadi.


Keltirilgan misollar xo'jalik faolligining, bir turini rag'batlantirish va ikkinchi turini cheklash, chet ellik ishlab chiqaruvchilar bilan raqobatchilik darajasini boshqarish va hokazolar yo'lidan foydalanib, soliqlar yordamida qanday qilib aholi, korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyatini izga solib turish mumkinligini ko'rsatadi.

2.Soliqlarning turkumlanishi

Soliqlarni turkumlash – soliqlarni muayyan xarakterli belgilari, ya'ni undirish usullari, qo'llaniladigan stavkalar turi, soliqlar imtiyozlari va hokazolar bo'yicha guruhlashdir.

Soliqlarni turlari bo'yicha turkumlashga bir necha belgilar asos qilib olingan. Xalqaro amaliyotda ikkita asosiy tasnif guruhlari qabul qilingan bevosita va bilvosita soliqlar. Ushbu guruhlar soliq solish obyektiga va to'lovchi bilan davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasida soliqlarning turkumlanishining tasviri quyidagi 22-rasmda aks ettirilgan.



22-rasm. O'zbekiston Respublikasida soliqlarning turkumlanishi

Bevosita soliqlar bevosita daromad va mol-mulk belgilanadi (soliqqa tortishning bevosita shakli), ya'ni bevosita soliqlarni o'zil-kesil to'lovchisi daromad oluvchi (mol-mulkka egalik qiluvchi va h.k.) xo'jalik subyekti hisoblanadi.

Soliq to'lovchining daromadi (ish haqi, foyda, foizlar va boshqalar) va mol-mulki (erlar, uylar, qimmatli qog'ozlar va boshqalar) qiymati bevosita soliqlar obyekti.

Bevosita soliqlar o'z navbatida, real va shaxsiy bevosita soliqlarga bo'linishi mumkin. Bevosita real soliqlar deganda shunday soliqlar tushiniladiki, ular mol-mulk yoki daromadlarning turli xillariga solinadi hamda obyektning haqiqatda keltiradigan daromadini hisobga olmasdan, uni taxminiy baholash asosida undiriladi. Hozirgi vaqtda real soliqlarning roli katta emas. Bevosita soliqlarga, masalan, yer solig'i, hunarmandchilik solig'i, pul sarmoyalari (qimmatli qog'ozlar) daromadlariga solinadigan soliqlar kiradi.

Bevosita real soliqlar o'rnini borgan sari bevosita shaxsiy soliqlar egallab bormoqda, ular ham jismoniy, ham yuridik shaxslarning hisobga olingan daromadlariga solinadi. Bevosita shaxsiy

solliqlar deklaratsiya bo'yicha undiriladi. Asosan ular uchun progressiv stavkalar xosdir. Bevosita shaxsiy solliqlarga daromad solig'i, korxonalar foydasidan olinadigan soliq va hokazolar kiradi.

Daromad solig'i va korxonalar foydasidan olinadigan soliq davlat budjetiga tushumlarning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi.

Korxonalarda shaxsiy daromad solig'i alohida siylov (chegirma) va imtiyozlarni chegirgan holda undiriladi. Ko'p mamlakatlarda shaxsiy daromad solig'i stavkalari 15% dan 40 % ga qadar doirada o'zgaradi.

Korxonalar daromad (foyda) solig'iga odatda yuridik shaxslar tortiladi. Odatda qishloq xo'jaligi korxonalari pasaytirilgan soliq stavkalariga egadir. Daromad (foyda)ga soliq u korxona tomonidan o'z ehtiyojlari uchun taqsimlanishiga qadar solinadi. 80-yillardan boshlab amalda barcha mamlakatlarda daromad (foyda) solig'i stavkalarini anchagina qiskartirish tamoyili ko'zga tashlanyapti. Chunonchi, AKShda ular 47% dan 34% ga, Yaponiyada 42% dan 37 ga, Buyuk Britaniyada 52% dan 35% ga qadar pasaytirildi.

Bilvosita solliqlar - narx yoki tarifga ustama ko'rinishida belgilanadigan, tovar va xizmatlardan olinadigan solliqlar. Bilvosita solliqlarga tovarni sotish narxida to'lanadigan yoki tarifga kiritilgan, tovar va xizmatlarga solinadigan solliqlar kiradi, ya'ni bilvosita solliqlarning pirovard to'lovchisi bo'lib tovar iste'molchisi maydonga chiqadi, uning zimmasiga soliq narxda ko'zda tutilgan ustamalar orqali yuklanadi. Mazkur holda korxonalar o'zlari ishlab chiqargan tovarlar va xizmatlarni sotib, soliq summolari hisobga olingan pul summalarini oladilar, so'ngra olingan barcha soliq summalarini tegishli budjetga o'tkazadilar.

Bilvosita soliq solishda davlat amalda yangi qiymatni taqsimlash ishtirokchisiga aylanib, tovar yoki xizmatlarni sotish paytida ushbu qiymatning bir qismiga bo'lgan o'z huquqlarini e'lon qiladi.

Bevosita solliqlardan farq qilib, bilvosita solliqlar bevosita to'lovchining daromadi yoki mulki bilan bog'lanmaydi.

Haqiqatda bilvosita soliqni xaridor-iste'molchi to'laydi. Tovarni ishlab chiqaruvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi shaxs, aslini olganda, soliq yig'uvchi hisoblanadi. Bilvosita solliqlarning kattagina qismi tovar yoki xizmatlarni narxiga kiritiladi.

Bilvosita solliqlar na daromadni, na oilaviy ahvolni hisobga oladi. Barcha fuqarolar, o'z daromadlari miqdoridan qat'i nazar, haqiqatda bilvosita solliqlarni to'laydilar, bilvosita soliq solinadigan hayotiy zarur tovarlarni iste'mol qiladilar va maishiy xizmatlardan foydalanadilar.

Bilvosita solliqlar stavkalari qat'iy (tovar o'lchov birligida) va foizli (tovar narxi muayyan xissada) ko'rinishda bo'ladi. Foizli stavkalar davlatga foydaliroqdir, chunki narx oshirilganda soliq tushumlari ko'payadi. Soliq stavkalarining ko'payishi tovarlar narxida ular xissasining o'sishiga olib keladi.

Bilvosita solliqlar o'z ichiga aksizlar, qo'shilgan qiymat solig'i va bojxona bojlarini oladi.

Stavkalarga bog'liq ravishda solliqlar mutanosib, progressiv va regressiv turlarga bo'linadi.

Mutanosib solliqlar – uning miqdorini tabaqalashtirishni hisobga olmasdan soliq obyektiga bir xilda foizli nisbatda amal qiladi.

Progressiv solliqlarning o'rtacha stavkasi daromad oshishiga qarab oshib boradi.

O'rtacha stavkasi daromadning oshishiga qarab pasayib boradigan solliqlar *regressiv solliqlar* deb ataladi.

Nazorat savollari.

- 1. Solliqlarning deganda qanday kategoriya tushuniladi?**
- 2. Solliqlarning mohiyati nimadan iborat?**
- 3. Solliqlar qanday funksiyalarni bajaradi?**
- 4. Bevosita va bilvosita solliqlarning mohiyatini tushuntirib bering.**
- 5. Solliqlar qanday mezonlar bo'yicha turkumlanishi mumkin?**
- 6. O'zbekiston Respublikasining soliq tizimiga xarakteristika bering.**

7-mavzu. Mahalliy budjetlar va budjetlararo munosabatlar /2 soat/

Reja


1. Mahalliy budjetlar tushunchasi
2. Mahalliy budjetlarning daromadlari va xarajatlari
3. Budjetlararo munosabatlarning mazmuni
4. Budjetlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar

1. Mahalliy budjetlar tushunchasi

Mahalliy moliya - davlat moliya tizimining muxim zvenosi hisoblanadi. Davlat budjeti respublika budjeti, Qoraqalpogiston Respublikasi budjeti hamda mahalliy budjetlarni o'z ichiga oladi. *Mahalliy budjetlar* O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining muhim va ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. So'ngi yillarda mahalliy budjetlarga e'tibor yanada kuchaymoqda.

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «... markaziy va yuqori davlat boshqaruv organi idoralari vazifalarini davlat hokimiyatining quyi tuzilmalariga fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkaza borishni ta'minlash»¹ zarurdir.

Mahalliy budjetlarning mavqeini yanada oshirish hukumatimizning budjet siyosatini samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan muhim omil ekanligi shubhasizdir, bu borada ularni yanada ko'llab-kuvvatlashga harakat qilinmokda. Bu budjetlarning rejasini shakllantirish va mablag'larini xarajat qilish miqdori viloyat, tuman, shahar hokimiyat organlari tomonidan tasdiqlanadi. Mahalliy budjetlar orqali hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini moliyaviy mablag'lari bilan ta'minlab boriladi. Mahalliy budjetlar O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti tuzilishining asosiy qismi sifatida o'zida 14 ta mustaqil budjetni mujassamlashtiradi (23-rasm).



23-rasm. O'zbekiston Respublikasining mahalliy budjetlari

¹ Karimov I. A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. /Xalq so'zi. 2002-yil 30-avgust.

Biz bilamizki, budjet iqtisodiy ishlab chiqarish hosilasi, u nimani va qancha yaratsa shunga qarab shakllanadi. Uning mavjudligi iqtisodiy zarurat va buni ijtimoiy ne'matlarni takroran yaratilib turilishi yuzaga keltiradi. Budjet iqtisodiyotga davlat tomonidan ta'sir etishning faol vositasi hisoblanadi. U iqtisodiyotni o'sishiga qayta ta'sir etganda, ishlab chiqarish resurslarini rivojlantirishni budjetdan moliyalashtirish orqali yuz beradi.

Makroiqtisodiyotdagi real aylanishda davlat uz tovar va xizmatlari bilan ishtirok etsa, moliyaviy aylanishda budjetdagi puli bilan ishtirok etadi. Oddiy qilib aytganda, mahalliy budjet ishlab chiqarishning yakuniy natijalarini aholiga yetkazishning asosiy kanallaridan biri hisoblanadi. Mazkur budjetlar orqali markazlashgan jamg'armalar aholining ayrim qatlamlari o'rtasida taqsimlanadi.

Mahalliy budjetlardan ishlab chiqarish sohasining tarmoqlari, birinchi navbatda, oziq-ovqat va mahalliy sanoat, kommunal xo'jalik va aholining turmush kechirishi uchun zurrur bo'lgan aholiga xizmat ko'rsatish sohasi moliyalashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasining hokimiyat va boshqaruv, markaziy va mahalliy idoralari amalga oshiradigan moliyaviy faoliyat ular oldiga ko'ygan maqsad va vazifalarga, berilgan vakolatlarga muvofiq turli shaklda amalga oshiriladi. Mahalliy xokimiyat idoralari hokimlar, xalq deputatlari kengashlari uz vakolatlari doirasida mahalliy moliya faoliyatini amalga oshiradilar. Mahalliy davlat hokimiyat idoralarining moliyaviy faoliyati moliyaviy masalalar sohasidagi qarorlar, farmoyishlar chiqarish, tegishli budjetlarni tasdiqdash va ijrosini ta'minlash, o'z hududidagi davlat idoralari, korxonalari, tashkilotlar, moliyaviy faoliyatini nazorat kilish, muvofikdashtirish, tegishli ma'muriy-hududiy birlik ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlovchi tadbirlar ishlab chikish, ularni moliyalashtirish, pul-kredit siyosatini amalga oshirish kabi shakllarda amalga oshadi.

Moliyaviy faoliyati amalga oshiruvchi barcha davlat idoralari qanday darajada bo'lishidan, vakolatlari doirasidan qat'iy nazar mamlakat iqtisodiy va moliyaviy qudratini oshirish, iqtisodiy barqarorlikni va rivojlanishni ta'minlash, mahalliy moliyani mustahkamlash yo'lida harakat qiladi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 7-moddasida aytilishicha, O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidangina amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga va uning asosida chikarilgan boshqa qonunlarga muvofiq davlatning moliyaviy faoliyati uning hokimiyat, boshqaruv hamda mahalliy xokimiyat idoralari tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga va boshqa krnunlarga muvofiq davlat idoralari tomonidan mahalliy moliyani boshqarish davlat va jamiyat manfaatlariga xizmat qiluvchi bir qator tamoyillarga, yetakchi kridalarga muvofiq ravishda olib borilishi lozim. Bu tamoyillar moliya, kredit, soliq va bank sohasidagi qonunlarda belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 2-sentabrdagi «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonunda mahalliy davlat xokimiyat idoralarining moliyaviy faoliyati asoslari belgilab qo'yilgan. Davlat idoralari tomonidan moliyaviy faoliyatning amalga oshirilishida quyidagi tamoyillarga amal qilinadi. Davlat moliya idoralari bilan o'zaro munosabatlar davomida barcha korxonalar, birlashmalar, fuqarolar ham qonunlarga qat'iy amal qilishlari lozim. Qonuniylik tamoyiliga amal qilish moliyaviy munosabatlar barqarorligini ta'minlash, davlat moliya faoliyatidan ko'zlangan maqsad va vazifalarning bajarilishiga erishish, okibatda davlat moliyaviy va iqtisodiy kudratining, qolaversa, mustaqillikning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Moliyaviy faoliyat turli darajadagi davlat hokimiyati va boshqaruv idoralari tomonidan amalga oshiriladi. Davlat moliyaviy faoliyatini amalga oshiruvchi idoralarning huquqiy holatlari va ularga yuklatilgan vazifalar ularga taallukdi krnunchilik hujjatlarida belgilab qo'yilgan.

«Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonunda viloyat, tuman, shahar hokimlari tomonidan amalga oshiriladigan moliyaviy faoliyat bu sohada mahalliy idoralarga berilgan vakolatlar va ularning huquqiy holati belgilab qo'yilgan. Mahalliy davlat idoralari tarkibidagi Moliya boshqarmalari va moliya bo'limlarining huquqiy holatlari belgilangan tartibda ular to'g'risidagi tasdiqdangan nizomlarga kura belgilanadi.

Mahalliy boshqaruv organlarining rolini oshirish bevosita ularni moliya-budjet huquqlarini oshirishni, ularga yuklangan vazifalarni amalga oshirishda yetarli mablag'lar bilan ta'minlashni talab etadi. Mamlakatimiz demokratik Davlat kurilishini uz oldiga vazifa kilib kuygan ekan, bunda mahalliy o'z-o'zini boshqarish muhim o'rin tutadi. Mahalliy boshqaruv organlarining rolini oshirish bevosita ularni moliya-budjet huquqlarini oshirishni, ularga yuklangan vazifalarni amalga oshirishda yetarli mablag'lar bilan ta'minlashni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezedenti I.Karimov ma'ruzasida bayon qilganidek: "Bugungi kunda mamlakatimizni, avvalo, iqtisodiyotimizni isloh etish, erkinlashtirish va modernizatsiya qilish, uning tarkibiy tuzilishini diversifikatsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan, har tomonlama asosli va chuqur o'ylangan siyosat bizni inqirozlar va boshqa tahdidlarning salbiy ta'siridan himoya qiladigan kuchli to'siq, aytish mumkinki, mustahkam va ishonchli himoya vositasini yaratdi".¹

Respublikamizda qabul qilingan ijtimoiy dasturlarni, birinchi navbatda aholining ijtimoiy nochor tabaqalarini aniq tarzda qo'llab-quvvatlash, sog'lom avlodni tarbiyalash, turli ijtimoiy dasturlarni ro'yobga chiqarish asosida aholi farovonligini oshirishga qaratilgan ijtimoiy siyosatning ta'sirchanligi va aniq tarzda qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishda mahalliy budjetlarni rolini yanada oshirmoqda.

Mahalliy budjet mablag'larning egasi sifatida amaldagi me'yoriy xujjatlarga asoslanib, umumiy hajmi budjet qonunchiligida belgilangan miqdorda pul mablag'larini ajratadi. Mahalliy budjet xarajatlariga mablag'lar ajratish davlat hokimiyati, davlat boshqaruv organlari, moliya-kredit idoralari tizimi orqali tegishli mablag'larga ehtiyoj sezilgan paytdan (moliya yilidan) boshlab ularni sarf xarajat qilgunga qadar bo'lgan butun davr mobaynida yuz beradi.

Mahalliy budjet obyektiv iqtisodiy kategoriya bo'lib, ikki tomonlama xususiyatga ega. Birinchidan, u iqtisodiyot tarmoqlarini moliyaviy ta'minlashga qaratilgan xarajatlardan iborat. Ikkinchidan, esa bu xarajatlar korxonalarning daromadidan tashkil topadi.

Rivojlangan mamlakatlarda mahalliy budjet mustaqil ravishda mahalliy soliqlar va yig'imlar hisobiga shakllantiriladi. Bizning respublikamizda ham mahalliy budjet daromadlarini mahalliy soliqlar va yig'imlar tashkil etadi. Mahalliy budjetlar umumdavlat iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarini amalga oshirishda, birinchi navbatda, ijtimoiy infrastrukturani saqlash va rivojlantirishga davlat mablag'larini taqsimlashda alohida ahamiyatga ega.


Mamlakat budjetining tuzilishi birinchi navbatda davlat tuzilishiga bog'liq bo'ladi. Unitar tuzilishga ega bo'lgan mamlakatlarda budjet tizimi ikki bosqichdan, davlat budjeta va mahalliy budjetlardan iborat. Federal tuzilishga ega bo'lgan mamlakatlarda budjet tizimi uch bugindan iborat. Mahalliy budjetlar davlatning moliya tizimini asosiy tarkibiy kismini tashkil etadi. Mahalliy budjetlar xarajatlarida asosiy o'rinni ijtimoiy-madaniy tadbirlar xarajatlari egallaydi.

Hammamizga ma'lumki, aholini ijtimoiy himoyalash masalasining ustuvorligi O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy jihatdan himoya qilish bozor iqtisodiyotiga o'tish dasturining eng ustuvor yo'nalish sifatida tan olindi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ilgari surilgan bozor munosabatlariga o'tishning besh tamoyilidan biri - aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat yuritish hisoblanadi. Shu sababli mahalliy budjetdan aholining kam ta'minlangan qatlamlariga to'lanayotgan ijtimoiy to'lovlar hajmi oshib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasida budjet ijrosining amaldagi holatidan kelib chiqqan holda, mahalliy budjetlarning xukumatning iqtisodiy-ijtimoiy siyosatini amalga oshirishda mavqeini yanada ko'tarishga sabab bo'layotgan qator omillarni ajratib ko'rsatish mumkin. Masalan, mahalliy moliya organlarining budjet ijrosidan manfaatdorligini oshirish va shuning asosida budjet xarajatlarini to'g'ri va oqilona tarzda sarflanishi va budjet tushumlarining yangi manbalarini qidirib topishga rag'batlantirishni ta'minlashdir.

¹ "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi". Prezident Islom Karimovning 2008-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. Toshkent, 14-fevral 2009-yil.

Bugungi kunda mahalliy budjetlarning huquqiy asoslarini quyidagilar tashkil etadi (24-rasm).



24-rasm. Mahalliy budjetlarning huquqiy asoslari

O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 14-dekabrdagi kabul qilingan «Budjet tizimi to'g'risida»gi Qonunining 4-moddasida budjet tizimiga quyidagicha ta'rif berilgan. «Budjet tizimi turli darajadagi budjetlar va budjet mablag'lari oluvchilar yig'indisini, budjetlarni tashkil etishni va tuzish tamoyillarini, budjet jarayonida ular o'rtasida, shuningdek, budjetlar hamda budjet mablag'lari oluvchilar o'rtasida vujudga keladigan o'zaro munosabatlarni o'zida ifodalaydi»¹. Jamlangan budjetning ko'rsatkichlari mamlakat markazlashtirilgan moliyaviy fondidan foydalanish va uni shakllantirishni taxdil qilishda muhim o'rinni egallaydi.

O'zbekiston Respublikasi jamlangan budjetining ko'rsatkichlari yordamida mamlakatda tuziladigan va davlat moliyaviy balansida aks ettiriladigan moliyaviy resurslarni markazlashtirish darajasi anikdanadi. Jamlangan budjet ko'rsatkichlari hisobisiz moliyaviy rejalashtirishni umumlashtirish mumkin emas, chunki davlat moliyaviy balansini va hududiy moliyaviy balanslarning ko'pgina ko'rsatkichlari jamlangan budjetdan olinadi. O'zbekiston Respublikasining budjet tizimi ikki bo'g'indan iborat.

O'zbekistonda mahalliy budjet daromadlari va xarajatlarini muvofiqlashtirish hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida respublika va uning hududlarining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Markazlashtirilgan rejalashtirish tizimidan bozor iqtisodiyotiga o'tish birinchi navbatda boshqaruv tizimi tarkibini o'zgartirishni va bu jarayonlar davomida mahalliy boshqaruv organlarining rolini oshirib borishni talab etadi.

Mahalliy boshqaruv organlariga yuklatilgan vazifalarni samarali amalga oshirilishi ularning moliyaviy mablag'larga ega bo'lishlari bilan bog'liq. Albatta, mahalliy boshqaruv organlari faoliyatining asosiy moliyaviy negizi - *mahalliy budjetlar* hisoblanadi. Davlat budjeti tarkibida Respublikasi budjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar, Toshkent shahri budjetlari, shuningdek, davlat maqsadli jamg'armalari jamlanadi.

¹ O'zbekiston Respublikasining «Budjet tizimi to'g'risida»gi qonuni. //Xalq so'zi. 2000-yil 14-yanvar

Hozirgi sharoitda budget siyosatining ahamiyati, budget jarayonlarida mahalliy budgetlarning roli, mahalliy boshqaruv organlari faoliyati, moliya va budget siyosati masalalari hududiy iqtisodiyot taraqqiyoti va mahalliy budgetlar muammolari hal etishning dolzarb masalalaridir.

O'zbekiston Respublikasida budget tizimini isloh qilish mahalliy budgetlarni samarali boshqarishning hozirgi kundagi amaliyoti va nazariyasi oldiga uning qator yangi muammolariga yechim topishni ko'ndalang qo'yimoqda.

Mahalliy budgetlar Davlat budgetining asosini tashkil etganligi uchun mahalliy budgetlar daromadlarni oshirish mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojiga juda katta hissa qo'shish bilan bir qatorda xalqimiz farovonligining oshishiga hamda mamlakatimizning rivojlangan davlatlar qatoriga tezroq qo'shilishiga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi budget tizimida muhim tarkibiy qismni mahalliy budgetlar tashkil etadi. Mahalliy budgetlar davlatning iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarini amalga oshirishda, birinchi navbatda, davlat mablag'larini taqsimlash va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Bizning fikrimizcha, budgetga «bu - turli darajadagi markazlashtirilgan pul mablag'lari fondini vujudga keltirish, taqsimlash va foydalanishga oid asosiy moliyaviy reja bo'lib, u tegishli davlat yoki mahalliy idora tomonidan ishlab chiqiladigan hamda tasdiqlanadigan yuridik hujjatdan iborat»¹ deb ta'rif berilishida aynan mahalliy budgetlarning o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'ladi.

Budget asosiy moliyaviy reja sifatida tegishli hududning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotining barcha sohalari va yo'nalishlarini to'la qamrab oladi. Mahalliy budgetlar mahalliy hokimiyatning faoliyat ko'rsatishlarida moliyaviy manba bo'lib hisoblanadi, davlatning ijtimoiy siyosatini joylarda amalga oshirishda asosiy rol o'ynaydi.

Moddiy ma'noda budget-tegishli darajadagi davlat va mahalliy xokimiyat idoralari faoliyatini ta'minlovchi, ular oldiga qo'yilgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy vazifalarni bajarish imkonini beruvchi markazlashtirilgan pul mablag'lari fondidan iboratdir. Davlat tomonidan rejalashtirilgan tadbirlarni budget xisobidan moliyaviy ta'minlash deganda budgetning aynan ana shu moddiy ma'nosi ko'zda tutiladi.

Budget huquqiy kategoriya sifatida-tegishli hudud doirasida markazlashtirilgan pul mablag'larini shakllantirish, taqsimlash, foydalanishga qaratilgan va tegishli davlat yoki mahalliy hokimiyat idorasi tomonidan tasdiqlangan, xukukiy me'yorlardan iborat asosiy moliyaviy rejadir.


Ma'lumki, hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy va boshqa mexanizmlar bilan tartibga solinadi. Davlat bozor iqtisodiyotining samarali faoliyat ko'rsatishi uchun asos bo'ladigan ayrim xizmatlarni va huquqiy bazani ta'minlash vazifalarini bajaradi. Huquqiy bazalarni ta'minlash yuridik va jismoniy shaxslarga huquq berish va ularni majburiyatlarini belgilash va boshqa sohalarida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, mahalliy budgetlarni samarali boshqarish, huquqiy va iqtisodiy me'yorlarni belgilash va korxonalarning faoliyat ko'rsatishlari uchun tartib-qoidalarini ishlab chikish tegishli davlat tashkilotlarining asosiy vazifasi bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining mustakillikka erishishi va ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sari yo'l tutishi davrida mahalliy budgetlarning respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi roli yanada oshdi. Shunday ekan, mahalliy budget daromadlarini shakllantirish hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida respublika va uning hududlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mahalliy budgetlar tizimi mahalliy ehtiyojlarni to'laroq hisobga olish va ularni davlat markazlashtirilgan tartibda amalga oshiradigan chora-tadbirlar bilan to'g'ri muvofiqlashtirish imkonini beradi. Shuning uchun mahalliy hokimiyat organlari mahalliy budgetga daromadlar kelib turishini va resurslardan maqsadli foydalanishdan manfaatdorlar, chunki joylarda iqtisodiyot va madaniyatning o'sish sur'atlari mahalliy zaxiralarni safarbar etishga, mablag'larni rejali sarflashga doir ishlarni tashkil etishga bevosita bog'liq bo'lib, bu esa, o'z navbatida, O'zbekiston Respublikasining davlat budgetini muvaffaqiyatli bajarishga imkon yaratadi. O'zbekiston

¹ Yo'ldoshev, Y. Tursunov. «Moliya huquqi». Toshkent. «Mehnat». 1999. -246.

Respublikasi budget tizimining har bir bo‘g‘ini u yoki bu ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun mo‘ljallangan turli pul jamg‘armalarini tashkil etish, taqsimlash va ulardan foydalanishga qaratilgan o‘ziga xos vazifalarni bajaradi (25-rasm).



25-rasm. Mahalliy budgetlarning vazifalari

Mahalliy davlat xokimiyat idoralarining moliyaviy faoliyati moliyaviy masalalar sohasidagi qarorlar, farmoyishlar chiqarish, tegishli budgetlarni tasdiqlash va ijrosini ta'minlash, o'z hududidagi davlat idoralari, korxonalari, tashkilotlar, moliyaviy faoliyatini nazorat qilish, muvofiqlashtirish, tegishli ma'muriy hududiy birlik ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlovchi, tadbirlar ishlab chiqish, ularni moliyalashtirish, pul-kredit siyosatini amalga oshirish kabi shakllarda amalga oshadi.

Budget tamoyillarining barchasi budget barkororligini ta'minlash va xo'jalik sohalari, iqtisodiy hududlar o'rtasida mablag'larni taqsimlash, zarur nisbatlarni (proporsiyalarni) tashkil qilish, budget xarajatlarini daromadlariga moe balanslashtirish, moliyaviy rezervni tashkil kilish uchun xizmat kiladi. Bu esa davlat moliyaviy siyosatining bosh maqsadidir. Albatta, ushbu ishlarni amalga oshirish asosan mahalliy budgetlar mablag'lari hisobiga amalga oshirilayotganligidan hammamiz xabar dormiz.

Aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi va ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sari yo'l tutishi davrida mahalliy budgetlarning respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi roli yanada oshadi. Shunday ekan, mahalliy budget daromadlarini shakllantirish va xarajatlarini moliyalashtirish hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida respublika va uning hududlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Mahalliy budgetlarning daromadlari va xarajatlari

O'zbekiston Respublikasida mahalliy budgetlarga *biriktirilgan daromadlar*, mahalliy soliq va tushumlardan hamda har yili yangi budget yili uchun davlat budgetini tasdiqlash mobaynida davlat tomonidan mahalliy budgetlarga biriktirilgan daromadlardan tashkil topadi. Mahalliy budgetlarga biriktirilgan daromadlarning ko'p qismini, avvalambor, *mahalliy soliq va yig'imlar* tashkil qiladi.

Mahalliy soliqlar va yig'imlar mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish manbaini vujudga keltirish, tabiiy va boshqa resurslarni qayta ishlab chiqarish, davlat hokimiyati va boshqaruvi mahalliy idoralarining faoliyat ko'rsatishi uchun shart-sharoit yaratish maqsadini ko'zlaydi. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksini 23-moddasida O'zbekiston Respublikasi hududida

amal qiladigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar turlari keltirib o'tilgan bo'lib, ulardan quyidagilari mahalliy budjetlarning daromadlarini shakllantirish maqsadida ularga *biriktirilgan*:

1. Mol - mulk solig'i;
2. Er solig'i;
3. Avtotransport egalaridan benzin, dizel yoqilg'isi va suyultirilgan gazdan foydalanganlik uchun soliq;
4. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;
5. Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im.

Iqtisodiy islohotlarni yangi bosqichida va uning chuqurlashuvida mahalliy hokimiyat organlarining davlat boshqaruvidagi, mahalliy budjetlarning hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish-dagi rolini oshirish, mahalliy budjetlarni o'z daromad bazalarini yanada mustahkamlab borishini talab qiladi.

Mahalliy budjetlarning daromadlari shuningdek, tartibga soluvchi daromadlardan ham tashkil topadi.

Respublikamizda mahalliy soliqlar va soliqsiz tushumlaridan shakllangan daromadlari mahalliy budjetlar xarajatlarining juda kam qismini qoplaganligi tufayli, mahalliy budjetlar daromadlarining asosiy qismi budjetlararo tartibga solish orqali shakllantiriladi.

Tartibga soluvchi daromadlar - bu yuqori budjetlardan quyi budjetga, ularning daromad va xarajatlarini boshqarib turish (balanslashtirish) maqsadida beriladigan pul mablag'lari majmuasidir. Tartibga soluvchi daromadlarga ushbu maqsadlar uchun ishlatiladigan barcha moliyaviy resurslar, ya'ni alohida umumdavlat ahamiyatidagi soliqlardan o'tkazmalar, dotatsiyalar, subvensiyalar, yuqori budjetdan o'zaro xisob-kitob asosida olingan mablag'lar kiradi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, mahalliy budjetlarning biriktirilgan daromadlari va umumdavlat ahamiyatidagi soliqlardan beriladigan ajratmalardan tushumlari ularning xarajatlarini qoplashga yetmaydi. Mahalliy budjetlarga yuqori budjetdan beriladigan dotatsiya va subvensiyalar hajmini kamaytirish uchun budjet bo'g'inlari o'rtasidagi xarajat vakolatlari taqsimotini ham qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining "Budjet tizimi to'g'risida" qonuning 19-moddasiga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlar xarajatlari tasdiqlangan budjetdan mablag'lar ajratish doirasida quyidagicha amalga oshiriladi:

- 1) Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy budjetlardan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlarining joriy xarajatlari shaklida;
- 2) joriy budjet transfertlari shaklida;
- 3) kapital xarajatlari shaklida:
 - asosiy fondlar va vositalarni (ular bilan bog'liq ishlar va xizmatlar ham shular jumlasiga kiradi) davlat ehtiyojlari uchun olish va takror ishlab chiqarishga;
 - davlat ehtiyojlari uchun yerga bo'lgan huquqni va boshqa nomoddiy aktivlarni olishga;
- 4) qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa xarajatlari shaklida.

O'zbekiston Respublikasining "Budjet tizimi to'g'risida" qonuning 23-moddasiga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetidan va mahalliy budjetlardan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda quyidagilarga mo'ljallangan xarajatlari moliyalashtiriladi:

- 1) fan, ta'lim, madaniyat, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport (Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar budjetlaridan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlari bo'yicha);
- 2) ijtimoiy ta'minot;
- 3) aholini ijtimoiy himoya qilish;
- 4) Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini ta'minlash;
- 5) iqtisodiyot turli tarmoqlarining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar budjet tashkilotlarini saqlash;

6) qonun hujjatlariga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning maqsadli dasturlari va tadbirlarini amalga oshirish;

7) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa maqsadlar.

Hozirgi vaqtda muhim muammolardan biri bo'lib, ijtimoiy-madaniy tadbir xarajatlari sohasida o'z aksini topgan aholining ijtimoiy ehtiyojlarini va ularni moliyalashtirish manbalari o'rtasidagi muvozanatni aniqlash hisoblanadi. Hozirgi paytda mahalliy budjet mablag'larini ijtimoiy sohaga yo'naltirishni kuchaytirish zarurdir. Bu o'rinda davlat ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, ijtimoiy ta'minotni rivojlantirishga hamda aholining eng kam ta'minlangan va muhtoj tabaqalarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan milliy dasturlarni moliyalashtirishni o'z zimmasiga olmog'i lozim. Shu bilan birga, bozor munosabatlarini shakllantirish davomida ijtimoiy-madaniy talablarga budjet xarajatlarining turlari oshib boradi.

Hozirgi davrda davlat bajarishi lozim bo'lgan muammolardan biri aholini ijtimoiy himoyalashdir. Shuning uchun ham bu masalaga respublikamizda asosiy e'tibor qaratilgandir. Bizning asosiy vazifamiz, maqsadimiz ijtimoiy-madaniy tadbirlar xarajatlarining mahalliy budjet orqali moliyalashtirilishini tahlil etishdan iboratdir. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov qayd etganlarideq "Budjet mablag'laridan aslo kechiktirib bo'lmaydigan ehtiyojlarni avvalo, ijtimoiy sohani, yangi tarkibiy yo'nalishlarini pul bilan ta'minlash uchungina foydalanish maqsadga muvofiqdir".¹ Ushbu masalani xal etish uchun, avvalo mahalliy budjet xarajatlari tuzilishini tahlil etish lozim.

O'zbekistan bozor iqtisodiga o'tish jarayonida davlat tomonidan hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda yuzaga kelgan nomutanosiblikni bartaraf etishga katta e'tibor berilmoqda.

Bu o'z navbatida mahalliy budjetlarning ijtimoiy -iqtisodiy rivojlanish uchun davlat tomonidan ajratiladigan kapital quyilmalarning hajmini oshishiga olib kelmoqda.

Budjet mablag'laridan maqsadli foydalanish nuqtai nazaridan iqtisodig'ni rivojlantirish uchun kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish xarajatlari xozirgi kunda muhem ahamiyatga egadir. Kapital ko'yilmalarni moliyalashtirish bu turli ishlab chiqarish va noishlab chiqarishga mo'ljallangan asosiy fondlarni yangilarini yaratish, amal qilinayotganlarini kengaytirish, tiklash va texnik qayta jihozlashga pul mablag'larini berishdir.

Budjet mablag'larining cheklanganligi tufayli pul mablag'lari faqatgina maxsus qurilish ro'yxatiga kiritilgan qurilish obyektlari doirasida taqsimlanadi. Qurilish va obyektlar bo'yicha kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish bir yoki bir nechta manbalar hisobiga amalga oshirilishi mumkin.

Qaytarib bermaslik sharti asosida davlat markazlashtirilgan investitsiyalarni budjet mablag'lari hisobiga davlat ehtiyojlari tasdiqlangan qurilish obyektlari ro'yxatiga muvofiq moliyalashtiradi.

Bozor munosabatlari shakllanib borgani sari boshqaruv xarajatlari qisqarib boradi. Bu borada respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov "O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishiing o'ziga xos yuli" asarida quyidagi so'zlarni aytgan edilar: "Boshqaruvga sarflanadigan xarajatlarni kamaytirish - budjet yetishmovchiligini tugatishning asosiy manbalaridan biridir"

3. Budjetlararo munosabatlarning mazmuni

Budjetlararo munosabatlar – bu respublika davlat hokimiyati organlari va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi budjetli huquqiy munosabatlarni, budjet jarayonini tashkil qilish va amalga oshirishni tartibga solish masalalari bo'yicha o'zaro munosabatlar. Budjetlararo munosabatlar ma'muriy-hududiy bo'linmalari bo'lgan har qanday davlatda tashkil etiladi, biroq ular har xil tamoyillar asosida qo'rinishi mumkin.

¹ I. A. Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sagasi, havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: O'zbekiston, 2001, 225-b.

Davlatning yaxlit moliyaviy siyosati moliya tizimining barcha bo‘g‘inlari, jumladan budjet tizimining va uning takibiy qismi bo‘lmish mahalliy budjetlarning ham yagona qonunchilik asosida tegishli moliyaviy-iqtisodiy sharoitlarning yaratilishi bilan to‘liq amalga oshirilishi lozim. Shu tufayli moliyaviy siyosatning ixtiyoriy sohasiga tegishli bo‘lgan u yoki bu qarorning qabul qilinishi, mahalliy budjetlar faoliyatining asoslariga ma’lum ma’noda tegishli bo‘ladi.

Har qanday davlatda boshqaruv tizimining xususiyatiga qarab, budjet tizimining tarkibi qonuniy tarzda belgilanadi. Shunga ko‘ra federativ davlatlarda 3 bo‘g‘inli budjet tizimi amal qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida qayd qilinishiga ko‘ra mamlakatda 2 bo‘g‘inli budjet tizimi amal qiladi. Bularga Respublika budjeti va mahalliy budjetlar kirishi ko‘rsatilgan.

Budjet tizimining bo‘g‘inlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik budjetlararo munosabatlar mexanizmi orqali tashkil qilinadi. Davlat budjeti mablag‘lari turli darajadagi budjetlar o‘rtasida quyidagicha taqsimlanadi:

1. Umumdavlat ahamiyatidagi soliqlar va boshqa daromadlardan ajratmalar;
2. Budjet dotatsiyalari;
3. O‘zaro hisob-kitoblar va sxemalar;
4. Budjet ssudalari;
5. Budjet subvensiyalari.

Turli darajadagi budjetlar o‘rtasida budjetlararo munosabatlar quyidagi holatlarda kuzatiladi:

- yuqori budjetlardan quyi budjetlarga budjet dotatsiyalari berish;
- yuqori budjetlardan quyi budjetlarga budjet ssudalari ajratish;
- budjet ijrosi jarayonida o‘zaro hisob-kitoblar bo‘yicha paydo bo‘lgan qarz mablag‘larni quyi budjetdan yuqori budjetga yoki yuqori budjetdan quyi budjetga yo‘naltirish.

Ma’lumki, ***budjet dotatsiyalari*** – quyi budjetning o‘z daromadlari va tartibga soluvchi boshqa mablag‘lar yetishmagan taqdirda, xarajatlari bilan daromadlari o‘rtasidagi farqni qoplash uchun yuqori budjetdan qaytarib olmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag‘laridir.

Budjet ssudalari – quyi budjetlarning daromadlari va xarajatlari o‘rtasidagi vaqtinchalik tafovutni qoplash uchun yuqori budjetdan qaytarib berish sharti bilan ajratiladigan pul mablag‘laridir.

Budjet subvensiyasi - qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori budjetdan quyi budjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag‘lari.

Budjet transferti - budjetdan yuridik yoki jismoniy shaxsga bevosita yoxud vakolatli organ orqali ajratiladigan qaytarilmaydigan pul mablag‘lari.

O‘zaro hisob-kitoblar - mablag‘larni yuqori budjetdan quyi budjetga, shuningdek quyi budjetdan yuqori budjetga yunaltirish.

Shuni ta’kidlash lozimki, yuqori budjetdan dotatsiya va ssudalar yuqori budjetning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Shu sababli, daromadlar va xarajatlarni to‘g‘ri rejalashtirish muhimdir.

Budjet ijrosining qanday bajarilishi xarajatlarni qoplash manbalarining to‘g‘ri belgilanishiga uzviy bog‘likdir.

Budjetlararo munosabatlarning shakllanishida daromadlar va xarajatlar rejasining taqsimlanishi hamda rejaga kiritiladigan o‘zgarishlar muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ushbu taqsimot obyektiv omillarga asosan tashkil topishi kerak.

Budjet ijrosi davomida mahalliy budjetlar ijrosi hududlar bo‘yicha keskin farqlanishi kuzatiladi, bu esa o‘z navbatida o‘zaro hisob-kitoblar yuritilishini taqazo qiladi.

Daromadlar va xarajatlar rejasiga o‘zgartirishlar kiritish natijasida budjetlar o‘rtasida o‘zaro hisob-kitoblar bo‘yicha yuzaga keladigan qarzдорliklarni o‘z vaqtida muvofiqlashtirish ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki o‘zaro hisob-kitobdan qarzniing vaqtida berilmasligi o‘z-o‘zidan haqi bor budjetda tegishli xarajatlarni o‘z vaqtida amalga oshirilmasligiga ta’sir etadi.

«Budjet tizimi to‘g‘risida»gi qonunga va tegishli me’yoriy yo‘riqnomalarga asosan, budjetlar o‘rtasidagi o‘zaro hisob-kitoblar bo‘yicha yuzaga kelgan qarzдорliklarni muvofiqlashtirish

yuqori budjetning quyi budjetga o‘zaro hisob-kitobdan qarzi yuzaga kelsa va quyi budjet ssuda bo‘yicha qarzdor bo‘lsa ushbu qarzlarni hisob-kitob qilinishi mumkin. Agarda quyi budjet ssuda yoki o‘zaro hisob-kitob bo‘yicha qarzdor bo‘lsa, ushbu budjet dotatsiya oluvchi budjet bo‘lgan holatda, qarzini dotatsiya hisobidan kamaytirish mumkin.

Yil oxirida o‘zaro hisob-kitoblarni bo‘yicha qarzdorliklarga yul ko‘yilmaydi, ya’ni kelgusi yil 1-yanvar holatiga budjetlar o‘rtasidagi qarzdorlik to‘liq yopiladi.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, daromadlar va xarajatlar rejasini to‘g‘ri taqsimlash, rejaga kiritilayotgan har qanday o‘zgartirishlarni obyektiv bo‘lishini ta’minlash, o‘zaro hisob-kitoblarni bo‘yicha yuzaga keladigan qarzdorliklarni o‘z vaqtida tugatish budjet ijrosini sifatli bajarilishiga olib keladi.

Budjetlararo aloqalar quyidagi *tamoyillar* asosida yo‘lga qo‘yiladi.

- o‘zaro javobgarlik;
- barcha budjetlarni to‘ldirishning yagona usulini qo‘llash;
- hududlar daromadini tenglashtirish;
- budjetlar o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlarni maksimal darajada qisqartirish;
- mahalliy budjetlarni hukumat qarori asosida to‘ldirib borish;
- mahalliy hokimiyatlarni o‘zlarining budjetlar daromadini oshirishiga qiziqishini kuchaytirish;
- budjetlararo munosabatlar oshkoraligini ta’minlash.

4. Budjetlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar

Respublikamizda budjetlararo munosabatlarni tartibga solish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda boshqa tegishli vazirliklar tomonidan qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan. Budjetlararo munosabatlarning asosini belgilagan birinchi hujjat bu O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasidir. Konstitutsiyaning 122-moddasida Davlat budjetining tarkibi belgilab berildi.

Hozirgi vaqtda 2001-yilning 1-yanvaridan kuchga kiritilgan «Budjet tizimi to‘g‘risida»gi qonun amal qilmoqda. Ushbu qonun budjet tizimining tarkibi va boshqaruvining asoslarini, tuzilish tamoyillarini va Davlat budjetining tarkibini, uning tuzilishi va ijro etilish tartibini, daromadlar shakllanishining va xarajatlarni amalga oshirishning tamoyillarini qamrab olgan, shuningdek turli darajadagi budjetlararo munosabatlar mexanizmi aniqlab berilgan, Davlat budjetining mablag‘lari bilan muomala qilish ustidan nazorat va hisobot tartibi belgilab berilgan.

Qonunga asosan Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlar uchun quyidagilarga yo‘l ko‘yilmaydi:

- budjet taqchilligi;
- qonunda ko‘zda tutilmagan manbalar hisobidan jamg‘armalar tuzish;
- yuqori budjetlardan ssudalar olinishidan tashqari o‘zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish;
- qonunda ko‘zda tutilgan holatlardan tashqari budjet xarajatlarini amalga oshirish;
- o‘zga shaxslar foydasiga budjet mablag‘lari hisobidan moliyaviy kafilliklar berish;
- yuridik va jismoniy shaxslarga budjet ssudalarini berish.

Yuqorida sanab o‘tilgan cheklanishlar mahalliy soliqlarning parametrlarini aniqlash bo‘yicha vakolatlarining yo‘qligi bilan bir qatorda mahalliy budjetlar mustaqilligini tasdiqlay olmaydi.

«Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjetiga, mahalliy budjetlarga budjet ssudalarini berish va olingan budjet ssudalarini qaytarish tartibi to‘g‘risida» gi Nizom O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 2001-yil 28-iyunda 58-son bilan tasdiqlangan, Adliya vazirligidan 2001-yil 19-iyulda 1052-son bilan ro‘yxatga olingan. Ushbu nizom bo‘yicha yuqori budjet ssudalari, barcha budjet manbalarining maksimal mobilizatsiyasi birinchi darajali qoldirib bo‘lmaydigan tadbirlarni moliyalashtirish ta’minlanmaganda beriladi.

Yuqori turuvchi budjetdan quyi budjetlarga ssudalar quyidagi muddatlargacha berilishi mumkin:

– rejalashtirilgan va haqiqiy vaqtinchalik kassa uzilishlarini qoplashga – uch kalendar oygacha;

– maqsadli moliyalashtirish sxemalarini amalga oshirishga – bir kalendar oygacha.

Ushbu tartibda quyi budjetlarga ssuda berishda birinchi navbatda yuqori budjetning vakolatlari ustun ekanligi ko‘rinib turibdi, bu bir tomondan to‘g‘ri, chunki beriladigan mablag‘larni o‘z vaqtida qaytishini ta‘minlaydi hamda quyi budjetlarning iloji boricha o‘z imkoniyatlaridan ko‘proq foydalanishga undaydi, lekin shu bilan bir qatorda salbiy tomonini qaraydigan bo‘lsak, ssuda olish jarayoni uchun ko‘proq vaqt sarflanishi mumkin, ya‘ni ssuda olish uchun taqdim qilinadigan hujjatlar hisob-kitobi va qo‘shimcha ma‘lumotlar hajmi e‘tiborga olinsa. Bundan tashqari, ushbu tartibda ssuda o‘z vaqtida keyingi budjet yiliga uzaytirilgan taqdirda to‘lov hajmi, ya‘ni foiz stavkasi ssuda beruvchi moliya organi rahbari tomonidan belgilanishi ko‘rsatilgan. Bu holatga izoh beradigan bo‘lsak, budjetlar bo‘yicha ssuda uchun foiz stavkasini qo‘llash maqsadga muvofiqdir, chunki quyi budjet ssudani imkon darajasida o‘z vaqtida qaytarishga harakat qiladi.

Budjetlararo munosabatlarni barqarorlashtirishning asosiy sharti turli darajadagi budjetlar moliyaviy bazasini shakllantirish jarayonlarini o‘zaro bog‘lashdir.

Ular moliyaviy bazalari har bir budjetning daromadidan tartibga soluvchi, biriktirilgan soliqlar tushumidan, shuningdek yuqori budjetdan beriladigan moliyaviy yordamlardan tashkil topadi.

Barcha soliq tushumlarini hisobga olish maqsadida barcha soliqlarni respublika budjetiga markazlashgan yig‘imi va tushumi amalga oshiriladi. Undan keyin turli budjet bo‘g‘inlar bo‘yicha ularning taqsimoti amalga oshadi.

Budjetlar o‘rtasida daromadlarni qayta taqsimlash nuqtai nazaridan soliqlarning bo‘linishi va ularni budjetning ma‘lum bo‘g‘iniga biriktirilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Har qanday iqtisodiy holatga qaramay davlat o‘z mavjud bo‘lishining eng muhim omili uning o‘z oldida turgan vazifalarini bajarish uchun yetarli bo‘lgan moliyaviy mablag‘ga ega bo‘lishidadir. Bu masalada davlat budjeti tizimining muhim bo‘g‘ini bo‘lgan mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantirishning o‘ziga xos jihatlari mavjud. Bu o‘ziga xoslik mahalliy budjetlarning o‘z hududlari doirasida amalga oshiriladigan vazifalaridan kelib chiqadi.

Budjet tizimi bo‘g‘inlari o‘rtasida umumdavlat pul resurslarini taqsimlash asosida mahalliy budjetlarning mustaqillik tamoyillari, ularning davlat moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tamoyili, manbalar va daromadlarini hududiy shakllantirish tamoyillari yotadi. Ushbu tamoyillardan kelib chiqib mahalliy budjetlarning daromadlari biriktirilgan va tartibga soluvchi daromad manbalari hisobiga shakllantiriladi.

Nazorat savollari.

- 1. Mahalliy moliyani rivojlantirishda mahalliy budjetlarning ahamiyati nimalardan iborat?**
- 2. O‘zbekiston Respublikasining mahalliy budjetlarining tuzilishi qanday?**
- 3. Mahalliy budjetlarning huquqiy asoslarini nimalar tashkil etadi?**
- 4. Mahalliy budjetlar qanday vazifalarni bajaradilar?**
- 5. Mahalliy budjetlarning daromadlari qanday turkumlanadi?**
- 6. Mahalliy budjetlarning biriktirilgan daromadlariga nimalar kiradi?**
- 7. Mahalliy budjetlarning tartibga soluvchi daromadlariga nimalar kiradi?**
- 8. Mahalliy budjetlardan amalga oshiriladigan xarajatlarning mazmuni nimadan iborat?**
- 9. Mahalliy budjetlardan mablag‘lar ajratish qanday shakllarda amalga oshiriladi?**

10. Mahalliy budjetlardan qaysi maqsadlarga mo'ljallangan xarajatlar moliyalashtiriladi?
11. Budjetlararo munosabatlarning mazmuni nimadan iborat?
12. Davlat budjeti mablag'lari turli darajadagi budjetlar o'rtasida qanday taqsimlanadi?
13. Budjetlararo aloqalar qanday tamoyillar asosida yo'lga qo'yiladi?
14. Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlar uchun qanday cheklovlar qo'llaniladi?

8-mavzu. Davlatning budjetdan tashqari maqsadli pul fondlari va davlat krediti /4 soat/

1-ma'ruza. Davlatning budjetdan tashqari maqsadli pul fondlari

Reja

1. Budjetdan tashqari fondlarning ahamiyati va turkumlanishi
2. Budjetdan tashqari fondlarni tashkil etish

1. Budjetdan tashqari fondlarning ahamiyati va turkumlanishi

Bozor munosabatlariga o'tish – iqtisodiy dasturimizning asosiy mazmunini tashkil etadi. Bozor munosabatlariga o'tish insonning ijodiy va mehnat salohiyatini namoyon qilishga, boqimandalikni bartaraf etishga, yo'qolib ketgan egalik tuyg'usini qayta tiklashga imkon beradi. Faqat bozorgina mahsulot ishlab chiqaruvchining hukmini bartaraf etib, respublikaning g'oyat katta boyliklaridan samarali foydalanishni ta'minlay oladi.

Shu borada muhim masalalardan biri: davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish yo'li, yangi paydo bo'layotgan nodavlat, ya'ni ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanayotgan va aholiga xizmat ko'rsatayotgan xususiy, aksionerlik, jamoa va boshqa korxonalarni qo'llab-quvvatlash bilan aralash, ko'p tarmoqli iqtisodiyotni shakllantirishdir. Mamlakatimizda budjetdan tashqari fondlarning ijtimoiy ahamiyati katta. Tadbirkorlikni rivojlantirish, kichik va o'rta biznesni tashkil etish, xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikda bo'lib, investitsiyalarni jalb etish va boshqalar budjetdan tashqari fondlarning vazifasi hisoblanadi.

Davlat moliyasi tarkibida alohida o'rinni egallaydigan budjetdan tashqari fondlar tegishli hukumat organlarining budjetiga bog'liq bo'lmaydi va mustaqil yuridik shaxs huquqiga egadirlar. Budjetdan tashqari fondlar hukumat organlari qabul qilgan qonun doirasida tashkil etiladi.

Budjetdan tashqari fondlar – umumdavlat moliyasining muhim bo'g'ini bo'lib, ularning faoliyati qat'iy belgilangan, manbalarni tashkil etish yo'llari ko'rsatilgan, pul fondlari bilan foydalanish yo'llarining tartibi aniqlab berilgan davlat hukumatini yuqori organlarining tegishli hujjatlari asosida o'z faoliyatini amalga oshiradilar.

Budjetdan tashqari fondlarni:

- Konsolidatsiyalashgan budjetga qo'shiladigan fondlar;
- Konsolidatsiyalashgan budjetga qo'shilmaydigan fondlarga ajratish mumkin.

Funksional jihatiga va boshqaruv darajasiga ko'ra budjetdan tashqari fondlar turli xil bo'ladilar. Ularni funksional jihatiga ko'ra iqtisodiy yoki ijtimoiy fondlarga bo'lish mumkin. Boshqaruv darajasiga qarab esa, umumdavlat va mahalliy fondlarga bo'lish mumkin.

Hozirgi kunda respublikamizda bir nechta budjetdan tashqari fondlar faoliyat ko'rsatmoqda:

- ✚ Pensiya fondi;
- ✚ Bandlik fondi;
- ✚ Yagona yo'l fondi;
- ✚ Davlat Mulki Qo'mitasining maxcyc hisob raqami;
- ✚ Maktab ta'limi tizimini rivojlantirish fondi;
- ✚ Davlatning boshqa maqsadli pul fondlari.

O'zgarishga boy iqtisodiy sharoit ko'pincha boshqaruv qarorlarini tez qabul qilish zarurligini belgilab qo'yadi, shu qatorda moliyaviy resurslarni qayta taqsimlanishida ham. Budjet mablag'laridan foydalanishni hukumat organlari qonun asosida qat'iy tasdiqlab bersa, budjetdan tashqari fondlar esa, ijroiya organlari orqali belgilanadi. Qonun asosida tasdiqlangan budjet parlament tomonidan nazorat qilinadi, budjetdan tashqari fondlar esa, qonun chiqaruvchi organlar tomonidan nazorat qilinmaydi. Bu ham budjetdan tashqari fondlarni iqtisodiy sharoitga operativ moslashishini tezlatadi.

Budjetdan tashqari fondlarni tashkil etilishining zarurligini va maqsadga muvofiqligini ta'minlovchi yana bir muhim omil – bu budjet taqchiligidir. Xarajatlarning daromadlardan o'sib ketishi moliyaviy resurslarni faqat qidirib topishni emas, balki korxonalar, tashkilotlar va aholidan tushgan mablag'larni qayta guruhlanishini ham talab etadi. Va nihoyat xo'jalikni va xususiylashtirishni ko'p qirrali shakllari, budjet shakllari bilan bir qatorda jamiyatda pul mablag'larni qayta taqsimlashni yangi usullarini qo'llash zaruriyatini qat'iy talab etadi.

Shunday qilib, *budjetdan tashqari fondlar* – bu jamiyatning ayrim maqsadli xarajatlarini moliyalashtirish va kompleks ravishda operativ mustaqillik asosida mablag'larni sarflash uchun, davlat orqali jalb qilinadigan moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash va foydalanish usulidir.

2. Budjetdan tashqari fondlarni tashkil etish

Budjetdan tashqari fondlarni tashkil etish manbalari ko'p jihatdan ularning xarakteri va maqsadlarini amalga oshirish uchun belgilangan vazifalarning ko'lamlari bilan aniqlanadi. Manbalarining turli xilligiga va ularning miqdoriga davlat yoki rivojlanishning konkret davridagi iqtisodiy va moliyaviy ahvol ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib, budjetdan tashqari fondlarni tashkil etish manbalari birmuncha doimiy bo'lganday vaqtinchalik xarakterga ham ega bo'ladi. Ular ma'muriy-hududiy birligi bilan ajralib, davlat hududlarida bo'lishi mumkin.

Budjetdan tashqari fondlarga tushadigan mablag'larning foydalanish yo'nalishlari – bu fondlarni maqsadlariga, konkret iqtisodiy sharoitga qarab ishlab chiqilgan va amalga oshiriladigan rejalar asosida belgilanadi. Mablag'larning bir qismi ta'sis faoliyatga yo'naltiriladi hamda qimmatli qog'ozlarni olish uchun ham yo'naltirilishi mumkin. Budjetdan tashqari fondlar investorlar va moliyaviy bozorning qatnashchisi bo'lishi mumkin, chunki:

✓ birinchidan, odatda pul mablag'lari bilan foydalanish vaqti ularning vujudga kelishi bilan to'g'ri kelmaydi;

✓ ikkinchidan, investitsion faoliyat natijasidagi daromadlar tegishli fondlarning xarajatlarini moliyalashtirish uchun qo'shimcha manba bo'ladi.

Budjetdan tashqari fondlarni tashkil etish huquqiga respublika va mahalliy organlar ega. Respublika darajasida tashkil etilgan budjetdan tashqari fondlar odatda mahalliy hukumat organlari ixtiyoriga bir qismini ajratish bilan xarakterlanadi. Bu respublika va mahalliy budjetdan tashqari fondlarga tushadigan to'lovlarning ulushini aniqlash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Bunday yo'l bilan davlatning ijtimoiy sug'urta fondlari, ya'ni Pensiya fondi, aholining bandlik fondi va boshqalar tashkil etiladi.

Davlatning budjetdan tashqari fondlari (BTF) – bu davlat ixtiyoridagi, qat'iy maqsadli yo'nalishga ega bo'lgan moliyaviy resurslar yig'indisi. BTF larni shakllantirish vositasida hokimiyat organlari tomonidan milliy daromadni ahamiyati ma'lum ijtimoiy guruhlar va iqtisodiyotning alohida sohalari manfaatlarida qayta taqsimlash ruy beradi.

BTF O'zbekiston Respublikasi moliya tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi qonunchilik asosida tashkil etiladi. BTF ni tashkil qilishdan asosiy maqsad rivojlanishning ma'lum bosqichida jamiyat uchun muhim bo'lgan ba'zi xarajatlarni mustaqil daromad manbalari bilan ta'minlashdir.

BTF lar davlat maqomiga ega. BTF larni shakllanish manbalari quyidagilar hisoblanadi:

- budjetdan tashqari fondlarga o'rnatilgan majburiy maqsadli ajratmalar;
- budjet mablag'lari;
- fond tomonidan amalga oshirilgan tijorat faoliyatidan olinadigan foyda;
- fuqarolar va tashkilotlarning ixtiyoriy badallari.

Mahalliy manbalar evaziga mahalliy darajada o'z budjetidan tashqari fondlar tashkil etiladi. Ularning ichida mahalliy hududni rivojlantirish uchun, kam ta'minlangan aholi qatlamlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash fondlari, tabiatni saqlash fondlarini va boshqalarni ajratish mumkin.

Maqsadli budjetdan tashqari fondlar odatda davlat hukumat organlari ixtiyorida bo'ladi, lekin ular operativ boshqarilishi turli va shu qatorda maxsus ma'muriy apparat orqali olib borilishi mumkin.

Boshqaruv tuzilmalari fondlar bilan foydalanishi uchun qonun bilan belgilangan ma'lum huquqlarga va majburiyatlarga ega.

Budjetdan tashqari fondlar yordamida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- korxonalar, tashkilotlarga kreditlar, subsidiyalar berish moliyalashtirish yo'llari bilan ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir ko'rsatiladi;

- umuman, ijtimoiy infratuzilmani moliyalashtirish, subsidiya, pensiya va nafaqalar berish yo'llari orqali aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish;

- chet el davlatlariga, shu qatorda xorijiy sheriklarga qarzlar berish va boshqalar.

Budjetdan tashqari fondlarning o'z faoliyatini amalga oshirishini tashkil etish davlat hukumat organlarining ixtiyorida bo'ladi. Ularni jamlash va foydalanish tartibi esa, tegishli qonunlar bilan qat'iy belgilanadi.

Pensiya fondi – bu pensiya bilan ta'minlovchi davlat moliya boshqaruvining organidir.

Pensiya fondi bilan davlat budjetining farqli tomoni shundan iboratki, o'z resurslarining xissasi balandligi va markazlashtirilgan manbalardan katta mablag' va dotatsiyalarni rad etadi. Maxsus pensiya to'lovlari ijtimoiy sug'urta doirasida shaxsiy funksional vazifaga ega bo'lib, tushumlar va mablag'lar bilan qo'shilmagan holda Pensiya fondida to'planadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 21-oktabrdagi 490-son qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risida Nizomga asosan jamg'arma daromadlari quyidagi manbalar hisobiga shakllantiriladi:

a) majburiy ajratmalar va badallar:

- mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, yuridik shaxslarning mehnatga haq to'lash fondidan yagona ijtimoiy to'lov tushumlarining belgilangan miqdori;

- alohida yuridik shaxslarning ijtimoiy sug'urta badallari;

- yuridik shaxs bo'lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning ijtimoiy sug'urta badallari;

- fuqarolarning ish haqidan sug'urta badallari;

- qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i chiqarib tashlangan holda korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning tovarlar sotish (ishlar, xizmatlar ko'rsatish) hajmidan ajratmalari. Bunda uzoq muddatli aktivlar va o'zi foydalanadigan boshqa mol-mulkni sotish majburiy mablag' ajratish obyektiga kiritilmaydi.

b) boshqa to'lovlar:

- "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 15-moddasiga muvofiq tayinlangan mehnatda mayib bo'lganlik yoki kasb kasalligi oqibatida nogiron bo'lganlarga pensiya to'lash xarajatlarini qoplash uchun regressiv talablar (da'volar) bo'yicha ish bepuvchilap va fuqapolapdan undiriladigan mablag'lap;

- "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 14-moddasiga muvofiq muddatidan oldin tayinlangan pensiyalarni to'lash xarajatlarini qoplash uchun o'tkaziladigan O'zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligining Ish bilan ta'minlashga ko'maklashish jamg'armasi mablag'lari;

- "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 12-moddasiga muvofiq tayinlangan imtiyozli pensiyalarni to'lash xarajatlarini qoplash uchun o'tkaziladigan korxonalar, muassasalar va tashkilotlar mablag'lari;

- dehqon xo'jaliklari a'zolarining ixtiyoriy ravishda to'lanadigan sug'urta badallari;

- hisoblangan jarimalar summalarining bir qismi, qonun hujjatlariga muvofiq soliq organlarini rivojlantirish jamg'armasiga undiriladigan summalaridan tashqari, majburiy ajratmalar, badallar va boshqa to'lovlar o'z vaqtida to'lanmaganligi uchun penyalari;

- korxona tugatilganda, mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda mayib bo'lgan, kasb kasalligiga uchragan yoki sog'lig'iga boshqacha shikast yetkazilgan xodimga zararni qoplash uchun to'lanadigan summalar;

- qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar, shu jumladan ixtiyoriy badallar mablag'lari, xorijiy investitsiyalar va kreditlar.

2009-yil 1-yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29-dekabr 2008-yildagi PQ-1024-sonli «O'zbekiston Respublikasining 2009-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi qaroriga asosan Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarning miqdori quyidagicha belgilangan:

- ish haqi fondiga nisbatan 23,6 % miqdoridagi sug'urta badallari (24,0 % yagona ijtimoiy to'lov tarkibida);

- mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning sotilgan mahsulotlarining amaldagi hajmining 1,0 % miqdoridagi majburiy ajratmalari summasi;

- fuqarolar ish haqining 3,5 % miqdoridagi majburiy sug'urta badallari;

Sug'urta badallari soliqlarni ushlashni hisobga olmagan holda, moliyalashtirish manbalaridan qat'iy nazar amaldagi qonunchilikka muvofiq chiqarilgan nizomlar, qarorlar va boshqa me'yoriy hujjatlarga ko'ra mazkur korxona tomonidan hisoblanadigan ish haqlarining barcha turlariga hisoblanadi. Sug'urta badallari quyidagi turdagi to'lovlarga hisoblanmaydi:

- foydalanilmagan ta'til uchun kompensatsiyalar;

- ishdan bo'shash chog'idagi chiqish nafaqasi;

- moddiy yordam ko'rinishida beriladigan pul nafaqalarini har xil turlariga;

- kompensatsiya to'lovlariga;

- bepul ovqatlar qiymatlariga va boshqalar.

Jamg'arma mablag'lari quyidagi yo'nalishlar bo'yicha sarflanadi:

a) ishlaydigan fuqarolarga:

- ijtimoiy ta'minot bo'limlari tomonidan tayinlanadigan pensiyalar;

- bolalikdan nogironlarga, davlat pensiya ta'minoti olish huquqiga ega bo'lmagan keksa va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar;

- qonun hujjatlariga muvofiq Jamg'arma mablag'laridan moliyalashtiriladigan boshqa kompensatsiya to'lovlari to'lash uchun;

b) ishlaydigan fuqarolarga:

- ijtimoiy ta'minot bo'limlari tomonidan tayinlanadigan pensiyalar;

- vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqalari;

- homiladorlik va tug'ish nafaqalari;

- bola tug'ilganda beriladigan nafaqalar;

- dafn marosimi nafaqalari;

- 16 yoshgacha bo'lgan nogiron bolaning ota-onalaridan biriga (vasiyga, homiyga) bir oyda bir qo'shimcha dam olish kuni uchun to'lovlar;

- qonun hujjatlariga muvofiq Jamg'arma mablag'laridan moliyalashtiriladigan boshqa kompensatsiya to'lovlari uchun sarflanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi migratsiyasi tendensiyasi tez oshib bormoqda. Shuning munosabati bilan mablag'larni tez orada aniq bir hududga o'tkazish zarur bo'ladi. Tijorat faoliyati hisobida fondga qo'shimcha mablag' topishga ham ruxsat beriladi. Maoshlarning o'sib borishi va yashash sharoiti qimmatlashib borayotganligi munosabati bilan pensiyalarning miqdori ham o'zgarib turadi. Pensiya fondining mablag'lari mahalliy banklar hisoblarida to'planadi. Markazdan esa, faqatgina kerakli to'lov topshiriqnomalari beriladi.

O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy ta'minot vazirligi huzuridagi Pensiya fondining mablag'lari bank muassasalaridagi joriy hisob varaqlarida saqlanadi. Hisob varaqlar O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki, Pensiya fondi bilan kelishilgan holda belgilaydigan tartibda ochiladi. Pensiya fondining mablag'laridan pensiyalar, vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik, homiladorlik va farzandni tug'ish, farzandning tug'ilishidagi va dafn qilish marosimi uchun nafaqalarning to'lanishi xarajatlari mablag' bilan ta'minlanadi.

Pensiya fondi idoralari Pensiya fondi budjetining ijro qilinishi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tasdiqlagan budjetdagi korxona va tashkilotlar uchun buxgalterlik hisobining hisob varaqlari rejasini qo'llagan holda hisob yuritadilar va-yilning har choragida Pensiya fondi budjetining ijro etilishi haqida moliyaviy hisobotlarni tuzadilar.

Davlat bandlik fondi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat har bir ishchi va xizmatchini ma'lumotiga qarab, malakasiga qarab ish bilan ta'minlab berishni o'z kafolatiga olmaydi. Shuning uchun davlat iqtisodiyotda va ijtimoiy xayotda nomutanosiblik bo'lmashligi uchun va har bir shaxsni mehnat qilishga haqliligi va erkin sohada shakllanishiga huquqi borligini hisobga olib maxsus moliyaviy muassasa yaratdi. Ushbu tadbirlarni hayotga tadbii qilishni davlat bandlik fondi amalga oshiradi.

Bandlik fondining vazifasi:

- iqtisodiy tizimni malakali ishchi va xizmatchilar bilan ta'minlash;
- bir tarmoqdagi ortiqcha mehnat resurslarini qayta malakasini oshirish;
- maxsus mehnat birjalarini tashkil etish;
- ishsizlarni moddiy ta'minlash;

Davlat bandlik fondini shakllantiruvchi manbalari:

- xo'jalik subyektlarini majburiy to'lovlari (ish haqi fondiga nisbatan 0,2% - 2009-yildan 24 %lik yagona ijtimoiy to'lov tarkibida);
- mahalliy va respublika budjetidan ajratmalar;
- xorijiy va respublika ichidagi xo'jalik subyektlari hamda jismoniy shaxslarning ixtiyoriy ajratmalari.

Ushbu manbalar ichidagi xo'jalik subyektlari majburiy to'lovlari asosiy moliyaviy manba bo'lib hisoblanadi va jami daromadlarining qariyb 80 % ini tashkil etadi.

Shakllangan bandlik fondi quyidagi yo'nalishda foydalaniladi:

- fuqarolarning mehnat joyi bilan ta'minlash;
- ishsizlik uchun nafaqalar berish;
- kadrlarni qayta o'qitish va qayta tayyorlash ishlarini tashkil etish uchun;
- bandlik fondini boshqaruv organini ish haqi bilan ta'minlash.

Bozor iqtisodiyoti birinchi navbatda hayotimizda, iqtisodiyotimizda barqarorlikka erishish bilan chambarchas bog'langan. Shuning uchun ham, iqtisodiyotning moliyaviy ahvolini barqarorlashtirish – iqtisodiy islohotlarimizni amalga oshirishning muhim shartidir.

Umuman budjetdan tashqari fondlar iqtisodiyotni barqarorlashtirishning dastlabki belgilari desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Nazorat savollari.

1. Bozor munosabatlari sharoitida budjetdan tashqari fondlarning ahamiyati qanday bo'ladi?
2. Davlat moliyasi tarkibida budjetdan tashqari fondlar qanday o'rinni egallaydi?
3. Budjetdan tashqari fondlarning mohiyati nimadan iborat?
4. Budjetdan tashqari fondlarni tashkil etish manbalari nimalarga bog'liq holda aniqlanadi?
5. Budjetdan tashqari fondlarga tushadigan mablag'lar qaysi yo'nalishlarda foydalaniladi?
6. BTFlarni shakllanish manbalari nimalar hisoblanadi?
7. Budjetdan tashqari fondlar yordamida qanday vazifalar amalga oshiriladi?
8. Pensiya fondining mohiyatini tushuntirib bering.
9. Pensiya fondining tashkil etish manbalari nimalar hisoblanadi?
10. Pensiya fondning mablag'lari qaysi yo'nalishlar bo'yicha sarflanadi?
11. Bandlik fondining vazifasi nimadan iborat?
12. Davlat bandlik fondini shakllantiruvchi manbalari nimalar hisoblanadi?
13. Bandlik fondi mablag'laridan qaysi yo'nalishda foydalaniladi?

8-mavzu. Davlatning budjetdan tashqari maqsadli pul fondlari va davlat krediti /4 soat/

2-ma'ruza. Davlat krediti

Reja

1. Davlat kreditining mohiyati va ahamiyati
2. Davlat kreditining turkumlanishi
3. Davlat qarzini boshqarish

1.Davlat kreditining mohiyati va ahamiyati

Jamiyatning turli-tuman ehtiyojlarini uzluksiz moliyalashtirish maqsadida xo'jalik tuzilmalari va aholining bo'sh pul mablag'larini davlat o'z xarajatlarini qoplash uchun jalb qilishi mumkin.

Davlat zayomlari davlat xarajatlarini moliyalashtirishdagi ahamiyati bo'yicha ikkinchi o'rinda turadi. Zayomlar budjet kamomadini qoplashning eng qulay shakli hisoblanib, ayniqsa, iqtisodiy rivojlangan davlatlarda keng tarqalgan.

Davlat zayomlari davlat krediti tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Davlat krediti – bu bir tomondan davlat va ikkinchi tomondan jismoniy va huquqiy shaxslar o'rtasidagi vaqtincha bo'sh pul mablag'larini jalb qilish va ularni davlat xarajatlarini moliyalashtirishga sarflash hamda korxonalar va tashkilotlarga muddatlilik, to'lovlilik va qaytaruvchanlik asosida moliyaviy yordamlar berish bo'yicha pul munosabatlari yig'indisi.

Qarz oluvchi va kreditor o'rtasida o'zaro munosabatlarni bozor qonuniyatlari asosida tartibga solish sharoitida davlat tomonidan mablag'larni jalb qilish jarayoni aholi va tadbirkorlarga qo'yilgan mablag'larga yuqori foydali stavkalarni taklif etish asosida quriladi. Bundan tashqari, davlatning qimmatli qog'ozlaridan olinadigan daromadlarni imtiyozli soliqqa tortish yoki butunlay soliqdan ozod qilish qo'llaniladi.

Davlat krediti quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Taqsimlash.
2. Tartibga solish.
3. Nazorat.

2. Davlat kreditining turkumlanishi.

Barcha davlat qarzlarini ikkita katta qismga: ichki va tashqi davlat qarzlariga bo'lish mumkin.


Davlatning ichki qarzlari deganda, davlatning ichkarisidagi o'z jismoniy va huquqiy shaxslari tomonidan davlat xizmatlarini moliyalashtirish bilan bog'liq pul munosabatlari yig'indisi tushuniladi.

Davlatning tashqi qarzi davlatni zarurat tufayli xalqaro moliya bozoriga chiqib, chet el hukumatlari yoki sarmoyadorlaridan valyuta mablag'larini qarz olish natijasida yuzaga keladi.

Tashqi qarzlar ikkita asosiy guruhga bo'linadi:

1. **Tijorat qarzlari.** Bunda yirik banklar, moliyaviy va ishlab chiqarish korporatsiyalari va boshqalar kreditorlar bo'lib, ularning asosiy maqsadi yuqori foyda olishdir.

DAVLAT ICHKI ZAYOMLARINING TURKUMLANISHI



2. **Siyosiy qarzlar.** Bularni odatda boshqa davlatlarning hukumatlari ancha past foizlarda, ammo bir qancha siyosiy xarakterdagi takliflarni bajarish sharti bilan beradilar. Tashqi siyosiy qarzlar ittifoqdosh davlatlarning iqtisodiy barqarorligini qo'llab-quvvatlash maqsadlarida ham berilishi mumkin.

Davlat ichki qarzlarining asosiy shakllari davlat obligatsion zayomlari va xazina veksellaridir.

Davlat obligatsion zayomlari – bu davlat tomonidan mablag'larni uzoq muddatga obligatsiya ko'rinishidagi qimmatli qog'ozdan foydalanish asosida qarzga olishi.

Obligatsiya – bu qarz majburiyati bo'lib, emitentning qarz beruvchiga ko'rsatilgan nominal summani belgilangan muddat tugagandan so'ng, belgilangan foizlari bilan qaytarish majburiyati haqida guvohlik beruvchi hujjat.

Xazina veksellari davlatning qisqa muddatli qarz majburiyatlarini shakllantiradi. Ular 3 oydan 6 oygacha muddatga chiqariladi.

3. Davlat qarzini boshqarish

Davlat qarzini boshqarish deganda davlat boshqaruv organlarining davlatning qarz majburiyatlarini muomalaga chiqarish va joylashtirish, Davlat qimmatli qog'ozlari bozorini tartibga solish, davlat qarziga xizmat ko'rsatish va to'lash, ssudalar va kafolatlar bilan bog'liq bo'lgan harakatlar yig'indisi tushuniladi.

Zayomlar bo'yicha daromadlar va ularni qaytarilishi, asosan, budget mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Biroq, davlat qarzining sezilarli o'sib borishi sharoitida va mamlakatning budget qiyinchiliklari ro'y berganda davlat qarzining qayta moliyalashtirilishi amalga oshiriladi.

Qayta moliyalashtirish deganda eski davlat qarzini yangi zayomlarni muomalaga chiqarish orqali qoplash tushuniladi. Misol uchun, sobiq ittifoq davrida 1966-yilda muomalaga kiritilgan ichki yutuqli 3 % li zayomlar bo'yicha qayta moliyalashtirish amalga oshirilgan. Bu zayomlarning muddati tugaganda obligatsiyalar bir yil davomida 1982-yilgi ichki yutuqli zayomlarga kurs tafovutlarini to'lamagan holda almashtirilgan. Sobiq ittifoq parchalangandan so'ng, mustaqil O'zbekiston Respublikasi 1982-yilgi davlat zayomlarini 1992-yilgi ichki yutuqli zayomlarga qiymatining 1000:1 nisbati bilan almashtirdi. Hozirgi kunga kelib esa, bu davlat qarzlari «muzlatilgan».

Qayta moliyalashtirish davlat qarzining tashqi qismi bo'yicha foizlarni to'lash va o'zini qaytarish bo'yicha ham keng qo'llaniladi. Biroq, yangi qarzlarni berishning asosiy sharti qarzdor mamlakatning xalqaro moliyaviy bozor ko'lamidagi obro'si, uning iqtisodiy va siyosiy barqarorligi hisoblanadi.

Zayomlar yutuqlar tirajlarini o'tkazish orqali yoki davlat qimmatli qog'ozlarini kreditorlardan sotib olish orqali qaytariladi.

Yutuqlarni, -yillik foizlarni, zayomlarni qaytarish bo'yicha summalarni to'lash davlat qarzini boshqarish bo'yicha xarajatlarning asosiy ulushini tashkil etadi. Shuningdek, bunday xarajatlarga davlat qimmatli qog'ozlarini chiqarish, joylashtirish va realizatsiya qilish, yutuqlar tirajlarini o'tkazish va ayrim boshqa xarajatlar kiradi.

Davlat davlat kreditining samaradorligi haqida qayg'uradi. Qarz operatsiyalarining natijaviyligi haqidagi tasavvurni har-yillik davlat krediti tizimi bo'yicha tushumlarni solishtirish orqali olish mumkin. Davlat kredit operatsiyalarining samaradorligi haqida to'liq tasavvurni davlat kredit tizimi bo'yicha tushumlarning xarajatlaridan ortgan qismini xarajatlarga nisbati orqali (foiz ko'rinishida) olish mumkin.

Kreditning samaradorligi (S) quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$C = \frac{T - X}{X} \times 100$$

bu yerda T – davlat krediti tizimi bo'yicha tushum;

X – davlat krediti tizimi bo'yicha xarajatlar.

Biroq, davlat krediti tizimi bo'yicha tushumlar summasi va tushumlarning kredit operatsiyalari bo'yicha xarajatlardan ortiq bo'lishligi ularning samaradorligiga mukammal tavsif bera olmaydi. Shuni ham hisobga olish kerakki, davlat krediti davlat budjeti va mamlakat pul muomalasiga, aholining davlat tuzilmalarining moliyaviy faoliyatiga ishonchini ortishiga va jamiyatning iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi lozim.

Davlatning tashqi qarzi bo'yicha unga xizmat ko'rsatish koeffitsienti aniqlanadi. U qarz bo'yicha barcha to'lovlarni mamlakatning tovar va xizmatlar eksportidan valyuta tushumlariga nisbati (foiz ko'rinishida) sifatida aniqlanadi. Davlat qarziga xizmat ko'rsatishning xavfsiz darajasi 25 % gacha deb qabul qilingan.

Davlat kreditining samaradorligiga erishish uchun davlat qarzini boshqarish sohasida konversiya, konsolidatsiya, regressiv muvofiqlikda obligatsiyalarni almashtirish, qaytarishni kechiktirish va zayomlarni bekor qilish kabi usullar qo'llaniladi.

Konversiya deganda zayomlarning daromadlilikini o'zgarishi tushuniladi. Davlat qarzini boshqarish bo'yicha xarajatlarni qisqartirish maqsadida davlat ko'p hollarda zayomlar bo'yicha to'lanadigan foizlarni pasaytiradi. Biroq, kreditorlar uchun davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlilikni ham ko'tarish mumkin.

Davlat qarz mablag'larini uzoq muddatlarga olishdan manfaatdordir. Amalga kiritilib bo'lingan zayomlar muddatlarini uzaytirish faqatgina davlat qarzlarini konsolidatsiyalash hisobidagina amalga oshirilishi mumkin. Demak, konsolidatsiyalash deganda zayomlarning muddatlari bilan bog'liq shartlarini o'zgartirish tushuniladi, ya'ni ularning muddatlari cho'zish yoki qisqartirish. Asosiy hollarda muddat uzaytiriladi.

Davlat zayomlarini unifikatsiyalash odatda konsolidatsiyalash bilan birgalikda amalga oshiriladi, lekin usiz ham bo'lishi mumkin. Zayomlarni unifikatsiyalash – bu avval muomalaga chiqarilgan zayomlar yangisiga almashtirilayotganda bir nechta zayomlarni bittaga almashtirilishi. Bunday tadbir bir vaqtning o'zida bir necha xildagi qimmatli qog'ozlarni aylanishini qisqartirish va davlatning davlat qarzi tizimi bo'yicha ishlarini soddalashtirish hamda u bo'yicha xarajatlarni qisqartirish imkonini beradi.

Istisno tariqasida, hukumat obligatsiyalarni regressiv muvofiqlikda almashtirishni amalga oshirishi mumkin, ya'ni avvalgi chiqarilgan bir necha obligatsiyalar bitta yangi obligatsiyaga tenglashtirilganda.

Qarzlarini to'lashni kechiktirish yangi zayomlarni chiqarish bo'yicha keyingi operatsiyalarni faollashtirish davlat uchun moliyaviy samaraga ega bo'lmaganda amalga oshiriladi.

Davlat qarzining bekor qilinishi deganda davlatning barcha turdagi chiqarilgan qarz majburiyatlaridan (ichki, tashqi yoki barcha turdagi davlat qarzlaridan) voz kechishi tushuniladi. Davlat qimmatli qog'ozlarini bekor qilinishi ikki sabab bo'yicha amalga oshirilishi mumkin. Birinchidan, davlat qarzlarining bekor qilinishi davlatning moliyaviy imkonsizligi, ya'ni bankrotligi holatida e'lon qilinadi. Ikkinchidan, qarzlarning bekor qilinishi hokimiyatga yangi siyosiy kuchlarning kelishi hamda ularning ma'lum sabablar tufayli avvalgi hokimiyatning moliyaviy majburiyatlarini tan olmasliklari natijasida bo'lishi mumkin.

Davlat kreditini boshqarish jarayonida quyidagi masalalar hal etiladi:

- ✓ qarz oluvchi uchun qarz qiymatini minimallashtirish;
- ✓ bozorni davlat qarz majburiyatlari bilan to'lib ketishi va ularning kurslarini keskin o'zgarishiga yo'l qo'ymaslik;
- ✓ to'plangan mablag'lardan samarali foydalanish va berilgan kreditlardan maqsadli foydalanish ustidan nazorat;
- ✓ kreditlarning o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlash;
- ✓ moliyaviy siyosat belgilab bergan masalalarni maksimal hal etish.

Nazorat savollari.

1. Davlat kreditining mohiyati nimadan iborat?

2. Davlat krediti deganda qanday pul munosabatlari yig'indisi tushuniladi?
3. Davlat krediti qanday funksiyalarni bajaradi?
4. Davlat qarzlari qanday qismlarga bo'linadi?
5. Davlatning ichki qarzlari deganda nima tushuniladi?
6. Davlatning tashqi qarzi qanday yuzaga keladi?
7. Tashqi qarzlari ikkita asosiy guruhga bo'linadi
8. Davlat qarzini boshqarish deganda qaysi jarayon tushuniladi?
9. Davlat qarzni qayta moliyalashtirish deganda nima tushuniladi?
10. Zayomlar qanday usullar orqali qaytariladi?
11. Davlat davlat kreditining samaradorligi deganda nima tushuniladi va u qanday aniqlanadi?
12. Davlatning tashqi qarzi bo'yicha unga xizmat ko'rsatish koeffitsienti qanday aniqlanadi?
13. Davlat kreditining samaradorligiga erishish uchun qanday usullar qo'llaniladi?
14. Davlat kreditini boshqarish jarayonida qanday masalalar hal etiladi?

9-mavzu. Sug'urta, moliyaviy bozorlar va institutlar /4 soat/**1-ma'ruza. Sug'urtaning mohiyati****Reja**

- 1. Sug'urtaning mazmuni va zarurligi**
- 2. Sug'urta bozori va uning mohiyati**
- 3. Sug'urtaning turkumlanishi**

1. Sug'urtaning mazmuni va zarurligi

Sug'urta ijtimoiy munosabatlar tarixiy kategoriyalaridan biridir. U jamiyat qurilishining ilk davrlaridan yuzaga kelib, asta sekin ijtimoiy ishlab chiqarishning ajralmas hamroxiga aylandi. Sug'urta iborasining birlamchi ma'nosi «*qo'rquv*» («*strax*») so'zi bilan bog'liqdir. Mulk egalari birlari bilan ishlab chiqarish munosabatlariga kirishar ekanlar, mulkning saqlanishiga, tabiiy ofatlar, yong'in, o'g'irlik va iqtisodiy hayotning boshqa ko'zda tutilmagan xavf-xatarlari natijasida yakson bo'lishi yoki yo'qotilishiga nisbatan qo'rquv xis etganlar.

Ijtimoiy ishlab chiqarishning tavakkalchilik xarakteri – bu mulk egasi va tovar ishlab chiqaruvchining moddiy farovonligi uchun xavotirlanishining asosiy sababchisidir. Shu asosda moddiy zararni manfaatdor mulk egalari o'rtasida birgalikda qoplash g'oyasi yuzaga keldi.

Ko'rilgan zararni qoplashning ancha oddiy shakli natural sug'urta bo'lgan. Don, yem-xashak va boshqa bir turdagi oson taqsimlanadigan mahsulotlar hisobidan alohida talofat ko'rgan dehqon xo'jaliklariga moddiy yordam ko'rsatilgan. Bunday sug'urta, albatta, bir qancha chegaralangan bo'lib, keyinchalik tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi bilan o'z o'rnini pul shaklidagi sug'urtaga berdi.

Rivojlangan jamiyat sharoitida sug'urta mulkchilikning barcha shakllarini, korxonalar, tashkilotlar, fuqarolar daromadlari va boshqa manfaatlari himoyasining asosiy vositasiga aylandi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlashda va aholini ko'ngilsiz hodisalardan himoya qilishda sug'urtaning o'ziga xos muhim o'rni bor. Sug'urta ishlab chiqarishning zarur unsurlaridan biri sifatida bozor iqtisodiyotiga o'tishning muhim iqtisodiy dastaklaridan hisoblanadi. Sug'urta bozori mulkchilikning deyarli barcha shakllarini tabiiy ofatlardan saqlashda, xilma-xil faloqatlar natijasida odamlarga yetkazilgan zararlarni qoplashda moddiy jihatdan yordam beradi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar iqtisodiyotga, moliyaga, pul muomalasiga o'z ta'sirini ko'rsatdi, iqtisodiy qarashlarda ijobiy fikrlarning shakllanishiga sabab bo'ldi. Endilikda har bir xo'jalik obyektining tashkilotchisi o'z ixtiyoridagi mol-mulkdan samarali foydalanish uchun fidokorona harakat qilish bilan cheklanib qolmay, favqulodda va tasodifiy zararlarning natijasida yetkazilishi mumkin bo'lgan kamomadlarni tiklash, ularning oldini olish tadbirlarini ko'rishga ham intilmoqda. Shuning natijasida bozor iqtisodiyoti sharoitida sug'urtaga bo'lgan talab kuchaya boshladi.

Prezidentimizning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» kitobida davlatni aql-idrok bilan boshqarish xalq boshiga tushgan xavf-xatarni kamaytirish va bartaraf etishdan iboratligini ko'zda tutish lozimligiga amal qilib, sug'urta sohasida faqat mamlakat miqyosida emas, balki tashqi munosabatlarda ham qator tadbirlar amalga oshirilganligi ko'rsatib turibdi. Jumladan chet ellik investorlarga yordam berish maqsadida «O'zbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi tashkil qilinib, AIG (AQSh) kompaniyasi bilan birga siyosiy xavf-xatarlardan sug'urtalash bo'yicha «O'zbekinternest Interneyshl» qo'shma sug'urta kompaniyasi ta'sis etilgani qayd qilib o'tildi. Shu bilan birga, tashqi sarmoyalarni ko'proq jalb qilish maqsadida sug'urtalashning tayanch stavkalari xalqaro amaliyotda qabul qilinganidan ancha past ekanligi ta'kidlandi.

Sug'urtaga tegishli bo'lgan qayta taqsimlash munosabatlari bir tomondan sug'urta fondini shakllantirish, ikkinchi tomondan shu fondan sug'urta qatnashchilarini ko'rgan zararini qoplash bilan bog'liqdir.

Sug'urta – ishlab chiqarish munosabatlarining zaruriy elementidir. U ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonidagi moddiy zararlarni qoplash bilan bog'liqdir. Normal takror ishlab chiqarish jarayonining muhim sharti uning uzliksizligi va to'xtovsizligi hisoblanadi. Ishlab chiqarishning doimiy yangilanib borishi insonlarning barcha ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarda, shu jumladan rivojlangan jamiyatda ham mavjud ehtiyojlarini qondirish uchun zarurdir.

Agarda ijtimoiy ishlab chiqarish jarayoni tabiiy ofatlar yoki boshqa favqulodda hodisalarning (yong'inlar, portlashlar, epidemiyalar va b.) salbiy oqibatlari ta'sirida to'xtasa yoki buzilsa, u holda jamiyat avvalo turli oldini olish tadbirlarini amalga oshirishga, mabodo ular ko'zlangan natijani bermasa, u holda yetkazilgan moddiy zararni qoplashga, ishchi kuchini takror ishlab chiqarishning normal sharoitlarini qayta tiklashga majbur bo'ladi.

Inson va tabiiy ofatlar o'rtasidagi qarama-qarshilik bilan asoslangan ijtimoiy ishlab chiqarishning tavakkalchilik xarakteri, birinchi navbatda, tabiiy va boshqa ofatlarning salbiy oqibatlarini oldini olish, bartaraf qilish hamda yetkazilgan zararni so'zsiz qoplash bo'yicha insonlar o'rtasidagi munosabatlarni yuzaga keltiradi. Bu obyektiv munosabatlar insonlarning erishgan hayot darajasini saqlab qolishga bo'lgan real va mavjud ehtiyojini aks ettiradi. Mazkur munosabatlarni alohida xususiyatlar ajratib turadi va ularning yig'indisi ijtimoiy ishlab chiqarishni **sug'urtaviy himoyalash iqtisodiy kategoriyasini** tashkil etadi.

Sug'urta iqtisodiy kategori sifatida moliya kategoriyasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ammo, moliya to'laligicha daromadlarni taqsimlash bilan bog'liq bo'lsa, sug'urta esa, faqatgina qayta taqsimlash munosabatlarinigina qamrab oladi.

Sug'urtaning xususiyatlarini ochib beruvchi belgilarini quyidagicha keltirishimiz mumkin:

1. Sug'urtada to'satdan, oldindan ko'zda tutilmagan va yengib bo'lmaydigan holatlar, ya'ni sug'urta holatlari ehtimoli mavjudligi bilan asoslanuvchi qayta taqsimlash pul munosabatlari yuzaga keladi.

2. Sug'urtada ko'rilgan zararni sug'urta ishtirokchilari, ya'ni sug'urtalanuvchilar o'rtasida qoplash amalga oshiriladi. Zararni bunday qoplash usuli zarar ko'ruvchi xo'jaliklar soni doimo sug'urta ishtirokchilari sonidan kam bo'lish ehtimolligiga asoslanadi, ayniqsa ishtirokchilar soni yetarlicha katta bo'lganda.

Zararni bunday qoplashni tashkil qilish uchun maqsadga yo'naltirilgan sug'urta fondi tashkil qilinadi. Bu fond sug'urta ishtirokchilarining badallari hisobidan shakllantiriladi. Sug'urta fondining mablag'lari faqatgina uni tashkil qilganlar o'rtasida ishlatiladi, sug'urta badalining hajmi esa, har bir qatnashchining zararni qoplashdagi ulushini bildiradi. Shuning uchun, sug'urta qatnashchilarining doirasi qanchalik keng bo'lsa, sug'urta badalining hajmi shunchalik oz va sug'urta ham samarali bo'ladi. Agarda sug'urtada millionlab sug'urtalanuvchilar ishtirok etsa va yuz millionlab obyektlar sug'urtalansa, u holda minimal badallar hisobiga maksimal zararlarni qoplash imkoni paydo bo'ladi.

3. Sug'urta zararlarni qoplashni hududiy birlik va ma'lum vaqt davomida amalga oshirishni ko'zda tutadi. Bunda-yil davomida sug'urtalanuvchi xo'jaliklar o'rtasida sug'urta fondini hududlar bo'yicha samarali qayta taqsimlash uchun yetarlicha katta hudud va anchagina sug'urtalashga tegishli obyektlar talab qilinadi. Faqatgina mazkur shartga rioya qilish bilangina katta hududlarni qamrab oluvchi tabiiy ofatlar yetkazgan zararlarni qoplash imkoni bo'ladi.

Zararni sug'urta yordamida qoplash ma'lum vaqt davomida amalga oshiriladi, chunki ixtiyoriy sug'urta doimo muddat bilan chegaralanadi.

Sug'urta – bu uning qatnashchilari o'rtasida ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplashga mo'ljallangan maqsadli sug'urta fondlarini badallar hisobidan shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan qayta taqsimlash munosabatlari yig'indisi.

Sug'urtaning iqtisodiy mohiyatiga uning funksiyalari mos keladi. Ular sug'urtani moliya tizimining bir bo'g'ini sifatida xususiyatlarini oydinlashtirishning tashqi shakllari hisoblanadi.

Sug'urtaning to'rt funksiyasi mavjud:

1. Tavakkalchilik.
2. Oldini olish.
3. Jamg'arma.
4. Nazorat.

Asosiysi tavakkalchilik funksiyasi hisoblanadi, chunki sug'urtaviy tavakkal zarar ehtimolligi sifatida talofat ko'rgan xo'jaliklarga pullik yordam ko'rsatish bo'yicha sug'urtaning asosiy yo'nalishi bilan bevosita bog'liq. Aynan tavakkalchilik funksiyasining amal qilish doirasida sug'urta ishtirokchilari o'rtasida bo'lishi mumkin bo'lgan sug'urta hodisalari oqibatlari bilan bog'liq pul shaklidagi qiymatning qayta taqsimlanishi ro'y beradi.

Oldini olish funksiyasi sug'urta fondi mablag'larining bir qismi hisobidan sug'urta tavakkalchiligini kamaytirish bo'yicha tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan.

Hayot sug'urtasida sug'urta kategoriyasi kredit kategoriyasi bilan hayotni ma'lum muddatgacha sug'urtalash shartnomalari bo'yicha mablag'larni jamg'arishda ancha yaqinlashadi. Hayot sug'urtasi orqali pul mablag'larini jamg'arish oilaviy sharoitda sug'urtaviy himoyaga bo'lgan ehtiyoj bilan bog'liqdir. Shu bilan sug'urta jamg'arish funksiyasini ham bajarishi mumkin.

Sug'urtaning nazorat funksiyasi sug'urta fondini qat'iy maqsadli shakllantirilishi va uning mablag'laridan to'g'ri foydalanishdan iborat. Mazkur funksiya yuqoridagi uch spetsifik funksiyalardan kelib chiqadi va konkret sug'urta munosabatlarida ular bilan birga namoyon bo'ladi. Nazorat funksiyasiga mos ravishda qonunchilik va instruktiv hujjatlar asosida sug'urta amallarini to'g'ri bajarilishi ustidan moliyaviy sug'urta nazorati amalga oshiriladi.

2. Sug'urta bozori va uning mohiyati

Sug'urta bozori – bu sug'urta holatlari ro'y berganda jismoniy va huquqiy shaxslarni mulkiy mafaatlarni sug'urtalanuvchilarning pul mablag'lari hisobidan himoya qilishda aks etuvchi sug'urta xizmatlari oldi-sotdisi bo'yicha iqtisodiy munosabatlar yig'indisi.

Sug'urta bozorini amal qilishining asosiy sharti sug'urta xizmatlariga ehtiyoj (talab) va bu ehtiyojlarni qondirishga layoqatli sug'urtalovchilarning mavjudligidir.

Sug'urta bozori tarkibiy jihatdan *tashkiliy-huquqiy* va *hududiy* aspektlari bo'yicha bo'linishi mumkin.

Tashkiliy-huquqiy jihatdan *aksioner*, *birgalikdagi*, *xususiy* va *davlat sug'urta tashkilotlaridan* iborat bo'ladi.

Hududiy jihatdan esa *milliy*, *mintaqaviy* va *xalqaro* sug'urta bozorlariga bo'linadi.

Milliy sug'urta bozori biron-bir mamlakat hududidagi sug'urta muassasalarini va ularning faoliyatini qamrab oladi. Bunga O'zbekiston sug'urta bozorini misol qilib olishimiz mumkin, Hozirgi kunda milliy sug'urta bozorimizda o'ttizdan ortiq sug'urta tashkilotlari faoliyat ko'rsatmoqda. Ulardan eng yiriklari davlat mulki ishtirokidagi sug'urta kompaniyalari bo'lib, ular «O'zbekinvest» EIMSK, «O'zagrosug'urta» DASK, «Kafolat» DASK va «Madad» sug'urta agentliklaridir. Bulardan tashqari bir nechta chet el kompaniyalari bilan hamkorlikda tashkil etilgan, xususiy sug'urta kompaniyalari ham o'z faoliyatlarini olib bormoqdalar.

Jahondagi eng yirik sug'urta bozori Amerika Qo'shma Shtatlarinikidir. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda yig'iladigan sug'urta tushumlarining kariyib qirq foizdan ortig'i AQSh xissasiga to'g'ri keladi.

Mintaqaviy sug'urta bozori deganda savdo-iqtisodiy va boshqa jihatlardan o'zaro yaqin munosabatda bo'lgan bir nechta mamlakatlar hududlarini qamrab oluvchi bozor tushuniladi.

Xalqaro sug'urta bozori sifatida dunyo miqyosida sug'urta faoliyatini olib boruvchi mamlakatlarning sug'urta bozori tushuniladi.

Sug'urta bozori bozor munosabatlari subyektlarining mustaqilligini, ularning sug'urta xizmatlari oldi-sotdisi bo'yicha teng huquqli hamkorligini ko'zda tutadi.

Sug'urta bozorining subyektlari quyidagilardan iborat:

1. O'z manfaatlaridan kelib chiqib sug'urta himoyasi bo'yicha xizmatlarni sotib oluvchilar (sug'urta qildiruvchilar).
2. Bunday xizmatlarni ishlab chiqaruvchi va sotuvchilar (sug'urtalovchilar).
3. Mazkur shaxslar o'rtasidagi vositachilar (Sug'urta agentlari va brokerlari).
4. Sug'urtalangan shaxslar (sug'urtalanuvchilar).
5. Manfaatdor shaxslar (naf oluvchilar).
6. Uchinchi shaxslar.

Ichki sug'urta bozorini moliyaviy tarkibini sug'urta tashkilotlarining moddiy va moliyaviy resurslari tashkil qiladi. Sug'urta bozorining asosiy vazifasi sug'urta xizmatlariga talabni shakllantirish (marketing, reklama), shartnomalar tuzish va sug'urta polislarini sotish, maqsadga muvofiq va egiluvchan tarif siyosatini olib borish, o'z infratuzilmasini tartibga solish hisob-lanadi.

Bozorning tashqi o'rami bu – bozorning ichki tizimini qamrab turuvchi va unga ta'sir o'tkazuvchi birgalikda harakat qiluvchi kuchlar tizimi (davlatning iqtisodiy siyosati, moliyaning inflyatsion holati, valyuta kursi va b.).



Reklama

3. Sug'urtaning turkumlanishi

Sug'urta ixtisoslashtirilgan sug'urta tashkilotlari tomoni-dan amalga oshiriladi. Ular davlat va nodavlat tashkilotlar bo'lishi mumkin. Ularning faoliyat doirasi ichki, tashqi yoki aralash sug'urta bozorlarini qamrab olgan bo'lishi mumkin. Shu bilan birga rivojlangan sug'urta bozori sharoitida ham davlat ichkarisida, ham chetda amalga oshirilishi mumkin. Bu sug'urtaning tashkiliy turkumlanishidir. Ammo, sug'urta munosabatlarining mazmuni sug'urta obyekti va xavf-xatar turlari bo'yicha turkumlanishi yordamida namoyon bo'ladi.


Sug'urta sug'urtalanuvchilarning turli toifalarini qamrab oladi. Uning shartlari sug'urta mas'uliyatining hajmlari bo'yicha farq qiladi; u qonun kuchida va ixtiyoriy ravishda amalga oshirilishi mumkin. Sug'urta munosabatlarining turlichaligini tartibga solish va o'zaro bog'liq yagona tizimni shakllantirish uchun sug'urtani turkumlash zarurdir.

Sug'urtaning turkumlanishi natijasida bo'g'inlar hosil bo'ladi. Barcha bo'g'inlar shunday joylashganki, har bir navbatdagi bo'g'in avvalgisining tarkibiy qismi hisoblanadi. Yuqori bo'g'in sifatida – *soha*, o'rta bo'g'in – *tarmoq*, quyi bo'g'in – *sug'urta turlari* hisoblanadi.

Sug'urtani sohalariga bo'lish asosida ularning obyektlari bo'yicha farqlanishi yotadi. Bu omilga mos ravishda barcha sug'urta munosabatlari yig'indisini to'rtta sohaga bo'lish mumkin:

1. Mulkiy sug'urta.
2. Fuqarolar hayot darajasi sug'urtasi.
3. Javobgarlik sug'urtasi.
4. Tadbirkorlik tavakkalchiliklari sug'urtasi.

Mulkiy sug'urtada obyekt bo'lib moddiy qiymatliklar hisoblanadi; fuqarolar hayot darajasi sug'urtasida – ularning hayoti, sog'ligi, mehnatga layoqati; javobgarlik sug'urtasida obyekt bo'lib sug'urtalanuvchilarning turli javobgarliklari, mas'uliyatlari, majburiyatlari hisoblanadi; tadbirkorlik tavakkalchiliklari sug'urtasida esa, obyekt vazifasini tadbirkorlik ishlari bo'yicha turli tavakkalchiliklar bajaradi



Su'urta obyekti

Biroq, sug'urtani yuqorida sanab o'tilgan sohalariga bo'linishi korxonalar, tashkilotlar va fuqarolarning sug'urtani amalga oshirish imkoniyatlarini beruvchi aniq sug'urta manfaatlarini ochib bera olmaydi. Bu manfaatlarini aniqlashtirish maqsadida sug'urta sohalarini sug'urta tarmoqlari va turlariga bo'lish zarur.

Mulkiy sug'urta mulkchilik shakli va sug'urtalanuvchilar toifalaridan kelib chiqib, bir nechta tarmoqlarga bo'linadi: davlat korxonalari mulki sug'urtasi, jamoa xo'jaliklari, ijarachilar, shirkatlar, xissadorlik jamiyatlari va jamoatchilik tashkilotlari mulki sug'urtasi hamda fuqarolar mulki sug'urtasi.

Fuqarolarning hayot darajasi sug'urtasi ikkita tarmoqqa ega: ishchilar, xizmatchilar va jamoa xo'jaliklari a'zolarining ijtimoiy sug'urtasi hamda fuqarolar shaxsiy sug'urtasi.

Javobgarlik sug'urtasi esa quyidagi tarmoqlarga ega: qarz sug'urtasi hamda yetkazilgan zararni qoplash sug'urtasi. Bu fuqarolik javobgarligi sug'urtasi ham deb yuritiladi.

Tadbirkorlik tavakkalchiliklari sug'urtasida ikkita tarmoq mavjud: daromadlarni bevosita hamda bilvosita yo'qotilish tavakkalchiliklari sug'urtasi.

Sug'urtalanuvchilarni sug'urtalovchilar bilan sug'urta munosabatlariga kirishi va sug'urtalanuvchilarga qulaylik yaratish maqsadida sug'urta tarmoqlarini konkret sug'urta turlariga bo'lish zarurati paydo bo'ladi.

Mulkiy sug'urtaning bunday konkret turlariga qurilmalar, chorva hayvonlari, ro'zg'or buyumlari, transport vositalari, qishloq xo'jalik ekinlari hosili va boshqa turli xo'jalik kategoriyalari sug'urtasi misol bo'la oladi.

Ijtimoiy sug'urtaning konkret turlariga pensiya va turli nafaqalar sug'urtasi kiradi.

Shaxsiy sug'urta bo'yicha sug'urtaning quyidagi turlari amalga oshiriladi: hayotni aralash sug'urtasi, o'lim holati va mehnatga layoqatini yo'qotishdan sug'urtalash, bolalar sug'urtasi, qo'shimcha pensiya sug'urtasi, baxtsiz hodisalardan sug'urtalash va boshqalar.

Javobgarlik sug'urtasi bo'yicha – kreditni yoki boshqa qarzlarni qaytara olmaslikdan sug'urtalash, yuqori xavf-xatar manbalari egalarining fuqarolik javobgarligi sug'urtasi, xo'jalik faoliyati jarayonida zarar yetkazish holati bo'yicha fuqarolik javobgarligi sug'urtasi va boshqalar.

Tadbirkorlik tavakkalchiliklari sug'urtasi dastgohlarni to'xtab qolishi, savdodagi to'xtalishlar natijasida zarar qurish yoki foyda ololmaslik sug'urtasi, yangi texnika va texnologiyalarni qo'llash tavakkalchiliklari sug'urtasi va boshqa turlarga bo'linadi.

O'zbekiston Respublikasining sug'urta faoliyati to'g'risidagi yangi qonunchiligida sug'urta sohalari va turlariga ham tushuntirishlar berib o'tilgan. Unga ko'ra sug'urta quyidagi sohalarga bo'linadi:

hayotni sug'urta qilish (jismoniy shaxslarning hayoti, sog'lig'i, mehnat qobiliyati va pul ta'minoti bilan bog'liq manfaatlarini sug'urta qilish, bunda shartnoma bo'yicha sug'urtaning eng kam muddati bir-yilni tashkil etadi hamda sug'urta pullarining sug'urta shartnomasida ko'rsatib o'tilgan oshirilgan foizni o'z ichiga oluvchi bir martalik yoki davriy to'lovlarini (annuitetlarni) qamrab oladi);

umumiy sug'urta (shaxsiy, mulkiy sug'urta, javobgarlikni sug'urta qilish hamda hayotni sug'urta qilish sohasiga taalluqli bo'lmagan boshqa sug'urta turlari).

Sug'urta tavakkalchiliklari yoki ular guruhlarining va ular bilan bog'liq majburiyatlarning umumiy xususiyatlariga muvofiq sug'urta sohalari sug'urta turlariga (klasslariga) bo'linadi. Sug'urta turlari (klasslari) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 27-noyabrdagi 413-sonli «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorining 1-ilovasida sug'urta faoliyatining klassifikatori berilgan bo'lib, unga muvofiq hayotni sug'urta qilish sohasi 4 ta klassga va umumiy sug'urta sohasi 17 ta klassga ajratilgan.

Turkumlanishning barcha bo'g'inlari sug'urtani amalga oshirish shakllarini qamrab oladi, ya'ni **majburiy** va **ixtiyoriy**. Majburiy sug'urtani amalga oshirish huquqiga davlat sug'urta tashkilotlari egadirlar. Shu bilan birga sug'urta tashkilotlari majburiy sug'urta qilinishi lozim bo'lgan obyektlarning but saqlanishi ustidan nazorat o'rnatishga haqlidirlar.

Majburiy sug'urtani ajratib turuvchi tamoyillar quyidagilar.

1. *Majburiy sug'urta qonun yo'li bilan o'rnatiladi.* Shunga mos ravishda sug'urta qildiruvchi tegishli obyektlarni sug'urtalashga, sug'urtalovchilar esa, sug'urta hodisalari ro'y berganda tegishli sug'urta to'lovlarini to'lashga majburlirlar.

Qonunchilik odatda quyidagilarni belgilab beradi:

- majburiy sug'urtalanishi lozim bo'lgan obyektlar tarkibini;
- sug'urta javobgarligi hajmini;
- sug'urta ta'minoti darajasi va me'yorlarini;
- tarif stavkalari miqdorlari va ularni o'rnatish tartibini;
- sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchilarning asosiy huquq va majburiyatlarini.

2. *Qonunda ko'rsatilgan majburiy sug'urta obyektlarini yoppasiga sug'urtaga qamrab olish.* Buning uchun sug'urta organlari mamlakatda har-yili sug'urtalangan obyektlarni, hisoblangan sug'urta badallarini va ularni o'rnatilgan muddatlarda undirilishini hisobga olib boradilar.

3. *Qonunda ko'rsatilgan obyektlarga majburiy sug'urtaning avtomatik ravishda qo'llanilishi.* Sug'urtalanuvchi xo'jalikda sug'urtaga tegishli yangi obyekt paydo bo'lganligi haqida sug'urta organlariga xabar berishi shart emas. Bu mulk sug'urta sohasiga avtomatik ravishda qo'shiladi. Navbatdagi ro'yxatga olish davrida hisobga olinadi va sug'urtalanuvchiga to'lanishi kerak bo'lgan sug'urta badallari ko'rsatiladi.

4. *Majburiy sug'urtani sug'urta badallari to'lanishidan qat'iy nazar amal qilishi.* Agarda sug'urta qildiruvchi tegishli sug'urta badallarini to'lamagan hollarda, badallar sud orqali undirib olinishi mumkin. Sug'urta badallari to'lanmagan mulkni talofat ko'rishi yoki shikastlanish hollarida sug'urta to'lovlari to'lanaveradi, faqatgina sug'urta badallari bo'yicha qarz va kechiktirilgan kunlar uchun jarima summasi ushlab qolinadi.

5. *Majburiy sug'urtaning muddatsizligi.* Majburiy sug'urta sug'urtalanuvchi sug'urtalangan obyektidan foydalanish davrining to'la qismida amal qiladi. Mulkni boshqa shaxsga o'tishi bilan ham sug'urta to'xtatilmaydi. U faqatgina sug'urtalangan mulk to'la talofat ko'rgandagina o'z kuchini yo'qotadi.

6. *Majburiy sug'urta bo'yicha sug'urta ta'minotining me'yorlashtirilishi.* Sug'urtaviy baholash va sug'urtaviy qoplash tartibini soddalashtirish maqsadida sug'urta bahosiga nisbatan foizlarda yoki bir obyektga so'mlarda sug'urta ta'minotining me'yorlari belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq tomonlarning xohish-irodasiga ko'ra amalga oshiriladigan sug'urta *ixtiyoriy sug'urta* hisoblanadi.

Ixtiyoriy sug'urtaning shartlari tomonlarning kelishuviga asosan belgilanadi. Sug'urtalanuvchi va sug'urtalovchining huquqlari hamda burchlari, shuningdek, har bir sug'urta turining aniq shartlari tegishli sug'urta shartnomalari bilan belgilab quyiladi.

Sug'urtaning ixtiyoriy shakli quyidagi tamoyillar asosida qurilgan.

1. *Ixtiyoriy sug'urta qonun asosida va ixtiyoriy ravishda amal qiladi.* Qonun ixtiyoriy sug'urtaga tegishli obyektlarni va sug'urtaning umumiy shartlarini belgilab beradi. Konkret shartlar esa sug'urtalovchilar tomonidan ishlab chiqiladigan sug'urta qoidalariga orqali tartibga solinadi.

2. *Sug'urtada ixtiyoriy qatnashish to'la holda faqat sug'urtalanuvchilar uchun xarakterlidir.* Agar sug'urtalanuvchining xohishi sug'urta qoidalariga zid kelmasa, sug'urtalovchi obyektini sug'urta qilishdan bosh tortish huquqiga ega emas. Bu tamoyil sug'urtalanuvchining birinchi talabi bo'yicha sug'urta shartnomasi tuzilishini kafolatlaydi.

3. *Ixtiyoriy sug'urtani tanlab qamrab olishi.* Barcha shaxslar ham unda ishtirok etish istagini bildiravermaydilar. Bundan tashqari, shartnomalar tuzishda sug'urta shartlari bo'yicha chegaralashlar ham amal qiladi.

4. *Ixtiyoriy sug'urta doimo sug'urta muddati bilan chegaralanadi.* Bunda muddatning boshlanishi va tugashi shartnomada qat'iy kelishib olinadi. Shundan kelib chiqib, sug'urta qoplamasi yoki sug'urta summasi sug'urta holati faqatgina sug'urta davrida sodir bo'lgandagina

to'lanadi. Ixtiyoriy sug'urtaning uzluksizligini faqatgina yangi muddatga qayta shartnoma tuzish yo'li bilangina ta'minlash mumkin.

5. *Ixtiyoriy sug'urta faqatgina bir martalik yoki davriy sug'urta badallari to'langandagina amal qiladi.* Ixtiyoriy sug'urta shartnomasining kuchga kirishi bir martalik yoki birinchi sug'urta badalini to'lanishi bilan asoslanadi. Uzoq muddatli sug'urta bo'yicha navbatdagi badalning to'lanmasligi natijasida shartnomaning amal qilishi to'xtaydi.

6. *Ixtiyoriy sug'urta bo'yicha sug'urta ta'minoti sug'urtalanuvchi istagidan kelib chiqadi.* Mulkiy sug'urta bo'yicha sug'urtalanuvchi sug'urta summasini sug'urta bahosi chegarasida belgilashi mumkin. Shaxsiy sug'urta bo'yicha sug'urta summasi shartnomada tomonlar kelishuvi orqali belgilanadi.

Nazorat savollari.

1. Sug'urtaning mohiyati nimadan iborat?
2. Qanday munosabatlar sug'urta munosabatlari deyiladi?
3. Sug'urtaning xususiyatlarini qanday belgilar ochib beradi?
4. Sug'urta qanday funksiyalarni bajaradi?
5. Sug'urtada maxsus iboralardan foydalanishning sabablari nimadan iborat?
6. Sug'urta bozori haqida tushuncha bering.
7. Sug'urta bozori subyektlarini kimlar tashkil qiladi?
8. Sug'urtani turkumlashning zarurligi nimada?
9. Sug'urta qanday sohalarga bo'linadi?
10. Sug'urta sohalari qanday tarmoqlarga bo'linadi?
11. Sug'urtaning konkret turlari qaysilardan iborat?
12. O'zbekiston Respublikasining sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonunchiligida sug'urta sohalari va turlariga qanday tushuntirishlar berib o'tilgan?
13. Majburiy sug'urta, uning amal qilish shartlari va tartibi kim tomonidan belgilanadi?
14. Majburiy sug'urta qanday tamoyillar asosida amal qiladi?
15. Ixtiyoriy sug'urta qanday tamoyillarga asoslanib quriladi?

9-mavzu. Sug'urta, moliyaviy bozorlar va institutlar /4 soat/**2-ma'ruza. Moliya bozorlari va institutlari****Reja**

- 1. Moliya bozori haqida tushuncha**
- 2. Qimmatli qog'ozlar bozori**

1. Moliya bozori haqida tushuncha

Moliya bozori – bu moliyaviy (pul) resurslari va investitsion qiymatliklarni (moliyaviy resurslarni tashkil qilish vositalarini) sotuvchilari va xaridorlari o'rtasida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar sohasi.

Moliya bozori *valyuta, qimmatli qog'ozlar, ssuda kapitali yoki pul bozorlari tizimidan* iborat.

Moliya bozori keng ma'noli va murakkab iqtisodiy toifani tashkil qiladi hamda muayyan moliya muassasalari orqali o'zaro ta'sirda bo'ladigan mulk egalari bilan sarmoya, qarz oluvchilar o'rtasidagi munosabatni tasvirlaydi. Hozirgi zamon iqtisodiyoti uchun moliya bozori o'ziga xos «asab markazi» hisoblanadi, uning rivojlanish darajasiga qarab mamlakat iqtisodiyotining «ahvoli» hakida fikr yuritish mumkin, chunki moliya bozoriga ta'sir ko'rsatib, jamiyatning iqtisodiy faoligini boshqarish mumkin.

Bilamizki, insoniyat tarixida jamg'armalardan foydalanishning eng keng tarqalgan ikki usuli ma'lum: *naqd pullarni saqlash* yoki *qimmatli qog'ozlar sotib olish*.

Jamg'armaning ko'pini jamiyatdagi oilalar, iqtisodiyotga investitsiyalar qo'yishni esa, asosan, xo'jalik yurituvchi subyektlar amalga oshiradi. Taraqqiyot davomida bu pul oqimlarining birinchisidan ikkinchilariga o'tishini tartibga solib turadigan muassasalar, vositalar to'plamiga esa muayyan mexanizm ishlab chiqilgan. *Moliya bozori* ana shunday mexanizm sifatida faoliyat ko'rsatadi.

Moliya bozorining funksiyalari:

- ✓ vaqtincha bo'sh pul mablag'larini qimmatli qog'ozlarni sotish orqali jalb qilish;
- ✓ takror ishlab chiqarish jarayonini moliyalashtirish;
- ✓ taqsimlash funksiyasi – kapitalni tarmoqlar va kompaniyalar o'rtasidagi oqimiga yordam beradi;
- ✓ to'laligicha iqtisodiyotni samaradorligini ko'tarish.

Hozirgi zamon moliya bozorining asosini ko'p sonli moliya muassasalari yoki vositachilar tashkil qiladi. Bu - sotuvchilar va xaridorlar, ya'ni sotiladigan va xarid qilinadigan, pul va boshqa moliya aktivlari mavjud bo'lgan bozor. Ular vaqtinchalik foydalanish uchun (majburiyatli qarzlar shaklida) yoki butunlay (aksiyaga) berilishi mumkin.

Shu bilan birga, moliya bozorlari pul mablag'lari jamg'armalarining egalaridan qarz oluvchilarga boradigan ko'plab turli-tuman yo'llar bilan ta'minlanib turadi. Iqtisodiy adabiyotlarda ular ikki asosiy guruhga ajratiladi.

Birinchi guruhga pul mablag'lari bevosita jamg'armalarning egalarida qarz oluvchilarga beriladigan mablag' bilan bevosita ta'minlash yo'llari kiradi. Ular o'z navbatida ikki turga bo'linadi: *kapital moliyalashtirish* - unga muvofiq tadbirkor mablag'ni mulkining bir qismiga almashtirish hisobga oladi (oddiy aksiyalar) va *qarz olish yo'li bilan moliyalashtirish* - unga muvofiq firma mablag'ni oldindan kelishilgan foiz bo'yicha keyin to'lash va firmaga egalik qilish xuquqini olmaslik haqidagi sharti bilan oladi (obligatsiyalar). Bu barcha qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishi va faoliyat ko'rsatishini belgilaydi.

Bilvosita mablag' bilan ta'minlashga omonatchilarning mablag'larini moliya muassasalariga: tijorat banklari, sug'urta va trast kompaniyallari, pensiya fondlari va hokazolarga

qo'yishga doir barcha operatsiyalar kiradi. Masalan, moliya muassasalari mayda va yirik omonatchilarning mablag'laridan foydalanib, turli-tuman loyihalarni mablag' bilan ta'minlaydi. Mablag' bilan ta'minlashning «bilvositaligi» shundaki, omonatchilarning o'zlari mablag'larini ushbu loyihalarga bevosita qo'ymaydilar.

Jismoniy va yuridik shaxslarning uzoq muddatli pul omonatlari moliya vositachilari tomonidan investitsiya kreditlari sifatida berish uchun foydalaniladi, investitsiya kreditlari uzoq muddatli qimmatli qog'ozlar bilan oldi-sotdi qilinadi.

Omonatlarni faqat uzoq muddatli investitsiyalarga qo'yish shart emas, ularga "umri qisqa" qimmatli qog'ozlar - qisqa muddatli xazina majburiyatlari, veksellar va hokazoni sotib olish mumkin. Fuqarolar va yuridik shaxslarning qisqa muddatli omonatlari hamda pul massasining boshqa elementlari bilan birga ular *pul bozorini* tashkil qiladi.

Pul bozori Markaziy bankning pul-kredit siyosatini joriy qilish obyekti hisoblanadi. U kredit muassasalarning aktivlari bilan savdo qilish uchun mo'ljallangan; bu aktivlar Markaziy bankda kredit muassasalarining eng muhim likvid mablag'lari zahiralar bo'lib xizmat qiladi. Shunday qilib, aktivlarni qiymatlashtirib yoki kamaytirib, Markaziy bank ba'zi banklarning kredit berishga va demak, kredit bo'yicha foizlar qiymatiga va omonatlar bo'yicha foiz stavkalari qiymatiga tayyorligiga ta'sir ko'rsatadi.

Qimmatli qog'ozlar bozori savdo kapitalining pivojlanish bo'sag'asida paydo bo'lgan va ko'pchilik Farb mamlakatlarida u xo'jalik mexanizmining eng barqaror va yo'lga qo'yilgan qismlaridan biri hisoblanadi. U allaqachon birja va birjadan tashqari savdo tizimiga singib ketgan, uning o'z aqidalari va an'analari mavjud, ba'zi qoidalar va an'analari asriy tarixga ega.

Sarmoyalar bozori mamlakat uchun muhim bo'lgan vazifa - yirik davlat muamolarini hqilish uchun sarmoyalarni to'plash masalasini yechishga sharoit tug'diradi.

Sarmoyalar bozorining asosiy moliyaviy vositalari - korporatsiyalar va mahalliy hukumat obligatsiyalari, aksiyalar, kafolat krediti, o'rta va uzoq muddatli xazina majburiyatlari va zayomlarning boshqa turlari hisoblanadi.

Sarmoyalash - qimmatli qog'ozlar bozoridagi va umuman iqtisodiyotdagi qo'llashni ifodalaydigan ko'rsatkich. Korxonani sarmoyalash, birjaviy sarmoyalash va mamlakat iqtisodiyotini sarmoyalash farqlanadi.


2. Qimmatli qog'ozlar haqida tushuncha va ularning mohiyati.

Biror bir mamalakatning barqaror rivojlanishi va dunyo iqtisodiyot maydonida o'z qadr-qimmatiga ega bo'lishi uchun u davlat o'zining bir qator iqtisodiy bozorlarini tashkil etishi va ularni shakllantirishi lozimdir.

Shunday bozorlardan biri –bu ***qimmatli qog'ozlar bozoridir.***

Qimmatli qog'ozlar - shunday pul hujjatidirki, u hujjat egasini uning emitentiga nisbatan mulkiy huquqini, qarz munosabatlarini tasdiqlaydi, ya'ni qimmatli qog'ozning ahamiyati shundan iboratki, u ayni vaqtda mulk tituli ham, qarz majburiyati ham, daromad olishga bo'lgan huquqi ham, daromadning bir qismini to'lash majburiyati hamdir. U alohida hujjat yoki hisob varaqalardagi yozuv shaklida ham bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksiga muvofiq (96-modda) «Mulkiy huquqlarni belgilangan shaklga va majburiy rekvizitlarga amal qilgan holda tasdiqlovchi hujjatlar qimmatli qog'ozlar hisoblanib, ularni taqdim etgan taqdirdagina mazkur huquqlarni amalga oshirish yoki boshqa shaxslarga berish mumkin bo'ladi. Qimmatli qog'ozlar boshqa shaxsga berilishi bilan ular tomonidan tasdiqlanadigan hamma huquqlar ham o'sha shaxsga o'tadi. Qimmatli qog'ozlar jumlasiga quyidagilar kiradi: aksiya, obligatsiya, veksel, depozit va jamg'arma sertifikatlar, bankning



Veksel

taqdim qiluvchiga pul beriladigan jamg'arma daftarchasi hamda qonun hujjatlari bilan qimmatli qog'ozlar jumlasiga kiritilgan boshqa hujjatlar kiradi». Har qanday iqtisodiy kategoriya bozor tavsiflariga ega bo'ladi, ular egalik qilish, chiqarish shakli, muomalada bo'lish xarakteri va mazkur qimmatli qog'ozga qo'yilmalar havf darajasi, daromadni o'z ichiga oladi.

Qimmatli qog'ozlar – bu qonunda belgilangan tartibda chiqarilgan va nominal qiymatga ega bo'lgan pul hujjatlaridir. Ular mulkchilik munosabatlarini ifodalaydi va qandaydir mulk yoki pul miqdoriga egalik qilish huquqini tasdiqlaydi. Qimmatli qog'ozlar dividend yoki foizlar ko'rinishida daromad to'lashni hamda mazkur hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxslarga berish imkoniyatini ham nazarda tutadi.

Boshqacha qilib aytganda:

- egalik qilish huquqini tasdiqlovchi;
- dividend yoki foizlar ko'rinishida daromad olishni ko'zlovchi;
- emissiya qiluvchi va sotib oluvchi o'rtasidagi o'zaro mulkiy munosabatni bildiruvchi;
- boshqa shaxslarga berish imkoniyatini nazarda tutuvchi barcha pulli hujjatlar qimmatli qog'ozlar deb yuritiladi.

Ular blankalar, sertifikatlar shaklida yoki hisob varaqlardagi yozuv ko'rinishida bo'lishi mumkin. Ular hisob-kitob qilishda, shuningdek kreditlar bo'yicha garov sifatida ham foydalaniladi. Qimmatli qog'ozlar yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasida ixtiyoriylik asosida tarqatiladi

Davlat qimmatli qog'ozlari quyidagi maqsadlar uchun chiqariladi:

➤ Joriy-yildagi budjet taqchilligini pul mablag'lari bilan to'ldirish. Markaziy Bank krediti yoki qo'shimcha pul massasini muomalaga chiqarishdan ko'ra qimmatli qog'ozlarni chiqarish yo'li bilan budjet taqchilligini qoplash afzalroq hisoblanadi. Chunki kredit resurslaridan foydalanish kredit bozorining boshqarilishini qiyinlashtirishga olib keladi. Shu sababli iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning tajribasida kredit resurslaridan foydalanishga davlat tomonidan ma'lum chegaralar qo'yiladi.

Budjet taqchilligini qo'shimcha pul massasini chiqarish yo'li bilan to'ldirish esa muomalada real aktivlar bilan to'ldirilmagan to'lov vositalarining paydo bo'lishiga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida inflyatsiyaga va pul muomalasining buzilishiga olib keladi.

➤ Davlatning ilgari qarzlarni qoplash. Bu yerda ham Markaziy bank kreditidan ko'ra qimmatli qog'ozlarni chiqarish va ular vositasida qoplash ancha kam chiqimdir.

➤ Investitsiya uchun qo'shimcha manba yaratish. Yangi firmalar ochish, amaldagi ish joylarini kengaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilishda korxona, firma, tashkilotlarga bank kreditidan ko'ra qimmatli qog'ozlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

➤ Davlat budjetining kassaviy majburiyatlarini ta'minlash.

➤ Soliq to'lovlarining notekis tushumlarini barqarorlashtirish.

➤ Mahalliy boshqaruv organlari tomonidan amalga oshirilayotgan maqsadli rivojlanish dasturlarini qo'llab-quvvatlash. Masalan, mahalliy boshqaruv organlariga o'z obligatsiyalarini chiqarishga ruxsat berilgan. Ulardan tushgan pul mablag'lari, asosan, mahalliy hududlarni obodonlashtirishga, ekologiyani yaxshilashga, ma'naviy-ma'rifiy, maishiy xizmat obyektlarini qurishga va ta'minlashga yo'naltiriladi. Mahalliy obligatsiyalarni sotib oluvchi investorlarga, rag'batlantiruvchi vosita sifatida, mahalliy soliqlardan ozod etish kabi imtiyozlar ham taqdim etilishi mumkin. Shuning uchun ham mahalliy obligatsiyalar soliqlarga tortiluvchi boshqa turdagi barcha obligatsiyalarga nisbatan ko'proq daromad keltiradi.

➤ Tijorat banklarini likvidli zahira aktivlari bilan ta'minlash. Shu maqsadda davlat bozor muomalasida bo'lmaydigan qarz majburiyatlarini chiqaradi. Bu majburiyatlar asosan xalqqa sotilishi mo'ljallangan bo'lib, sotib olgan kishi ularni boshqa birovlariga sota olmaydi va belgilangan muddat kelmaguncha qarzga barcha o'z pullarini davlatdan qaytarib olmaydi.

Shunday qilib, hamma qimmatli qog'ozlar daromad keltiruvchi bo'lib, bozorda ham, boshqa bozorlarda bo'lgani kabi sotuvchi va xaridor o'rtasidagi munosabatda yuzaga keladi. Bu yerda tovarlar sifatida qimmatli qog'ozlar namoyon bo'ladi. Ular bilan bo'ladigan oldi-sotdi munosabatlari kimoshdi savdosi va banklarda amalga oshiriladi.

Qimmatli qog'ozlar bozori – bozor iqtisodiyotining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri. U moliya bozorining bir qismi bo'lish bilan birga jamg'armalarni to'playdigan va keyinchalik iqtisodiyotga investitsiyalash hamda uning ishlab chiqarish quvvatini takomillashtirish uchun ularni moliya aktivlariga aylantiradigan kanal vazifasini o'taydi. Qimmatli qog'ozlar bozori bank krediti tizimini to'ldiradi va u bilan o'zaro munosabatda bo'ladi. Tijorat banklari, odatda kreditni bir-yildan ko'p muddatga bermaydi. Qimmatli qog'ozlar bozori esa, ishlab chiqaruvchilarga ancha ko'p miqdordagi pul mablag'larini amalda istalgan muddatga hamda bank kreditiga nisbatan foydaliroq shartlarda jalb qilishga imkon beradi. Bu bozor boshqa bozorlar kabi, talab va taklif duch keladigan oldi-sotdiga doir iqtisodiy munosabatlar tizimidan iborat.

Qimmatli qog'ozlar bozori ham boshqa bozorlarga o'xshab talab va taklifga binoan amal qiladi. Bu yerda talab asosan ikki yo'nalishda bo'ladi:

- investitsiyani moliyalashtirish maqsadida korxona, korporatsiya va davlat tomonidan kredit olish;

- uy-joy, ko'chmas mulk egasi bo'lish maqsadida aholi va xususiy sektor tomonidan qimmatli qog'ozlarni kreditor (qarz beruvchi) sifatida sotib olish.

Qimmatli qog'ozlar bozori tashkiliy jarayon nuqtai nazaridan:

- *birlamchi bozorlarga;*

- *ikkilamchi bozorlarga;*

shaklan esa:

- *birjaviy bozorlarga;*

- *nobirjaviy bozorlarga bo'linadi.*

Qimmatli qog'ozlarning birlamchi bozori deganda qimmatli qog'ozlarni dastlabki egalari (investorlar)ga, ya'ni yuridik va jismoniy shaxslarga sotish maqsadida ularni birlamchi va takror (ikkilamchi va h. k.) emissiya qilish va muomalaga chiqarish tushuniladi. Bu bozor qimmatli qog'ozlarni joylashtirishni tashkil kiluvchi va ta'minlovchi bozordir. Boshqacha qilib aytganda, birlamchi bozor - bu birlamchi va takror emissiya qilingan qimmatli qog'ozlarni dastlabki egalari joylashtiruvchi bozordir. Bu bozorda davlat va munitsipal obligatsiyalar, shuningdek, turli aksioner jamiyatlarining aksiyalari va obligatsiyalari emissiya qilinadi.

Qimmatli qog'ozlarning birlamchi bozorga chiqarish va joylashtirish maqsadida quyidagi amallar bajariladi:

- aksionerlik jamiyatlari o'zining ustav kapitalini, chiqariladigan qimmatli qog'ozlar turlarini, ularning muomalasi sharoitini aniqlab chiqadi;

- aksionerlik jamiyati chiqaradigan qimmatli qog'ozlarni joylashtirish kafilligini oluvchi investitsiya bankini izlaydi;

- investitsiya banki, yuristlar, auditorlar, aksionerlik jamiyatining qimmatli qog'ozlarni chiqarish bo'yicha qarorini va uning harakatini baholab chiqadi;

- aksionerlik jamiyati direksiyasi, investitsiya banki, yurist va auditorlar qimmatli qog'oz va birja bo'yicha komissiyaga emissiya prospektini qayd qilish arizasini tayyorlaydi;

- qimmatli qog'ozlarni joylashtirish kafilligini olgan investitsiya banki emissiya prospektini xomaki nushasini potensial investorlar orasida tarqatadi, savdo agentlari esa, buyurtmalarni yig'adi.

Birlamchi bozorning eng muhim funksiyasi shundan iboratki, uning emitent xususida tayyorlagan axboroti investor uchun o'sha emitentni tanlashga to'la-to'kis asos bo'la olishi kerak.

Qimmatli qog'ozlarning birlamchi bozorida quyidagi muassasalar investorlar bo'lib hisoblandi:

- investitsiya banklari;

- tijorat banklari;

- investitsiya fondlari;

- investitsiya kompaniyalari va boshqa investitsiya institutlari;

- sug'urta kompaniyalari, fondlar va boshqa moliya-kredit muassasalari.

Qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi bozori deganda, egasi bor qimmatli qog'ozlarni talab va taklifdan kelib chiqqan holda qayta oldi-sotdisini tashkil qilib va ta'minlab beruvchi bozor tushiniladi. Uning funksiyasi qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdisini tezkorlik bilan ta'minlashdir.

Unda sotuvchi va xaridorni uchrashtirish, bo'sh kapitalni iqtisodiyotning eng unumli sohasiga zudlik bilan safarbar qilish, tomonlarning o'zaro manfaatlarini ta'minlash ikkilamchi bozorning asosiy vazifasi bo'lib hisoblanadi. Ikkilamchi bozor:

- yuqori likvidlikka ega, ya'ni qisqa muddat ichida juda katta miqdordagi qimmatli qog'ozlarni ular kursining sezilarlisiz o'zgarishi sharoitida kam xarajat bilan oldi-sotdiga jalb qila oladi. Respublikamizda ikkilamchi bozorga nisbatan birlamchi bozor tezroq rivojlanish tendensiyasiga ega.

Birjaviy qimmatli qog'ozlar bozori - bu fond birjasi bo'lib, u belgilangan tartibda qimmatli qog'ozlarning erkin savdosini brokerlar, maklerlar, dilerlar tomonidan amalga oshirishni ta'minlab beruvchi bozordir.

Nobirjaviy qimmatli qog'ozlar bozori - bu qimmatli qog'ozlarning muomalada bo'lishini ta'minlovchi muhit bo'lib, unda fond birjalariga sotuvga qo'yilmagan qimmatli qog'ozlarning erkin savdosi amalga oshiriladi.

Qimmatli qog'ozlar bozorining o'ta murakkabligi va uning tez o'zgaruvchanligi, ishtirokchilar sonining ko'pligi va xilma-xilligi, katta hajmlarda shartnomalar va amallarning bajarilishi, har xil turdagi axborotlarning mavjudligi va ularning almashinib turishi va boshqa omillarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi turli g'ayriqonuniy ishlarning yuz berishiga sabab bo'lishi mumkin. Bunday hol investorlarning manfaatlarini va huquqlarini paymol qilishga, ularning fond bozoriga nisbatan ishonchlarini kamaytirish, pirovard natijada esa, bozorning nufuzini pasaytirishi mumkin.

Shu sababli qimmatli qog'ozlar bozori davlat boshqaruvi vakolatli organlari tomonidan nazorat qilib turiladi va boshqariladi.

Ikkinchi yo'l bilan bozorni boshqarishga quyidagilar qo'llaniladi:

- pul-kredit siyosatini yuritish va shu orqali foiz stavkalariga ta'sir qilish;
- soliq siyosatini o'tkazish;
- xususiy sektorning depozit kreditlari bo'yicha kafolatlarni muvofiqlashtirish;
- korporatsiyalar hamkorligida kredit uchun raqobat yo'lida davlat qimmatli qog'ozlarini chiqarish;
- tashqi iqtisodiy faoliyatdagi holatni inobatga olish.

Qimmatli qog'ozlar bozorini boshqarish Moliya vazirligi, Markaziy bank yoki boshqa davlat organlariga yuklatilishi mumkin.

Nazorat savollari.

1. Moliya bozoriga tushuntirish bering.
2. Moliya bozori qanday funksiyalarni bajaradi?
3. Moliya bozorining tarkibiy tuzilishi qanday?
4. Qimmatli qog'ozlar deganda nimalar tushuniladi?
5. Qimmatli qog'ozlar qanday ko'rinishlarda bo'lishi mumkin?
6. Qimmatli qog'ozlar bozoriga ta'rif bering.
7. Qimmatli qog'ozlarning birlamchi bozori deganda nima tushuniladi?
8. Qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi bozori deganda qanday bozor tushiniladi?
9. Birjaviy qimmatli qog'ozlar bozorining mohiyati nimadan iborat?
10. Nobirjaviy qimmatli qog'ozlar bozorining mohiyati nimadan iborat?

10-mavzu. Uy xo‘jaliklari moliyasi va budjeti /2 soat/**Reja**

- 1. Uy xo‘jaliklari moliyasining mohiyati va funksiyalari**
- 2. Uy xo‘jaliklarining moliyaviy resurslari va daromadlari**
- 3. Uy xo‘jaliklarining xarajatlari**

1. Uy xo‘jaliklari moliyasining mohiyati va funksiyalari

“Uy xo‘jaligi” tushunchasi birgalikda yashovchi, umumiy xo‘jalik yurituvchi insonlarni qamrab oladi. Uy xo‘jaligi qarindosh bo‘lmagan, biroq uy xo‘jalikligi budjetiga o‘zining daromadlari (ovqatlanish, yashash qismi bo‘yicha) ulushini qo‘shuvchi shaxslarni ham o‘z ichiga olishi mumkin. Misol uchun, fermer xo‘jaliklari a‘zolari yoki birga yashovchi uy xizmatkori. Uy xo‘jaligi o‘zining daromad manbaiga ega bo‘lgan bir kishidan ham iborat bo‘lishi mumkin.

Uy xo‘jaligi moliya munosabatlaridan tashqarida bo‘lishi mumkin emas, u doimo uy xo‘jaligi ichida, shuningdek uy xo‘jaligiga nisbatan uning tashqarisida bozor subyektlari bilan yuzaga keluvchi munosabatlarga kirishadi.

Uy xo‘jaligining ichki moliyasiga shunday munosabatlarni kiritish mumkinki, qaysiki uning ishtirokchilari o‘rtasida turli maqsadlarga yo‘naltirilgan oilaviy pul jamg‘armalarini, joriy iste‘mol darajasini saqlab turish uchun sug‘urta zahiralarni, kapital xarajatlar darajasini ko‘tarish uchun pul zahiralarni, kelajakda investitsiyalash maqsadidagi pul jamg‘armasini va b. shakllantirish bo‘yicha yuzaga keluvchi.

Uy xo‘jaligining tashqi moliyaviy munosabatlar tizimi murakkabdir. *Uy xo‘jaliklari quyidagi moliyaviy munosabatlarga kirishishlari mumkin:*

- boshqa uy xo‘jaliklari bilan, birgalikdagi pul jamg‘armalarini shakllantirish bo‘yicha (ularga uy xo‘jaliklari ham qatnashishi mumkin bo‘lgan qzaro ayirboshlash munosabatlari kirmaydi);
- moddiy ishlab chiqarishning yoki xizmat ko‘rsatishning turli tarmoqlarida faoliyat yurituvchi va uy xo‘jaligi qatnashchilariga nisbatan ish beruvchi sifatida namoyon bo‘luvchi korxonalar bilan, yaratilgan yalpi ichki mahsulotning bir qismini qiymat ko‘rinishida taqsimlanishi bo‘yicha;
- tijorat banklari bilan, iste‘mol kreditlarini olish, ularni so‘ndirish bo‘yicha; vaqtincha bo‘sh pul mablag‘larini bank omonatlariga joylashtirish bo‘yicha;
- sug‘urta tashkilotlari bilan, turli xildagi sug‘urta fondlarini shakllantirish va ishlatish bo‘yicha;
- davlat bilan, budjet va budjetdan tashqari fondlarni tashkil qilish va ishlatish bo‘yicha.

Yuqorida sanab o‘tilgan munosabatlar “uy xo‘jaliklari moliyasi” kategoriyasining *ijtimoiy-iqtisodiy mazmunini* tashkil etadi. Shundan kelib chiqib, **uy xo‘jaliklari moliyasi** – bu pul mablag‘lari jamg‘armalarini shakllantirish va ishlatish bo‘yicha uy xo‘jaligi va uning alohida qatnashchilari o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati jarayonida kirishuvchi munosabatlari yig‘indisi.

Uy xo‘jaliklari moliyasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati uning *funksiyalari* orqali namoyon bo‘ladi.

Uy xo‘jaliklari moliyasi quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Taqsimlash;
2. Tartibga solish;
3. Nazorat;
4. Investitsiya.

Uy xo‘jaliklari moliyasi taqsimlash funksiyasini bajarish bilan ishchi kuchining – ishlab chiqarish omillaridan biri sifatida uni takror ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini moddiy

resurslar bilan ta'minlaydi. Aynan uy xo'jaliklari moliyasining mana shu funksiyasi orqali har bir insonni hayot faoliyatini olib borish uchun zarur resurslar bilan ta'minlanishi amalga oshiriladi.

Taqsimlash funksiyasini amal qilish *obyekti* uy xo'jaligining tasarruf etadigan daromadi – yalpi daromadning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langanidan keyin uy xo'jaligining ixtiyorida qoladigan qismi.

Uy xo'jaliklari moliyasining yana bir funksiyasi *nazorat* hisoblanadi. Bozor munosabatlari sharoitida uy xo'jaligi mustaqil xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi, ya'ni uy xo'jaligi a'zolarining hayot darajasi to'laligicha daromadning unga tegishli ulushiga bog'liq. Bu miqdorga qator omillar tahsir qiladi. Ular ta'siri ostida daromaddagi ulush ko'payishi yoki kamayishi mumkin. Shuning uchun, iste'molning odatiy darajasini saqlab turish masadiga ega bo'lgan holda, uy xo'jaligi olingan daromadni turli jamg'armalar bo'yicha taqsimlanishi, shuningdek bu jamg'armalar mablag'laridan maqsadli foydalanish ustidan nazoratni amalga oshirmasdan ilojisi yo'q.

Uy xo'jaligi iqtisodiyoti uning turli qatnashchilari o'rtasidagi yetarlicha murakkab munosabatlari majmuiga tayanadi. Uy xo'jaligini turli qatnashchilarining iqtisodiy manfaatlarini muvofiqlashtirish ularni *tartibga solish* orqali ta'minlanadi. Tartibga solish deganda daromadning uy xo'jaligining bir a'zoriga to'g'ri keladigan tegishli qismini o'zgarish mumkinligi tushuniladi.

Shunday qilib, uy xo'jaliklari moliyasi yana bir muhim funksiya – *tartibga solish* funksiyasini ham bajaradi. U uy xo'jaligini yagona bir butunlikda balansli rivojlanishini ta'minlaydi. Bunga moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash yo'li bilan erishilinadi. Shuni ta'kidlash kerakki, uy xo'jaligi darajasida uning rivojlanishini tartibga solish, asosan, o'zini-o'zi tartibga solish bilan amalga oshiriladi. Bu jarayonda uy xo'jaligi qatnashchilarining erkinligi davlat tomonidan chegaralanishi mumkin emas.

Uy xo'jaligi pul jamg'armalarining zarurligi va shakllantirish usullari, ularning hajmi va maqsadi to'g'risida, ularni ishlatish vaqtlari to'g'risida mustaqil qaror chiqaradi. Boshqacha so'z bilan aytganda, bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat uy xo'jaliklari egalik qilayotgan daromadlarni taqsimlanish jarayoniga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qilish vositalariga ega emas. Shu bilan birgalikda, davlat uy xo'jaliklari real egalik qilayotgan daromadlariga ta'sir o'tkazishi mumkin. Uy xo'jaliklarining real daromadlari uy xo'jaliklari va davlat o'rtasida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlar jarayonida yalpi ijtimoiy mahsulot qiymatini ko'p marotaba taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi natijasida tashkil bo'ladi. Jismoniy shaxslar tomonidan to'lanayotgan soliqlarning stavkalarini ko'tarilishi ularning real daromadlarini kamayishiga olib keladi. Shu bilan birga, soliqlar orqali yig'ilgan moliyaviy resurslar budget orqali soliqni saqlash, ta'lim, ijtimoiy ta'minot sohalariga yo'naltiriladi, natijada uy xo'jaliklarini real daromadlarining darajasi ortadi.

Ijtimoiy takror ishlab chiqarish tizimida uy xo'jaliklari moliyasining muhim funksiyalaridan biri *investitsiya* funksiyasidir. U shundan iboratki, uy xo'jaliklari iqtisodiyot uchun asosiy moliyaviy resurslarni yetkazib beruvchilardan biri hisoblanadi. Uy xo'jaliklari daromadlarining o'sishi mazkur funksiyani bajarilishining moddiy asosi hisoblanadi. Ko'pincha uy xo'jaliklarining investitsiya funksiyasi faqatgina kapitallashtirilayotgan daromadlar ulushi, ya'ni jamg'arma (omonat) (turli moliyaviy institutlarga va real ishlab chiqarishga qo'yilmalar) sifatida ishlatilayotganlar bilan bog'lanadi. Biroq, bu yondoshuv bir tomonlama hisoblanadi. Aslida esa, iste'mol ulushining ortishi ham iqtisodiyotda investitsiyalarning o'sishiga ko'mak beruvchi omil hisoblanadi.

2. Uy xo'jaliklarining moliyaviy resurslari va daromadlari

Uy xo'jaliklarining moliyaviy qarorlari, avvalo, pul jamg'armalarini ishlatilishiga nisbatan qabul qilinadi. Moddiy tarkibi nuqtai nazaridan uy xo'jaliklari moliyasi – bu ular tomonidan yaratilgan maqsadli pul jamg'armalari yig'indisi, boshqacha so'z bilan – bu uy xo'jaligi tasarruf etayotgan moliyaviy resurslarining umumiy hajmi. *Uy xo'jaliklarining moliyaviy resurslari tarkibiga quyidagilar kiradi:*

– joriy xarajatlarga, ya'ni oziq-ovqat mahsulotlarini, nisbatan qisqa vaqt davri davomida ishlatiladigan nooziq-ovqat tovarlarini (oyoq kiyimi, kiyim-kechak va sh.k.) sotib olish, davriy iste'mol qilinadigan xizmatlar uchun to'lovlar va b.;

– kapital xarajatlarga mo'ljallangan pul mablag'lari;

– etarlicha uzoq muddat davri davomida ishlatiladigan nooziq-ovqat tovarlarini olish (mebel, uy-joy, transport vositalari va sh.k.), uy xo'jaligi qatnashchilari tomonidan yetarlicha kam iste'mol qilinadigan xizmatlar uchun to'lovlar (ta'lim, tibbiy operatsiyalar, sayyohlik yo'llanmalari);

– pul jamg'armalari (omonatlari);

– ko'char va ko'chmas mulkka qo'yilgan pul mablag'lari.

Odatda, uy xo'jaligi o'zining xo'jalik faoliyatini bo'sh joydan boshlamaydi, ya'ni birlamchi asosan me'ros bo'yicha, ba'zida hadya natijasida o'tuvchi avvalgi boylikka ega bo'ladi. Bu boylik turli ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Eng avvalo, ko'chmas mulk, naqd pullar ko'rinishida, ayrim hollarda esa – qimmatli qog'ozlar. Birlamchi resurslardan tashqari uy xo'jaliklari moliyaviy resurslarining manbalari quyidagilar bo'lishi mumkin:

a) uy xo'jaligining tasarruf etadigan daromadi;

b) iste'mol krediti;

v) ijtimoiy transfertlar;

g) boshqa resurslar (misol uchun, bu lotereyalardan yutuqlar, shaxsiy zayomlarni boshqa jismoniy shaxslarga sotishdan daromadlar bo'lishi mumkin).

Daromadlar uy xo'jaliklarining iste'mol tovarlari va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini qondirishga, to'plash va jamg'arishga hamda majburiy to'lovlarga, ya'ni xarajatlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Uy xo'jaliklarining daromadlarini turli mezonlar bo'yicha ajratish mumkin. Eng avvalo, daromadlarni pul ko'rinishidagi va natural ko'rinishdagilarga bo'lish mumkin. Natural ko'rinishdagi daromadlarga shaxsiy tomorqalardan va xo'jaliklardan olingan mahsulotlar, shuningdek qishloq xo'jalik korxonalaridan natural haq ko'rinishida olinadigan mahsulotlar kiradi. Agar, uy xo'jaligi mahsulotlarning bir qismini bozorda sotish maqsadida ishlab chiqaradigan yoki yetishtiradigan bo'lsa, u holda sotishdan olingan tushumni pul daromadlari, deb hisoblash lozim.

Uy xo'jaliklarining pul daromadlarini ularni kelish manbalari bo'yicha bo'lish mumkin. Uy xo'jaliklarining pul daromadlari uchta manbadan olinishi mumkin:

1) yollanma xodim sifatida ishlayotgan oila a'zolarining ish haqlari, mukofotlari, ish haqlariga qo'shimchalar, xizmat safari xarajatlari mablag'lari, ish beruvchi tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy xarakterdagi to'lovlar;

2) tadbirkorlik faoliyatidan, korxonalar foydasida ishtirok etishdan, shaxsiy mulk (ko'chmas mulk) bilan operatsiyalardan va kredit-moliyaviy operatsiyalardan olinadigan daromadlar;

3) davlat pensiyalari, nafaqalari, stipendiyalar va boshqa ijtimoiy transfertlar.

Ish haqi uy xo'jaligi daromadlarini asosiy manbalaridan biri hisoblanadi.

3. Uy xo'jaliklarining xarajatlari

Iqtisodiy fanda uy xo'jaliklarining xarajatlarini turkumlashga turlicha yondoshuvlar mavjud. Uy xo'jaliklarining xarajatlarni ularni amalga oshirilishining davriyligi (chastotasi) nuqtai nazaridan uchta umumlashgan guruhlariga bo'linadi:

1) qisqa muddatli xarajatlar;

2) o'rta muddatli xarajatlar;

3) uzoq muddatli xarajatlar.

Uy xo'jaliklari tomonidan amalga oshiriladigan xarajatlar ularning funksional vazifalari bo'yicha quyidagi asosiy guruhlariga bo'linadi:

a) shaxsiy iste'mol xarajatlari (tovarlar sotib olish va xizmatlarga to'lovlar);

b) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar;

v) pul jamg'armalari va omonatlari.

Uy xo'jaliklari xarajatlarini kelgusi tavsifi uchun ularni turkumlashning boshqacha variantidan foydalanish mumkin. Ular yuqoridagi ikkita mezonni umulashtirish imkonini beradi. Bu variant uy xo'jaliklari budjetining xarajatlar qismini uchta asosiy bo'limga bo'lishni nazarda tutadi:

1. Majburiy to'lovlar.
2. Iste'mol xarajatlari.
3. Pul omonatlari.

Uy xo'jaliklarining majburiy to'lovlari uning real daromadlarini qisqartiradi. Bunday xarajatlarga soliqlar va boshqa davlat majburiy to'lovlarini to'lash hamda kommunal xizmatlar uchun to'lovlar kiradi. Mazkur modda bo'yicha uy xo'jaliklari qanchalik pul mablag'larini ko'p sarflasalar, shunchalik oz pul mablag'larini joriy iste'mol va jamg'arishga yo'naltirishi mumkin.

Tovarlar sotib olish va xizmatlarga to'lovlar bo'yicha iste'mol xarajatlari shaxsiy yoki oilaviy ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq.

Tovarlar sotib olish va xizmatlarga to'lovlar bo'yicha xarajatlarning miqdori chakana narhlarga, oilaning konkret narsalarga ehtiyojiga, ularning pul daromadlarini hajmiga va oila tomonidan to'lanadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar summalariga bog'liq.

Uy xo'jaliklarining iste'mol uchun qiladigan xarajatlarini *joriy xarajatlar* va *kapital xarajatlarga* ajratish maqsadga muvofiq.

Iste'mol xarajatlari va soliqlar va majburiy to'lovlar to'langanidan so'ng qoladigan pul daromadlarining bir qismi pul jamg'armalari va omonatlarining manbai hisoblanadi. Alohida uy xo'jaliklari uchun bu jamg'armalar "qora kun" uchun olib qo'yiladi yoki qimmatbaho tovar sotib olishga yo'naltiriladi. Boshqa uy xo'jaliklari uchun yuqori darajali daromadlar ularning bir qismini qo'shimcha daromad olish uchun va inflyatsiyadan saqlanish uchun, ya'ni qimmatli qog'ozlar sotib olish, bank omonatlari qo'yish va b. uchun jamg'arishga yo'naltirilishi mumkin.

Nazorat savollari.

1. Uy xo'jaliklari moliyasini moliya tizimida alohida ajratishning zarurligi nimada?
2. Uy xo'jaliklari qanday moliyaviy munosabatlarga kirishishlari mumkin?
3. Uy xo'jaliklari moliyasining ijtimoiy-iqtisodiy mazmunini tushuntiring.
4. Uy xo'jaliklari moliyasi qanday funksiyalarni bajaradi?
5. Uy xo'jaliklarining moliyaviy resurslari tarkibiga nimalar kiradi?
6. Uy xo'jaliklari moliyaviy resurslarining manbalari nimalar bo'lishi mumkin?
7. Uy xo'jaliklarining xarajatlari qanday turkumlanadi?

11-mavzu. Xalqaro moliya va uning jahon taraqqiyotida tutgan o‘rni /2 soat/**Raja****4. Xalqaro moliyaning mohiyati****5. Xalqaro tashkilotlar moliyasi va xalqaro moliyaviy institutlar****1. Xalqaro moliyaning mohiyati**

Moliya tizimining xususiyati shundaki, u nafaqat alohida olingan mamlakat yoki hududda yuzaga keladi va milliy sanaladi, balki xalqaro ko‘lamda ham amal qiladi hamda – *xalqaro moliya tizimi deyiladi* (qisqartmasi “xalqaro moliya”).

Xalqaro moliya – o‘zida obyektiv asosga ega bo‘lgan maxsus moliyaviy munosabatlarni aks ettiradi. Xalqaro moliyaning moddiy asosini mamlakatlararo quyidagi ko‘rinishdagi xalqaro moliyaviy oqimlar tashkil qiladi:

a) tovar va xizmatlar eksportidan valyuta daromadlari tushumlari va import qilinayotgan tovar xizmatlarga to‘lovlar bo‘yicha pul oqimlari; bu oqimlar xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyasini aks ettirishi mumkin, lekin ular turli mamlakatlarga tegishli ekan, demak ular mamlakatlararo pul oqimlarini aks ettiradi;

b) kredit mablag‘larining oqimi, qaysiki ular ikki tomonlama ham hisoblanadi: bir tomondan, ssudalar taqdim etiladi, boshqa tomondan esa – uning so‘ndiriladi va foizlar to‘lanadi.

Shunday qilib, mazkur oqimlar bazasida mamlakatlar o‘rtasidagi moliyaviy resurslar harakati yuzaga keladi. Ularning taqsimlanishi, bir tomondan, valyuta kurslari bilan, ikkinchi tomondan esa, bojxona tariflari va qoidalar bilan tartibga solinadi.

Biroq, yuqoridagilar xalqaro xarakterga ega bo‘lgan moliyaviy resurslarni paydo bo‘lish va ishlatilish sabablari va asoslarini to‘laligicha namoyon eta olmaydi.

Moliyaviy resurslar xalqaro moliyaviy institutlar va tashkilotlar faoliyati jarayonida shakllanadi va ishlatiladi. Bu institut va tashkilotlar millatlararo ustqurmaga egalar, ma‘lum funksiyalarni bajaradilar. Ularning moliyaviy ta‘minoti fondlar orqali amalga oshiriladi. Ular umumlashgan (misol uchun, BMT budjeti) yoki maqsadli (alohida tadbir yoki dastur bo‘yicha) bo‘lishi mumkin. Mazkur institutlar va tashkilotlarning moliyaviy resurslari ikki xil yo‘l bilan shakllanadi: alohida mamlakatlarning badallari hisobidan va hukumatlarga kreditlar berish, ularni qaytarilishi va foizlar to‘lanish yo‘li bilan. Moliyaviy resurslarning ma‘lum bir qismini jahon darajasida markazlashtirilishi jahon xo‘jaligi ehtiyojlarini qondiradi; bunday resurslarning iqtisodiy asoslari savdoni, kreditni rivojlanishi, mamlakatlarning turli sohalaridagi xalqaro loyihalar va dasturlarni amalga oshirilishidagi ishtiroki, to‘laligicha iqtisodiy integratsiyalashuvning o‘sishi hisoblanadi.

Shunday qilib, *xalqaro moliya* – bu tarkibiy jihatdan murakkab munosabatlar tizimi bo‘lib, ular xalqaro moliya bozori institutlari va xalqaro institutlar va tashkilotlar tomonidan moliyaviy resurslarni shakllantirish, taqsimlash va ishlatishni o‘z ichiga oluvchi moliyaviy resurslar harakati asosida yuzaga keladi.

Xalqaro moliya munosabatlarining subyektlari: davlat, korxonalar, fuqarolar, shuningdek xalqaro tashkilotlar va moliya institutlari.

Xalqaro moliya munosabatlar quyidagilar o‘rtasida yuzaga kelishi mumkin:

- turli mamlakatlarning xo‘jalik yurituvchi subyektlari o‘rtasida;
- davlat va boshqa mamlakatlarning hukumatlari va xalqaro tashkilotlar o‘rtasida;
- davlat va kotxonalar o‘rtasida, xalqaro moliyaviy institutlar bilan.

Xalqaro hisob-kitoblar va valyutali tartibga solish xalqaro moliyani amal qilish mexanizmi tarkibiga kiradi. Hisob-kitoblar tartibi xalqaro hujjatlar va bitimlar bilan me‘yorlashtiriladi. Hujjatli rasmiylashtirishni standartlash eksportchilar va importchilarga tovarlarni yetkazib berish va

ularning to'lovi kafolatini ta'minlash uchun muhimdir. Uning o'zi tomonlarning huquqlari, majburiyatlari va mas'uliyatlarining bir xil tushunilishini o'rnatib beradi.

Xalqaro hisob-kitoblarning shakllari *inkasso* va *akkreditiv* hisoblanadi. *Bank o'tkazmalari* va *hisob raqamlarini ochishdan* foydalaniladi.

2. Xalqaro tashkilotlar moliyasi va xalqaro moliyaviy institutlar

Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar (XIT) xalqaro bitim asosida ma'lum iqtisodiy aloqalarni (valyuta, kredit, soliq, transport, tovar almashuvi va h.k.) olib borish maqsadida tuzilgan tashkilotdir.

XIT – tuzilishining asosiy maqsadi jahon hamjamiyatida yoki ma'lum mintaqada iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishdir.

XITlar faoliyat ko'lamini nuqtai nazaridan jahon miqyosidagi yoki mintaqaviy tashkilot bo'lishi mumkin.

Jahon miqyosidagi (umumjahon) XITlar: Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki, Umumjahon savdo tashkiloti, Xalqaro mehnat tashkiloti, BMT ning Iqtisodiy-ijtimoiy kengashi, unga tegishli maxsus muassasalar, Jahon Islom konferensiyasi tashkiloti va h.k.

Mintaqaviy XITlar: *Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (EKO)*, *BMT ning mintaqaviy tashkilotlari – ESKATO, YeEK va h.k.*

XIT shu tashkilotning umumiy tamoyillari va yo'nalishini belgilovchi yuridik hujjat asosida o'z faoliyatini olib boradi. Bu hujjat har bir a'zo tomonidan imzolaniib, nizom (ustav), deklaratsiya yoki bitim tarzida bo'ladi.

Nima uchun bu tashkilotlar xaqida chuqurroq bilishimiz kerak? Chunki, dunyo hamjihatligiga, iqtisodiy hamkorlik rivojini ta'minlashga, integratsion jarayonlarga bir tomondan davlatlararo munosabatlar bilan chiqilsa, ikkinchi tomondan, aynan shu tashkilotlar faoliyatida qatnashish orqali erishiladi.

Jahon hamjihatligida bo'lish, unda muhim o'rin egallash davlat mavqeini mustahkamlab, halk faravonligini ta'minlovchi katta omil bo'lib kelgan.

Xalqaro tashkilotlarning hukumatlararo, shuningdek hukumat tashkilotlari bo'lmaganlari ham, xalqaro moliyaviy bozorlarning rivojlanishiga ma'lum ta'sir ko'rsatadi.

Davlatning xohish-irodasini ifodalash bilan, davlatlararo tashkilotlar o'zlarining vakolatlari doirasida ta'sis hujjatlarida mustahkamlangan bo'lib, davlatlar bilan bir qatorda jahon moliya bozorlari subyektlarining nufuzlarini tartibga solib boradi va davlatlararo valyuta kredit munosabatlarini boshqarib turadi.

BMT (asosiy organlar: Bosh Assambleya, Havfsizlik kengashi, Iqtisodiy va ijtimoiy Kengash (EKOSOS), Xalqaro sud va kotibiyat) quyidagi asosiy maqsadlarni ko'zlaydi:

- xalqaro tinchlik va xavfsizlikni qo'llab-quvvatlash va ushbu maqsadlarda samarali jamoatchilik tomonidan tinchlikga xavf soluvchi tajovuzlarni bartaraf etish xamda tajovuzkorlik hollarini tinchitish uchun samarali choralarni ko'rish, adolat va xalqaro huquq tamoyili asosida xalqaro kelishmovchiliklar va vaziyatlarni bartaraf etish, tinchitish, ularning tinchlikka xavf solishini oldini olish;

- teng huquqli va xalqlarning o'z taqdirini o'zlari hal etish tamoyillarini hurmat qilgan holda millatlar o'rtasida do'stona munosabatlarni rivojlantirish;

- ushbu umumiy maqsadlarga erishish yuzasidan xarakatlarning kelishilgan markaziga aylanishlik.

BMTning ixtisoslashgan muassasalari – ular mustaqil ravishdagi xalqaro tashkilotlardir. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlariga bevosita va bilvosita quyidagilar kiradilar: Xalqaro valyuta fondi, Xalqaro tiklanish va rivojlanish banki, Xalqaro moliyaviy uyushma (XMU) va Xalqaro rivojlanish uyushmasi.

Xalqaro moliyaviy birlashma (XMB) 1959-yilda AQSh tashabbusi bilan rivojlanayotgan mamlakatlarning sanoatiga xususiy sarmoyalarni kiritishni rag'batlantirish uchun barpo etilgan.

Xalqaro moliyaviy birlashma Jahon bankining guruhiga a'zo bo'lgani holda, yuridik va moliyaviy jihatdan mustaqil tashkilot hisoblanadi, ixtisoslashgan muassasa sifatida BMT tizimiga kiradi.

Xalqaro moliyaviy birlashmaning joylashish o'rni Vashington shahrida bo'lib, Byurosi esa Frankfurt-Mayida, London, Parij, Tokio shaharlarida birlashmaning vakolatxonalari Afrika, Osiyo, Lotin Amerikasi va Yevropada ish olib boradi.

Xalqaro moliyaviy birlashmaning asosiy maqsadi:

Xalqaro moliyaviy birlashmaning asosiy maqsadlaridan bo'lib, rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy o'sishiga ishlab chiqarish sohasida xususiy korxonalarni rivojlantirish yo'li bilan rag'batlantirib ko'maklashishdir.

Xalqaro moliyaviy birlashmaning tarkibi:

Xalqaro moliyaviy birlashmaning Oliy organlaridan bo'lib, Boshqaruvchilar va ularning o'rinbosarlaridan tashkil topgan Kengash hisoblanadi. Jahon bankining xar bir boshqaruvchisi avtomatik ravishda Xalqaro moliyaviy birlashmaning boshqaruvchisi hisoblanadi. Direktorat Xalqaro moliyaviy birlashmaning joriy faoliyatini yo'naltirib boradi.

Xalqaro institutlarning yetakchi sakkizta vakllaridan iborat bo'lgan bank maslahati komissiyasi o'zliksiz ravishda Xalqaro moliyaviy birlashma rahbariyati bilan uchrashib, xizmatga oid va siyosiy muammolarni birgalikda hal qilib boradi.

Moliyaviy manbalari.

Xalqaro moliyaviy birlashmaning manbalariga a'zolarning nizom sarmoyalariga bo'lgan ballari, Xalqaro tiklanish va rivojlanish bankining kreditlari, foydadan ajratmalar, kreditlarni qaytarishdan kelgan mablag'lar hamda xalqaro moliyaviy bozorlarda jalb qilinadigan mablag'lar hisoblanadi.

Xalqaro moliyaviy birlashmaning faoliyati.

Xalqaro moliyaviy birlashma kreditlarni 5 yildan 15 yilgacha yuqori samarali xususiy korxonalarga berish bilan Xalqaro tiklanish va rivojlanish bankidan farqli ravishda hukumatning kafolatisiz ish tutadi.

Shunday qilib, Xalqaro moliyaviy birlashma xususiy sektor tomonidan barpo etilgan loyihalarni qo'shimcha ravishda moliyalashga ko'maklashadi.

Keyingi yillarda Xalqaro moliyaviy birlashma o'zini ko'rsatishda kuchaydi.

Kreditlar va sarmoyalarni umumiy xajmi 7 mlrd. AQSh dollarni tashkil etadi.

1986-yil Xalqaro moliyaviy birlashma uzoq muddatli rivojlanish dasturi doirasida horijiy sarmoyalardan eng yuqori sarmoyalar bilan foydalanish uchun rivojlanayotgan mamlakatlarning hukumatlariga yordam ko'rsatish maqsadida Maslahatlar berish xizmatini barpo qildi hamda bu xizmat dunyoning ko'p joylarida amaliy ishlar olib bormoqda.

Sarmoyalarning kafolatlari bo'yicha Xalqaro agentlik 1988-yilda tashkil qilingan bo'lib, Xalqaro agentlik va rivojlanish bankining qo'shma tashkilotlaridan bo'lib hisoblanadi hamda yuridik va moliyaviy mustaqil xususiyatlarga egadir. Ixtisoslashtirilgan muassasa sifatida BMT tizimiga kiradi. Joylashish o'rni Vashington shahridadir. Unga a'zo bo'lish Xalqaro tiklanish va rivojlanish bankiga a'zo bo'lgan davlatlar uchun ochikdir.

Xalqaro valyuta fondi (XVF) 1944-yil-iyulda Bretton-Vuds (AQSh Nyu- Gempshir shtati) da tashkil topgan, qarorgoxi Vashingtonda joylashgan.

XVF – Hukumatlararo korporativ valyuta – moliyaviy tashkilot bo'lib, faoliyati davlatlararo vujudga keladigan, to'satdan ro'y beruvchi va oldindan bilish mumkin bo'lmagan milliy valyutalarning o'zgaruvchanligi, davlatlarning milliy valyutalarini almashtirish doirasidagi muammolarni bartaraf etishga qaratilganidir.

XVF da belgilangan normalarga tayangan holda unda doimo umumiy pul zahirasi mavjuddir, ular ko'zda tutilmagan qiyin iqtisodiy holatlarda foydalaniladi.

XVF uz faoliyati asosini jahon iqtisodiyotining rivojlanishi uchun yetarli shart-sharoit va undagi valyuta tizimini tartibga solish, deb hisoblaydi. Ushbu holatlardan kelib chiqqan holda o'z oldiga quyidagi *maqsadlarni* qo'yadi:

1. Xalqaro savdning o'sishiga yordam ko'rsatish;

2. milliy valyutalar qadrini bir me'yorda ushlab turishga ko'maklashish;

3. jamg'armaga a'zo davlatlarning joriy hisob-kitoblarini amalga oshirish jarayonida ko'p tomonlama tizimni tashkil etishga ko'maklashish, xalqaro savdoning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillar, valyutalar borasidagi to'siqlar vujudga kelmasligiga yordam berish;

4. savdo va to'lovlar doirasidagi to'siqlar vujudga kelmasligi uchun a'zo davlatlarga kredit resurslarini berish;

5. xalqaro valyuta doirasida vujudga keluvchi muammolarni yechish borasida maslahat-forumlar o'tkazish.

Jamg'arma a'zo davlatlarning valyuta kurslari doirasida ularni tartibga solish yuzasidan ularning faoliyati samarasi, xalqaro valyuta tizimi ustidan nazorat-kuzatuv ishlarini olib boradi. Bundan kelib chiqqan holda har bir a'zo mamlakat jamg'armaga nazorat ishlarini olib borish yuzasidan tegishli ma'mumotlarni berib turishi lozim.

Jamg'arma xalqaro savdo, turli xildagi to'lovlarni amalga oshirish, undagi rezervlarning holati bo'yicha mas'ul bo'lganligi sababli bu boradagi ishlarni joriy etilishiga asosiy e'tiborni qaratadi.

XVF ning *vazifalari* quyidagilardan iborat:

- kelishilgan xulk-atvor kodeksiga amal qilish;
- to'lov balansining tanqisligini yengib o'tish uchun moliyaviy yordam ko'rsatish;
- maslahatlar berish va hamkorlik qilishdir

Xalqaro valyuta fondining asosiy tamoyillari:

• valyuta kurslarini o'zgartirish yoki xalqaro valyuta tizimini boshqarishdan bosh tortishni ta'qiqlash;

• valyuta tangligini to'xtatish uchun valyuta bozorlarida tazyiq o'tkazishlarda majburiyatlar olish;

• har bir mamlakat tomonidan o'zlarini valyuta tazyiqi siyosatida sheriklarning manfaatlarini hisobga olish majburiyatlarini qabul qilishdir.

Hozirgi davrda Xalqaro valyuta fondiga a'zo bo'lgan davlatlarning soni 181 tani tashkil qiladi.

Tashkilotga a'zo bo'lish XVF tomonidan belgilangan muddat va XVF tomonidan aniqlangan shartlar asosida ochiqdir.

XVF ning yuqori rahbarlik organi bo'lib, boshqaruv Kengashi hisoblanadi, hamda ular ishtirokchi mamlakatlarning vakillaridan iborat bo'lib 5 yilga tayinlanadi.

Kengashning vazifasiga: Bitim moddalarini o'zgartirish, a'zo davlatlarni qabul qilish va chiqarish, sarmoyalar qismini aniqlash va ularning mikdorini qayta ko'rish, ijroiya shartnomalarini tanlash kiradi.

Boshqaruvchilar kengashi yiliga bir marta to'planadi va odatda Nizomga binoan boshqa organlar ko'rishni mumkin bo'lmagan masalalar yuzasidan qarorlar qabul qiladi. Boshqaruvchilar yangidan doimiy boshqaruv organini ta'sis etish, ya'ni jahon valyuta tizimining boshqarilishini nazorat qilish uchun vazirlar darajasida Kengashini tuzishi mumkin.

Ijroiya kengashi (Direktorat) Xalqaro valyuta fondining joriy ishlariga javob beradi. 24 ta ijroiya direktorlarning yettitasi eng yukori kvotaga ega bo'lgan mamlakatlar tomonidan tayinlanadi, qolganlari esa boshqa davlatlarning boshqaruvchilari tomonidan minqaviy vakolatlik tamoyillari saqlangani holda boshqaruvchilar tomonidan saylanadi. Tayinlash va saylash ikki yilda bir marta o'tkaziladi.

Odatda, direktorat ma'muriy departament tomonidan tayyorlangan ma'lumotlar va ma'ruzalar asosida qarorlarni qabul qiladi.

1947-yilda Fondga 49 ta mamlakat a'zo bo'lib kirgan edi va ulardagi umumiy kvota summasi 7,7 mlrd. dollar tashkil qilgandi.

Xozirgi davrda to'plangan sarmoyalar 120 mlrd. dollarni tashkil qiladi. Ulardan 2/3 qismi sanoati rivojlangan mamlakatlarga oid bo'lib, shu jumladan, AQSh niki 19,6 foizni, Germaniya va Yaponiya 6,1 foizdan, Fransiya va Buyuk Britaniya 5,48 foizdan tashkil etadi.

Kvota mikdoriga qarab XVF raxbar organlaridagi davlatlar o'rtasidagi ovozlar taqsimlanadi. Har bir davlat 250 ovozga ega bo'ladi, plyus xar 100 ming erkin harakatlanuvchi valyutaga bittadan ovoz qo'shiladi.

Yakunida barcha ovozlarining 59,6 foizi AQShga va Yevropa hamkorligi mamlakatlariga qaraydi.

Jamg'armaga a'zo davlatlarning xar biri SDR bilan hisoblanadigan kvotaga ega. U jamg'arma bilan bo'ladigan moliyaviy va tashkiliy munosabatlarda asosiy rol o'ynaydi. Birinchidan, jamg'armadagi ovozlar sonini belgilaydi (250 nominal ovozdan ortiq), har 100 ming SDR kvotaga bir ovoz to'g'ri keladi. Ikkinchidan, jamg'armaning moliyaviy mablag'lariga imkoniyat ochib beradi. Uchinchidan, SDR ning taqsimlanishida u a'zoning xissasini belgilab beradi. Moddalarga binoan, kengashning boshqaruvchilari kvotalarini belgilashda uning hajmini 5 yilga mo'ljallangan holda belgilashi zarur.

XVF bank hisoblanmaydi, va omonatchilar, mablag' oluvchilar o'rtasida dallollik vazifasini o'tamaydi. Jamg'arma 125 mlrd. AQSh dollari hajmida moliyaviy resurslarga ega. Mablag'lar badal, a'zo davlatlar ssudalari asosida yuzaga keladi. Ayrim holatlarda XVF qo'shimcha pul mablag'larini ba'zi davlat tashkilotlaridan xam olishi mumkin. Unga a'zolik to'lovlari mikdori iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. A'zolik to'lovlarining 25 foizi zahira aktivlari bo'yicha to'lanib, SDR yoki shunga teng keladigan valyutalar shaklida, qolgan qismi davlatning milliy valyutasida to'lanadi. XVF ning pul mablag'larga bo'lgan zaruriyati har 5 yilda tekshiriladi.

O'zbekistonga berilgan kvota 275,6 mln SDRni tashkil etadi. Undan 25 foizini qaytarib olish mumkin, qolgan summa veksel to'lovlari shaklida to'lanadi. Yuqorida ta'kidlaganidek, moliyaviy yilning oxirida hisob-kitoblar bo'yicha aniqlangan farq O'zbekiston tomonidan 1999-yil uchun to'landi. Kreditlarni qoplash muddati esa 2001-yildan boshlangan.

Jami XVF tomonidan berilgan kreditlar 135,625 mln. SDR yoki u taxminan 198,013 mln AQSh dollarini tashkil etadi.

O'zbekistonda XVF ning doimiy vakolathonasi mavjud. Mamlakatda olib borilayotgan islohatlar va iqtisodiyotning joriy xolatini o'rganish maqsadida uning vakillari vaqti-vaqtida tashrif buyurishadi, XVF ga bo'lajak munosabatlar bo'yicha takliflar kiritishadi.

Jamg'arma tomonidan kadrlarni tayyorlash, ularni qayta tayyorlash maqsadida ham texnik yordam berilmoqda.

Har yili XVF va uning institutlarida Markaziy bank, Moliya vazirligi, respublikani boshqa muassasalaridan hodimlar o'qib, o'z malakalarini oshirmoqda.

Jahon bankining tashkil etilgan vaqti – 1944-yil-iyul, Bretton-Vuds (AQSh, Nyu-Gempshir shtati), shtab-kvartirasi (qarorgohi) Vashingtonda joylashgan.

Bretton-Vuds xalqaro hamkorligi tomonidan Jahon bankiga belgilangan vazifalar unga berilgan nom – ya'ni Xalqaro qayta tiklanish va taraqqiyot banki (MBRR) da o'z aksini topdi. Asosiy vazifa sifatida iqtisodiy taraqqiyotni moliyalashtirish yuklatildi. Agar jahon bankining birlamchi kreditlari ikkinchi jahon urushidan so'ng Yevropaning iqtisodiyotini tiklashga yo'naltirilgan bo'lsa, keyinchalik u o'z e'tiborini Jahonning qoloq mamlakatlari iqtisodiyotini tiklashga qaratdi. Xozirgi vaqtda esa jahon bankining asosiy maqsadi rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotiga, mazkur mamlakatlarning ishlab chiqarish darajasini oshirishga yordam berish va aholini ijtimoiy axvolini yaxshilashga ko'maklashishdir.

Jahon banki o'z tarkibiga yirik ikkita tashkilotni:

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (MBRR-XTTB) va *Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasini* (MAR-XTA) oladi. Ulardan tashqari unga yana uchta boshqa tashkilotlar ham bilvosita kiradi: Jahon banki bilan uyushgan, ammo huquqiy, moliyaviy jihatdan mustaqil faoliyat ko'rsatuvchi – Xalqaro moliyaviy korporatsiya (MFK) (bu tashkilot rivojlanayotgan mamlakatlardagi xususiy korxonalarni moliyalashtirishga yordam beradi). Investitsion kelishmovchiliklarni tartibga solish xalqaro markazi va Investitsiyalarni har tomonlama kafolatlovchi agentlik (MIGA).

Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi (MAR) mamlakatlarga imtiyozli kreditlar berish bilan shug'ullanib, ular donor mamlakatlar tomonidan beriladigan hayriya mablag'lari asosida

moliyalashtiriladi. Jahon banki dunyodagi kapital, qimmatbaxo qog'ozlar bozorlarining asosiy mablag' oluvchisi hisoblanadi. Bundan tashqari, bank bir qator mamlakatlardan obligatsiya, zayom sotish orqali to'g'ridan-to'g'ri qarz oladi, yigilgan mablaglar qoloq mamlakatlarning taraqqiyoti yo'lida ishlatiladi va ular imkoniyati darajasidagi past foizlar hisobida beriladi.

Jahon banki kredit olish, uni qaytara olish darajasida bo'lgan mamlakatlar uchun mablag'larni mujassamlaydi. Ammo, boy mamlakatlarga yoki alohida shaxslarga jahon banki tomonidan kredit berilmaydi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda aholining jon boshiga yalpi milliy maxsulot 1200 dollar atrofida bo'lgan taqdirda ular Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankidan kredit olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu kreditlar 12-15 yil ichida qoplanishi lozim. Ikkinchi tomondan, Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi kreditlarni qoloqroq mamlakatlarga, ya'ni ulardagi milliy maxsulot jon boshiga 800 dollardan kam bo'lgan mamlakatlarga beriladi. Bu kreditlar bo'yicha foizlar olinmasdan, ko'pgina hollarda ular 35-40-yillar oralig'ida to'lash sharti bilan beriladi.

Jahon banki o'z faoliyatini rivojlanayotgan va qoloq mamlakatlarga texnik loyihalarni, iqtisodiy dasturlarni moliyalashtirish jihatdan yordam berish orqali bu mamlakatlarning iqtisodiy salohiyatini oshirishga yordam beradi. Bu vazifalar bankining asosiy uzoq muddatli vazifasi hisoblanadi.

Oxirgi yillarda bank oldingi yillardagi tajribalariga tayangan holda mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish bosqichlari darajalarini inobatga olib, loyihalarni tanlash jarayonida asosan rivojlanayotgan mamlakatlarning qoloq qatlamlarini qamrashga, ularning taraqqiyot darajalarini oshirishni nazarda tutgan holda olib borilyapti.

Bank mamlakatlarga texnik jihatdan yordam berish va moliyalashtirish jarayonida BMT tomonidan belgilangan dasturga asosan ham texnik yordam beruvchi, ham loyihani ijro etuvchi sifatida qatnashadi.

Bank tomonidan tanlanadigan loyiha, ularning yo'nalishlari milliy mamlakatlar, ularning maxalliy hokimiyatlari, boshqa tegishli tashkilotlar bilan har tomonlama kelishilgan holda amalga oshiriladi.

Bank kredit ajratish jarayonida o'z mutaxassislari ishtirokida kredit oluvchi mamlakatlarning iqtisodini sinchkovlik bilan tahlil etish asosida qaysi sohaga asosiy e'tibor berish yoki kapital quyilmalarni joylashtirish borasida u yoki bu sohani tanlash imkoniyatidan foydalaniladi.

Bunday taxlitda ish yuritish ushbu mamlakatning asosiy muammolari yechimida qatnashib, uning rivojlanishiga yordamlashishni nazarda tutadi.

O'zbekiston jahon bankiga 1992-yil 21-sentabrda a'zo bo'ldi, uning oldidagi majburiyatlarini bajarish uchun 12,1 mln AQSh dollari miqdorida badal to'ladi. O'zbekistonga MBRR tomonidan 2493 aksiya (jami aksiyalar miqdorining 0,17 foizi) chiqarildi, ovozlar esa – 2743 (0,81 foiz) ni tashkil etadi.

Jahon banki 1993-yili Toshkentda o'z vakolatxonasini ochdi va uning O'zbekistondagi asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- bozor strukturasining shakllanishda texnik yordam ko'rsatish;
- ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarini rivojlantirish bo'yicha loyihalarni amalga oshirishga moliyaviy jihatdan ko'mak berish;
- mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash.

Bozor tizimlarini shakllantirishga texnik jihatdan yordam berish borasida respublikada makroiqtisodiy sohada monitoring o'tkazish, ularni tahlil etish, bank tizimi, buxgalteriya xisob-kitoblarini, kommunikatsiyalarini rivojlantirish kabi tadbirlar kiradi. Jumladan, bu borada Jahon bank tizimining vakllari bilan birgalikda respublikada bank tizimining rivojlanish darajasi yo'nalishida tadqiqot ishlari olib borildi, undan kelib chiqqan holda bozor mexanizmining infratuzilmasini mujassamlash, ilmiy-texnikaviy salohiyat darajasini aniqlash borasida ham ancha ishlar olib borildi.

Jahon banki energetika sohasini rivojlantirish va islohatlarni chuqurlashtirishga mo'ljallangan loyihalar uchun ham kredit ajratib, Orol muammolarini yechimiga, ishlab chiqarish sektorlari rivojiga, paxtani qayta ishlab chiqarish sohasiga ham e'tiborini qaratmoqda.

12-oktabr 1993-yil – birinchi kredit. Institutsional rivojlanish bo'yicha texnik yordam loyihasi. Jahon banki tomonidan 21 mln AQSh dollari miqdoridagi zayom 20-yil muddatga, shundan 5 yil imtiyozli muddatdir. Loyihaning umumiy qiymati 25 mln AQSh dollari. Moliyalashtirishning boshqa manbalari: O'zbekiston hukumati – 400 mln AQSh dollari, YeI – 2,6 mln AQSh dollari, Yaponiya – 1 mln AQSh dollari (keyinchalik qator kreditlar bo'ldi).

MBRR tomonidan moliyaviy sektorini islox etish borasidagi loyihani moliyalashtirish bo'yicha zayom ajratish ko'zda tutilgan. Ushbu loyiha bo'yicha hozirda ozroq miqdorda avans ajratilgan, moliyaviy sektorni islox etish bo'yicha tayyorgarlik ko'rish, uni amalga oshirish uchun komissiya tarkibi tuzilgan.

1960-yil-noyabrda o'z faoliyatini boshlagan **Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasi** (XRA) Jahon banki tarkibiga kirib, uning faoliyati kam rivojlangan mamlakatlarga moliyaviy yordam ko'rsatishdan iborat.

Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasiga 170 ga yaqin davlat a'zodir.

Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasining kredit siyosatiga binoan, kreditlar MBRR foizlarini to'lashga imkoniyati bo'lmagan davlatlarga berilishi mumkin. Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasi kreditlarini (bulardan foiz olmaydi) olish imkoniga yalpi ichki maxsulot aholi jon boshiga yiliga 800 dollardan oshmagan davlatlar ega bo'lishi mumkin, ammo xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasi amaliyotida ko'pgina davlatlarga ushbu ko'rsatgich 700 dollardan oshmagan taqdirda kredit beradi. Ushbu bank kreditlari 35-40-yil muddatga berilib, kredit olingan birinchi 10-yil davomida hech qanday qaytaruv to'lovlari to'lanmaydi.

Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasi MBRR ga o'xshab kapital bozorida qo'shimcha mablag'lar jalb etish imkoniyatiga ega emas. Har 3 yilda uning jamg'armasini donor mamlakatlar mablag' bilan to'ldirib turadi. A'zolik badallari ularning MBRR ga bo'lgan badallari bilan taqqoslanib, Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasi a'zolarining kelishuviga nisbatan 2 guruhga: rivojlangan mamlakatlar va sust rivojlangan mamlakatlarga bo'linadi.

Birinchi guruhga kiruvchi davlatlar erkin konvertatsiyalanadigan valyutada to'lab, ular asosan moliyalashtirish uchun ishlatiladi.

Ikkinchi guruhga kiruvchi davlatlar badalining o'ndan bir qismini erkin konvertatsiyalanadigan valyutada to'lab, qolgan qismini miliy valyutada to'lashi mumkin.

Jahon banki tashkilotlari – Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB) va Xalqaro rivojlanish uyushmasi (XRU) bilan hamkorlik katta ahamiyatga ega. Ularni bitta markaziy masala: rivojlanayotgan mamlakatlarda mexnat unumdorligini oshirish va xalqaro turmush sharoitini yaxshilash yo'li bilan ularda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga yordam berish vazifasini birlashtirdi. Butun dunyodagi xususiy investorlar bilan yaqindan hamkorlik qiluvchi va rivojlanayotgan mamlakatlarning tijorat korxonalariga mablag' ajratuvchi *Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK)*, shuningdek notijorat tavakkalchilikka qarshi kapital mablag'ni sug'urta qilish yo'li bilan rivojlanayotgan mamlakatlarga bevosita chet el investitsiyalarini jalb qilish maqsadida tuzilgan Investitsiyalarini kafolatlash xalqaro agentligi (IKXA) ham ana shu maqsadni ko'zlaydi.

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB), Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK), Investitsiyalarini kafolatlash xalqaro agentligi (IKXA) va Xalqaro rivojlanish uyushmasi (XRU) birgalashib Jahon banki guruhini tashkil qiladi.

Ana shu 4 tashkilotdan eng kattasi va eskisi 1945-yilda tuzilgan Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB) dir.

XTTB resurslarining katta qismini Yevropa, Yaponiya va AQSh sarmoya bozorlaridan o'rtacha va uzoq muddatli qarz olish hisobidan jalb qiladi.

XTTB yo'li bilan O'zbekistonga, hususan, seleksiya tadbirlari vositasida paxta yetishtirish usullarini zamonaviylashtirib, uning jahon bozoriga chiqishiga ko'maklashishi va unumdorlikni oshirish uchun baza yaratish maqsadida 66 mln. dollar berilyapti. Bundan tashqari muassasalarni isloh qilishni davom ettirish uchun 120 mln. dollar ajratish mo'ljallangan.

Xalqaro moliya korporatsiyasining loyixalari O'zbekistonda XMKning loyixalari amalga oshirishdagi roli asosan loyihadan oldingi tadqiqotlarni o'tkazishdan, texnik-iqtisodiy asoslarni tayyorlashda qatnashishidan va chet ellik sheriklarini jalb qilishdan iborat.

Investitsiyalarini kafolatlash xalqaro agentligi (IKXA) - Jahon banki xuzurida 1988-yildagina tuzilgan eng Yangi tuzilmadir. Uning asosiy vazifasi notijorat tavakkalchilikdan kelib chiqish mumkin bo'lgan zararlarda investorlarga beriladigan kafolat hisobiga, shuningdek, sarmoya oqimini yo'naltiruvchi va rag'batlantiruvchi qulay investitsiya muhitini va axborot bazasini yaratishda ko'maklashuvchi a'zo mamlakatlarga maslahat xizmati ko'rsatish yo'li bilan rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotini mustahkamlash maqsadida investitsiyalar oqimiga yordam berishdir.

Evropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRR-ETTB) 1991-yili Fransiya sobiq prezidenti F.Mitteran tashabbusi bilan tashkil etilib, o'z oldiga (tashkil etilish to'g'risidagi bitimga binoan) Markaziy va Sharqiy Yevropada bozorni, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'maklashishni maqsad etib qo'ygan. Bank o'z a'zolariga iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida islohatlar olib borishga, ularning jahon iqtisodiy hamkorligi qatoriga qo'shilishiga ko'mak beradi.

EBRRning birinchi prezidenti etib Jak Atalli saylangan, 1993-yilning-avgustida ushbu lavozimni Xalqaro valyuta jamgarmasining direktori, so'ngra Fransiya bankining prezidenti Jak de Larozer egalladi. Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankiga 59 ta davlat a'zodir.

O'zbekiston YeBRRga 1992-yilning boshlarida a'zo bo'ldi, shu yilning o'zida respublikada ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, uning taraqqiyot darajasini o'rganish maqsadida bank tomonidan bir qator tashkiliy ishlar olib borilib, jumladan, kengash direktorlarining a'zolari – prerizident va vitse-prezident ham O'zbekistonga tashrif buyurdi. Ushbu tashriflarning natijasi sifatida YeBRR tomonidan O'zbekistonga nisbatan strategiya ishlab chiqildi. 1993-yili YeBRR O'zbekistonga bir qator loyihalarini joriy etdi.

EBRR tomonidan quyidagi yetakchi sohalarida moliyaviy va texnik tomondan e'tiborni markazlashtirish, ularga ko'mak berish jihatlari belgilandi:

- moliyaviy sektor;
- yangi mineral homashyo resurslarini topish, ularni qayta ishlash sohasi;
- energetika kompleksi;
- paxtani qayta ishlash, agrobiznes;
- turizm;
- transport va aloqa;
- atrof muhitni muhofaza qilish.

Shuni inobatga olib, Yevropa banki O'zbekistonda faoliyat ko'rsatish doirasida quyidagi 6 tamoyilni belgiladi:

- moliyaviy sektor (banklar);
- kichik o'rta korxonalar ;
- infratuzilma, energetika kompleksi;
- tabiiy resurslar;
- paxtani qayta ishlash va yengil sanoatning boshqa sohalar ;
- turizm sohasi.

YeBRR tomonidan O'zbekistonda kichik va o'rta korxonalarni moliyalashtirish uchun 120 mln AQSh dollari ajratildi.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi Iqtisodiy Faoliyat Milliy bankiga 60 mln. AQSh dollari; 30 mln. AQSh dollari «Asaka» aksionerlik-tijorat bankiga (O'zbekiston Respublikasi davlat kafolati bilan) va 30 mln. AQSh dollari boshqa tijorat banklariga ajratildi.

Nazorat savollari.

1. Xalqaro moliyani shakllanishining moddiy asosi nima hisoblanadi?

2. **Xalqaro moliya institutlari va tashkilotlarining moliyaviy resurslari qanday shakllantiriladi va taqsimlanadi?**
3. **“Xalqaro moliya” kategoriyasigi tushuntirish bering.**
4. **Xalqaro hisob-kitoblar qanday shakllarda amalga oshiriladi?**
5. **Xalqaro moliya institutlari qanday moliyaviy operatsiyalarni amalga oshiradilar?**
6. **Xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning vazifasi nimalardan iborat?**
7. **Xalqaro moliyaviy birlashmaning faoliyatini tushuntirib bering?**
8. **BMT tarkibida qanday moliyaviy muassasalar tashkil etilgan**
9. **Xalqaro valyuta fondining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?**
10. **Jahon bankining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?**
11. **Evropa tiklanish va taraqqiyot banki maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?**

FAN BO‘YICHA TAYANCH IBORALAR

Agent — boshqa shaxs hisobidan va uning manfaatlari yo‘lida yuridik xatti-harakatlarni amalga oshiruvchi yuridik yoki jismoniy shaxs. Agent va boshqalar o‘rtasidagi munosabatlar maxsus shartnomaga muvofiq tartibga solinadi. Moliya bozorida agent vazifasini fond birjalaridagi brokerlar amalga oshiradi.

Aktiv — 1. Yuridik yoki jismoniy shaxsga tegishli mol-mulk huquqi yig‘indisi. Aktiv asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, moddiy ishlab chiqarish zaxiralari, pul mablag‘lari, moliyaviy qo‘yilmalar, boshqa yuridik yoki jismoniy shaxslarga nisbatan pul yoki mulkiy talablar shaklida mavjud bo‘ladi.

2. Korxona, muassasa, tashkilot buxgalteriya balansining so‘l tomoni, unda hisobot yilining boshi va oxiridagi xo‘jalik mablag‘larining iqtisodiy guruhlari tarkibi, joylashtirilishi va foydalanilishi.

Aksiya — muayyan qiymatni o‘zida ifodalovchi qimmatli qog‘oz bo‘lib, uning egasi ma‘lum mulkiy huquqlarga ega ekanligini, ushbu aksiyani chiqaruvchi korxona faoliyatida ishtirok etish huquqini beruvchi hujjat.

Aksiyador — aksiya egasi bo‘lgan jismoniy yoki yuridik shaxs.

Aksiyadorlar jamiyati – ustav fondi jamiyatning aksiyadorlarga nisbatan majburiyatlarni taqsimlovchi muayyan miqdordagi aksiyalarga taqsimlangan xo‘jalik yurituvchi subyekt.

Amortizatsiya (emirilish, eskirish) — asosiy fondlarga kiruvchi ashyolar balans qiymatining jismoniy va ma‘naviy eskirib borishi tufayli tayyorlanayotgan mahsulot qiymatiga o‘tib borishi.

Anderrayter – qimmatli qog‘oz (aksiya)larni bozorda joylashtirish, sotish majburiyatini olgan shaxs.

Anderrayting (ingl. — underwriting) — qimmatli qog‘ozlarni vositachilar, investitsiya banklari orqali oshkora obuna yo‘li bilan tarqatish.

Antimonopoliya (yakkahokimlikka qarshi kurash) qonunchiligi – raqobatchilik muhitini tadbirkorlikning turli sohalarida qo‘llab-quvatlash, monopolizm va insofsiz raqobatga qarshi qaratilgan huquqiy hujjatlar majmui.

Arbitraj – xo‘jalik sohasidagi hakamlilik sudi.

Assotsiatsiya – ittifoq, birlashma. Iqtisodiyotda odamlar, korxonalar, tashkilotlarning yagona manfaat yo‘lida ixtiyoriy ittifoqi. Assotsiatsiya yuridik shaxs hisoblanib, foyda olishni mo‘ljallamaydigan jamoat tashkilotidir.

Auditor — auditorlik firmasining xodimi, korxonalarning moliyaviy faoliyati nazorat va tahlil qilish bilan shug‘ullanadi, yillik buxgalteriya hisobotlari va balanslari yuzasidan xulosalar beradi.

Auditorlik firmasi — mustaqil xo‘jalik hisobidagi tashkilot bo‘lib, korxonalar bilan tuzilgan shartnomalar asosida ularning buxgalteriya hisobini tekshiradi va to‘g‘ri- noto‘g‘ri ekanligini tasdiqlovchi xulosalar beradi.

Auksion (kim oshdi savdosi) — oshkora savdo o‘tkazish asosida mahsulot va boshqa boyliklarni sotishni tashkil etish shakli.

Bank — qonunlarda nazarda tutilgan bank faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tijorat tashkiloti.

Bank krediti — bank tomonidan muddatli, qaytarish sharti bilan, muayyan haq evaziga beriladigan qarz.

Banknot (inglizcha — banknote) — qog‘oz pullarning bir turi bo‘lib, davlat tomonidan emissiya huquqi berilgan banklar tomonidan chiqariladi.

Bankrot bo‘lish — xo‘jalik yuritish subyektlarining qarzдор sifatidagi qarzlarni va boshqa majburiyatlarining mol-mulkidan oshib ketishi, buning natijasida tovar (ish, xizmatga xaq to‘lash yuzasidan kreditorlar talablarini qondira olmay qolishi, shu jumladan budjetga va budjetdan tashqari fondlarga majburiy to‘lovlarni ta‘minlashga qodir emasligi.

Birja — bozorning bir turi. Avvaldan tayinlangan manzil va vaqtda, belgilangan qoidalar asosida ochiq savdo-sotiq o'tkazish orqali birja tovarlari bilan erkin ulgurji savdo qilish uchun shart-sharoitlar yaratuvchi, yuridik shaxs hisoblanadigan subyekt.

Birja faoliyati — tovarlarga bo'lgan talab va ularni taklif qilishning amalda mavjud bo'lgan nisbatlarini aniqlash hamda ularni hisobga olgan holda narx-navoni shakllantirish asosida birja tovarlarining ulgurji bozorini vujudga keltirishga qaratilgan harakatlar majmui.

Bozor — keng ma'noda tovarlar ishlab chiqarish, ularning muomalasini tashkil etish, taqsimlash, turli xizmatlar ko'rsatish ishlarini bajarish jarayonida yuzaga keluvchi iqtisodiy munosabatlar tizimi.

Bozor infratuzilmasi — tovar va xizmatlarning ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga yetkazib berilishini ta'minlashga qaratilgan tarmoqlar, tarmoqchalar va faoliyat sohalari yig'indisidan iborat.

Budjet — 1) qonunchilik yo'li bilan tasdiqlangan va muayyan muddatga mo'ljallangan davlat daromadlari va xarajatlari ro'yxati; 2) davlat, korxona yoki fuqaroning muayyan davrdagi kutilayotgan daromadlari va xarajatlari. Davlat budjet daromadlarining asosiy manbai soliqlar sanaladi.

Budjet yili — davlat budjetini tuzish, tasdiqlash va ijro qilish yuzasidan qonunchilik yo'li bilan belgilangan yillik muddat.

Valyuta birjasi — milliy valyutalarning uyushgan bozori. U yerda valyutalar o'rtasida talab va taklifga ko'ra shakllangan qadrlanish kursi (kotirovka) bo'yicha valyutalarning oldi-sotdisi amalga oshiriladi.

Valyuta bozori — chet el valyutasi va chet el pul birliklarida ifodalangan to'lov xizmatlarini sotib olish, sotish, ayirboshlash operatsiyalari amalga oshiriladigan iqtisodiy munosabatlar sohasi.

Garov — biron bir yuridik yoki jismoniy shaxsni boshqa bir shaxsga mol-mulkini yoki unga bo'lgan huquqini majburiyatlarni ta'minlash uchun unga berib qo'yish.

Giperinflyatsiya (inglizcha — hyperinflation) — muomalaga (emissiya qilingan) chiqarilgan pul massasining behad ortib ketishi bilan bog'liq ravishda yuz beradigan salbiy iqtisodiy jarayon.

Debitor — korxona, muassasa, tashkilotdan qarzdor bo'lib qolgan yuridik yoki jismoniy shaxs. Xo'jalik amaliyotida olingan mahsulot uchun pul to'lamagan, veksel yuzasidan to'lovni amalga oshirmagan veksel beruvchi shaxs, tijorat kreditini olib, to'lovni amalga oshirmayotgan tashkilot va boshqalar.

Debitorlik qarzi — xo'jalik yurituvchi subyekt sanaluvchi yuridik shaxsning yetkazib berilgan mahsulot, bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat uchun boshqa tashkilotlar zimmasida bo'lgan xaqi, boshqa tashkilotlardan undirib olinishi lozim bo'lgan pul miqdori.

Dividend — aksiya chiqargan korxona (aksiyadorlik jamiyati) foydasining bir qismi hisobidan aksiya egasiga har bir aksiya uchun to'lanadigan daromad.

Dotatsiya — yuqori budjet bo'g'inidan quyi budjet bo'g'iniga yoki budjetdan yuridik va jismoniy shaxslarga qaytarib bermaslik sharti bilan berilishi mumkin bo'lgan pul mablag'lari.

Zayom — davlat budjetiga yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini jalb etish yo'li bilan budjet taqchilligi o'rnini to'ldirish, ulkan iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy dasturlarni moliyaviy mablag' bilan ta'minlash maqsadida davlat tomonidan chiqariladigan qimmatbaho qog'ozlar.

Zayom konversiyasi — Markaziy bank tomonidan avval chiqarilgan davlat zayomini boshqasiga almashtirish.

Zahira — muayyan maqsadlar uchun, ayrim hollarda esa kutilmagan hollarning oldini olish uchun saqlab qo'yilgan moddiy, moliyaviy va boshqa resurslar.

Iqtisodiy jazo — qonun talablarining muntazam ravishda buzilishiga, atrof-muhitga zarar yetkazilishiga, tabiiy va boshqa moddiy resurslardan noto'g'ri foydalanayotgan, faoliyat samarasi

past bo'lgan yuridik shaxslar — xo'jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan qo'llaniladigan ta'sir choralaridan biri.

Iqtisodiy makon — muayyan davlatlararo hudud. Iqtisodiy makon iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarning birligini yoki qaysidir darajada o'zaro o'xshash xususiyatlari bilan yaqinligini taqozo etadi.

Iqtisodiy siyosat — davlat tomonidan mamlakat oldida turgan yaqin va uzoq kelajakdagi vazifalarga muvofiq ravishda amalga oshirilayotgan hamda amalga oshirilishi mo'ljallanayotgan iqtisodiy, siyosiy va boshqa tadbirlar yig'indisi.

Ijara — yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasidagi iqtisodiy-huquqiy munosabatlarning keng tarqalgan turi. Uning maqsadi vaqtincha bo'sh turgan asosiy ishlab chiqarish vositalaridan samaraliroq va yuksak unum bilan foydalanishga erishishdan iboratdir.

Import — mamlakatga chet el tovarlarining olib kelinishi.

Investitsiya — foyda (daromad) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va boshqa turdagi faoliyat obyektlariga qo'shilayotgan mulkiy boyliklar yoki boshqa turdagi huquqlar, shuningdek intellektual mulk shaklidagi sarmoyalar.

Investor — foyda (daromad) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati yoki boshqa turdagi faoliyat obyektlariga o'zining mulkiy boyliklari, boshqa huquqlari hamda intellektual mulklarini sarmoya sifatida qo'yayotgan (sarflayotgan) yuridik yoki jismoniy shaxs, yuridik hamda jismoniy shaxslar birlashmasi.

Innovatsiya — yangiliklar yaratilishiga investitsiya sarflash. Yangi texnika, texnologiyalar va ilmiy izlanishlar uchun sarmoya sarflash.

Inflyatsiya (inglizcha-inflation) — qog'oz pullar va naqd pulsiz mablag'larning qadrsizlanishi.

Infratuzilma (inglizcha-infrastructure) — ishlab chiqarish jarayonini va sharoitlarini ta'minlashga qaratilgan moddiy ishlab chiqarish va nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlari, faoliyat sohalari majmui.

Kapital qo'yilma — ma'lum maqsad uchun, ko'pchilik hollarda muayyan obyektlar qurilishi yoki ta'mirlanishi, yangi quvvatlarni o'zlashtirilishi uchun davlat markaziy yoki mahalliy mablag'lari, korxona mablag'lari hisobidan moliyaviy fondlarning ajratilishi.

Kassa rejasi — xo'jalik yurituvchi subyektlarning muayyan davr (yil, kvartal, oy) davomida naqd pul tushumlarini va ish haqi hamda boshqa maqsadlar uchun xarajatlarini oldindan taxmin qilish asosida belgilanishi.

Konsignatsiya — bir tomon (konsegnant) topshiriqi bilan ikkinchi taraf (konsegnator) o'z nomidan, ammo konsignant hisobidan chet eldagi omborda bo'lgan tovarlarni sotish.

Kredit — boshqa shaxsga pul mablag'lari, tovarlar va boshqa boyliklarni ma'lum muddatga, qaytarish sharti bilan, haq olish (foizlar tarzida) evaziga vaqtincha topshirish.

Kreditorlik qarzi — xo'jalik yurituvchi subyektning boshqa korxona, tashkilotlar, jismoniy shaxslardan olgan tovarlari, ko'rsatilgan xizmatlar, bajarib berilgan ishlar uchun ular oldidagi qarzi.

Litsenziya — ruxsat berish: 1) patent egasi tomonidan foydalanish uchun ma'lum muddatga va ma'lum haq evaziga ruxsat berish; 2) mahsulotlarni eksport yoki import qilish uchun davlat idoralaridan olinadigan yozma ruxsatnoma; 3) Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan faoliyatning muayyan turlari bilan shug'ullanmaslik uchun (masalan, tibbiy xizmat, yuridik xizmat va hokazo) davlatning vakolatli idoralariga belgilangan tartibda murojat qilish yo'li bilan olinadigan maxsus ruxsatnoma.

Markaziy bank — O'zbekiston Respublikasining davlat banki. Uning bosh maqsadi milliy valyuta barqarorligini ta'minlashdan iborat, asosiy vazifalaridan bo'lib monetar siyosatni hamda valyutani tartibga solish sohasidagi siyosatni shakllantirish, qabul qilish va amalga oshirish, samarali hisob-kitob tizimini tashkil etish va ta'minlash; banklar faoliyatini tartibga solish va banklar faoliyatini nazorat qilish; respublika oltin valyuta rezervlarini, shu jumladan hukumat rezervlarini saqlash va tasarruf etish; davlat budjetining kassa ijrosini tashkil etish kabilar hisoblanadi.

Mahalliy soliqlar hamda majburiy to'lovlar — yuridik va jismoniy shaxslar daromadlaridan mahalliy davlat idoralari ehtiyoji uchun qonunda belgilangan miqdorda va tartibda muntazam ravishda to'lab boriladigan to'lov turi.

Mehnat birjasi — ish beruvchilarning mehnat resurslariga bo'lgan talabi hamda vaqtincha band bo'lmagan aholi tomonidan o'z mehnat imkoniyatlarini taklif etishi asosida «Aholining bandligini ta'minlash to'g'risida»gi Qonunga muvofiq o'tkaziladigan mehnat bozorining tashkiliy shakli.

Monopolistik faoliyat — korxonaning mahsulot yoki tovar bozorida raqobatni cheklash yoki barham berish yo'li bilan monopol yuqori foyda olishga qaratilgan faoliyati.

Mulk — iqtisodiy kategoriya sifatida moddiy boyliklarni o'zlashtirishning huquqiy shakli.

Nou-Xau — mahsulot ishlab chiqarishni osonlashtiradigan va tezlashtirilishiga yordam beradigan texnikaviy bilimlar, texnik tajriba, ishlab chiqarish siri. Nou-Xau ixtiro sifatida patentlanishi mumkin emas va shu sababli patent himoyasi obyekti hisoblanishi mumkin emas.

Obligatsiya — uning egasi tomonidan ma'lum summadagi pulni to'laganligi hamda muayyan vaqtdan keyin unda ko'rsatilgan (nominal) pulni hamda ma'lum foizlarni qo'shib qaytarilishini guvohlantiruvchi qimmatli qog'oz.

Penya — aybnoma turlaridan biri. Unga ko'ra, turli moliyaviy majburiyatlarni o'z vaqtida bajarmagan shaxslarga qo'llaniladigan jazo (sanksiya). Kechiktirilgan har bir kun uchun to'lanmagan qarz summasiga nisbatan muayyan foizlarga qo'llaniladi.

Revalvatsiya — muayyan mamlakat pul birligining boshqa mamlakatlar pul birligiga va xalqaro pul birliklariga nisbatan qadrini oshishi, kursini ko'tarilishi.

Reinvestitsiya — turli korxonalarga takroran yoki qo'shimcha sarmoya sarflash. Bunday tarzda qo'shimcha mablag' sarflash olingan foyda hisobiga qo'lga kiritilgan qog'ozlar va boshqa shakllarda amalga oshiriladi.

Ruxsatnoma (Litsenziya) — qonunda belgilangan tartibda vakolatli idoralar tomonidan tadbirkorlikning ayrim turlari bilan (masalan, bank faoliyati bilan) shug'ullanishi uchun berilgan ruxsatnoma. Berilish asoslari va tartiblari qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan.

Sanatsiyalash — yirik korxonalar moliyaviy inqirozi oldini olishga qaratilgan davlat sog'lomlashtirish tadbirlarining majmui. Bunday moliyaviy soqlomlashtirish tadbirlari qatoriga: davlat qarzlarini kechib yuborish, budget hisobidan dotatsiya berish, budgetga to'lovlar muddatini uzaytirish (prolongatsiyalash), soliqlardan ozod qilish, imtiyozli kreditlar berish, foydalanilmayotgan mol-mulklarni sotish kabi choralar kiradi.

Sertifikat — u yoki bu narsa (buyum, hujjat)dan foydalanish, unga egalik qilish huquqiga ega ekanlikni tasdiqlovchi guvohnoma.

Soliq va boshqa majburiy to'lovlar — davlat tomonidan joriy qilingan va jismoniy hamda yuridik shaxslar tomonidan to'lanishi majburiy bo'lgan, doimiy tavsifdagi, miqdori avvaldan belgilangan to'lov turlari.

Sug'urta — bu uning qatnashchilari o'rtasida ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplashga mo'ljallangan maqsadli sug'urta fondlarini badallar hisobidan shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan qayta taqsimlash munosabatlari yig'indisi

Subvensiya — yuqori budget organidan quyi budget organiga muayyan maqsadlar uchun beriladigan va maqsadli foydalaniladigan pul mablag'lari.

Fond birjasi — oldindan belgilab qo'yilgan qoidalar asosida muntazam ravishda o'tkazib turiladigan qimmatli qog'ozlar bozorining tashkiliy shakli.

Xususiyashtirish — davlat qo'lida markazlashgan mol-mulklarni davlat egaligidan chiqarish.

Shartnoma (kontrakt, bitim) — muayyan yuridik oqibatlar, uni tuzuvchi shaxslar uchun ma'lum huquqlar, majburiyatlar hamda javobgarliklar keltirib chiqarishga qaratilgan o'zaro kelishuv.

Eksport — muayyan mamlakatda ishlab chiqarilgan, tayyorlangan, yetishtirilgan mahsulotni boshqa mamlakatlarga chiqarilishi.

Emissiya — pul belgilari va qimmatli qog‘ozlarni muomalaga chiqarish.

Emitent — pul belgisi yoki qimmatli qog‘oz emissiyasini amalga oshiruvchi subyekt.

Erkin bojxona hududi — bojxona nazoratisiz va boj to‘lovlari undirilmagan holda mahsulotlarni erkin olib kirish mumkin bo‘lgan hudud.

Erkin iqtisodiy hudud — davlat bojxona chegaralarining alohida ajratilgan qismi. Erkin iqtisodiy hudud deb e‘lon qilingan joy xo‘jalik masalalarini hal etishda to‘la erkin, alohida tartibda boshqariladi, mahalliy va chet el firmalari uchun faoliyat yuritishning imtiyozli tartibi joriy etilgan bo‘ladi.

Yuridik shaxs — fuqaroviy huquqiy munosabat ishtirokchilaridan biri, tadbirkorlik va xo‘jalik faoliyati yuritish shakllaridan biri. Yuridik shaxs, bu — fuqarolik muomalasida ishtirok etuvchi korxona va tashkilotlarning huquqiy maqomi. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 39-moddasida yuridik shaxs tushunchasi berilgan bo‘lib, unga ko‘ra: xo‘jalik yuritishda yoki operativ boshqaruvda alohida mol-mulkka ega bo‘lgan, o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulklari bilan javob beradigan, o‘z nomidan mulkiy yoki namunaviy ega bo‘la oladigan hamda ularni amalga oshiriladigan, majburiyatlarni o‘tay oladigan, sudda da‘vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilotlar yuridik shaxs sanaladilar. Yuridik shaxslar tijorat, tijoratsiz tashkilotlarga bo‘linadi. Yuridik shaxslar o‘z ustav (nizom)lariga asosan ish olib boradi.

Yagona pul-kredit siyosati — davlat tomonidan amalga oshiriladigan ichki iqtisodiy siyosatning yo‘nalishlaridan biri. Mamlakat miqyosida pul muomalasini samarali tartibga solish, milliy pul birligi qadrini oshirish, ichki bozorni himoya qilish, kreditlardan yuksak samarali foydalanishlikni ta‘minlash, pul va kredit vositalarini iqtisodiy taraqqiyot yo‘lida eng ko‘p foyda beradigan tarzda ishga solishga qaratilgan tadbirlar majmui.

Qarz — jismoniy yoki yuridik shaxsning shartnomada ko‘zda tutilgan yoki boshqa asoslarga ko‘ra vujudga keluvchi majburiyati bo‘lib, unga muvofiq qarzdor pul yoki natura holidagi muayyan mulkni shartnomada yoki qonunda nazarda tutilgan muddatda ikkinchi tomon (jismoniy yoki yuridik shaxsga yoxud davlat)ga topshirishi lozim bo‘ladi.

Qarzni to‘lashga qobiliyatsizlik — qarz majburiyatlarini bajarishlik uchun qarzdor to‘lov qobiliyatining yo‘qolishi.

Qimmatli qog‘ozlar bozori — qimmatli qog‘ozlar (aksiya, obligatsiyalar) bilan savdo-sotiq amalga oshiriladigan bozor. Ssuda kapitali bozorining tarkibiy qismlaridan, u yerda qimmatli qog‘ozlar (aksiya, obligatsiya) bilan savdo-sotiq operatsiyalari amalga oshiriladi..

Qonun — davlat hokimiyati oliy idorasi tomonidan qabul qilinadigan, oliy yuridik kuchga ega bo‘lgan yuridik hujjat.

FOYDALANILGAN VA QO‘SHIMCHA O‘RGANISH UCHUN TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Asosiy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar

1. Vahobov A. va boshqalar. Budjet - soliq siyosati yaxlitligi. O‘quv qo‘llanma. - T.: Iqtisod va moliya. 2005. 285 b.
2. Vahobov A. va boshqalar. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. Darslik. T.: Sharq 2005. 220 b.
3. Malikov T., Haydarov N. Davlat budjeti. O‘quv qo‘llanma, T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2007, 84 b.
4. Malikov T., Haydarov N. Budjet daromadlari va xarajatlari. O‘quv qo‘llanma, T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2007, 245 b.
5. Malikov T., Haydarov N. Budjet: tizimi, tuzulmasi, jarayoni. O‘quv qo‘llanma, T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2008, 84 b.
6. Yo‘ldoshev Z., Malikov T. Uy xo‘jaligi moliyasi. O‘quv qo‘llanma, T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2008, 105 b.
7. Нешитой А.С. Финансы. Учебник.-М.: "Дашков и К", 2007. 512 с.
8. Романовский В.М. Учебник.-М.: "Юрайт", 2008. 462 с.

2. Qo‘shimcha adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O‘zbekiston, 2001. 39 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. – T.:«Adolat», 1996
3. O‘zbekiston Respublikasining «Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida»gi qonuni. – Toshkent, 2002-yil 5-aprel
4. O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. -T.: 2008-yil 1-yanvardan amalga kiritilgan yangi tahrir.
5. O‘zbekiston Respublikasining «Budjet tizimi to‘g‘risida»gi Qonuni 2000-yil 14-dekabr. //Soliqlar va bojxona xabarlari, 2001-yil 2-son.
6. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat budjetining g‘azna ijrosi to‘g‘risida»gi Qonuni 2004-yil 26-avgust.
7. O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni./Davlat moliya tizimi. Me‘yoriy-huquqiy hujjatlar to‘plami. 1-jild.-T.:«O‘zbekiston», 2001. - 43-59 b.
8. O‘zbekiston Respublikasining «Mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari to‘g‘risida»gi Qonuni.-T.: «O‘zbekiston», 1993.
9. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. T.:“O‘zbekiston”, 2009.-56 b.
10. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. Prezident Islom Karimovning 2008-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma‘ruzasi // Xalq so‘zi, 2009-yil 14-fevral.
11. Prezident Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 16 yilligiga bag‘ishlangan yig‘ilishda so‘zlagan ma‘ruzasi (2008-yil 5-dekabr).
12. O‘zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo‘li. Prezident Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident Devonining O‘zbekiston mustaqilligining 16 yilligiga bag‘ishlangan qo‘shma majlisidagi ma‘ruzasi//Xalq so‘zi, 2007-yil 31-avgust.
13. Абдуллаев Ё.А., Срождиддинова З.Х., Усипбаев Н.И. Государственные финансы Республики Узбекистан. Учебное пособие.-Т.: 2001, 85с.

14. Alimov I.I. Moliya. O'quv qo'llanma. T.: TDIU, 2007, 108 b.
15. Бланд М. Финансовый кризис. – М.: АСТ-Астрил-Харвист. 2008. – 288 с.
16. Бабич А.М., Павлова Л.Н. Государственные и муниципальные финансы. Учебное пособие. М.: Юнити.,2001.-682 с.
17. Брайчева Т.В. Государственные финансы. Санкт-Петербург.: Питер.,2001.-278 с.
18. Вахобов А., Жамолов Х. Согласование межбюджетных отношений.-Т.: Молиуа, 2002.- 267 с.
19. Гвозденко А.А. Основы страхования.-М.:«Финансы и статистика», 1998
20. Гомеллуа В.Б. Основы страхового дела. - М.: «СОМ ИНТЕК», 1998
21. Дмитриева, Е.А. Финансы домохозяйств: Учебное пособие/Магадан. Ин-т экономики. – Магадан: Кордис, 2007.
22. Дробозина Л.А. “Финансы”.-М.: ЮНИТИ, 2001.
23. Кобулов Х. Факторы и принципы оптимального управления бюджетами территорий. //ж. «Аспирант и соискатель», М.-2003, -№1, стр. 42-43.
24. Кобулов Х. Необходимость инвестиционной деятельности в страховых компаниях./ Жалал-абадский коммерческий институт, Кыргызстан. Материалы международной научно-практической конференции. 20 октября 2001 года, с. 23-27
25. Кобулов Х. Приоритеты инвестиций.//«Бизнес вестник востока», 2002. №46(564),стр.8.
26. Колпакова Г.М. Финансы. Денежное обращение. Кредит: Учеб. пособие. — 2-е изд., перераб. и доп. — М.: Финансы и статистика, 2005. — 496 с
27. На пути обеспечения финансовой стабильности. //Бизнес-вестник Востока. № 100, от 16 декабря 2008 г.
28. Программа мер по нейтрализации последствий мирового кризиса – в действии. // Бизнес-вестник Востока. № 12, от 19 февраля 2009 г.
29. Самые низкие темпы инфляции среди стран СНГ зафиксированы в Узбекистане. // Бизнес-вестник Востока, №9, от 10 февраля 2009 г.
30. Срождидинова З.Х., Вахобов А.В., Сидиков Ж.Р. Государственный бюджет Республики Узбекистан. Учебное пособие.-Т.: 2001.- 107 с.
31. Финансовый кризис приведет к перестановке сил мирового сообщества. // Бизнес-вестник Востока, №18, от 12 марта 2009г.
32. Финансы. Учебник под ред. В.М. Родионовой. –3-е изд. М.: Финансы и статистика, 2003.-468 с.
33. Финансы. Учебник под ред. М.В.Романовского.–2-е изд. М.:Юрайт-Издат, 2006.-462 с.
34. Финансы. Уч.пос. под ред. А.М. Ковалевой.-2-е изд. М.: Финансы и статистика, 2003.-386с.
35. Финансы, денежное обращение и кредит. Под ред. Л.А. Дробозиной. –2-е изд. М.: Юнити.,2003.-574 с.
36. Финансы. Уч. для вузов. Под ред. М.В. Романовского, О.В. Врублевской, Б.М. Сабанти.-М.: Юрайт, 2000.–520 с.
37. Ходжаев Р.С., Эгамбердиев А. Государственный бюджет/Учебное пособие/ТФИ. Т:2007. 102 с.
38. Xodiev B.Yu., Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V. Mamlakatni jadal isloh etish va modernizatsiya qilish – milliy taraqqiyotimizning mantiqiy bosqichi / Ilmiy-ommabop risola.- T.: TDIU, 2008, 57 b.
39. Sharifxodjaev M.Sh., Srojiddinova Z.X., Tulyaganova N.B. Budjetnaya politika Respubliki Uzbekistan. Uch. pos.-T.: TFI, 2001.-86 s.
40. Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V. Globallashuv jarayoni va moliyaviy inqiroz sabablari. // Adolat, 2009-yil 27-fevral.
41. Shoxa'zamiy Sh. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi: sabablari, davomiyligi va saboqlar. // “Iqtisodiyot va ta'lim” jurnali. 2008-yil 4-son.

42. Юлдасhev З.Ю., Срожиддинова З.Х., Мирзаев У.А. Местные бюджеты. Учебное пособие.-Т.: 2001.- 76 с.
43. Yax'yoev Q.A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. T.:“G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti”, 2003.-166 b.
44. Qobulov H.A. Hududiy iqtisodiyotning rivojlanishida mahalliy budjetlardan foydalanish.//J. Iqtisodiyot va ta’lim.-2005.-№3.-B. 85-89.
45. Qosimova G.A. Mahalliy budjetlarni tuzish va ijrosini ta’minlash./ O‘quv qo‘llanma. T.: “Moliya”. 2007. 275 b.
46. Haydarov N. Davlat moliyasini boshqarish. O‘quv uslubiy qo‘llanma, T.: Akademiya. 2005. 82 b.
47. Haydarov N. Moliya. O‘quv qo‘llanma. - T.: Akademiya. 2001. 56 b.

«Internet» tarmog‘i bo‘yicha veb-saytlar

1. <http://www.anews.ru>
2. <http://www.appraiser.ru>
3. <http://www.asi.org.ru>
4. <http://www.budgetrf.ru>
5. <http://www.cityline.ru>
6. <http://www.dn-weekly.kiev.ua>
7. <http://www.finansy.ru>
8. <http://www.finiz.ru>
9. <http://www.garant.ru>
10. <http://www.glossary.ru>
11. <http://www.isra.com>
12. <http://www.mf.uz>
13. <http://www.mfmo.ru>
14. <http://www.minfin.ru>
15. <http://www.nalog.by>
16. <http://www.nalog.ru>
17. <http://www.orentax.ru>
18. <http://www.ress.ru>

MUNDARIJA

Soʻz boshi.....	3
 1-mavzu. Moliyaning mohiyati va funksiyalari.....	4
 2-mavzu. Moliya siyosati, mexanizmi va tizimi	
1-maʼruza. Moliya tizimi	11
2-maʼruza. Moliya siyosati va moliya mexanizmi.....	16
 3-mavzu. Moliyani boshqarish va nazorat	
1-maʼruza. Moliyani boshqarish.....	26
2-maʼruza. Moliyaviy nazorat	38
 4-mavzu. Korxonalar va tashkilotlar moliyasi	
1-maʼruza. Turli faoliyat sohalari moliyasining xususiyatlari.....	50
2-maʼruza. Tijorat tashkilotlari va korxonalarining moliyasi.....	55
3-maʼruza. Notijorat tashkilotlar moliyasini tashkil etish asoslari.....	59
4-maʼruza. Jamoat tashkilotlari va birlashmalari moliyasi.....	62
 5-mavzu. Korxonalar faoliyatini moliyalashtirish	
1-maʼruza. Korxonalarni moliyalashtirishning shakl va usullari.....	70
2-maʼruza. Korxonalarni investitsiya faoliyati	75
 6-mavzu. Davlat moliyasi va uning boʻgʻinlari	
1-maʼruza. Davlat moliyasining mohiyati	78
2-maʼruza. Davlat budjeti	84
3-maʼruza. Soliqlarning mohiyati.....	104
 7-mavzu. Mahalliy budjetlar va budjetlararo munosabatlar.....	109
 8-mavzu. Davlatning budjetdan tashqari maqsadli pul fondlari va davlat krediti	
1-maʼruza. Davlatning budjetdan tashqari maqsadli pul fondlari.....	121
2-maʼruza. Davlat krediti.....	126

9-mavzu. Sug'urta, moliyaviy bozorlar va institutlar	
<i>1-ma'ruza. Sug'urtaning mohiyati</i>	131
<i>2-ma'ruza. Moliya bozorlari va institutlari.....</i>	138
10-mavzu. Uy xo'jaliklari moliyasi va budjeti.....	143
11-mavzu. Xalqaro moliya va uning jahon taraqqiyotida tutgan o'rni.....	147
Fan bo'yicha tayanch iboralar.....	156
Foydalanilgan va qo'shimcha o'rganish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati	161

